ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2020

6-son
(noyabr-dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan.
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

	4	Inklyuziv ta'lim – barcha uchun teng, munosib ta'lim

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

O. Musurmanova, K. Riskulova	6	Veb-kvest (web quest) texnologiyasi – ta'lim samaradorligini oshirishning innovatsion shakli
M. Hakimova	10	Masofaviy o'qitishda didaktik tamoyillarga amal qilish – dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo
M. Asranbayeva	15	Noto'liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga tizimli yondashuv
O. Qurbonova	20	Nutq turlarining ilmiy ifodasi va mazmun-mohiyati
A. Avazboyev, M. Xudayberganova	24	Kasbiy kompetentlik umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonini yangi sifatga ko'tarish omili

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

U. Raxmatov	29	Biologik ta'lim jarayonida fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirishning metodik xususiyatlari
N. Kamolova, G. Daminova	35	Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirish bo'yicha kasbiy mahoratini shakllantirish
S. Qahhorov, Z. Avezmurotova	43	Ta'lim oluvchilarga quyosh sistemasidagi zodiak yulduzlar turkumini o'rganishda Yupiter planetasining ahamiyati

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

A. Raxmatullayeva	46	Biologiya fanini o'qitishda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash uchun qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar

TA'LIMDA MENEJMENT

K. Norova	50	Oliy ta'limda pedagogik jarayonning mohiyati va uni boshqarish

KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

G. Abduraimova	55	Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini "steam – ta'lim" yondashuvi asosida o'qitishning mohiyati
A. Ibragimov, B. Pardayev	60	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yo'llari

MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

K. Mamatqulova	65	Umumta'lim maktab direktorlari malakasini oshirish: muammo va yechimlar

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

I. Mirzaqulov	70	Kurash texnik harakatlarini o'rgatish uslubining nazariy asoslari
K. Muxammadiyev	78	Sport mashg'ulotlari jarayonida talabalarning jismoniy sifatlari, funksional tayyorgarligi, organizm fiziologik holatining o'sishi va tiklanishi dinamikasi

O. Davulov 85 Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini differensial yondashuv asosida rivojlantirish



MAKTABGACHA TA’LIM

R. Xaydarova 92 Maktabgacha ta’lim sohasida Yaponiya tajribasining o‘ziga xos jihatlari

N. Kenjaboyeva 97 Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bilan geometriyani o‘rganish metodikasi



TA’LIMDA MUTOLAA

G. Toshtemirova 100 Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirish



ILM, MA’RIFAT

A. Jonzoqov 103 Geografiya darslarida axborot texnologiyalarini qo‘llash usullari

U. Turdiyev 109 Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish

M. Djumabayeva 116 O‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishda ta’lim muassasalari va OAV integratsiyasi



PSIXOLOGIYA

O. Yadgarova 121 Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini professional-kommunikativ faoliyatga tayyorlash pedagogik-psixologik muammo sifatida



XALQ PEDAGOGIKASI

B. Umurzoqov 125 Faxruddin Aliy Safiyning “Rashahot” asaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish konsepsiyasi

G. Soatova 133 O‘zbekistonda O‘rxun-Enasoy yodgorliklari tadqiqi (Qosimjon Sodiqov va Nasimxon Rahmonov asarlari misolida)



ФИЗКУЛЬТУРА

О. Сирожов 140 Развитие валеологической компетентности будущих учителей физкультуры

INKLYUZIV TA'LIM – BARCHA UCHUN TENG, MUNOSIB TA'LIM

"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati ilmiy hamjamiyat jiddiy e'tibor qaratishi zarur bo'lgan muammoga doir tadqiqot ishlarini o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma'lum bo'ldiki, imkoniyati cheklanganlarni teng, munosib ta'lim-tarbiya olishi hamma vaqt yaxshi, risoladagidek bo'lishi, alohida e'tiborda tutilishi, nazardan chetda qolmasligi lozim.

Ushbu muammo haqida Sharq mutafakkirlari Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Yusuf Xos Hojib, Imom G'azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi allomalar o'z zamonlarida oilada, jamiyatda yoshlar tarbiyasi va uning kamolotiga pedagogik-psixologik yondashuv muammosi to'g'risida yozilgan ilmiy va ilmiy-pedagogik mushohadalari bizgacha yetib kelgan noyob asarlarida o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino asarlarida sog'lom bolalar bilan bir qatorda, alohida e'tiborga muhtoj bolalar tarbiyasiga oid tavsiyalar ham beriladi. Alloma nogiron bola tengqurlari qatori ta'lim-tarbiya olishga haqli ekanini aytib, ularda ilm olishga, kasb-hunar o'rganishga intilish kuchliligini ta'kidlaydi. Sharq allomalarining bola shaxsini tarbiyalash, ularning rivojlanishida ta'lim-tarbiyaning ta'siri haqidagi qarashlari ilmiy tahlili tadqiqotchilar uchun asosiy manba bo'lishi shubhasiz.

Inklyuziv ta'limni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik, psixologik xususiyatlarini, o'ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish, ushbu yo'nalish bilan bog'liq muammolarni aniqlash, inklyuziv ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ularning samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylandi. Chunki inklyuziv ta'lim texnologiyalari barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat'i nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, alohida e'tiborga, yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko'nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, ta'lim muassasalarida sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o'qiy olishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatga kirishishi, darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishi, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar yaratadi.

Bizning fikrimizcha, inklyuziv ta'lim – barcha ta'lim oluvchilar uchun ularning ehtiyojlari, imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda teng imkoniyatlarni ta'minlash.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yer shari aholisining 15 foizga yaqinining imkoniyati cheklangani va achinarlisi, bu ko'rsatkichning muntazam o'sib borayotgani har bir insonga o'zini atrofdagilar bilan teng his qilishi hamda o'z salohiyatini yuzaga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish bo'yicha samarali ishlarni amalga oshirishga undamoqda.

Inklyuziv ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining samaradorligini belgilovchi eng asosiy mezon bo'lishi lozim.

Ko'pchilik uchun inklyuziv ta'lim bu umumta'lim maktabining oddiy sinfiga boshqa bolalarning o'quv materiallarini, maktab dasturini o'zlashtirishlariga xalaqit beruvchi no-

gironligi yoki biror tashxisi bor bolalarni joylashni nazarda tutishadi. Bu fikr inklyuziyaga butunlay teskari, to‘g‘ri kelmaydi, bu integrativ yondashuvning bir ko‘rinishi xolos, bu ijobiy tomonga ishlamaydi ham. Integrativ yondashuvning g‘oyasi, ta’lim tizimining talablariga, ta’limdan kutilayotgan natijalarga mos kelmaydigan, unga xalaqit beradigan bolalarni ta’lim tizimiga moslashtirishni nazarda tutadi. Ya’ni shunday bolalarni psixologlar, defektologlar, logopedlar yordamida o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi. Muammoning yechimini esa bolalarimizda ko‘ramiz, ular judayam faol, bir joyda o‘tira olmaydi; judayam sust, o‘zlashtira olmaydi; judayam aqlli, zerikyapti; aqli raso emas, hech narsani tushunmayapti. Biz esa bolalarimizni hozir ta’limda qabul qilingan umumiy standartlarga moslashtirishga harakat qilyapmiz. Umumiy standartlarga mos kelmaydiganlarni esa maxsus ta’lim muassasalariga yo‘naltiryapmiz. Standartlar dogma emas!

Zamonaviy ta’lim – inklyuziyada barcha, dinidan, tilidan, madaniyatidan va sog‘lig‘idan qat’i nazar birday, bir xil ta’lim muassasasida o‘qiydilar. Ta’lim tizimining vazifasi esa har bir bola – ta’lim oluvchining holatiga, darajasiga moslashishi zarur bo‘ladi.

Xavotirsiz ayta olamiz, inklyuziya – ta’lim tizimida inqilobdir!

Biz ta’lim muassasasini reytingi yuqori bo‘lishini, samaradorligini o‘quvchilar soni, ularning nechtasi oliy ta’lim muassasasiga kirganligi yoki olimpiadalarda o‘rin olganligi bilan belgilanishini to‘xtatishimiz zarur.

Milliy qonunchiligimiz imkoniyati cheklangan insonlarga ham o‘z salohiyatini yuzaga chiqarishda teng huquq beradi. Konstitutsiyamizda esa ta’lim olish huquqi kafolatlangan. Shunday bo‘lsada, mamlakatimizda jismoniy imkoniyatlari cheklangani sababli umumta’lim maktablariga bormayotgan bolalar ham bor.

Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillaridan biri shundan iboratki, bu ta’lim bir tomonlama bo‘lmasligi kerak va jamiyat inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish uchun shart-sharoitlar yaratishi lozim. Oddiy bolalarning ota-onalari farzandlari alohida ehtiyojli bolalar bilan birga o‘qishidan xavotirga tushadi. Shu sababli, biz bunday bolalarning ota-onalari bilan ham ishlashimiz lozim. Ta’kidlash joizki, alohida ehtiyojli bolalar ota-onalariga ularning farzandlari ham jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lish huquqiga ega ekanini yetkazish, buni ularning ongiga singdirishimiz kerak. Zero, imkoniyati cheklangan insonlar ham katta yutuqlarga erishayotgani haqida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Buning uchun ularga o‘z salohiyatini yuzaga chiqarish, ota-onalarga esa tanlash imkoniyatini berish zarur.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, muayyan ta’lim ehtiyojlariga ega bola o‘z tengqurlari orasida o‘qisa, bu ko‘proq samara beradi. Birinchidan, bolaning rivojlanishida, ikkinchidan, jamiyatni, bunday bolalar atrofidagi bolalarning rivojlanishiga yordam beradi. Negaki, alohida ehtiyojli bolalar bilan birga o‘qiydigan o‘g‘il-qizlarda ularga yordam berish, javobgarlik tuyg‘usi shakllanadi, ko‘pincha yaxshi sharoitlarda o‘sib-ulg‘ayayotgan bolalarga xos ayrim salbiy sifatlar yo‘qoladi. Buning samarasida bolalar birgalikda ishlash, bir-birini qo‘llab-quvvatlashni o‘rganadi. Bir muhitda tarbiyalanadigan bolalar o‘zlaridagi farqni sezmaydi, balki buni faqat ota-onalar sezadi, xolos. Shu bois bunday muloqot alohida ehtiyojli va boshqa bolalar, o‘qituvchilar, jamiyat, mahalla, oilalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni ularning barchasida alohida ehtiyojli insonlarga nisbatan ijobiy munosabat rivojlanadi. Umuman olganda, rahm-shafqat, muruvvat kabi xislatlar xalqimizga azaldan xos bo‘lib, buni bolalarga ham yoshligidan singdirish lozim. Bu borada inklyuziv ta’lim alohida o‘rin tutadi.

Oynisa MUSURMANOVA,
pedagogika fanlari doktori, professor
Kamola RISKULOVA,
pedagogika fanlari doktori, dotsent

VEB-KVEST(WEB QUEST) TEXNOLOGIYASI – TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION SHAKLI

Annotatsiya

Maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalardan biri bo'lgan Veb-kvest (Web Quest) texnologiyasining paydo bo'lishi, fanlarni shu jumladan, ingliz tili fanini o'qitishda undan foydalanish, uning kirish (Introduction), topshiriqning ifodalanishi (Task), talabalarning faoliyatini baholash (Evaluation), xulosalash (Conclusion) kabi bosqichlari va ularning o'ziga xos didaktik xususiyatlari, xulosa va tavsiyalar ifodalangan.

Kalit so'zlar. Innovatsiya, pedagogik texnologiya, Veb-kvest (Web Quest) texnologiyasi, veb-sayt, veb-sahifalar, multimediali elektron taqdimot, zamonaviy ta'lim texnologiyasi.

В статье рассматривается появление технологии Web Quest, одной из инновационных педагогических технологий, ее использование при обучении предметам, в том числе английскому, ее введение (Introduction), постановка задачи (Task), оценка успеваемости ученика (Evaluation), заключение и их конкретные дидактические особенности, выводы и рекомендации.

Ключевые слова. Инновация, педагогические технологии, технология Web Quest, веб-сайт, веб-страницы, мультимедийные электронные презентации, современные образовательные технологии.

The article examines the emergence of Web Quest technology, one of the innovative pedagogical technologies, its use in teaching subjects, including English, its introduction (Introduction), setting a task (Task), student performance assessment (Evaluation), Conclusion and their specific didactic features, conclusions and recommendations.

Key words. Innovation, educational technologies, Web Quest technology, website, web pages, multimedia electronic presentations, modern educational technologies.

Globallashuv asrida zamonaviy texnika va texnologiyalar bo'yicha chuqur bilim, malaka va ko'nikmalarga ega mutaxassis kadrlar tayyorlashda modulli kredit, Blended learning, masofaviy ta'lim, vebinar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, veb-kvest, Dalton Dramogermenevtika va boshqa xalqaro miqyosida foydalanilib kelinayotgan innovatsion ta'lim-tarbiya texnologiyalaridan foydalanish davr talabi sanaladi. Buning uchun zamonaviy kompetentli pedagog kadrlar nafaqat o'z fanini chuqur bilishi balki, noan'anaviy ta'lim-tarbiya texnologiyalaridan, usullaridan keng foydalanish metodikasini mukammal egallashi zarur. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha

sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”.

Bugungi kunda ta’lim tizimining barcha sohalarida fan o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladigan darsning xarakteridan kelib chiqqan holda foydalanilayotgan pedagogik texnologiyalardan biri bo‘lgan Veb-kvest (Web Quest) texnologiyasi muhim rol o‘ynaydi. Veb-kvest texnologiyasini Bernie Dodge 1995-yilda San Diegodagi davlat universitetida o‘rgatilayotgan o‘quv kurslarida foydalanish uchun yaratadi. Keyinchalik Tom March esa Veb-kvest texnologiyasini pedagogik jihatdan yanada takomillashtiradi.

Veb-kvest – “O‘quvchilar bilan o‘zaro ta’limga tegishli bo‘lgan axborot materiallarini internet resurslar orqali turli xil savol-javob tarzidagi mashqlarga yo‘naltirilgan faoliyatidir”.[1]

Veb-kvest texnologiyasining mohiyatini turli olimlar turlicha izohlaydilar. O.Y. Pestretsovaning[2] fikriga ko‘ra veb-kvestlar alohida muammolarni, o‘quv fanini, mavzuni qamrab olishi yoki fanlararo bo‘lishi mumkin. Uning natijasi og‘zaki yoki esse va boshqa shakllarda bo‘lishi mumkin. Natijada, talabaga berilgan topshiriq asosida yaratilgan veb-saytlar, veb-sahifalardan (matnlar, rasmlar, grafikalar, videokliplar, ovozli yozuvlar, o‘quvchi yoki talabalar tomonidan chop etilgan risolalar, referatlar va hokazo) iborat bo‘lishi mumkin. Veb-sahifalardan (matnlar, rasmlar, grafikalar, videokliplar, ovozli yozuvlar, talabalar tomonidan chop etilgan risolalar, referatlar va hokazo.) topshiriq natijalari ta’lim muassasasining saytlariga qo‘yiladi. Yoki multimediali elektron taqdimot tarzida ham bo‘lishi mumkin. Mutaxassis olimning fikricha, ushbu texnologiya asosida ishlash o‘quvchi yoki talabalar oldiga muammoli masalalar, vaziyatlarni qo‘yishdan boshlanadi. Maqsad ularni ushbu masalaga qiziqtirish, motivatsiyalashdan iboratdir. O‘qituvchining ikkinchi bosqichdagi ishi muammo yuzasidan manbalar, internet materiallarini aniq tavsiya etishdir. Bu o‘quvchi yoki talabalarni aniq va maqsadli faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Ushbu jarayonda o‘qituvchining roli talabalar uchun erkin va ijodiy muhit yaratishdan hamda ularning ishlarini tanqidiy baholashdan iborat bo‘ladi.

Ingliz tili darslarida veb-kvestlardan foydalanish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

– o‘rganiladigan materialning autentik muvaffaqiyati ta’minlanadi;

– o‘quvchi yoki talabada erkin va mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish malaka va ko‘nikmalari shakllanadi;

– o‘quvchi yoki talabalarda o‘z ustida ishlash jarayonida ijodkorlik, bilish faoliyati rivojlanadi;

– guruh jamoasi, internet tizimi hamda AKT, OAV va o‘qituvchi o‘zaro hamkorlik malakalari, kommunikativ kompetentligi rivojlanib boradi;

– fanni o‘rganishga motivatsiya kuchayadi, internet resurslardan oqilona, maqsadli foydalanish malaka va ko‘nikmalari shakllanib boradi;

– tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati, an’analari, qadriyatlariga nisbatan

[1] http://webquest.sdsu.edu/about_webquests.html.

[2] Пестрецова О.Ю. Использование технологии “веб-квест” на уроках иностранного языка // Современные тенденции в обучении иностранным языкам и межкультурной коммуникации: Материалы Международной заочной научно – практической конференции (24 марта 2011 г). – Электросталь: Новый гуманитарный институт, 2011. – С. 284-287.

tolerantlik tafakkuri shakllanadi, dunyoqarashi kengayadi;

– ta’limiy materiallarni qiyosiy tahlil qilish, xulosa chiqarish, tavsiyalar ishlab chiqish, g‘oyalarni himoya qilish malakalari shakllanib, jamoa bilan ishlashni o‘rganib boradi;

– ingliz tilida fikrlash, gapirish, tushunish, eshitish qobiliyati rivojlanadi. Ingliz tilidagi ommabop, badiiy, maxsus metodik adabiyotlarni xatosiz o‘qish, hikoya qilish, internet manbalari asosida to‘ldirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, lingvodidaktik, sotsiolingvistik bilim darajasi o‘sib boradi;

– o‘quvchi yoki talaba o‘zining fikrlariga, qarashlariga, mehnati natijalariga befarq bo‘lmagan o‘qituvchi hamda sinf jamoasining faol a’zosiga aylanadi va o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘zini his etadi;

– o‘quvchi yoki talaba nafaqat lingvistik bilimini namoyish etish, balki muloqotga kirishish, o‘z-o‘zini refleksiya qilish imkoniyati beriladi;

– o‘quvchi yoki talaba vaziyatni to‘g‘ri tahlil etish, baholash, xulosa chiqarishda alternativ variantlarni topish asosida eng maqbulini tanlash imkoniga ega bo‘ladi.

Ya’ni veb-kvest texnologiyasi orqali ta’lim beruvchi o‘zining shaxsiy mavzularga yoki o‘rgatayotgan o‘quv mashg‘ulotiga doir veb-sahifani turli xil mashqlar, faollashtiruvchi topshiriqlar, tasvirlar bilan qisqa muddatli yoki uzoq muddatli o‘quv jarayoniga moslab yaratishi mumkin va chet tillarni o‘qitishda ijobiy samara beradi.

Veb-kvest innovatsion texnologiyasiga ko‘ra, chet tilini o‘rgatishga doir bo‘lgan har qanday mavzuni an’anaviy tarzda yetkazish emas, balki mavzularni oddiy kompyuterning Power Point (taqdimot) dasturi orqali yoki turli xil kompyuter dasturlari orqali web pagelar yaratish va bu veb-sahifalarga mavzuni tushuntirish unga doir turli xil task, ya’ni mashqlar berish, turli xil tasvirlar joylashtirish va ularni o‘zaro mavzu bilan ketma-ketlikda bog‘lash imkonini beradi.

Veb-kvest innovatsion texnologiyasiga ko‘ra, chet tillarini o‘rgatish sifatini oshirish maqsadida quyidagi vazifalar begilab berilgan:

- mashqlarga jalb qilish;
- muammoli savollarning yechimini topishga undash;
- o‘rganuvchilarni guruhlar bilan ishlashga jalb etish;
- o‘rganuvchilarni faolligini ta’minlash.

Shuningdek, veb-kvest innovatsion texnologiya 6 ta bosqichdan iborat bo‘lib, ular quyidagilar:

Introduction (kirish) qismida o‘tiladigan mavzuning yoki mashg‘ulotning qisqacha bayoni yoritib beriladi.


Task (mashqlar) qismida turli xil ko‘rinishidagi mashqlar, testlar, tasvirli, ovozli mashqlar joylashtiriladi va ularning formatlari turli xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Process (jarayon) bu qismida esa dars yoki mashg‘ulot jarayonida fikr almashish, tavsiyalar berish, muammoli masalalarni yechishda yordam berish mumkin.

Evaluation (baholash) ushbu qismda baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu baholash mezonlari bilan natijani baholash ko‘zda tutiladi, va albatta, ko‘zlangan natijaga qay darajada erishilganligi yoritib beriladi.

Conclusion (xulosa) oxirgi bosqich, ya’ni ushbu qismda dars yoki mashg‘ulotga qanday o‘tganligi to‘g‘risida xulosalar, fikrlar beriladi, qo‘shimcha ravishda keyingi dars yoki mashg‘ulotlar qanday bo‘lishi to‘g‘risida tavsiyalar beriladi.

Keyingi qism Information resources (axborot materiallari) bo‘lib, ushbu qismda mavzu yoki mashg‘ulotga bog‘liq bo‘lgan har qanday ko‘rinishdagi axborot materialla-



rini, ya'ni ommaviy axborot materallari, internet materiallari, elektron shakldagi axborot manbalarini qayerdan olinganligi ro'yxat qilib ko'rsatiladi.

Ushbu materiallardan foydalanilganda quyidagi natijalarga erishiladi:

– o'tiladigan mavzuga qiziqish bilan birga o'quvchi yoki talabalarda gapirish, tinglab tushunish, o'qib tushunish ko'nikmalari rivojlanadi, ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik qobiliyatlari o'sadi;

– veb-kvest orqali mavzuni yetkazib berishda "time managament", ya'ni vaqtdan unumli foydalanishga erishiladi;

– "Internet" mavzusi dunyo miqyosidagi ijtimoiy muloqot vositalaridan biri ekanligi va uning zararli oqibatlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi;

– o'rganuvchilarda til ko'nikmalarini shakllantirish bilan birgalikda ularda internetdan to'g'ri foydalanish immuniteti oshiriladi;

– veb-kvest texnologiyasi orqali tilni o'rganish bilan birga, bugungi kunda, zamonaviy ta'lim talablaridan biri axborot kommunikatsiya, ya'ni multimedia o'qitish vositalardan keng foydalanishga erishiladi;

– o'quvchi yoki talabalarning media matnlardan foydalanish malakasi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O'zbekiston NMIU, 2018. 88-bet.

2. Воробьёв Г.А. Веб – квест технологии в обучении социокультурной компетенции: Английский язык, лингвистический вуз: Дис....канд.пед.наук, Пятигорск, 2004. – С. 220.

3. Musurmanova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili: monografiya/ – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. 184-b.

4. Пестрецова О.Ю. Использование технологии "веб-квест" на уроках иностранного языка // Современные тенденции в обучении иностранным языкам и межкультурной коммуникации: Материалы Международной заочной научно – практической конференции (24 марта 2011 г). Электросталь: Новый гуманитарный институт, 2011. – С. 284-287.

Muhabbat HAKIMOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Innovatsion ta’lim” kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

MASOFAVIY O‘QITISHDA DIDAKTIK TAMOYILLARGA AMAL QILISH – DOLZARB IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO

Annotatsiya

Mazkur maqolada masofaviy o‘qitishning didaktik tamoyillariga amal qilish – dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo ekanligi, didaktikaning metodologik asoslari, masofaviy ta’limning asosiy didaktik tushunchalari, modellari, didaktik tizim sifatida ta’lim mazmuni, o‘qitish tamoyillari, o‘qitishni tashkil etish shakllari, metodlari, o‘qitish vositalari, o‘qitish jarayonini tashkil etish va nazorat qilish turlari, shakllari va boshqa zamonaviy o‘qitish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Masofaviy o‘qitish, didaktik tamoyil, model, komponent, elektron o‘qitish, interfaol metod.

В статье рассматривается применение дидактических принципов дистанционного обучения - актуальная социально-педагогическая проблема, методологические основы дидактики, основные дидактические концепции, модели дистанционного обучения, содержание обучения как дидактической системы, принципы обучения, организация обучения. формы, методы, учебные пособия, виды, формы и другие современные методы обучения организации и управления учебным процессом.

Ключевые слова. Дистанционное обучение, дидактический принцип, модель, компонент, электронное обучение, интерактивный метод.

The article discusses the application of didactic principles of distance learning - an urgent social and pedagogical problem, methodological foundations of didactics, basic didactic concepts, models of distance learning, the content of teaching as a didactic system, principles of teaching, organization of education. forms, methods, teaching aids, types, forms and other modern methods of teaching the organization and management of the educational process.

Key words. Distance learning, didactics, principle, model, component, e-learning, interactive method.

XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu uzluksiz ta’lim tizimida va butun hayot davomida har bir shaxsning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya va masofaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi. Ta’lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida axborot-kommunikatsiya va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini hamda o‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llashga sharoitlar yaratildi. Umuman olganda bugungi kun uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitish texnologiyalarini

tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Chunki shu kunga qadar davom etib kelayotgan sinf-dars shaklining ahamiyati *(pandemiya davrida)* pasayib borayotganligi sezilmoqda.

Masofaviy o‘qitish modellarining ayrim klassifikatsiyalarini ko‘rib chiqamiz. Masofaviy o‘qitish quyidagi texnologik, pedagogik va tashkiliy komponentlarga bog‘liq:

Birinchi komponent bevosita o‘quv materiallarini yaratishda, uzatishda, tizimlashtirishda qo‘llaniladigan axborot texnologiyalarini o‘z ichiga oladi. Ularni shartli ravishda ikkita toifaga bo‘lish mumkin:

- interfaol (elektron darsliklar, o‘rgatuvchi dasturlar, ma’lumotlar, bilimlar bazasi, web-saytlar, audio, video vositalar va hokazolar);
- nointerfaol (bosma materiallar, audio, video fayllar va hokazolar).

Ikkinchi komponent o‘qitish jarayonida foydalaniladigan usul va uslublarni qamrab oladi. Masofaviy o‘qitishda qo‘llaniladigan uslublarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tyutor ishtirokisiz o‘qitish metodikasi yoki mustaqil o‘qish (o‘qitishda tyutor faoliyatini minimallashtirish yoki o‘quv resurslaridan foydalanib o‘qitish metodikasi);
- individuallashtirilgan o‘qitish va o‘qish metodikasi (yakka ta’lim usulida o‘qitish: tyutor-ta’lim oluvchi yoki ta’lim oluvchi-ta’lim oluvchi);
- tyutor yoki ekspert yordamidan foydalanib o‘qitish metodikasi (o‘qitishda asosiy vazifa o‘quv materiallarini yetkazib beruvchi axborot texnologiyalari orqali bajariladi);
- o‘quv jarayonida ishtirok etuvchilarning faol hamkorligiga asoslangan o‘qitish metodikasi (hamkorlikda o‘qitish: tyutor-ta’lim oluvchilar va ta’lim oluvchilar).

Uchinchi komponent esa, ta’lim muassasasi tashkiliy tuzilmasining o‘ziga xosligi bilan tavsiflanadi: universitetda tashkil etilgan masofaviy o‘qitish bo‘limlari; universitetlar konsorsiumi; ochiq universitetlar; virtual universitetlar.

Mazkur komponentlar asosida masofaviy o‘qitishning turli xil modellari mavjud:

Birlamchi. Bu modelda o‘quv jarayoni, asosan, masofaviy o‘qitish sharoitida tashkil etiladi va kunduzgi shaklda o‘qitish jarayonini tashkil etish nazarda tutilmaydi. Bu jarayonni amalga oshirishda tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha tyutorlar va ta’lim oluvchilarning o‘zaro aloqalari o‘rnatiladi.

Ikkilamchi. Bu modelda o‘quv jarayonini kunduzgi ta’limda tashkil etilishi, shuningdek, aralash shaklda, ya’ni bir qismi kunduzgi yana bir qismi masofaviy shaklda tashkil etilishi nazarda tutiladi. Bunda o‘quv dasturlari va o‘zlashtirilgan bilimlarini baholash, monitoring qilish usullari bir xillikda amalga oshiriladi.

Aralash. Bu modelda ta’lim oluvchilar tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv materiallarining bir qismini masofaviy o‘qitish sharoitida, yana boshqa qismini parallel ravishda kunduzgi o‘qitish shaklida o‘qish lozim bo‘lib, kunduzgi o‘qitish bilan masofaviy o‘qitish o‘quv jarayonlari integratsiya qilinadi.

Konsorsium. Konsorsiumda ikki ta’lim muassasasi birgalikda, hamkorlikda ish olib boradi, bunda kurs o‘quv-metodik materiallarini ishlab chiqish va masofaviy o‘qitish jarayonidagi vazifalarni o‘zaro bo‘lib olgan holda amalga oshiriladi.

Franchayzing. Bunda ikkita ta’lim muassasasi o‘zlari tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv materiallarni bir-biri bilan almashishi nazarda tutiladi. Bunda masofaviy o‘qitish bo‘yicha tajribasi mavjud ta’lim muassasalari boshqa tajribasi kam ta’lim muassasalariga kurs o‘quv materiallarini taqdim etishi mumkin.

Validatsiya. Bu modelda ta’lim muassasalari masofaviy o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha ishlarni teng bo‘lishib olish bo‘yicha kelishuvlarni amalga oshiradi. Masalan, qaysidir ta’lim muassasa o‘quv kurslarini ishlab chiqsa, qaysidiri hujjatlarini ishlab chi-

qish va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Uzoqlashgan auditoriya. Bu modelda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan, televizion ko‘rsatuvlardan keng foydalanish nazarda tutiladi. Istalgan ta’lim muassasasida tashkil etilgan kurs sinxron shaklda videokonferensiya, vebinar, televizion ko‘rsatuvlar orqali uzoqda joylashgan auditoriyalarga mashg‘ulotlar olib boriladi. Bunda ta’lim oluvchilar kunduzgi o‘qitish jarayonida qatnashishi nazarda tutilmaydi.

Loyihalar. Ushbu modeldan davlat miqyosidagi yirik loyihalarni joriy qilishda foydalaniladi. Bunda asosiy ish soha mutaxassislari tomonidan ilmiy-metodik markazlarda bajariladi. Bunda asosiy belgilangan ishlar amalga oshirilganidan so‘ng loyiha ishlari to‘xtatiladi.

Xorijiy davlatlarda masofaviy o‘qitishning quyidagi modellari mavjud:

1. Konsultatsion. Bu modelni tashkil qilish ta’lim oluvchilar muntazam bo‘ladigan maxsus konsalting markazlarida ular bilan tyutorlar birgalikda faoliyat olib boradigan sharoitlarda amalga oshiriladi. Tyutorlarning vazifasiga masofaviy ma’ruzalarni tinglashni tashkil qilish hamda ta’lim oluvchilarga konsultatsiyalar berish, ularga tavsiyalar taqdim qilish va tushuntirishlar berish kiradi. Ta’lim nazorati mustaqil ishlash uchun berilgan topshiriqlarning bajarilishini tekshirish orqali amalga oshiriladi.

2. Yozishma. Bu model ta’lim jarayoni ishtirokchilari orasida shaxsiy aloqa bo‘lmasligini nazarda tutadi. O‘quv materiallarini almashtirish, topshiriqlarni berish hamda konsultatsiya jarayoni pochta, fakslar, telefonlar yoki kompyuter tarmoqlari resurslari orqali amalga oshiriladi.

3. Boshqariladigan ta’lim. Bu modelda ta’limiy materiallar mustaqil o‘rganiladi, o‘zlashtirish darajasi esa test sinovlari tizimi orqali nazorat qilinadi.

Masofaviy o‘qitishning quyidagi modellari mavjud:

1. Korrespondentlik. Tyutorlar va ta’lim oluvchilar orasidagi o‘zaro faoliyat to‘lig‘icha pochta orqali yozishmalar vositasida o‘tadi va yuzma-yuz muloqot ham video yoki audio aloqa vositalari yordamidagi muloqot ham bo‘lmaydi.

2. Keysli. Metodik-dasturiy to‘plamni o‘z ichiga olgan, barcha bilimlar strukturalashtirilgan va o‘zaro mantiqiy bog‘langan holdagi ta’lim materiallari komplekslarini ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil o‘zlashtirishga asoslanadi. Mashg‘ulotlar va sessiyalar (“o‘qib chiqishlar” ham) asosan ta’lim muassasasida va uning hududiy tarkibiy bo‘linmalarida o‘tkaziladi.

3. Vaxtali. Ta’lim jarayonini tashkil qilishning vaxtali metodi masofaviy o‘qitish texnologiyalari bilan qo‘shilgan holda ta’limning iste’molchi tomon harakati va ta’lim xizmatlarini tarmoqli tashkil qilish tamoyillarini amalga oshiradi.

4. Televizion o‘qitish. Ta’lim jarayonini tashkil qilish uchun radiotranslyatsiya tarmoqlari va televideniyaning quvvatlari, imkoniyatlari va resurs potensialini qo‘llashni nazarda tutadi.

5. Teleishtirokchilik. Foydalanuvchiga, masalan, maxsus qurilmalar (teleboshqariluvchi robotlar) yordamida o‘zining jismoniy mavjud joyidan boshqa joyda bo‘lishi va ta’sir o‘tkazishi taassurotini olish imkoniyatini beradi.

6. Tarmoq orqali o‘qitish. Ta’lim jarayoni faqat Internet imkoniyatlari yordamida amalga oshiriladi.

Yuqorida ta’kidlangan o‘qitish modellari va texnologiyalaridan kelib chiqib, ayrimlarini umumlashtirgan holda quyidagi masofaviy o‘qitishning korrespondentlik, keys, televideniye, tarmoqli, mobil o‘qitish usullarini alohida qayta ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Korrespondentlik ta'lim. Tyutorlar va ta'lim oluvchilar orasidagi o'zaro faoliyat to'liqligicha pochta orqali yozishmalar vositasida o'tadi va yuzma-yuz muloqot ham va video yoki audio aloqa vositalari yordamidagi muloqot ham o'tkazilishi nazarda tutilmaydi.

Keysli o'qitish. Bu texnologiyada o'quv-metodik materiallar maxsus to'plam "keys" ko'rinishida ta'lim oluvchiga mustaqil o'rganish uchun beriladi va unga tyutor tomonidan vaqti-vaqti bilan maslahatlar berib, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar belgilangan jadval asosida nazorat qilib boriladi. Tyutorlar bilan yuzma-yuz uchrashuv vaqti-vaqti bilan belgilangan kunlarda amalga oshiriladi, boshqa vaqtlarda esa kerakli maslahatni telefon, faks, elektron pochta orqali olishi mumkin. Kurs oxirida imtihonlar yuzma-yuz yoki tegishli aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi.

Televizion o'qitish. Ta'lim jarayonini tashkil qilish uchun radiotranslyatsiya tarmoqlari va televideniyening quvvatlari, imkoniyatlari va resurs potensialidan foydalanish orqali masofadan o'qitish nazarda tutiladi. Ta'lim berishning an'anaviy usuliga qaraganda televideniye orqali ta'lim berish qator afzalliklarga ega.

Birinchidan, televideniye orqali ta'lim berish sifati ancha yuqori, chunki mashg'ulotlarni yuksak malakali pedagoglar tayyorlaydi.

Ikkinchidan, televideniye orqali ma'ruza vaqtida ancha ko'p ko'rgazmali vositalardan foydalanish imkoni tug'iladi. Odatdagi auditoriya mashg'ulotlarida esa buning imkoni yo'q.

Uchinchidan, televizor orqali berilgan ma'ruzalarni ayni bir vaqtning o'zida minglab ta'lim oluvchilar tinglashi mumkin. Bu usullar uzoq tumanlarda yashagani bois tajribali tyutorlar ma'ruzasidan va yangi o'quv darsliklardan foydalanish imkoniga ega bo'lmagan aholi uchun qo'l keladi. An'anaviy o'qitish usuliga taqqoslaganda televizion ta'limning kamchiligi shundan iboratki, bunda shaxsiy muloqotlar, tyutor va ta'lim oluvchi o'rtasida o'zaro aloqa mavjud emasligi bu texnologiyaning kamchiligi sifatida e'tirof etiladi.

Tarmoqli o'qitish. Tarmoqli texnologiya lokal va global tarmoqlar orqali ta'lim oluvchilarni o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlash hamda turli xil interfaol aloqalar vositasida tyutor bilan ta'lim oluvchining o'zaro o'quv faoliyatini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bu bugungi kunda istiqboli porloq va rivojlanib borayotgan masofaviy o'qitish texnologiyasi hisoblanadi. Chunki u o'quvni tashkil qilish uchun, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan, Internet tarmog'ining keng imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish imkonini yaratadi.

Mobil o'qitish. Bunda ta'lim oluvchilar masofaviy o'qitish jarayonida o'zlarining shaxsiy mobil telefonlaridan foydalangan holda o'qishlari nazarda tutiladi. Bu usuldan ham hozirgi kunda kichik hajmdagi masofaviy kurslarni joriy etishda foydalanish mumkin. Shuni aniqlashtirish kerakki, albatta, masofaviy kurslar tegishli o'quv rejalar asosida tashkil etiladi. Mobil o'qitishda esa ta'limga oid ma'lum bir parchalarni o'qish bilan tegishli fanlar o'quv rejasi bilan barcha komponentlar (mazmun, shakl, metod, vosita, nazorat) asosida tashkil etiladigan kurslarni aralashtirib yubormaslik kerak. Shuningdek, masofaviy o'qitish o'quv jarayonini sinxron va asinxron holatda amalga oshirish mumkin.

Sinxron o'qitish rejimi. Real vaqtda masofaviy o'qitish. Bunday o'qitishni tashkil etish vositalariga videokonferensiya, chat, vebinarlar asosida real vaqtda xabarlarni almashishlar kiradi. Sinxron o'qitishda tegishli modullar bo'yicha mas'ul tyutorlar real vaqt ichida videokonferensiya, chat, vebinar kabi vositalar yordamida masofaviy

mashg‘ulotlar olib borish, mashg‘ulotlar jarayonida turli xil pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi.

Asinxron o‘qitish rejimi. Har bir ta’lim oluvchining o‘zi uchun qulay bo‘lgan turli vaqtlarda mustaqil o‘qish shaklida amalga oshiriladi. Bunday o‘qitishda ta’lim muassasasidan uzoqda bo‘lgan ta’lim oluvchilar mustaqil shaklda o‘quv-metodik materiallar asosida ta’lim olishadi. Asinxron o‘qitishda har bir ta’lim oluvchining o‘zi uchun qulay bo‘lgan turli vaqtlarda maxsus o‘quv portalga joylashtirilgan o‘quv-metodik materiallarini mustaqil o‘zlashtiradi va o‘zlashtirilgan bilimlari turli xil interfaol va amaliy topshiriqlar orqali nazorat qilinadi.

Shunday qilib, ayni vaqtda masofaviy o‘qitishning bir qator asosiy tamoyillari shakllangan va uning xususiyatlari aniqlangan bo‘lib, terminologik bazasi va tushunchalari ham ishlab chiqilgan hamda hozirgi kunda masofaviy o‘qitish tizimini tashkil etish va joriy etish uchun yetarlicha ilmiy-nazariy baza mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y, 6-son.

2. Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvidagi ma’ruzasi.

3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dok. dis. – T.: TDPU, 2007. – 305 b.

4. Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. Didaktika boshlanishi: Qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2014, 132-bet.

5. Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения в высших учебных заведениях: дис. … док. пед. наук. – М., 1999. – С. 289.

6. Андреев А.А. Интернет-технологии и модели обучения в среде Интернет. – М.: МИПК, 2013.

7. Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and euitable quality education ang lifelong learning for all (Word Education Forum, 19 – 22-may 2015, Incheon, Republic of Korea).

Munojat ASRANBAYEVA,
Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi

NOTO‘LIQ OILALARDA BOLALARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASHGA TIZIMLI YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada noto‘liq oila bolalarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmi shakllantirilgan bo‘lib, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan mexanizm bir nechta turdagi bilimlarning o‘zaro aloqadorligini ta’minlash, ularning yaxlit shakl yoki tizimga keltirish, o‘rganilayotgan ma’lumotlarni qadriyat-mohiyatli mazmun bilan boyitish hamda bu orqali noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Noto‘liq oila, gerantopedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, ijtimoiy hayot, texnogen omillar, faoliyat, metod, germenevtik, psixoterapevtik, adaptiv.

В статье освещены задачи педагогического механизма подготовки детей из неполных семей к социальной жизни, разработанный в процессе исследования, который позволит обеспечить взаимосвязь нескольких видов знаний, привести их в целостную форму или систему, обогатить изучаемые данные ценностно-значимым содержанием и тем самым подготовить детей в неполных семьях к социальной жизни.

Ключевые слова. Неполная семья, герантопедагогика, компетентный подход, социальная жизнь, техногенный фактор, деятельность, метод, герменевтика, психотерапия, адаптив.

The article formulates a pedagogical mechanism for preparing children from incomplete families for social life, developed in the process of research, which will ensure the interconnection of several types of knowledge, bring them into an integral form or system, enrich the studied data with value-significant content and thereby prepare children in single-parent families to social life.

Key words. Single family, gerantopedagogy, competent approach, social life, technogenic factor, activity, method, hermeneutics, psychotherapy, adaptive.

Mamlakatimizda yetim va noto‘liq oila bolalarini ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimini takomillashtirish, milliy va jahon tajribasi asosida innovatsion tarbiya texnologiyalarini tatbiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, dasturiy bosqichma-bosqich ijtimoiy yetimlikni oldini olishning profilaktik tizimini ishlab chiqish, noto‘liq oilada tarbiyalanayotgan bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida “Yetim va noto‘liq, kam ta’minlangan oilalar bolalarining

huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy faolligini oshirish, turmush sharoitlarini yaxshilash”[1] kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa, noto‘liq oila bolalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish dolzarb masala ekanligini ko‘rsatadi.

Oila – o‘zining ijtimoiy-madaniy rivojlanish jarayonida o‘z shajarasining milliy qadriyatlarini saqlovchi, ijodiy o‘zlashtiruvchi, zamonaviylashtiruvchi va boyituvchidir. Ana shunday insoniy burchlarning har bir oila tomonidan mukammal bajarilishi uning milliy ma’naviyatimizni o‘zida mujassamlashtiruvchi ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyatini belgilaydi.

Millatimiz oilani “tarbiya o‘chog‘i” deya e’tibor berib, oilada farzandlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash, uning milliy tarbiya samaradorligini ta’minlashning muhim omili ekanligiga e’tibor qaratdi. Xususan, “Milliy tuyg‘u inson uchun tabiiydir, chunki u ota-onalardan meros qilib olingan va bola o‘z ota-onasiga, butun dunyoga aytgan birinchi so‘zidan ifodalanadi. O‘z xalqiga, uning an’analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o‘z xalqining millatining butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o‘z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas”. Mazkur g‘oyalar, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy islohatlarni o‘zida aks ettiruvchi boshqa manbalarda ham o‘z aksini topgan.

Jumladan, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasida “Oila – mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki – oila jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Oiladagi sog‘lom muhit sog‘lom mafkurani shakllantirishning eng muhim manbaidir. Jamiyat har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o‘zaro hurmat va ahillikni ta’minlash – milliy mafkurada ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo‘ladi”.

So‘nggi yillarda insonni ijtimoiylashtirish (bu yerda shaxs emas, aynan inson nazarda tutilmoqda, binobarin, shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi, ya’ni ijtimoiylashgan insongina shaxs sifatida namoyon bo‘ladi) va bu yo‘lda salbiy ijtimoiy ta’sirlarni bartaraf etish masalalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Insonni ijtimoiylashtirish uzoq muddatli, uzluksiz davom etuvchi, ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, uning butun hayotini qamrab oladi va bu jarayonda unda muayyan bilimlar, ijtimoiy axloq mezonlariga rioya qilish ko‘nikmalari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat munosabati shakllantiriladi. M.A. Galaguzova, L.V. Kolomiychenko, M.A. Kovalchuk[2]larning qayd etishlaricha, insonning ijtimoiylashuvi garchi uning butun hayoti davomida ro‘y bersa-da, biroq bu jarayonda eng qulay davr bolalik va yoshlik yillari hisoblanadi. Zero, aynan mana shu davrlarda inson ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtiradi, ularga amal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi, ijtimoiy munosabatlarga kirish va ularni muvaffaqiyatli tashkil etish tajribasini o‘zlashtiradi.

Mazkur pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish uchun noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning quyidagi pedagogik mexanizmi taklif etildi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

[2] Галагузова М.А., Галагузова Ю.Н., Штинова Г.Н., Тищенко Е.Я., Дьяконов Б.П. Социальная педагогика: курс лекций. – М., Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2001. – С. 416.

<table>
<tr><td colspan="3">Maqsadi va natijasi: noto‘liq oila bolalarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish va ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatni shakllantirish</td></tr>
<tr><td colspan="3">Noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning tamoyillari</td></tr>
<tr><td colspan="2">tarbiyaning insonparvarligi;
tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili;
tarbiyaning variativlik tamoyili;</td><td>ijtimoiy tarbiyaning jamoaviylik tamoyili;
ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat tamoyili;
tarbiyaning davomiylik tamoyili.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari</td></tr>
<tr><td colspan="3">- noto‘liq oila bilan aloqa o‘rnatish;
- noto‘liq oilada tarbiyalanayotgan bola bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish;
- oilaning yashash tarzi, intilishlari, qiziqishlari va kelajakdagi rejalarini o‘rganish;
- oila, mahalla va ta’lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mazmuni</td></tr>
<tr><td>Ijtimoiy-maishiy yo‘nalish</td><td>Madaniy-estetik yo‘nalish</td><td>Sport-sog‘lomlashtirish yo‘nalishi</td></tr>
<tr><td colspan="3">Tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash texnologiyasi</td></tr>
<tr><td colspan="2">Qo‘llanish sohasiga ko‘ra: global, mintaqaviy texnologiyalar.
Obyektlarga ko‘ra: guruhli, individual texnologiyalar.
Hal qilinadigan vazifalar xarakteriga ko‘ra: tashkiliy, informatsion, innovatsion, ijtimoiy modellashtirish texnologiyalari.</td><td>Metodlarni o‘zlashtirish sohasiga ko‘ra: ijtimoiy-psixologik; ijtimoiy-pedagogik;
ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash;
ijtimoiy vaziyatlarni ijtimoiy-pedagogik korreksiya qilish texnologiyalari.
Ijtimoiy ish yo‘nalishlari bo‘yicha: bolalikni ijtimoiy himoya qilish,
bolalarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyasi;
ijtimoiy adaptatsiya, ijtimoiy maslahat berish.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Baholovchi-natijaviy blok</td></tr>
<tr><td colspan="3">Noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonining monitoringi (kuzatish, anketa, hisobga olish jadvalini ishlab chiqish), ijtimoiy xulq-avtor me’yorlarining o‘zlashtirilishini tashxis etish</td></tr>
<tr><td colspan="3">Noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash komponentlari va ko‘rsatkichlari</td></tr>
<tr><td colspan="2">Komponentlari</td><td>Ko‘rsatkichlari</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ijtimoiy munosabatlarga kirishish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan kognitiv komponent.</td><td>– bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi;
– faoliyatda o‘zini ko‘rsatishga intilishni rag‘batlantirish;</td></tr>
<tr><td colspan="2">Muvaffaqiyatga intilish, o‘z-o‘ziga ishonch, vaziyatni tahlil etish va maqbul qarorlar qabul qilishga yo‘naltirilgan faoliyatga doir komponent.</td><td>– muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;
– kasblar to‘g‘risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish;
– o‘zini-o‘zi baholashga o‘rgatish;</td></tr>
</table>

Guruhiy faoliyatda ishtirok etish, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga, emotsional-qadriyatlarga yo‘naltirilgan komponent.	– kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo‘lishi; – ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish; – tengdoshlari bilan ma’naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish.

1-jadval Noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari

Noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari bo‘yicha olingan natijalar asosida quyidagilarga erishildi.

Noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonining tuzilmasini aniqlashtirish, yaqin kattalarning tarbiyaviy ta’sirini maqbullashtirish, tarbiya jarayoniga shaxsga yo‘naltirilgan, germenevtik va psixoterapevtik yondashuvlarni adaptiv qo‘llash bilan o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash, umumta’lim maktabi va mahalla hamkorligi asosida noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik-profilaktik xususiyatlarini aniqlashtirildi. Noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning gerontopedagogik modelining amaliy komponentini takomillashtirish, avlodlararo hamkorlik, ma’naviy-axloqiy xususiyatlar transformatsiyasi, milliy tarbiya metodlarining kundalik turmush tarziga ta’siri barqarorligini ta’minlashga erishildi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda sinf rahbari, maktab psixologi, ijtimoiy ish xodimining “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi hududiy bo‘limlari mutaxassislari bilan hamkorligini tizimli tashkil etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan mexanizm bir nechta turdagi bilimlarning o‘zaro aloqadorligini ta’minlash, ularning yaxlit shakl yoki tizimga keltirish, o‘rganilayotgan ma’lumotlarni qadriyat-mohiyatli mazmun bilan boyitish hamda bu orqali noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga imkoniyat yaratadi.

Gerontopedagogikaning tarbiyaviy resurslarini rivojlantirish orqali, keksalarning o‘z hayotiy tajribasini amaliyotga tadbiq etishi, jamiyat hayotidagi o‘rni va mavqeini oshirish masalalariga e’tibor qaratildi. Bu borada keksalar bilan yoshlar, ota-onalar bilan farzandlar, avlodlar o‘rtasidagi munosabatlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida rivojlantirishda o‘zaro mehr-oqibat, yuksak darajadagi madaniyat, insoniylik tamoyillarining ahamiyati ilmiy asoslandi.

Noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda gerontopedagogikaning o‘rni va ahamiyati juda katta. Unda noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda gerontopedagogika namunasi, tajribasidan, xalq pedagogikasidan samarali foydalanish yo‘llari, uning mezonlari, texnologiyalari, pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Shaxs ijtimoiy muhitda va uning ta’sirida shakllanadi. Mazmuni va mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy muhit shaxsning shakllanishiga ijobiy hamda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ko‘rsatilayotgan ta’sirning ijobiy va salbiy bo‘lishi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zaro hamjihatlik, yordam, shuningdek, psixologik yaqinlik hamda hayotiy maqsadlar va e’tiqodlar birligi yoki aksincha, bir-birini tushunmaslik, bir-birini qabul qila olmaslik, bir-birini inkor etish, bir-biriga toqat qilmaslik (tolerantlik hissiga ega emaslik), shaxsiy qarashlarning bir-biriga zidligi, hayotiy maqsad va e’tiqodlar o‘rtasidagi ziddiyatlarga bog‘liqdir.

Bildirilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, insonning ijtimoiylashuvi u tomonidan ma'lum ilmiy bilimlar va ijtimoiy axloq mezonlarining o'zlashtirilishi, ularga amal qilish ko'nikmalari hamda muayyan ijtimoiy tajribaga ega bo'lish, ya'ni insonni ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan ijtimoiy pedagogik faoliyatda erishilgan natija sanaladi.

Insonni ijtimoiylashtirish jarayonida salbiy mazmundagi psixologik, tibbiy, huquqiy hamda moddiy xususiyat kasb etuvchi tashqi va ichki ta'sirlarga qarshi immunitetni shakllantirish, bolalarni ularga nisbatan bardoshli qilib tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.[3] Bugungi kunda jahon miqyosida olib qaraganda insonning jismoniy va ruhiy kamoloti, shu jumladan, ijtimoiylashuviga quyidagi omillarning sezilarli darajada salbiy ta'siri kuzatilmoqda.

Insonning salbiy ta'sirlarga bardoshli bo'lishi va ularga qarshi immunitetga egaligini ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, uni ijtimoiylashtirishda o'yin, mehnat va ta'lim faoliyatidan samarali foydalanish, shuningdek, biologik omillar (irsiyat), ijtimoiy omillar (mikro – (lotincha "mikros" "kichik"), mezo (lotincha "mesos" "o'rta") va makro (lotincha "makros" "katta") omillarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Insonni ijtimoiylashtirishda muhit alohida o'rin tutib, unda ijtimoiy sog'lom munosabatlarning tashkil etilishiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda ijtimoiy institutlar – oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik (mahalla, inson mansub bo'lgan guruhlar) munosabatlarida o'zaro hamjihatlik, pedagogik-psixologik hamkorlik va yordamning ustuvor bo'lishiga erishish insonni ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Demak, insonni ijtimoiylashtirish murakkab, ko'pqirrali va uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, bu jarayonda u ilmiy bilimlar, axloq mezonlari va ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, ularga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Insonni ijtimoiylashtirish jarayoniga biologik va ijtimoiy omillarning kuchli ta'sirini inobatga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". – T.: O'zbekiston, 2017. (1-jild).

2. Asqarova O'.M. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimi. Monografiya. – T.: Fan nashriyoti, 2010. – 121-b.

3. Галагузова М.А., Галагузова Ю.Н., Штинова Г.Н., Тищенко Е.Я., Дьяконов Б.П. Социальная педагогика: курс лекций. – М.: Humanite. изд. центр ВЛАДОС, 2001. С. 416.

4. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1999. – 152-b.

5. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. – T.: O'qituvchi, 1994.–345-b.

6. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – T.: Ma'naviyat, 2009. – 246-b.

[3] Asqarova O'. M. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimi.\ Monografiya. – T.: Fan nashriyoti 2010.-121-b.

Oysha QURBONOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti tayanch doktoranti

NUTQ TURLARINING ILMIY IFODASI VA MAZMUN-MOHIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada nutqiy kompetensiyada belgilangan talab darajalari nutq turlarining lingvodidaktik asoslari, grammatik ma’lumotlar, monologik, dialogik nutqning o‘ziga xos xususiyatlari, nutq o‘stirishga oid metodik tavsiyalar berilgan. Nutq turlarining ilmiy ta’rifiga tilshunos olimlar va pedagoglarning ilmiy qarashlari, metodik yondashuvlari izohlangan.

Kalit so‘zlar. Nutqiy kompetensiya, nutq turlarining lingvodidaktik asoslari haqidagi ma’lumotlar, adabiy til me’yorlari, nutq shakllari, monologik, dialogik nutq.

В статье даны методические рекомендации по развитию языковых компетенций, лингводидактические основы типов речи, грамматическая информация, особенности монолога, диалогической речи, типы речи. Разъясняются научные взгляды и методологические подходы лингвистов и педагогов к научному определению типов речи.

Ключевые слова. Речевая компетенция, информация о лингводидактической основе типов речи, нормы литературного языка, речевые формы, монолог, диалогическая речь.

This article provides methodological recommendations for the development of linguistic competencies, the linguistic and didactic basis of speech types, grammatical information, the peculiarities of monologue, dialogic speech, the types of speech. The scientific views and methodological approaches of linguists and educators to the scientific definition of speech types are explained.

Key words. Speech competence, information on the linguodidactic basis of speech types, literary language norms, speech forms, monologue, dialogic speech, communicative qualities of speech.

Respublikamizda o‘quvchilarning har tomonlama bilimli va raqobatbardosh bo‘lishi uchun, berilgan bilimlarni mustahkam egallashi uchun ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bugungi ta’limning asosiy vazifasi sanaladi. Xususan, ona tili ta’limini tubdan rivojlantirish, o‘quvchilarning chuqur bilim egallashini ta’minlash qator qonun va qarorlarda huquqiy asoslangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining takomillashtirilgan davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-sonli qarorlari ta’lim va tarbiya sohasini zamonaviy talablarga mos holatda rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Davlat ta’lim standartida umumta’lim maktablari o‘quvchilarining tayyorgarlik darajasiga majburiy talablar belgilangan.

Ona tili fani bo‘yicha umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish) ga qo‘yiladigan talablar: do‘sti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma, xat yoza oladi A1; tinglangan matn, ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushuna oladi; husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi; ish qog‘ozlari (ariza, ma’lumotnoma, xat, tarjimai hol, e’lonlarni) yoza oladi A2; ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma’lumotlarni tushuna oladi; ish qog‘ozlari (ariza, ma’lumotnoma, xat, tarjimai hol, e’lonlarni) yoza oladi A2+; Ijodiy matnlar yaratadi. Imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlaydi B1 daraja talablari belgilangan.

Zamonaviy ta’limda Ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi: “O‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat, deb belgilangan.”[1] Ushbu maqsadga erishish o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqlikda amalga oshiriladi.

O‘quvchilarning nutqini o‘stirish ishi ularning birinchi sinfga borishidan boshlanadi. Nutqni shakllantirish va rivojlantirish uchun grammatikaning hamma bo‘limlarida ishlash natijasida nutqiy ko‘nikmalar shakllana boradi. Nutqiy ko‘nikmalarga nutqning ixcham, sodda, ravon bo‘lishi kiradi: o‘quvchilarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish ishlari birinchi darajali vazifa qilib qo‘yiladi. Shu bois, bu vazifani amalga oshirishda nutq turlarini o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqning turlari haqidagi ilmiy-nazariy ma’lumotlar, pedagogik qarashlar olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

K. Qosimova rahbarligidagi bir guruh olimlar tomonidan yaratilgan “Ona tili o‘qitish metodikasi” darsligida nutq turlari va ularning xususiyatlari haqida shunday deyilgan: “Fikrni ifodalash usuliga ko‘ra nutq og‘zaki va yozma bo‘ladi. Og‘zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og‘zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og‘zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko‘rish va harakat (qo‘l harakati) sezgisi asosiy o‘rin tutadi. Og‘zaki nutq ham,yozma nutq ham kishilarning o‘zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og‘zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutqdan bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi”.[2]

A. G‘ulomov boshchiligidagi olimlar tomonidan tuzilgan “Ona tili o‘qitish metodikasi” nomli darsligida aytilgan fikrlar o‘rinli. “Og‘zaki nutq odatdagi so‘zlashuv nutqi bo‘lib, bu nutq ko‘proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab grammatik qoidalaridan deyarli foydalanilmaydi. Yozma nutq esa harf va so‘zlarning ma’lum qonuniyat asosida o‘zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon qilish orqali voqealanadi”.[3] Yuqorida keltirilgan darsliklarda og‘zaki va yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlari va bu nutq turlarining bir-biridan farqli jihatlariga urg‘u berilgan.

“Og‘zaki nutq, odatda, bevosita nutq jarayonini tashkil etadi. Yozma nutqda esa

[1] O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazi. Ona tili fani bo‘yicha uzluksiz ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari. – T., 2017.

[2] Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. –T.: Noshir, 2009. – 302-b.

[3] G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 306-b.

muayyan masofaning bo‘lishi nazarga olinadi. Shunga ko‘ra ularning izchilligi, to‘liq yoki noto‘liqligi ham har xil bo‘lishi tabiiy”.[4]

Og‘zaki nutq o‘zaro aloqa-aralashuvi, muloqot-munosabat jarayonining birlamchi vositasi, amaldagi holati hisoblanadi. U yaqin masofadagi, yonma-yon suhbatdoshga, tinglovchiga mo‘ljallangan bo‘ladi. Og‘zaki nutq so‘zlashuv uslubi ifodasi bo‘lib, unga nisbatan adabiy tilga xos muayyan talab-me’yor, cheklov va chegara belgilanmaydi. Yozma nutq o‘z maqsadi va shart-sharoitlariga ko‘ra qator o‘ziga xosliklarga ega. U masofa nuqtayi nazaridan yaqin bo‘lmagan, uzoqdagi, ayni shu zamonda yonma-yon bo‘lmagan suhbatdosh (shaxs, o‘quvchi)ga mo‘ljallangan bo‘ladi. Unda og‘zaki nutqdagi kabi imo-ishora, qo‘l va tana harakatlari bilan nutqqa yordam beradigan qo‘shimcha yordamchilar yo‘q. Xuddi shuning uchun ham yozma nutqning aniq, ravon, tushunarli, ishonarli, mantiqiy jihatdan ham, grammatik va orfografik jihatdan ham to‘g‘ri bo‘lishi hayotiy ehtiyojdir. Bunda fikrning boshqalar tomonidan ham ayni yozayotgan tomon ko‘zda tutgan ma’nolarni ilg‘ashga halaqit beradigan narsalarning bo‘lmasligi muhimdir.

M.Hamdamova ilmiy tadqiqot ishida “og‘zaki nutqni uch turga bo‘ladi: 1) so‘zlashuv nutqi; 2) ma’ruza nutqi; 3) notiqlik nutqi”.[5] Og‘zaki nutqning bunday uch turga bo‘linishi maqsadga muvofiqdir. Zero, o‘quvchilar bu nutq turlarini mukammal egallar ekanlar, ularning nutqi eshituvchiga aniq va ravon yetib boradi.

B.O‘rinboyev fikricha, “so‘zlashuv nutqini xarakterlashda ko‘zga tashlanadigan ikki tomon mavjuddir. Ulardan biri dialog bo‘lsa, ikkinchisi monologdir”[6] deb qayd qiladi. Nutqning bu ikki turi bir-biridan tubdan farq qiladi. “Dialog asli yunoncha dialogos (gaplashish, suhbatlashish) so‘zidan olingan bo‘lib, “shaxslararo suhbat va fikr almashuv” degan ma’noni ifodalaydi. Dialog og‘zaki nutqning nutq jarayonida bir yoki bir necha kishi ishtirok etgan nutqiy aloqaning muhim shaklidir”.[7]

“Nutq jarayoni nutqni yuzaga keltiruvchilar ishtirokiga ko‘ra monolog, dialog va polilog turlariga bo‘linadi. Monologik nutq yuqori darajadagi kommunikativ, informativ birlik bo‘lib, so‘zlovchining o‘z fikr-mulohazasini bog‘lanishli ifodalash faoliyatidir. Ushbu nutq turi dialogik nutqqa nisbatan psixologik va lisoniy jihatdan ancha murakkab jarayon bo‘lib, so‘zlovchidan o‘z fikrlarini aniq, o‘zaro izchil va uzviy bog‘liqlikda ifodalash ko‘nikmalarini talab etadi”.[8] B. O‘rinboyev so‘zlashuv nutqning dialog va monolog tomonlarini va farqlariga izoh bergan. Z. Salisheva esa nutqni yuzaga keltiruvchilar ishtirokiga ko‘ra: monolog, dialog va polilog turlariga bo‘linishini va bu nutq turlariga qo‘yiladigan talablar xususida o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan.

Jamiyatning barcha jabhalarida, oilada, mahallada, mavzuni o‘rgatishda dars mashg‘ulotlarida ham o‘qituvchi va o‘quvchilar dialog orqali fikr almashiniladi. Dialog ijtimoiy hayotimizda foydalaniladigan faol nutq turidir. Bu nutq turi asnosida muayyan ko‘zlangan maqsad amalga oshadi. Ikkala nutq shaklida ham fikrlarning ketma-ketligi, izchilligi nazardan chetda qolmasligi kerak.

“Ilmiy nutqning maqsad va vazifasi ilmiy aloqadan: informatsiya beruvchi – olimlar, qabul qiluvchi – oliy ma’lumotli kishilardan: aloqa formasi yozma yoki og‘zaki nutq

[4] To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T., 2009.4-b.

[5] Hamdamova M.Z. 1-2-sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish tizimi: Dis. ... ped. fan. nomz. – T.: 1998. – 27-b.

[6] O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek tilida voqativ gap kategoriyasi.– T.,1972,10-bet.

[7] Амиров Р. Особенности синтаксиса казахской разговорной речи. – Алма-Ата,1972. – С. 6.

[8] Salisheva Z. I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarda). Ped.fan.nom. ...dis.avtoref. – T., 2019. –11-b.

formasidan iborat bo‘lishidir”.[9] O‘quvchilarda bu nutq turini to‘liq bilish biroz qiyinchilikka olib keladi. Ilmiy nutqni ko‘r-ko‘rona emas, mazmun-mohiyatini anglab tinglovchiga yetkazib berish undan bilim, mas’uliyat talab qiladi.

Xullas, nutq turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari jamiyatda insonlarning o‘zaro aloqa almashish va axborot berishda asosiy vosita hisoblanadi. Nutq turlari orqali tinglovchiga muayyan og‘zaki va yozma shaklda fikr bayon qilinadi, nutq ravonligi fikr ta’sirini belgilaydi. Yuqori sinf o‘quvchilarida nutq turlarining talab darajada rivojlanishi lug‘at boyligining o‘sishi bilan belgilanadi. O‘quvchilarning so‘z zaxirasi boy bo‘lsa, o‘z fikrini tinglovchiga aniq va ifodali bayon qila oladi. “Ona tili” darsliklarida berilgan mavzularni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida mazmunli va sifatli yoritib berish, qo‘shimcha ilmiy-metodik manbalardan oqilona foydalanish, o‘quvchilarni mustaqil mashg‘ulotlarga keng jalb qilish, ijodiy matnlar tuzishga yo‘naltirish bu borada nihoyatda yuqori samara beradi. Yuqoridagi jihatlar e’tiborga olingan taqdirda, biz ona tili ta’limidan ko‘zlangan ulug‘vor maqsadlarga erishamiz hamda o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yuqori intellektli, tafakkuri teran, nutqi ravon, fidoyi va vatanparvar avlodlarni tarbiyalab, jamiyatimiz ravnaqi, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-yil, 14-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazi. Ona tili fani bo‘yicha uzluksiz ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari. – T., 2017-yil.

3. Амиров Р. Особенности синтаксиса казахской разговорной речи. – Алма-Ама,1972. – С.6

4. To‘xliyev B. O‘quvchilar yozma ishlariga bog‘liq kommunikativ kompetensiyalar haqida. O‘zbek tili o‘qitishning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan anjuman materiallari to‘plami. –T., 2015.

5. Salisheva Z. I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarda).Ped.fan.nom. ...dis.avtoref. –T.: 2019.

6. Mahmudov N. Nutq boyligi// Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar: Tezis shaklidagi maqola. – Jizzax: 2011.

7. Hamdamova M.Z. 1-2-sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish tizimi: Dis. ... ped. fan. nomz. –T., 1998.

8. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek tilida voqativ gap kategoriyasi.– T.,1972.

9. Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. –T.: Noshir, 2009.

[9] Mukarramov M. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining ilmiy stili. – T.: Fan,1984. – 16-b.

Atajon AVAZBOYEV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti
Ma’rifat XUDAYBERGANOVA,
Yunusobod tumanidagi 220-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktorining
o‘quv-uslubiy ishlar bo‘yicha muovini

KASBIY KOMPETENTLIK UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI YANGI SIFATGA KO‘TARISH OMILI

Annotatsiya

Maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya jarayonini yangi sifatga ko‘tarish uchun rahbar xodimlar va o‘qituvchilarga zarur bo‘ladigan kasbiy-pedagogik kompetentlikni izchil ravishda rivojlantirish omillari va ularning mazmunini yoritishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar. Kompetensiya, kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ekstremal kompetentlik, o‘zini-o‘zi tahlil qilish, o‘zini-o‘zi baholash.

Статья посвящена факторам и их содержанию последовательного развития профессионально-педагогической компетентности, что необходимо руководителям и учителям для повышения качества образовательного процесса в общеобразовательных школах.

Ключевые слова. Компетенция, компетентность, социальная компетентность, особая компетентность, личная компетентность, технологическая компетентность, экстремальная компетентность, самоанализ, самооценка.

The article is devoted to the factors and their content of the consistent development of professional and pedagogical competence, which is necessary for managers and teachers to improve the quality of the educational process in secondary schools.

Key words. Competence, competence, social competence, special competence, personal competence, technological competence, extreme competence, introspection, self-esteem.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, o‘qitish sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqilik yillarida, ayniqsa, oxirgi yillarda ta’lim sohasi tubdan yangilanib, o‘qitishning ilg‘or usul va metodlarini amalda qo‘llash bo‘yicha ulkan tajriba to‘plandi. Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘quv-laboratoriya anjomlari, zamonaviy o‘quv-metodik baza tatbiq etilmoqda. Bugungi zamon shiddatli tarzda rivojlanayotgan bir paytda umumiy ta’lim maktablaridagi ta’lim jarayoniga zamon talablari asosida yondashish, ta’limda eng ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash davr

talabi. Umumta'lim fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bo'yicha davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomilashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish maqsadida qabul qilingan mazkur qaror ta'lim-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.

Yangi DTSga fanga oid kompetensiyalar bilan birga kommunikativ, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, miliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kabi tayanch kompetensiyalar elementlari ham kiritildi.

Kommunikativ kompetensiya bolaning ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda muloqotga kirisha olishi, muomala madaniyatiga amal qilishi, moslashuvchan va hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatiga ega bo'lishini nazarda tutadi. Axborot bilan ishlash kompetensiyasiga ega bola esa mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishi, saralashi, qayta ishlashi va ulardan samarali foydalanishi, media-madaniyatga ega bo'lishi lozim.

Bunday o'zgarishlar har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirishga muhim asos bo'ladi. Bu kelgusida yuqori malakali va raqobatbardosh, kompetentli mutaxassis-kadrlarni tayyorlash ishlarini yanada jadallashtiradi.

Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishiladi. Ta'lim muassasasi bitiruvchisi o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashda asosan pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammo o'z-o'zidan umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbar xodimlari va o'qituvchilariga ham bevosita tegishli.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan, raqobatbardosh mutaxassisdan jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbar xodimlari va o'qituvchilardan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etadi. Shaxsning kompetentligi ma'lum darajada uning kreativligi bilan bog'liq bo'ladi. Kreativlik – shaxsning ijodiy sifatlari bilan bog'liq bo'lgan malakalar to'plami-majmuasi hisoblanadi.[1] Pedagog-rahbar xodimlar va o'qituvchilarda qanday kompetentlik sifatlari bo'lishi zarur?

Avvalom bor kompetentlik to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, kompetentlik inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbar xodimlari va o'qituvchilarining kasbiy kompe-

[1]Авазбоев А.И., Хожикаримова Г. Социально-педагогические основы формирования креативности учащихся.// Международный научный журнал "Вестник науки" № 6 (15) Т.5 июнь 2019. С. 150 -154.

tentligi – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishini anglatadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbar xodimlari va o‘qituvchilarining ish faoliyatida quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

– murakkab jarayonlarda;

– noaniq vazifalarni bajarishda;

– bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;

– kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olish shular jumlasidan.

Kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbar xodimlari va o‘qituvchilari:

– o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;

– yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;

– davr talablarini chuqur anglaydi;

– yangi bilimlarni izlab topadi;

– ma’lumot va bilimlarni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi: ijtimoiy kompetentlik; maxsus kompetentlik; shaxsiy kompetentlik; texnologik kompetentlik; ekstremal kompetentlik.

1. Ijtimoiy kompetentlik-ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik-kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma va malakalarni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

– psixologik kompetentlik-pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, ta’lim oluvchilar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

– metodik kompetentlik-pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

– informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

– kreativ kompetentlik-pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

– innovatsion kompetentlik-pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

– kommunikativ kompetentlik-ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik-izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik-kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ektremal kompetentlik-favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga ega bo'lish.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini-o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash-rahbar va o'qituvchining izchil ravishda o'zining kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo'lida amaliy xarakatlarni tashkil etishi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbar xodimlari va o'qituvchilarining o'z ustida ishlashlari quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

– kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirib borish;
– o'z faoliyatiga tanqidiy va ijodiy yondashish;
– kasbiy va ijodiy hamkorlikni keng yo'lga qo'yish;
– ishchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish;
– salbiy odatlarni bartaraf etib borishlari;
– ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Rahbar xodimlar va o'qituvchilarning o'z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo'l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiq. Modelda o'z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali tashkil etilishi navbatdagi bosqichga o'tish imkonini beradi. Ma'lum bosqich vazifalari hal etilgach rahbar va o'qituvchilar bu holatni alohida bandda qayd etadi.

Rahbar va o'qituvchilarning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini-o'zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi.

O'zini-o'zi tahlil qilish rahbar va o'qituvchilar tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir.

O'zini-o'zi tahlil qilish orqali rahbar va o'qituvchilar o'zini-o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, rahbar va o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O'zini-o'zi baholash (O'O'B) – shaxsning o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishi. O'zini-o'zi baholash subyekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga obyektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi.

O'z-o'zini baholash shaxsning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash

mumkin.

Rahbar va o‘qituvchilarning individual rivojlanish dasturi-mutaxassis sifatida rahbar va o‘qituvchilarning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy-rahbarlik va pedagogik sifat, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi.

Rahbar va o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladigan “Individual rivojlanish dasturi” quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi:

– menejmentlik sohasidagi bilimlar;
– pedagogik bilimlar;
– psixologik bilimlar;
– mutaxassislik bilimlar;
– didaktik malakalar;
– tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
– ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
– o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari;
– o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya jarayonini yangi sifatga ko‘tarishga maktablar rahbar xodimlari va o‘qituvchilarining o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini-o‘zi tahlil qilish, o‘zini-o‘zi baholashlarini samarali yo‘lga qo‘yish, hamda rahbar va o‘qituvchilar tomonidan “Individual rivojlanish dasturi”ni to‘g‘ri ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning kasbiy-pedagogik kompetentligini izchil ravishda rivojlantirish natijasida erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori.

3. Avazboyev A.I. va Xojikarimova G. Texnologiya darslarida o‘quvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish metodikasi. Xalq ta’limi. Ilmiy-metodik jurnal. 6-son, 2019-yil. 74-80-betlar.

4. Авазбоев А.И., Хожикаримова Г. Социально-педагогические основы формирования креативности учащихся.// Международный научный журнал “Вестник науки” № 6 (15) – Т.5 июнь 2019. С. 150 -154.

5. Утёмов В.В., Зинковкина М.М., Горев П.М. Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества / Учеб.пособие. – Киров: АНОО “Межрегиональный ЦИТО”, 2013. – С. 16.

Uchqun RAXMATOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti “Biologiya va uni o‘qitish metodikasi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

BIOLOGIK TA’LIM JARAYONIDA FANLARARO BOG‘LANISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING METODIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada biologiya o‘qitish tizimida fanlararo bog‘lanishga oid ma’lumotlar berilgan. Bayon etilayotgan ma’lumotlar “biologiya” kursini o‘qitishda foydalaniladigan asosiy tushunchalarni fizika va kimyo kurslarida qo‘llaniladigan tushunchalar bilan bog‘lab o‘qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, bilim, fanlararo bog‘lanish, biologiya, fizika, kimyo, sinxron, asinxron.

Данная статья содержит информацию о межпредметных связей в системе биологического образования. Представленная информация направлена на усовершенствование методики обучения, основанной на связи основных понятий, используемых в преподавании курса “биологии”, с понятиями используемыми в физике и химии.

Ключевые слова. Образование, знания, межпредметный связь, биология, физика, химия, синхронность, асинхронность.

This article contains information about inter subject relation ships in the system of biological educat ion. The presented information is aimed at improving the teaching methodology based on the connection of the basic concepts used in the teaching of the course “biology” with the concepts used in physics and chemistry.

Key words. Education, knowledge, interdisciplinary communication, biology, physics, chemistry, synchronicity, asynchrony.

XX asrga kelib, barcha fanlar tekshirish obyektlariga ko‘ra, differensiallashgan holda rivojlanishi natijasida, fanlarning yangidan-yangi tarmoqlari paydo bo‘ldi. XXI asrga kelib esa, integratsiyalashgan ta’limga bo‘lgan ehtiyoj vujudga keldi va integratsiyalashgan ta’lim muhim funksiyalarni bajarishi ma’lum bo‘ldi. Chunki, fan asoslarini puxta egallash, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarning mazmun mohiyatini to‘liq tushunib yetish uchun turli fanlar yutuqlaridan foydalanish lozimligi yaqqol ko‘zga tashlanib qoldi. Ta’lim sifatini oshirish borasida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish jarayonida fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish hattoki, davlat siyosati darajasiga ham ko‘tarilmoqda. Bu borada hukumatimiz tomonidan qator qonunlar, qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan joriy yilning 12-avgustida “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning qa-

bul qilinishi yuqoridagi fikrimizning amaliy isbotidir. Bu esa uzluksiz ta’lim tizimidagi progressiv yangilanishlar borasidagi dastlabki qadam hisoblanadi. Chunki, qarorda “Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish”, ushbu yo‘nalishlarda ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili” Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan. Zero, o‘g‘il-qizlarimizni kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha chuqur o‘qitish hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, tog‘-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki beradi hamda pirovardida xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi.

Shu bilan birga, umumta’lim maktablaridagi kimyo va biologiya fanlarini o‘qitish sifati bugungi davr talablariga javob bermasligini, o‘qitish metodologiyasi va laboratoriyalar ma’nan eskirganligini, o‘qituvchilarning mehnatini munosib rag‘batlantirish mexanizmlari joriy qilinmaganligini alohida qayd etish zarur. Shuningdek, o‘rta maxsus, professional, oliy ta’lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda sohadagi ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanish borasida uzviy bog‘liqlik, samarali muloqot va hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagan. Kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini tubdan oshirish, umumta’lim maktablarida ushbu fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro uzviylikni ta’minlash lozimligi uqtirilgan.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida bevosita umumiy o‘rta ta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalari hamda xalq ta’limida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tarmoq markazidagi professor-o‘qituvchilar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri bu – turdosh fanlarning yutuqlaridan samarali ravishda foydalanib fanlararo bog‘lanishlarni amalda qo‘llash orqali yuqori natijaga erishish sanaladi.

Bu esa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha o‘quv fanlari kabi biologiya fanini o‘qitish jarayonida ham muhim sanaladi. Ayniqsa, biologiya o‘quv fanlaridan o‘rin olgan mavzularni o‘rganish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o‘zlashtirgan bilimlardan yangi kutilmagan vaziyatlarda foydalanish, biologik masalalarni yechish kompetentliligini takomillashtirish jarayonlarida kimyo, fizika, matematika, va boshqa tabiiy hamda aniq fanlar bilan fanlararo bog‘lanishlarni o‘rni beqiyos.

Biologik ta’lim jarayonida masalalar ishlash orqali xilma-xil ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalar amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar tomonidan biologik bilimlarni egallashlariga qaratilgan eng samarali usullardan biri fanlararo bog‘lanishlar asosida masalalar yechish orqali mavzu mazmunini yoritib berishdir.

Biologik ta’limning samaradorligini oshirishda va o‘quvchi ma’lum darajada o‘z oldiga qo‘ygan biologik maqsadlarga erishishda, tayanch kompetensiyalardan matematik savodxonligini oshirishda masalalar o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Shuning uchun biologiya darslarida imkon qadar ko‘proq masalalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish va ulardan foydalanish usullarini ishlab chiqish biologiya o‘qitish metodikasining dolzarb vazifalaridan biri sifatida ilgari suriladi. Biologiya o‘qituvchilari masalalar yechish metodikasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi o‘quvchilarda biologik bilimlarni yuqori dara-

jada egallashlarida hamda biologik jarayonlar mexanizmini chuqur anglab olishlariga yordam beradi.

Inson biologik masalalarning yechish jarayonida fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish orqali jamiyatda ro‘y beradigan ko‘p yangi bilimlarni mazmunini tushunib yetadi, masala shartida berilgan yangi-yangi holatlar bilan tanishadi, zarur bo‘lgan masalani yechishda biologik qonun va nazariyalarni qo‘llash orqali masalani yechishga oid yangi usullarni o‘ylab topadi. Bir so‘z bilan aytganda, biologik masalalarni yechish orqali inson biologik jarayonlar mohiyatini anglab yetadi, biologik bilimlarini oshiradi.

Fanlararo bog‘lanishlar asosida ma’lum tipdagi masalalarni yechish usuli va uni bir necha marta takrorlash orqali o‘quvchida ko‘nikma va malakalar shakllanishi bilan bir qatorda biologik bilimlari orta boradi.

Integrativ bilimlar asosida biologik masalalar yechish insonni aniq fikrlarini ajrata olish va xulosalar yasash, ma’lumotlar va ilmiy faktlarni aniqlash, ma’lumotlarni mos keltirish va qarama-qarshi qo‘yish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Masala yechish bo‘yicha A.Y.Xinchin quyidagi fikrlarni bayon etgan. “Masala yechishda o‘quvchilar to‘g‘ri fikrlashni, eng muhimi o‘quvchilar to‘liq argumentlarni egallashga o‘rganadilar”. Fanlararo bog‘lanishlar asosida masala yechishda fikrlar aniq ma’lumotlarga yo‘naltirilgan, noqonuniy umumlashtirishlarga yo‘l qo‘yilmagan holda, masalada berilgan faktlarni to‘liq qamrab olishni, klassifikatsiyalashga to‘liq e’tibor berish talab etiladi. Biologik masalalarni yechish davomida o‘quvchilarda o‘ziga xos fikrlash qobiliyati: an’anaviy fikrlash sxemasidan farq qiladigan fikrlar bayoni, fikrlarni sharhlash, belgilar aniqligi, fikrlash davomida fikrlarni aniq bo‘laklarga bo‘lib fikrlash shakllanadi.

Olib borilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, ko‘pchilik maktab biologiya fani o‘qituvchilari biologiya darsliklaridagi mavzularga oid masalalarni yechishga qiynalishadi buning asosiy sababi fanlararo bo‘g‘lanishlarni masalalar yechish jarayoniga tatbiq eta olmasligidir.

Vaholanki, o‘quvchilarga ta’lim berish jarayonida fanlararo bog‘lanish asosiy o‘rinda turadi. Chunki, har bir hodisani ilmiy jihatdan asoslash unga ko‘p tomonlama yondashishni talab etadi.

Hozirgi vaqtda o‘qituvchi dars jarayonida fanlararo bog‘lanishlar asosida biologik masalalar yechish biologiyaning ko‘plab tarmoqlari (botanika, zoologiya, anatomiya, fiziologiya, molekulyar biologiya, paleontologiya, ekologiya, seleksiya, genetik injeneriya, biotexnologiya kabilar) bilan amalga oshirish mumkin.

Masala va mashqlar yechishning eng muhim didaktik talablaridan biri fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchi uchun masala bayonini eng qulay variantlarini tanlay olishi hisoblanadi.

Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlarda izchil ravishda (oddiydan murakkabga tomon) biologik masalalar yechishi va bu jarayonda fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish nazariyasi hamda amaliyotini uyg‘un ravishda tashkil etishi lozim. O‘qituvchi bu jarayonlarni amalga oshirish natijasida, o‘zining kasbiy kompetentligini takomillashtirish barobarida o‘quvchilarda biologik masalalar yechish bo‘yicha tayanch hamda fanga oid kompetensiyalarini shakllanishiga ham zamin tayyorlagan bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida fanlararo aloqadorlik o‘qituvchining kasbiy, ilmiy-nazariy va ilmiy--metodik tayyorgarligi orqali hamda uning o‘z fanini chuqur anglashi asosida samarali amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun o‘qituvchi faqat o‘zi dars beradigan fanini chuqur va puxta bilib qolmasdan, balki unga yaqin integrativ bilimlardan ham xabardor

bo‘lishi lozim. Bu bilimlarning alohida turlari va ular o‘rtasidagi aloqadorlik shakllarini egallashga yordam beradi. Maktabda o‘qitilayotgan biologiya o‘quv darsligi kimyo va fizika matematika o‘quv fanlari bilan bog‘lab o‘qitish o‘quvchilarni amaliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlararo bog‘lanish turlari maxsus bilimlar yoki faktik, tadqiqot ishi maxsus bilim sohasi hisoblangan biologiya o‘quv fanlarini tabiiy va aniq fanlar bilan bog‘lab o‘qitishni asos qilib, unda umumiy va xususiy biologik tushunchalar bilan kimyoviy hamda fizik tushunchalar o‘rtasidagi sinxron (gorizontal) va asinxron (vertikal) bog‘lanishlar ko‘zda tutiladi.

Sinxron (gorizontal) bog‘lanish deganda, o‘quv fanlari mavzulari dastur va o‘quv rejasi asosida sinflararo parallel bog‘lanishlar (biologiya, kimyo, fizika, matematika, geografiya v.b) tushuniladi.

Asinxron (vertikal) bog‘lanish deganda, o‘quv fanlari mavzulari dastur va o‘quv rejasi asosida avvalgi sinflarda o‘zlashtirilgan bilimlardan foydalanish orqali sinflararo (botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi, biologiya v.b) bog‘lanish tushuniladi.

Sinxron bog‘lanishga misol qilib, Biologiya (Odam va uning salomatligi) o‘quv kursida o‘rganiladigan “Odam organizmining hujayraviy tuzilishi”, “Tayanch-harakatlanish sistemasining tuzilishi”, “Moddalar va energiya almashinuvining ahamiyati”, “Bosh miyaning tuzilishi va funksiyasi”, “Eshitish organlarining tuzilishi, eshitish gigiyenasi” mavzularini bevosita Fizika o‘quv kursining 8-sinfida o‘rganiladigan “Tabiatdagi elektr hodisalar”, “Suyuqliklarda elektr toki”, “Magnit maydon”. Doimiy magnit va uning qutblari”, “Tok manbalari”, “Elektr tokining ishi”, “Elektr xavfsizlik choralari” mavzularini, 8-sinf Anorganik kimyo darsligidagi “Atom yadrosi tarkibi”, “Atom elektron qavatlarining tuzilishi”, “Tok manbalari”, “Biogen elementlar va ularning tirik organizmlardagi ahamiyati” mavzulari biologiyani kimyo va fizika bilan bog‘lab o‘qitishda gorizontal bog‘lanish asosida amalga oshiriladi. Bu bog‘lanish turi asosan, dars jarayonida sinflararo parallel ravishda shakllantiriladi.

Asinxron bog‘lanishda, avvalgi sinflarda o‘zlashtirilgan bilimlardan foydalanish orqali sinflararo bog‘lanish tushuniladi. Masalan, Biologiya (Odam va uning salomatligi) 8 – sinfda “Odam organizmining hujayraviy tuzilishi”, “Qon va uning vazifasi”, “Tayanch-harakatlanish sistemasining tuzilishi” mavzularini, 7-sinf “Fizika” o‘quv darsligidagi “Yerning tortishish kuchi ta’sirida jismlarning harakati”, “Ishqalanish kuchi”, “Potensial energiya”, “Kinetik energiya” mavzularini o‘zaro bog‘lab tushuntirish misol bo‘ladi.

Botanika kursining hozir ko‘zdan kechirilayotgan predmet bilan aloqasi faqat ba’zi umumbiologik masalalar (organizmning yaxlitligi, hujayra tuzilishi), atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga taalluqli bo‘lib, mahalliy xarakterdagi ayrim masalalar bo‘yicha qisman belgilab chiqiladi. 8-sinf kursining bir qancha mavzularida, masalan, botanikaga doir quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi va rivojlantirib boriladi: o‘simlik hujayrasi, to‘qimalari, organlarning tuzilishi va xossalari, o‘simliklarning tarkibiy qismlari bo‘lgan (oqsillar, yog‘lar, uglevodlar); yuqumli kasalliklarni qo‘zg‘atuvchilari bo‘lgan parazit bakteriyalar, kasalliklarni oldini olish choralari, atmosfera muhitini kislorod bilan boyitishda o‘simliklarning roli to‘g‘risidagi tushunchalar. Odam va uning salomatligi kursini to‘liq o‘rganib olish uchun zoologiya kursi alohida rol o‘ynaydi.

Tadqiq etilayotgan obyektni integrativ holda o‘ganish obyektni har tomonlama o‘zaro aloqadagi va munosabatdagi jihatlarini mukammal bilishga imkon beradi. Shuningdek, o‘rganilayotgan obyektni yaxlit tizim shaklida, har tomonlama aloqadorlik

nuqtayi nazaridan o‘rganishni talab etadi.

Olib borgan tajriba-sinov ishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, kundalik turmushning barcha jabhalariga biologiya, kimyo, fizika, matematika fanlarning integratsiyasi jarayonlari jadal kirib kelmoqda. Shuning uchun maktabda o‘quvchilarni integrativ bilimlar bilan qurollantirish ayni paytning eng dolzarb muammolaridan sanaladi. Bu muammoni hal etishda biologiya o‘qituvchisi:

— *birinchi navbatda* integratsiya, integrallashgan bilimlar to‘g‘risida bilim va malakalarga ega bo‘lishi zarur;

— *ikkinchidan* shu maqsadga yo‘naltirilgan, uslubiy asoslangan, ilmiy yo‘nalishga ega ishni rejalashtirgan bo‘lishi lozim;

— *uchinchidan*, o‘quv materiallarining ilmiy ahamiyatini asoslab beruvchi, mazmuni va mohiyati bo‘yicha maqsadga muvofiqli integrativ materiallarni tanlay bilishi va amalda qo‘llay olishi muhim.

Binobarin, o‘qituvchi nafaqat dasturdagi mavzularga oid integrativ materiallarni yig‘ishi, balki uni tizimlashtirishi, ular bilan o‘quvchilarni darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanishning zaruriy yondashuv va metodlarini izlab topishi lozim.

Pedagogik kuzatish va tajriba-sinov ishlarimiz shuningdek, bu boradagi mavjud metodik adabiyotlar, biologiya o‘qitishda integrativ materiallarni tanlashda quyidagi didaktik mezonlarga, xususiyatlarga ega bo‘lmog‘i lozimligi ta’kidlanadi:

• biologiyani o‘qitishda tanlangan integrativ bilimlar mavzuga mos bo‘lishi, uning mohiyatini, xususiyatlarini aniq keng qamrab olishi lozim;

• tanlangan integrativ bilimlar o‘quvchilarda o‘rganilayotgan obyektni har tomonlama izlanishga imkon berishi va bu bilan o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni, olamning yaxlitligini anglashni, fan asoslariga qiziqishlarini shakllantirishga yordam bermog‘i lozim;


• tanlangan integrativ materiallar, har bir mavzu uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lmog‘i lozim;

• biologiyani ocqitishda tanlangan integrativ materiallar, bilimlar shu kunning talablariga mos istiqbolli mazmunga ega bo‘lishi zarur.

O‘rganish obyekti bir xil bo‘lgan fanlar, masalan, hujayraning kimyoviy tarkibi, molekulyar massa, fotosintezning yorug‘lik va qorong‘ulik fazalari, zichlik, energiya, moddalar va energiya almashinuvi, oziq zanjirida energiyaning saqlanish qonunlari, Quyosh spektrining tirik organizmlarga ta’siri, hujayraning turgorlik holati, oqsillar dinaturatsiyasi, organizmlarning modifikatsion o‘zgarishi, tirik organizmlarning yer yuzida tarqalish qonuniyatlari, tirik organizmlardan texnik sistemalarni yaratishda, yerda hayotning paydo bo‘lish bosqichlari kabi bilimlar o‘rganilayotganda biologiya, kimyo, geografiya, fizika, matematika, informatika kabi fanlar jalb qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi zamonaviy integrallashgan zamonda tabiiy fanlarning, ayniqsa, biologiyaning o‘rni nihoyatda ulkandir. Chunki butun dunyoda mikro biologiyadan makro biologiya o‘tar zamonda tabiiy fanlardan yangiliklar, xususan, hali Yer yuziga noma’lum bo‘lgan turli biologik terminar ustida ishlash dolzarbdir. Biologiyaning tabiiy fanlar va kishilik jamiyatining rivojlanishiga revolyutsion ta’sir ko‘rsatadigan muammolari molekulyar biologiya, genetika fanlari muskullar, nerv sistemasi va sezgi organlari fiziologiyasi va biokimyosi (tafakkur, qo‘zg‘alish, tormozlanish va boshqalar), fotova xemosintez, tabiiy sistemalar energetikasi va mahsuldorligi bilan bog‘liq. Molekulyar biologiya sohasi hujayra ichida boradigan fizik-kimyoviy jarayonlar va tirik sistemalar nisbiy turg‘unligining boshqarilishi, ayniqsa, genlarning

ishga tushirilishi mexanizmini o‘rganish ham biologiyaning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi.



Tadqiqot obyektlari bir xil bo‘lganda integratsiyalash quyidagi rasmda amalga oshiriladi.

Tadqiqot obyektlari bir xil bo‘lganda integratsiyalash usuli.

Integratsiya, mujassamlashtirish, yaxlitlash ma’nosini berib, u o‘quvchilarni fanlardan olgan bilimlarini umumlashtirish asosida, hodisa va jarayonlarni yaxlit holda tushunishga, ilmiy dunyoqarashi kengayishiga, faol fikrlashiga imkon yaratishi bilan muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (sitologiya va genetika asoslari). O‘quv qo‘llanma Tafakkur avlodi, 2020. – 272 b.

3. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. O‘quv qo‘llanma. Sano-standart nashriyoti. – T., 2017-y. 260 b.

4. Mavlonov O., Tilovov T., Aminov B. Biologiya (Odam va uning salomatligi) Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T., 2019-y. 192 b.

Nargiza KAMOLOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
Gulrux DAMINOVA,
Toshkent davlat agrar universiteti o‘qituvchisi

BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish zarurati va zarurligini asoslash, kimyoviy va metodik adabiyotlar tahlili, dars jarayonida o‘quvchilarda ijodni, ijodkorlikni rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish, talabalar ijodini rivojlantirish, ularning integral o‘quv jarayonidagi o‘rni, shuningdek, kimyo o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirishga yordam beradigan maxsus usullar, o‘quvchilarni ijodiy tafakkurini oshirish orqali ularni muloqotga kirishish ko‘nikma va malakasini shakllantirish haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Ijodkorlik, kreativ metod, ijodiy tafakkur, individuallik, iste’dod, ijtimoiylashuv, kreativlik, o‘quvchi, kreativ fikrlash, metodologik yondashuv.

В данной статье обосновывается необходимость формирования профессиональных навыков будущих учителей химии, анализа химической и методической литературы, использования методов развития творчества у студентов, развития творчества студентов, их роли в интегрированном учебном процессе. Мнения о специальных методах, которые помогут будущим учителям химии развить свои профессиональные навыки, использование креативных психолого-педагогических технологий в преподавании химии, формирование у студентов способности общаться путем повышения их творческого мышления и была предоставлена обратная связь.

Ключевые слова. Креативность, креативный метод, креативное мышление, индивидуальность, талант, социализация, креативность, студент, креативное мышление, методологический подход.

This article substantiates the need for the formation of professional skills of future chemistry teachers, the analysis of chemical and methodological literature, the use of methods for the development of creativity in students, the development of students creativity, their role in the integrated educational process. Opinions on special methods that will help future chemistry teachers develop their professional skills, the use of creative psychological and educational technologies in teaching chemistry, the formation of students’ ability to communicate by increasing their creative thinking, and feedback was provided.

Key words. Creativity, creative method, creative thinking, individuality, talent, socialization, creativity, student, creative thinking, methodological approach.

Bugungi kunda yoshlarning dunyoqarashini boyitish, ularda Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy g‘ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, hozirgi zamondagi keskin intellektual-ma’naviy raqobatga javob bera oladigan, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan yuksak malakali mutaxassislar etib tarbiyalash oliy ta’lim tizimida o‘qitilayotgan nafaqat gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, qolaversa, tabiiy fanlar oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarni, ayniqsa, umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari talabalariga zamonaviy texnologiyalarni o‘rgatuvchi o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘ziga xos shart-sharoitni talab qilish bilan birga, fanlararo aloqadorlik, ketma-ketlik, izchillik prinsplariga tayangan holda, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishni taqozo qiladi. Ta’lim tizimi ham jamiyat talablariga muvofiq o‘zgarib bormoqda. Agar ilgarilari o‘qitishning asosiy vazifasi talabalarning bilimlari, qobiliyatlari va ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘lgan bo‘lsa, tarbiyaning asosiy vazifasi kollektiv fazilatlarni rivojlantirishi bo‘lsa, bugungi kunda tez o‘zgaruvchan dinamik dunyoda o‘zini-o‘zi belgilashga qodir ijodiy shaxsni shakllantirish vazifasi birinchi o‘rinda turadi. Buning asosiy shartlari quyidagilardir: paydo bo‘lgan muammoli vaziyatlarni ijodiy, noan’anaviy hal etish, o‘z harakatlarining oqibatlarini “oldindan seza olish” qobiliyati, yuzaga keladigan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda o‘zlarining xatti-harakatlari strategiyasi va taktikasini moslashuvchan ravishda o‘zgartirish qobiliyatidir.

Zamonaviy universitetdagi o‘quv jarayoni talabaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va yoshlarning o‘zini-o‘zi o‘qishga bo‘lgan intilishlarini shakllantirishga yo‘naltirilishi kerak. Ushbu pozitsiya ko‘plab mahalliy olimlar va o‘qituvchilar zamonaviy ta’limning markaziy tamoyillaridan biri sifatida qabul qilgan yangi tamoyilda – ijodkorlik tamoyilida o‘z aksini topgan.

1950-yillarning boshlarida fanda “ijodiy fikrlash” atamasi qo‘llanila boshlandi. U darhol ijodning markaziy psixologik mexanizmi, ijodkorlikning yadrosi sifatida ko‘rila boshladi. Ushbu atamaning paydo bo‘lishiga aql-idrokning o‘ziga xos konsepsiyasining muallifi J.Gilford yordam bergan. U tafakkurni ijodiy – tafovutli va mantiqiy – konvergentga ajratdi. 60-yillarning oxirlarida ingliz psixologi Edvard de Bononing ijodiy tushunchasi paydo bo‘ldi, u ijodiy fikrlashni ijodning markaziy mexanizmi sifatida ko‘radi. 80-yillarning oxiriga kelib, ijodiy tafakkurni rivojlantirish dasturlari butun dunyoda mashhur bo‘lib, umumiy o‘rta ta’lim tizimida ham, qo‘shimcha kasb-hunar ta’limi tizimida ham qo‘llanila boshlandi. Ushbu jarayonda o‘qituvchining qadriyatlari va semantik munosabatlari ham muhim. Bu unga bolani o‘rgatish jarayonida yordamchi va maslahatchi lavozimini egallashga imkon beradi, hamma narsani oldindan biladigan murabbiy emas. O‘qituvchining ijodiy salohiyatining ko‘rsatkichlari zamonaviy mualliflarning aksariyati asosiy muhim fazilatlar sifatida qaraladi. Ular murakkab tabiatga ega va uning shaxsiyatining turli xil aqliy sohalarida namoyon bo‘ladi: intellektual, motivatsion, kuchli iroda, hissiy, subyektiv-amaliy, ekzistentsial, o‘zini-o‘zi boshqarish sohasi.

Kimyo ta’limiga mos ta’lim tizimida kreativ metolardan foydalanish orqali o‘quvchilarni muloqatga kirishish ko‘nikma va malakasini shakllantirib, o‘zaro yordam berish odatlarini rivojlantiradi hamda o‘quvchilarni bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunning vazifalarini amalga oshirishda o‘qitishning chuqur ijtimoiy e’tiqodlilik bilan uyg‘un ilmiyligiga qo‘yilayotgan talablar g‘oyatda muhimdir. Ma’lumki, maktab ta’limi mazmuniga kirgan barcha bilimlar voqelik qanday bo‘lsa uni shunday-

ligicha, hech bir qo‘shimchalarsiz aks ettiradi. Pedagogni vazifasi o‘quvchilarga ilmiy, haqqoniy bilimlarni asli holicha tushuntirishdan, ularni bilimlarini mustaqil o‘rganishlarida o‘zlashtirilgan haqiqatlar borliqdagi – inson ongidan tashqari obyektiv mavjud narsalarga muvofiqligini kafolatlaydigan yo‘lga solishdan iboratdir. Biz faqat ana shunga asoslanib, bolalarni mustaqil o‘ylashga o‘rgatishimiz, ularda o‘zlarining qarashlari va nuqtayi nazari tizimini tarkib toptirishimiz mumkin. Agar bilimlarni bayon etish lozim ishning usullarini ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, ijodiy faoliyatini o‘rgatish uchun o‘quvchilarni xuddi ana shu faoliyat jarayoniga bevosita jalb etish lozim. Mana shu muammo bo‘yicha ayrim mulohazalarni ifodalashga harakat qilamiz. Avvalo, har qanday ijodkorlik, xususan o‘quvchilarning ijodkorligi maxsus tayyorlangan sharoitlarda amalga oshishi mumkin. Bunda bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar tizimi hal qiluvchi omil bo‘ladi. Ijodni, ijodkorlikni qanday tushunish kerak? Odatdagi tushunchaga ko‘ra, ijod ozchilik kishilarning, buyuk san’at asarlarini, yangi mashinalar, dastgohlar va boshqalarni yaratadigan iste’dodli odamlarning qismatidir. Lekin ijod buyuk asarlar yaratishdangina iborat emas, balki kishining fikr yuritishi, biror tadbirni o‘ylab topishi, ozgina bo‘lsada, qandaydir yangilik yaratishi ham ijoddir. Ijod jarayoniga tasodif sifatida emas, balki qoida sifatida qarash lozim. O‘qituvchining ijodini qanday tushunishi kerak? Bolalar hech qanday yangilik yaratmaydi-ku? O‘quvchining ijodi uning olgan bilimlarini hayotda ko‘rgan faktlar va hodisalarga to‘g‘ri bog‘lay olishi, ularni to‘g‘ri baholab, dastlabki ma’lumotlarni tahlil va sintez qila bilishidir. Har qanday ijod bog‘liqlikni rad etish emas, balki borliqqa to‘la kirib borishdir. O‘qitishdagi individual yondashish ham ta’lim jarayonining muhim talabidir. Biz ana shu talabni qanday tushunamiz? O‘qitishdagi individual yondashish faqat mashq ishlarida emas, balki o‘quv jarayonining hamma bosqichlarida: yangi material o‘rganilayotganda qanday amalga oshiriladi. O‘qituvchi materialni tushuntirar ekan, darslikning paragrafi bilan cheklanishi mumkin emas. U ayrim ma’lumotlarni ancha kuchli o‘quvchilarni, nazarda tutib bayon qilishi lozim. Bunda bo‘sh o‘quvchilar nima qilishi kerak? O‘qituvchi ularni hisobga olmagan-ku? Ko‘pchilik tajribali o‘qituvchilar qiyin mavzuni o‘tishdan oldin, ana shunday o‘quvchilar bilan qo‘shimcha mashg‘ulot uyushtirib, yangi materialni idrok etish uchun ilgari o‘rganilgan bilimlarni takrorlaydi va yangi materialning qiyin joylarini tushuntiradi. Ana shunday qo‘shimcha ish doimiy ravishda bo‘lmasada, o‘qituvchining faoliyatida zarurdir. Chunki o‘qituvchining kasbiy burch, eng avvalo, ehtiyojmandlarga yordam berishdir. Darsda buning uchun har doim imkoniyat bo‘lavermaydi. Mashqlar vaqtida dastlab butun sinfga qiyinligi bir xil materialni berish, keyinchalik keyingi bosqichlardagina tayyorgarlik mashqlarni tabaqalashtirish tavsiya etiladi. Bo‘sh o‘quvchilar bilan ishlash darslarda ham, qo‘shimcha mashg‘ulotlarda ham amalga oshirilishi kerak. Bu ishlarda faqat o‘qituvchilar emas, balki mazkur sinfdagi kuchli o‘quvchilar yoki bo‘sh o‘quvchilarga biriktirilgan yuqori sinf o‘quvchilari ham qatnashishi lozim. Ta’limning demokratik va insonparvarlik o‘tish davrida o‘qitishdagi individual yondashish alohida ahamiyat kasb etadi, binobarin hozirgi kunning talabi o‘quvchi o‘rta maktab dasturini o‘zlashtirish uchun ta’limning har bir bosqichida tegishlicha bilimlar olishiga erishishdan iboratdir. Shaxs doimo shakillanishda bo‘ladi. Shaxsning shakillanishi sust kechishi ham mumkin. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish muammosini faqat maktab emas balki jamiyatning rivojlanishi ham hal qiladi, albatta. Jamiyat tobora rivojlanishi bilan shaxs har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar vujudga keladi. O‘qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish muammosi, ta’lim nazariyasi va amaliyotida yangi muammo emas. Ammo u hozirgi paytda ta’lim tarbiya nazariyasiga

alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning chet el pedagogikasi uchun mohiyati, bir tomondan fan texnika inqilobi sharoitida malakali kadrlar tayyorlashdan iborat bo‘lsa, ikkinchi tomondan fan texnika ishlab chiqarishni boshqarish, mafkura adabiyot va tabiat muammolarining yaratilishidan iboratdir. Ta’limni tabaqalashtirish muammosi ilmiy pedagogik asosda hal qilinsa, o‘qitishni ma’lum darajada individuallashtirishga imkoniyat paydo bo‘ladi. O‘qitishning individuallashtirish juda murakkab jarayon bo‘lib, ma’lum metadalogik va pedagogik yondashishga bog‘liq holda bevosita hal qilinadi. Pedagoglar va psixologlar o‘qitishni individuallashtirish shaxsni har tomonlama kamol toptirish, shaxs bilan muayyan (o‘quvchilar yoki ishlab chiqaruvchilardan iborat) jamoa o‘rtasidagi munosabatlarni, maktabning insonni tarbiyalashdagi muayyan tushunish nuqtayi nazardan yondashadilar bunday iste’dod va qobiliyatlarning baravar emasligi, ularning xilma-xilligi va individualligi haqidagi ta’limotga tayanadilar. O‘qitishning individuallashuvi tarbiyaning ham individuallashganini bildiradi. O‘qitish va tarbiyalash jarayonida shaxsning qobiliyatlarigina rivojlanib qolmaydi, balki uning fazilatlari ham shakllanadi. Inson esa faqat o‘zining atrofidagi olamga munosabati orqali shaxsga aylandi. Jamiatdan va ijtimoiy munosabatlardan tashqari individuallik bo‘lmaydi, sinfiy ekspluatorlik jamiatida bunday munosabati sinfiyligi sababli o‘qitish va tarbiyalashning har qanday individuallashuvi hukmron mafkuraning tarbiyalanuvchilariga ta’sirini kuchaytiradi va bu ta’sir yanada noziklashadi, o‘zgaruvchan va maqsadga muvofiqroq bo‘ladi. O‘qitishning individuallashuvi ta’limning tashkiliy shakllari va metodlari, sinflarning to‘laligi, o‘zgarishiga, hatto maktab binolarining rejalashtirilishi ham jiddiy o‘zgarishga sabab bo‘ladi. O‘quvchilar o‘zicha hayot kechiradi, ularning tashqi olamiga munosabatini ifodalovchi ma’naviy dunyosi boy va takrorlanmas bo‘ladi. Ana shu dunyoni, ichki hayotni individual yondashish bilangina tushunish mumkin. Individual xususiyatlar, qiziqish va iste’dodlar hisobga olinmasa, sinf-dars tizimi orqali muntazam o‘rganiladigan kurslar quruq yodlashga aylanib qolishi ehtimoldan holi emas. Har bir kishining iste’dodi ko‘p qirrali bo‘lib, faqat tashqi sabablar bilan emas, balki uning o‘z tabiatiga bog‘liq holda ham tarkib topadi. Inson tashqi ta’sirni o‘z-o‘zidan qabul qilmaydi, balki unda bolaga ta’lim orqali beriladigan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish imkonini yaratadigan biologik qobiliyat mavjuddir. Masalan, musiqalarga xos nozik eshitish analizatorlari zarur. Shunday analizatorlarga ega bo‘lgan holda musiqachi bo‘lmaslik mumkin, ammo mazkur analizatorsiz musiqachilikni o‘rganishning iloji yo‘q. O‘qitishni individuallashtirish “biologik” va “ijtimoiy” xususiyatlarni ya’ni insonda iste’dod bo‘lishi mumkinligi, lekin u faol ishlar bilan shug‘ullanmasa, iste’dod tashqi ta’sirlar, tashqi sharoitlar natijasida o‘z-o‘zidan qobiliyatga aylanmasligini yaqqol tushunishni talab qiladi. Ta’lim o‘zining mazmuni, metodikasiga ko‘ra tashqi ta’sirdir. Lekin u o‘quvchi iste’dodi hisobga olinsagina kutilgan natijani berish mumkin. O‘qitishning individuallashuvi jamoa bilan yanada chuqur bog‘lanishiga olib boradi, jamoadagi o‘zining “men” ini namoyish qilishning, shaxsiga aylanishning yorqin istiqbollarini vujudga keltiradi. Shaxsga ta’sir ko‘rsatishning jamoaviy vositasida tarbiyalash – unda jamiyatga to‘g‘ri munosabatni tegishli faoliyat bilan qo‘shilishining axloqiy-estetik normalar haqidagi, ularga ongli yondashish to‘g‘risidagi tushunchalarni tarkib toptirishni bildiradi. Mustaqillik va faollikni, o‘ziga xoslikni rivojlantirish esa ijtimoiy konstruktiv-ijodiy ishlarda o‘zini yaqqol namoyon etishdir. “Individuallik” – tushunchasi shaxsning boshqa kishilardan farqlanadigan alohida va yagona xususiyatini o‘z ichiga oladiki, bu xususiyat shaxsga jamiyatda o‘ziga xoslik va takrorlanmaslik baxsh etadi, yani kishi-kishini ekspluatatsiya qilmaydigan tizimda jamiyat va shaxs o‘zaro qarama-qarshi bo‘lmaydi.

Har qanday individuallikning betakrorligi jamiyatdan ajralib qolmaydi, balki jamiyatning uzviy bog‘liqligi uning manfaatlarini va harakat qonuniyatlarini tushunishidadir. Jamiyatsiz shaxs bo‘lmaydi, individuallik bo‘lmaydi, chunki kamolotning manbai jamiyatdir. Shaxsning kamol topishida o‘zining kuch g‘ayrati, bevosita faoliyati juda katta ro‘l o‘ynaydi. Bizning tarbiya va ta’lim tizimimiz har bir bolada iste’dod, faollik, onglilik va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Avval xususiyatlarni hisobga olib, umumiylikni, keyin umumiyni hisobga olib, alohidalikni rivojlantirish kerak. Respublikamizda ta’lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha izlanishda o‘qitishning yangi shakllari asta-sekin mustahkam o‘rin olmoqda.

Umuman aytganda, bolalarni saralash va o‘qitishga boshqacha yondashishi bilan ularning ijobiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish kerak. Boshlang‘ich maktab, bola shaxsining ilk shakllanishini ta’minlashi, uning qobiliyatlarini aniqlash, o‘quvchilarda bilim olish ko‘nikmasi va istagini tarkib toptirishi kerak. Bunday maktabda o‘quv faoliyatining zarur ko‘nikma va malakalarini egallaydilar, o‘qish, yozish, hisoblashni o‘rganadilar, ijobiy fikrlash elementlarini, madaniy nutq va xulqni, shaxsiy gigiyena hamda sog‘lom turmush asoslarini o‘rganadilar. Mana shu umumiy vazifalarni amalga oshirish uchun maqsadlarning ustunligini jiddiy va tubdan o‘zgartirish, avvalo, predmetlarga doir ko‘nikmalar va malakalarning shakllanish darajasiga e’tibor sustlashmasligi lozim. Boshlang‘ich ta’limning muayyan maqsadlarini ishlab chiqarishning haqiqiy ahvoli shunchaki, yangi ustunliklar nazariy va amaliy ustunliklari jihatidan eng kam ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda predmet ta’limining o‘quv dasturlarida belgilangan muayyan maqsadlari hozircha kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini va imkoniyatlaridan ajralib qolgan ta’limning rejalashtirgan natijalari va ularni baholash mexanizmlari nuqtayi nazaridan ifodalanmagan. Bu hol o‘quv faoliyatini shakllantirishga doir ishlar bilan predmetlar bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish o‘rtasida uzilish mavjudligidan dalolat beradi. O‘zbekiston maktablarining tajribali o‘quvchilari bolalarning nevropsixologlarining ekspress diagnostik tekshirish asosida tanlash metodidan foydalanadilar. Bu metod psixologiya fanlari doktorlari, professorlar B. Qodirov va E.G.Smernistkaya, dotsent S.Ohunjonovlar tomonidan ishlab chiqildi. Ular o‘quv rejasiga ijodiy tafakkurni rivojlantirish dasturlarini, ta’limning ikkinchi tili informatika, shaxmat o‘yini darslarini kiritadilar.

Kimyoga oid qiziqarli mavzularga krossvord, rebus va ijodiy izlanishga undaydigan masalalarni kiritish mumkin. Bunday qiziqarli masalalar quyidagi didaktik talablarga javob berishi kerak:

1. Qiziqarli masalalar tezkor va obrazli fikrlashni rivojlantirib, ularni yechish jarayonida ijodiy motivatsiya hosil qilishi lozim.

2. Taqdim etilayotgan materialning o‘quvchilar uchun yangi va qiziqarli bo‘lishi.

3. O‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyati darajasini oshirish maqsadida topshiriqlarning mazmunida uni turli usullar bilan yechilishi ko‘zda tutilishi.

4. Qiziqarli masalalarning yechish jarayonida bosqichma-bosqich o‘quvchilarning ijodkorligini yuzaga chiqarishga yo‘naltirilishi lozim.

5. O‘quvchilarning mustaqil ishlashini ta’minlash uchun topshiriqlarning variativ bo‘lishi lozim.

6. Topshiriqlarni o‘quvchilarning fazoviy tasavvur va tafakkurini rivojlantirishga qaratilishi joiz.

Kimyoni o‘qitishda krossvord va rebuslardan foydalanish o‘quvchilarni zeriktirmaslikka, kimyo atamalaridan so‘z boyligini oshirish va tez fikrlashga o‘rgatadi. Kim-

yoga oid rebursni tuz olishda turmushda uchraydigan va o‘quvchilarga ma’lum bo‘lgan obyektlar, shakllar yoki tajribalarni tanlash maqsadga muvofiq. Rebusda berilgan turli xil obyektlar, shakllar va tasvirlar o‘quvchilarga ma’lum bo‘lgani uchun o‘qitishning hamma bosqichida qo‘llash mumkin. O‘quvchilarni fanga qiziqtirish, darsda qiziqarli masalalar va didaktik o‘yinlardan unumli foydalanib faol o‘quv-biluv jarayonini vujudga keltirish orqali o‘quvchilarning grafik tayyorgarligi darajasini oshirish va kasbiy shakllantirish mumkin.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish dasturning (haftada ikki marta) vazifasi quyidagilardan iborat edi:

1. Konstursiya, piktogramma tili bo‘yicha mashqlar orqali obrazli tafakkurni rivojlantirish tabiiy obyektlarning o‘xshashligi bo‘yicha ishlash.

2. Sistemali va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, bunda o‘zaro uzoq o‘xshashlikning boshlanishi “ha-yo‘q” o‘yini, EHM bilan muloqot, konturli topshiriqlarni topish, “sferblat-umumiy tizim qismining sistemalari” o‘yini kiritilgan.

3. “Yaxshi-yomon” o‘yini, ertaklardagi ziddiyatlarni izlash orqali dialektik tafakkurni rivojlantirish.

4. Tabiatdagi hodisalarni bevosita kuzatish asosida bolalarning diqqatini tabiat go‘zalliklariga jalb qilish.

5. Ertaklar syujetlari bilan ishlash, turli ertaklarni tahlil qilish, tabiatdagi o‘xshashliklarni bog‘lash asosida kichik syujetlar tuzish, bir ertak obyektini ikkinchi ertakka ko‘chirish yo‘li bilan sehrli syujetlar va effektlar yaratish, ertakli masalalarni hal qilishda tasviriy san’at usullarini qo‘llash.

Yuqoridagi fikrlar asosida kimyo fanidan didaktik o‘yinlar ishlab chiqish va imkon qadar kompyuter o‘yinlari tarzida yaratib, dars jarayonida foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini orttiradi. Kimyo fanidan yaratilgan o‘yin dasturlari o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishga, ijodiy fikrlashga, mustaqil ishlash va bilim boyligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchi o‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida “Xotira” mashqidan foydalanadi. Bunda o‘qituvchi o‘tgan mavzularni ayta boshlaydi. O‘quvchilar mavzuga oid tayanch tushunchalarni ta’riflaydi.

Masalan, o‘qituvchi aytadi **“***Moddalarning xossalari. Fizik va kimyoviy o‘zgarishlar***”** o‘quvchilar davom ettiradi.

1-o‘quvchi; Tabiat doimo o‘zgarishda bo‘lib, har bir o‘zgarish bu – hodisadir.

2-o‘quvchi; Moddalarning o‘zgarishi 2 xil bo‘ladi:

a) fizik o‘zgarish;

b) kimyoviy o‘zgarish.

3-o‘quvchi; Kimyoviy o‘zgarish – bir moddaning boshqa modda yoki moddalarga aylanish hodisasiga aytiladi. Shu tariqa o‘tilgan mavzular takrorlaniladi. Tarqatmalar tarqatadi va 3 daqiqa vaqt belgilanadi. Darsga kam qatnashgan guruhlarga yana bir imkoniyat beriladi. Doskada daraxt yasalib, mevalaridagi savollarni uzib (qog‘ozdan yasalgan, oldi meva, orqasi savol) javob beradilar va shu tariqa o‘quvchilar baholanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar tomonidan berilgan javoblarni tahlil qilib, bo‘shliqlarni to‘ldiradi.

Qolgan o‘quvchilar bilan birgalikda “Kim chaqqon?” o‘yini o‘ynaladi. Bunda o‘qituvchi har bir guruh sardoriga atom-molekula sharlarini tarqatadi va o‘zi oldindan tayyorlab kelgan (parta soniga qarab) moddalar formulasi yozilgan qog‘ozlarni tarqatadi va 3 daqiqa vaqt belgilab, shu formula asosida atom sharlarida moddalarning struktura tuzilishini yasashni aytadi va o‘quvchilar modda nomi va birikmadagi elementlar-

ning valentligini ham aytishi kerak bo‘ladi. Qaysi guruh chaqqonlik bilan birinchi bo‘lib topshiriqni bajarsa, shu guruh sardori yana 5 ball olish imkoniyati ya’ni rag‘batga ega bo‘ladi. Buning uchun u magnit doskada turgan 10 ta element nomini aytib, kamida 3 ta formula tuzishi kerak.

Yuqoridagi fikrlarning misolini quyidagi zinama-zina metodida ko‘rishingiz mumkin. Bu metodda o‘quvchilarga quyidagi ta’riflar beriladi va o‘quvchilar topishi lozim. Topishgandan keyin sinf doskasiga reaksiya tenglamalarini yozishadi.

Bu ta’riflar qanday kimyoviy bog‘lar ekanligini toping.

Oqsil molekulalaring ayrim qismlari va polipeptid zanjirlar bir-biri bilan vodorod bog‘lar orqali birikadi.

Oqsil molekulasinig reaksiyaga kirishish qobiliyati tarkibidagi erkin faol guruhlarning bo‘lishiga bog‘liq.

Oqsil molekulasida aminokislotalar bir-biri bilan (-CO-NH-) peptid bog‘lari orqali bog‘langan.

Lekin shunday hodisalar borki, ularni aniq bir hodisalar qatoriga kiritib bo‘lmaydi. Masalan, g‘ovak spirt yuzasiga gazsimon yoki suyuq modda molekulalarining yutilishi, gazlama yoki silikat buyumlari sirtiga ranglarning qoplanib qolishi kabilardir. Bu jarayonlarda bir vaqtda ham fizik, ham kimyoviy hodisalar ro‘y beradi. Shu boisdan bular fizik-kimyoviy jarayonlar qatoriga kiritiladi.



Agar bu hodisalar o‘rganilib tahlil qilinsa, ayrim hodisalar natijasida, buyumning shakli va moddaning “ichki o‘zgarishi” bir turdan boshqasiga aylanishi tufayli sodir bo‘layotganini bilamiz. Bu hodisalarni ikki turga bo‘lishimiz mumkin.

1) fizikaviy hodisalar

2) kimyoviy hodisalar

Kimyo ta’limining barcha bosqichlarida kreativ metodlar turlaridan unumli foydalanib dars o‘tish mobaynida o‘quvchilarning kimyo fanidan puxta va keng bilim va ko‘nikmalar olishlarida, ijodkorliklarini rivojlantirishda muhim ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Tabiiy (kimyo) fanlarni o‘qitish boshqa fanlar singari ta’lim-tarbiya birligiga asoslanib, o‘sib kelayotgan yosh avlodda siyosiy, g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy fazilatlarni, yuksak ong va madaniyatni shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Demak, yosh avlod, bo‘lajak mutaxassislarning, umuman, millatning qanday siyosiy, g‘oyaviy, axloqiy, g‘oyaviy tamoyillar asosida yashashi va mehnat qilishi bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi samaradorligiga bevosita bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T., 2005. 279-283 betlar.

2. Asqarov I.R., To‘xtaboyev N.X., G‘opirov K.G‘. 7-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – T., 2010. 47-49 betlar.

3. Жарких Л.А. “Деятельность учителя химии по развитию умений устанавливать причинно-следственные связи при решении воспитательных задач”: Автореф. дис. … канд. пед. наук. СПб., 2004.

4. Борисович К.Б. “Формирование профессиональной компетенции будущих учителей химии по развитию креативности учащихся” Дис…канд. Пед. наук. – М., – 12 С. 2008.

5. Tolipov O‘., No‘monova N. Kimyo ta’limida zamonaviy pedagogik texnalogiyalar. Xalq ta’limi jurnali 2011 / 1 soni 22-b.

6. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiyalar, 2008.

Siddiq QAHHOROV,
Buxoro davlat universiteti “Fizika” kafedrasi professori
Zebo AVEZMUROTOVA,
Urganch davlat universiteti “Fakultetlararo umumtexnika fanlari”
kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchisi

TA’LIM OLUVCHILARGA QUYOSH SISTEMASIDAGI ZODIAK YULDUZLAR TURKUMINI O‘RGANISHDA YUPITER PLANETASINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada Stellarium dasturi asosida astronomiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, kuzatishlar olib borish xususan, Zodiak yulduz turkumlarini chuqurroq o‘rganish yuzasidan uslub bayon etilgan. Bu uslubdan astronomiya fanini o‘qitishda o‘qituvchilar, ushbu fanga qiziquvchi talabalar va o‘quvchilar foydalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar. Ekliptika, Yupiter, Qutb yulduzi, Sirius, Fomalhaut, Aldebaran, Zodiak, Hut, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jaddi, Dalv, Zodiak yulduz turkumlari, Oy, Quyosh, yulduzlar, Orbita, Stellarium dasturi.

В данной статье изложена методика организации практических занятий по предмету астрономии на основе программы Stellarium, методика проведения наблюдений, в частности методика углубленного изучения созвездия Зодиака. Данной методикой могут воспользоваться преподаватели при обучении предмету астрономии, студенты и учащиеся интересующиеся астрономией.

Ключевые слова. Эклиптика, Юпитер, Полярная, Сириус, Фомальхаут, Альдебаран, Зодиак, Рыбы, Овен, Телец, Близнецы, Рак, Лев, Дева, Весы, Скорпион, Стрелец, Козерог, Водолей, созвездия Зодиака, Луна, Солнце, Звезды, Орбита, программ “Stellarium”.

In this paper presents the observations at the practical lessons, especially the observation of Zodiak stars received by Stellarium programs. This method are useful for a teachers, students and interesting persons.

Key words. Ecliptic, Jupiter, Polaris, Sirius, Fomalhaut, Aldebaran, Zodiac, Fish, Aries, Taurus, Twins, Cancer, Lion, Virgo, Scales, Scorpion, Sagittarius, Capricorn, Aquarius, constellations of the Zodiac, Moon, Sun, Stars, Orbit, programs “Stellarium”.

Bugungi kunda ta’lim mazmuni va sifati jamiyatning dolzarb masalalari va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda, ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda, ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, innovatsion g‘oyalarni qo‘llash masalasi ommalashmoqda. Shu sababdan bizga ma’lum bo‘lgan metodlardan tushunarli, aniq va ravshanlarini ajratib olib ularni to‘g‘ri tushuntirish dolzarb muammolardan biridir. Ochiq osmon sferasida talabalar va o‘quvchilar bilan vizual kuzatishlarni olib borib, kuzatish natijalaridan to‘garak ishlarida, konferensiyalar tashkil etish barobarida

talabalarni astronomiya faniga qiziqishni uyg‘otish mumkin.

Ta’lim maskanlarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda internet tarmoqlari, kichik teleskop va durbin yordamida quyidagi amallar taklif qilinadi. O‘quv yilining boshida astronomiya fanidan umumiy tushunchalar berilib, vazifalar belgilanadi. Osmon sferasini o‘rganishda oddiydan murakkab kuzatishlarga o‘tib boriladi. Masalan, quyidagicha tartibda olib borish mumkin.

1**. Oy fazalarini o‘rganish**: Yangi oy, birinchi chorak, to‘lin oy, oxirgi chorak. O‘qituvchi Oy fazalari haqida tushuncha beradi va vazifalar belgilanadi.

2. **Oy relyefini kuzatish.** Ayniqsa, kichik teleskop va durbin yordamida Oy fazasini birinchi chorak holatida (yangi oyning 7 kunligida) kuzatish qiziqarli va aniqroq bo‘ladi. Oyning yorug‘ qismi bilan qorong‘i qismi chegarasida, Oy yuzasidagi tog‘larning soyalari, kraterlarning ichki soyalari va chegaralari aniq ko‘rinadi. Albatta, bu kuzatish natijalari talabalarda katta qiziqishlar uyg‘otadi.

3. **Eng yaqqol ko‘rinadigan yulduz turkumlarini osmondan qidirib topish.** Masalan, Katta ayiq, Kichik ayiq, Ajdaho, Orion, Savr, Tarozi yulduz turkumlari yoki mashhur nomlangan yulduzlardan: Qutb yulduzi, Sirius, Fomalhaut, Aldebaran va hokazo. Bu yulduz turkumlarini ko‘rinishi internet tarmoqlarida, adabiyotlarda berilgan bo‘lib, ularni osmon sferasidan topish bo‘yicha o‘quvchilarga ko‘rsatmalar va yo‘nalishlar beriladi.

4. **Planetalarni topish va ularning harakatini o‘rganish.** Osmonda yoritkichlar bir qaraganda, ularni bir-biridan ajratish ancha qiyindek tuyuladi. Astronomiya fani asosida osmon hodisalari chuqurroq o‘rganilsa, ularning har birining osmon sferasida o‘zining alohida o‘rni, harakat qonunlari borligi yaqqol ko‘rinadi. Sayyoralarni yulduzlar fonidan qidirib topish va ularni ko‘rinma harakatlarini o‘rganish o‘quvchi va talabalarning tobora qiziqishini yuzaga keltiradi.

Bundan 5 ming yil avval ham kishilar 5 ta sayyoralarni yulduzlardan farqli ravishda harakat qilishini kuzatgan. Quyida amaliy kuzatishlardan birini, ya’ni Zodiak yulduz turkumlarini Yupiter sayyorasi yordamida o‘rganish uslubini keltirib o‘tish mumkin. Quyoshning osmon sferasida bir yil davomida yuradigan yo‘li, ya’ni ekliptika chizig‘i bo‘ylab joylashgan yulduz turkumlari Zodiak yulduz turkumlari deyiladi. Quyosh, taxminan, har oyda birorta Zodiak yulduz turkumida bo‘ladi yoki bular burjlar – deb ham ataladi. Mazkur yulduz turkumlari 12 ta bo‘lib, ular Hut, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jaddi va Dalv, degan nomlar bilan ataladi.

Bu yulduz turkumlarini osmon sferasida bir qarashda boshqa yulduz turkumlaridan ajratish ancha qiyin tuyuladi, ammo biz bilamizki, har bir kuzatuvchi Oyni qiynalmasdan boshqa yoritgichlardan ajratishi mumkin. Oy 29,5 sutka davomida Zodiak yulduz turkumlarida bo‘lib o‘tadi. Xuddi shunday sayyoralarning orbita tekisligi ekliptika tekisligiga yaqin bo‘lganligi uchun ular ham siderik davri davomida Zodiak yulduz turkumlaridan o‘tadi. Osmon sferasida Yupiter sayyorasining harakatlarini vizual kuzatishlar orqali Zodiak yulduz turkumlarini o‘rganish o‘ziga yarasha afzalliklarga ega. Yupiterning o‘rtacha radiusi Yer radiusidan qariyb 11 marta katta bo‘lib, 69 ming 150 kilometrni tashkil etadi. Yupiter 778 million kilometr masofada Quyosh atrofida aylanadi. Yupiter Quyosh atrofida aylanish tezligi sekundiga 13 kilometr bo‘lib, har 12 yilda yulduzlarga nisbatan bir marta to‘la aylanib chiqadi. Yupiter ravshanligi jihatdan Oy, Veneradan keyin turadi va yil davomida (11 oy) osmonda ko‘rinib turadi. Yupiterning yoritilganligi Oynikidan juda kichik bo‘lganligi uchun uning atrofidagi kichik yoritgichlar ham ko‘rinadi. Buni quyidagi hisoblashlardan ko‘rish mumkin.

Yupiterning yerdagi kuzatuvchiga nisbatan yulduz kattaligi eng yorug‘ holatda $m_y = -2,94^m$ ni tashkil qilsa, to‘lin Oyniki esa $m_{oy} = -12,7^m$ dir. Agar Pog‘son formulasidan foydalansak, quyidagi ifodani olamiz:

$$m_{oy} - m_y = 2,51lg\frac{E_y}{E_{oy}} \left| \begin{matrix} unga\ qiymatlarini\ qo'ysak \\ -12,7^m - (-2,94^m) = 2.51lg\frac{E_y}{E_{oy}} \end{matrix} \right.,$$

bu yerda E_y – yupiterni, E_{oy} – esa oyni yer yuzasida hosil qilgan yoritilganligi.

$$-9,76 = 2,51lg\frac{E_y}{E_{oy}}$$

bunda tenglikning har ikkala tomonini 2,51 ga bo‘lsak quyidagini olamiz:

$$-3.89 = lg\frac{E_y}{E_{oy}}$$

va bu ifodani quyidagicha yozishimiz mumkin.

$$\frac{E_{oy}}{E_y} = 10^{3.89} \approx 10^4$$

Bu ifodadan ko‘rinadiki, Yupiterning yoritilganligi Oynikidan 10000 marta kichik. Shunday ekan, agar Oy yordamida Zodiak yulduz turkumlarining α,β,γ yorug‘ yulduzlarini ko‘rish imkoniyati mavjud bo‘lsa, Yupiter yordamida esa δ,μ,π,η kabi ancha xira bo‘lgan yulduzlarni ham bemalol kuzatish imkoniyati tug‘iladi. Shu bilan birga Yupiter biror Zodiak yulduz turkumida bir yilcha turadi. O‘sha yulduz turkumini istalgancha, qulay vaziyatlarda yaxshilab o‘rganish mumkin.

Kuzatishda olingan natijalarni Oliy ta’limda tanlangan fanlarda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida va akademik litseylarda 6 soatlik amaliy mashg‘ulot darslarida, fakultativ mashg‘ulotlarda, to‘garaklarda, konferensiyalar uyushtirib, ularda tahlil qilinib, mohiyati o‘qituvchi tomonidan animatsiya va virtual usullar yordamida tushuntirib boriladi. Kuzatish va amaliy mashg‘ulotlarda faol qatnashadigan o‘quvchilar va talabalarning olgan natijalarni hisobotini qilish o‘zlariga yuklatilsa yanada yaxshiroq samara berishi mumkin. Chunki bunda talaba adabiyot, internet materiallaridan foydalanishga intiladi va ko‘nikmalar hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamadazimov M., Rizayev T. Uzluksiz ta’lim tizimida Astronomiyani o‘qitishning muammolari. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – 355 b.

2. Sattorov U. Astrofizika I qism. – T.: Ta’lim nashriyoti, 2009. – 201 b.

3. Avezmurotov O., Avezmurotova Z., Bekberganov A. Zodiak yulduz turkumlarini Mars yordamida vizual kuzatish uslubi.//Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti. 2019-yil 3-son. – U. 69-72 b.

Anora RAXMATULLAYEVA,
Toshkent viloyati Chirchiq Davlat
pedagogika instituti "Biologiya" kafedrasi
o'qituvchisi

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ANIQLASH UCHUN QO'LLANILADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biologiya darslarida foydalanish yuqori samara berishi o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Muallif biologiyani o'qitish jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'qituvchi va o'quvchi, darslik, matn, turli didaktik materiallar bilan o'quv materialini o'zlashtirishni ta'minlashini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar. Biologiya, o'quvchilar, iqtidor, o'quv topshiriqlar, darslik, jadvallar, iste'dod.

В статье освещены вопросы развития интересов и потребностей учащихся в овладении основами науки, что дает высокую эффективность использования современных педагогических технологий на уроках биологии. Автор подчеркивает, что в процессе преподавания биологии современные образовательные технологии обеспечивают усвоение учебного материала учителем и учеником, учебника, текста, различных дидактических материалов.

Ключевые слова. Биология, ученики, талант, студенты, учебники, таблицы, таланты.

The use of modern educational technologies in biology lessons is highly effective, allowing students to develop their interests and needs in mastering the basics of science. In the process of teaching biology, modern educational technologies ensure the assimilation of teaching materials, textbooks, texts, and various didactic materials by the teacher and the student.

Key words. Biology, students, capability, tasks, textbooks, tables, talent.

So'nggi paytlarda zamonaviy ta'lim jarayonida yoshlarning iqtidorini sinfdan tashqari mashg'ulotlar (fakultativ mashg'ulotlar, loyihalar, ilmiy-tadqiqotlar, olimpiadalar) sifatida rivojlantirishning metodik jihatlariga tobora e'tibor qaratilmoqda. Biroq bu masala hali to'liq o'rganilmagan. Bundan tashqari, asosiy maktab fanlarini, xususan, biologiyani o'rganish jarayonida iqtidorni rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar juda kam.

Yuqorida keltirilgan ziddiyatlar asosida maqolaning muammoli savolini keltirib o'tdik: "Biologiyani o'rganish jarayonida tahsil oluvchilar iqtidorini rivojlantirishning qanday yo'llari bor?"

Shuni ta’kidlash joizki, metodlarni joriy qilish va amaliyotga tatbiq qilish jarayonining zaruriy sharti ijodiy yondashuvdir. Shaxsiy rivojlanishsiz, kasbiy faoliyatda o‘sish va yutuqlarga ega bo‘lish mumkin emas.

Pedagogik texnologiya – o‘qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish bilimlarni o‘zlashtirish, jarayonida o‘qituvchining pedagogik va o‘quvchilarning o‘quvbilish faoliyati, o‘qitish metodlari va vositalari, ularning o‘zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir. Pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonida lokal va xususiy metodik darajada qo‘llaniladi.

Biologiya o‘qituvchisi o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish maqsadida avval darsning ma’lum qismida lokal (modul) darajada qo‘llashi maqsadga muvofiq. Bunda avval yangi mavzu o‘rganilib, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma malakalarini nazorat qilish va baholashda nazorat testlari, turli o‘yin mashqlari, musobaqa, trening o‘tkazadi. O‘quvchilarning bu faoliyatga kirishishi va muayyan ko‘nikma va malakalarni egallagandan so‘ng, pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarni o‘tkazishi, ya’ni xususiy metodik darajada qo‘llashi mumkin.

Xususiy metodik darajada darsning barcha bosqichlari pedagogik texnologiya talablari asosida tashkil etiladi. Bunda o‘qituvchi o‘rganiladigan mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda qaysi texnologiyadan foydalanish, mazkur texnologiya asosida o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, darsda o‘quvchilarning bilishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlari, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimini nazorat qilish va baholash yo‘llarini belgilashi lozim. Biologiya fanini o‘qitishda darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, ekskursiyalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilish; laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish; biologiyadan masalalar yechish malakalariga; zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish; zamonaviy talablar darajasida darslarni tashkil qilish va o‘tkazish kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim. Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar “Biologiya fanini o‘qitish metodikasi” modulidan mashg‘ulotlar nazariy va amaliy shaklda olib boriladi. Nazariy mashg‘ulotlarda biologiya fanidan yaratilgan o‘quv-uslubiy majmualar mazmuni, dars ishlanmalariga qo‘yilgan talablar, biologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari va fanni o‘qitish metodikasi haqida ma’lumotlar beriladi. Amaliy mashg‘ulotlarda dars ishlanmalarini zamonaviy talablar asosida yaratish, o‘quvchilar bilimini baholash, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, ekskursiyalarni o‘tkazish, darslarni kuzatish va tahlil qilish o‘rgatiladi. Mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta’lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Biologiya darslarida foydalaniladigan texnologiyalar guruhiga:

1. Didaktik o‘yin texnologiyalari.
2. Muammoli ta’lim texnologiyalari.
3. Modulli ta’lim texnologiyalari.
4. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari.
5. Loyihalash texnologiyalari.
6. An’anaviy ta’lim texnologiyalari kiradi.

Quyida biologiya darslarida foydalaniladigan didaktik o‘yinli, muammoli, modulli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish va loyihalash texnologiyalarining qisqacha tavsifi, ularga asoslangan darslarning o‘ziga xos xususiyatlari berilmoqda.

Didaktik o‘yin texnologiyalari. Biologiya darslarida didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga imkon beradi. Didaktik o‘yinli darslarning syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar va o‘yin mashqlar kabi turlari bor. 8-sinfda ovqat hazm qilish, nafas olish, ayirish organlar sistemalarining tuzilishi mavzularida rolli o‘yin metodlaridan, hayvon va o‘simliklar seleksiyasi asoslari, O‘zbekiston olimlarining seleksiya sohasida erishgan yutuqlari, parrandachilik kabi mavzularda matbuot konferensiyasidan foydalansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ular seleksiya sohasida ishlayotgan olimlar va mutaxassislar, respublikamizda nashr qilinadigan gazeta va jurnallarning muxbirlari rolini bajaradilar.

Muammoli ta’lim texnologiyalari. O‘quvchilarning bilish faoliyatining bu tarzda tashkil etilishi ularda ijodiy faoliyatni tarkib topshirishga imkon yaratadi. Jadvallar bilan ishlashda o‘quvchi ham jadvalni to‘ldiradi va fikrini asoslab beradi. “Aqliy hujum” darslari dasturdagi muayyan bir mavzuni o‘rganishga bag‘ishlanadi. Zoologiya, botanika,10-sinf biologiya darslarida o‘simlik, hayvonlarni solishtirishda o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni tarkib toptirishga imkon yaratadi. Masalan, odamdagi rudimentlarni aniqlang. Ular qaysi organizmlarda rivojlangan va nimadan dalolat beradi?

Modulli ta’lim texnologiyalari. O‘quvchilarning bajarishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlari, o‘quvchilarning bajarilishi yuzasidan ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. 6-sinfda oilalar mavzusi bo‘yicha o‘quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturida, o‘quvchilar bilan kichik guruhlarda ishlab oilalarning o‘ziga xos belgilari, yovvoyi va madaniy vakillari bilan tanishish, ularning inson hayotidagi va tabiatdagi, iqtisodimizni rivojlantirishda tutgan o‘rnini aniqlash va darslik bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Bunda ham jadvallardan foydalansa, darsda yaxshi natijalarga erishiladi.

№	Oila nomi	Ildiz tizimi	Poyasi	Guli mevasi
1.	Gulxayridoshlar oilasi			

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi. Bu texnologiyada guruhda o‘qitish, kichik guruhlarda ishlash, “arra” yoki “zigzak”, “birgalikda o‘qiymiz” metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. “Zog‘ora baliqning ichki tuzilishi” mavzusini “arra” metodi yordamida ko‘rish mumkin. Mavzu matni mantiqiy tugallangan fikrlar quyidagi qismlarga ajratiladi: 1-guruh: zog’ora baliqning ovqat hazm qilish sistemasi. 2-guruh: zog‘ora baliqning nafas olish sistemasi. 3-guruh: zog‘ora baliqning qon aylanish sistemasi. 4-guruh: zog‘ora baliqning ayirish sistemasi va moddalar almashinuvi kabi o‘quv topshiriqlari beriladi, bunda o‘quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlaydi. Bunda o‘quvchilar guruhi mazkur topshiriq bo‘yicha egallagan bilimlarini xuddi “arra” tishlari ketma-ket kelganidek, navbat bilan o‘rtoqlariga bayon qiladi.

Loyihalash texnologiyasi. Bu texnologiyada taqdimotlar, ya’ni “Video topishmoq” animatsiyalar, audio va videolavhalar, diafilmlar, misol va masalalar bilan ishlash, laboratoriya va amaliy ishlarni o‘tkazish o‘quvchilarning kelajakda o‘zini-o‘zi rivojlantirishga, hayotiy tushunchalarini oshirishga sharoit yaratadi. Masalan, qon guruhlari bo‘yicha multimediani ko‘rsatish mumkin. Qadim zamonda bir podsho yashagan ekan. U qari va nihoyatda zolim ekan. Bir kuni podsho yosharishni xohlabdi va mahbuslarning qonini quyishni tabiblarga buyuribdi. Birinchi marta qon quyganda podsho o‘zini tetik, baquvvat his qilibdi. Ikkinchi marta qon quyganda esa podsho o‘zini yomon his qilib jon beribdi. Qani bolalar aytingchi, bunga sabab nima? Javob: sababi bir odamning qoni ikkinchi odamning qoniga to‘g‘ri kelmaydi. Odamda 4 xil qon guruhi bor. Har

bir qon guruhining rezus faktorlari bir-biriga mos tushishi kerak. Podshoga birinchi marta qon quyganda, uning qon guruhi bilan mahbusning qon guruhi bir-biriga mos tushgan, ikkinchi marta qon quyganda qon guruhlari mos tushmagan.

Zamonaviy dunyoda jamiyat, mavjud shart-sharoitlarga tez moslashuvchan, intellektual salohiyatli hamda tomonlama rivojlanishiga harakat qiladigan o‘qituvchilarga muhtoj. Tabiiyki, jamiyat talabini bajarish uchun imkon qadar ko‘proq bolalarning salohiyatini ochish kerak. Iqtidorni sifat darajasi rivojlantirishning bir qator muammolarini hal qilish uchun o‘qituvchi o‘quv jarayonini muntazam va maktabdan keyingi soatlarda amalga oshirishi kerak.

Iqtidorli bolalar bilan ishlashning tegishli usullarini tanlashda iqtidor turini aniqlashga alohida e’tibor berish lozim, shu yo‘l bilan aniq ijobiy natijalar olishga qaratilgan pedagogik faoliyat qurish mumkin. O‘qituvchi ma’lum shart-sharoitlarni yaratishdan tashqari, bolaning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib, uning uchun eng maqbul rivojlanish strategiyasini tanlashni amalga oshirishi kerak.

Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuqori samara beradi, o‘quvchilarning fan asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish imkonini beradi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari biologiya o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi, darslik, matn, turli didaktik materiallar bilan o‘quv materialini o‘zlashtirishni ta’minlaydi. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyati, kelajakda o‘z-o‘zini rivojlantirish va shakllantirish uchun sharoit yaratadi. Biologiyani rivojlangan darajada o‘rganish vizual anatomik modellar, bo‘yoqlar, reaktivlar va hokazolarni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun kelajakda biologiyani darsdan tashqari vaqtlarda o‘rganishda iqtidorni yangi bir sifat shaklida rivojlantirishga e’tibor qaratmoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gafurov A.T., Tolipova J., Fayzullayev S.S., Azimov I.T., Axmadaliyeva B. Biologiyani o‘qitishning umumiy metodikasi (o‘quv-metodik qo‘llanma). – T., 2005.

2. Abdullayeva M.M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida iqtidorli bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning hamkorlik mexanizmini takomillashtirish. – Chirchiq, 2019.

3. Matchonov B. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. Pedagogika Oliy o‘quv yurtlari 5140400 Biologiya mutaxassisligi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. –T., 2007.

4. Yo‘ldoshev J.G’., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya. – T.: O‘qituvchi nashriyoti, 2004.

Kamola NOROVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

OLIY TA'LIMDA PEDAGOGIK JARAYONNING MOHIYATI VA UNI BOSHQARISH

Annotatsiya

Maqolada ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishda fan-texnika yutuqlariga asoslangan boshqaruvning eng samarali metodlaridan foydalanishni, bilim, ko'nikma, malaka hamda yangi shaxsiy va kasbiy sifatlar haqida fikr yuritiladi. Ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, iqtisodiy o'zgarishlar, shuningdek, uzluksiz ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalari, o'quv-tarbiya jarayonining didaktik jihatdan ta'minlanishi ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirishga asos bo'lmoqda.

Kalit so'zlar. Jarayon, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, motiv, maqsad, harakat, natija.

В статье рассматривается использование наиболее эффективных методов управления, основанных на научно-технических достижениях, в организации и управлении учебным процессом на научной основе, знаниях, умениях и новых личностных, профессиональных качествах. Повсеместное внедрение передовых технологий, экономические изменения, а также передовые педагогические технологии непрерывного образования, дидактическое сопровождение учебного процесса являются основой совершенствования системы управления образованием.

Ключевые слова. Процесс, образовательный, развивающийся, мотив, цель, усилие, результат.

The article discusses the use of the most effective management methods based on scientific and technical achievements in the organization and management of the educational process on a scientific basis, knowledge, skills, abilities and new personal and professional qualities. The widespread introduction of advanced technologies, economic changes, as well as advanced pedagogical technologies of lifelong education, didactic support of the educational process are the basis for improving the education management system.

Key words. Process, educational, developing, motive, goal, effort, result.

Oliy ta'limda pedagogik jarayon mohiyati va uni boshqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jarayon (*lotincha "progress" – tizim*) – 1) holatlar ketma-ket o'zgarishi; biror narsaning rivojlanish kursi; 2) natijaga erishish uchun ketma-ket harakatlar majmui.

Pedagogik jarayon – maxsus tashkil etilgan, muayyan vaqt ichida va ma'lum bir pedagogik tizim (maktab, kasb-hunar ta'limi, texnik va ijodiy maktab, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va boshqalar) doirasida o'qituvchi va tahsil oluvchilarning ta'lim va tarbiya maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan maqsadli o'zaro munosa-

batidir.

Adabiyotlarda ko‘pincha “pedagogik jarayon” atamasining sinonimi, bu “o‘quv jarayoni” sifatida talqin qilinadi. Oliy ta’limdagi pedagogik jarayonning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– **ta’limiy** – talabalarning o‘quv, kognitiv va amaliy faoliyatdagi salohiyati va tajribasini shakllantirish, ilmiy bilimlar poydevorini, qadriyat yo‘nalishlari va munosabatlarini puxta egallashga zamin yaratish;

– **tarbiyaviy** – talabalarda ma’lum fazilatlar, xususiyatlar va munosabatlarda ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– **rivojlantiruvchi** – aqliy jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi, tahsil oluvchi shaxsining xususiyatlari va xususiyatlari dinamikasini rivojlantirish. Bu funksiyalar organik birdamlikda namoyon bo‘ladi: o‘qitish jarayonida tarbiyalash va rivojlanish vazifalari hal qilinadi. L.S.Vigotskiy ta’kidlashicha, ta’limiy vazifalar o‘qitish vazifalaridan ustun turadi; tarbiya obyektiv ravishda ta’lim va rivojlanishga hissa qo‘shadi; rivojlanish ta’lim va tarbiya uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Bularning barchasi ta’lim va tarbiya jarayonlarini mustaqil, bir-biridan ajralgan holda ko‘rib chiqish mumkin emasligini ta’kidlashga zamin yaratadi.

Oliy ta’limdagi pedagogik jarayonning tarkibi universaldir: u ma’lum bir oliy ta’lim muassasasi tizimi sharoitida shaxsni maqsadli shakllantirishning butun jarayoniga ham, maqsad va vazifalar nuqtayi nazaridan mahalliy bo‘lgan har qanday pedagogik o‘zaro munosabatlarga ham xosdir. Ma’lumki, har qanday faoliyatning maqsadi, natijasi va vazifalari mavjud. Pedagogik jarayon muayyan sharoitlarda davom etishi mumkin. Ushbu tarkibiy qismlardan birortasining kemtikligi pedagogik jarayonning yaxlitligini buzadi, samaradorligini pasaytiradi. Pedagogik jarayonda obyektiv, ijtimoiy subyektiv omillar tahsil oluvchining individual-aqliy mulkiga aylanadi va uning shaxsiyatining rivojlanishini ta’minlaydi. Shuning uchun pedagogik jarayon – bu o‘qitish, tarbiyalash, o‘qitish va rivojlanish jarayonlarining organik birligi.

Pedagogik jarayonning yaxlitligini aks ettiradigan o‘z qonuniyatlari mavjud. Fandagi muntazamlik hodisalar va ularning rivojlanishini tavsiflovchi jarayonlar o‘rtasidagi obyektiv mavjud, barqaror, takrorlanadigan, zarur va zarur bo‘lgan aloqa deb ataladi. Shu sababli ta’lim menejmentida muntazamlilik muammosi pedagogikadagi singari muhim masalalardan biri sifatida qaraladi. Ta’lim va tarbiya jarayonida muntazam, takroriy aloqalarni aniqlash, ular asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishning tarkibi, mazmuni, metodologiyasi va texnologiyasini tartibga soluvchi me’yorlarni aniqlash, pedagogik faoliyatda kerakli natijaga erishish imkoniyatini ta’minlaydi. Pedagogik jarayon qonunlari muammosini ko‘rib chiqishda quyidagi holatlarni hisobga olish kerak. Birinchidan, muntazam aloqalar obyektiv ravishda mavjud, ammo o‘qituvchi uchun bu ilmiy aloqalar aniqlangan, qayta-qayta tekshirilgan, tasdiqlangan va tushuntirilgan taqdirdagina uning ilmiy va amaliy faoliyatida hisobga olinadigan haqiqatga aylanadi. Ilm-fan (falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika) ko‘plab tabiiy aloqalarni allaqachon izohlagan, biroq, hanuzgacha bu borada ma’lum bo‘lmagan qonuniyatlar ham mavjudki, ularning yechimini “Ta’lim menejmenti” yechishga, pedagogik jarayonlarni boshqarishga aloqador masalalarni yoritishga tayyor. Ikkinchidan, qonuniyatlarning kashf etilishi va asoslanishi, odatda, qarama-qarshiliklarni aniqlash bilan boshlanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ular bir-biridan farq qiladi:

– ijtimoiy jarayonlar va hodisalar tufayli obyektiv tashqi qarama-qarshiliklar;

– pedagogik jarayonning dialektikasini aks ettiradigan obyektiv ichki qarama-qarshiliklar:

– o‘quv va tarbiya jarayonining nomukammalligi natijasida yuzaga keladigan subyektiv qarama-qarshiliklar.

Binobarin, o‘qitish va tarbiyalashda qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi pedagogik jarayonning sifatini oshirishning sharti sifatida qaralishi mumkin. Uchinchidan, umuman, pedagogik jarayonga xos bo‘lgan umumiy belgilar ham mavjud bo‘lib, ular muayyan ta’lim, tarbiya jarayoni faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Pedagogikada pedagogik jarayon qonunlarini aniqlashda hali ham kelishuv mavjud emas. Shu jihatdan olganda, “ta’lim menejmenti” bugungi kunda bu masalalar yuzasidan o‘z nuqtayi nazarini bildirishi, ularni nomlashi va tavsiflashiga ehtiyoj mavjud:

1. Oliy ta’lim muassasasidagi yaxlit pedagogik jarayon, uning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli va usullari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari, uning mafkurasi va siyosati bilan belgilanadi. Ushbu naqlning mohiyati quyidagicha ifodalanadi: birinchidan, inson o‘zining ma’lumoti bo‘yicha ijtimoiy mavjudot ekanligi va kommunikativ aloqa va qo‘shma faoliyatga asoslanib, faqat o‘ziga xos bo‘lgan jamiyatda shaxs sifatida rivojlanishi mumkinligi; ikkinchidan, ta’lim va tarbiya – bu obyektiv jarayon, ijtimoiy xususiyatga ega, mavjud ijtimoiy munosabatlar, aniq ijtimoiy mavjudot bilan shartlangan; uchinchidan, pedagogik jarayon har doim maqsadga muvofiqdir. Maqsadlilik shaxs va jamiyatning obyektiv manfaatlari va hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

2. Oliy ta’lim muassasasidagi pedagogik jarayonning vazifalari, mazmuni, usullari va shakllari nafaqat ehtiyojlarga, balki jamiyatning imkoniyatlariga, ushbu jarayon sodir bo‘ladigan sharoitlarga (moddiy, gigiyenik, axloqiy va psixologik va boshqalar) bog‘liq. Pedagogik jarayonning yuqorida ifodalanganligi uning tashqi aloqalari bilan bog‘liq.

Shu bilan birga, jarayonning o‘zida, ya’ni uning asosiy tarkibiy qismlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan bog‘lanishlar va o‘zaro bog‘liqliklarni hisobga olish kerak:

– integral pedagogik jarayonning tarkibiy qismi sifatida o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi;

– ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonlari, tahsil oluvchilarning pedagogik rahbarligi va havaskorlik ko‘rsatkichlari, o‘qitish va o‘qitish, ya’ni pedagogik jarayon subyekti va obyektlari faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik;

– talaba faoliyati va pedagogik munosabatlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar va uning rivojlanishi natijalari;

– tahsil oluvchining qobiliyatlari (yoshi, individual) va unga pedagogik ta’sirlarning tabiati o‘rtasidagi bog‘liqlik;

– pedagogik tizimda talabalar salohiyati va shaxs o‘rtasidagi bog‘liqlik;

– oliy ta’lim muassasasidagi pedagogik jarayonning vazifalari, tarkibi, shakllari va usullari o‘rtasidagi bog‘liqlik. Ushbu aloqalar universal xususiyatga ega, ular har doim pedagogik jarayonda namoyon bo‘ladi, ularning barqaror va tabiiyligi ta’minlanadi. Ularni pedagogik jarayonning quyidagi qonuniyatlari shaklida shakllantirish mumkin.

1.Ta’lim-tarbiya va shaxs rivojlanishi o‘rtasidagi muntazamlilik. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim va tarbiya shaxsni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular rivojlanishdan oldinroq uni belgilaydi. Ta’limni mashg‘ulotsiz amalga oshirish deyarli mumkin emas. Shu bilan birga, agar talabalar tarbiyalanmasa, ta’limni yaxshi tashkil etish mumkin emas. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ta’lim keng qamrovli, ma’rifiy va rivojlantiruvchi bo‘lishi kerak.

2. O‘z-o‘zini tarbiyalash, ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalashning birligi. Tarbiya va ta’lim

talabalarning faolligini, mustaqilligini rag‘batlantirsa va pedagogik ta’sir etsa, ularni o‘z-o‘zini tarbiyalashga va ijodiy o‘zini-o‘zi ifoda etishga undasa, samarali bo‘ladi.

3. Faoliyatda shaxsiyatni muntazam rivojlantirish. Faoliyatsiz rivojlanish sodir bo‘lmasligi ma’lum. Buning mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: faoliyat – o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi universal ijtimoiy bog‘liqlik, inson va jamiyat mavjudligi va rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi va sharti;

Faoliyatning xilma-xilligi shaxsning turli tomonlarini rivojlanishini ta’minlaydi; faoliyat obyektiv sabablarga ko‘ra yuzaga keladi – shaxs va jamiyat rivojlanishining ehtiyojlarini ifoda etadi;

Faoliyat har doim o‘ziga xosdir, bu unga maqsadga muvofiqlikni beradi;

A.N. Leontev ta’biricha, faoliyatning barcha turlari umumiy tuzilishga ega:

MAQSAD → MOTIV (EHTIYOJ) → HARAKAT → NATIJA

Inson o‘zining rivojlanishini, maqsadiga erishishni ta’minlaydigan faoliyat turlarini tanlaydi.

4. Oliy ta’lim muassasasining pedagogik jarayonidagi jamoa va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar muntazam rivojlanadi. Amaliyot shuni isbotladiki, shaxsni tarbiyalash, o‘qitish va rivojlantirish uchun eng yaxshi sharoitlar jamoa tomonidan manfaatlar jamiyati, o‘zaro hamkorlik va o‘zaro yordam munosabatlariga asoslangan ijtimoiy tashkilotning yuqori shakli sifatida yaratilgan. Shaxs jamoada individual rivojlanib, o‘zini to‘liq namoyon qiladi. Faqatgina jamoada va uning yordami bilan javobgarlik, mas’uliyatlilik, jamoa bo‘lib ishlash, o‘zaro yordam va boshqa qimmatli fazilatlar voyaga yetadi va rivojlanadi. Ushbu maqsadlar pedagogik jarayonni tashkil etishning jamoaviy va individual shakllarining maqbul kombinatsiyasini nazarda tutadi.

5. Oliy ta’lim muassasasining pedagogik jarayondagi vazifalari uning mazmun, shakl va usullarining o‘zaro bog‘liqlikda ekanligidan dalolat beradi. Buning mohiyati yaxlit pedagogik jarayonni boshqarish har doim jamiyatning umumiy maqsadlari va ehtiyojlariga asoslangan bo‘lishi kerak bo‘lgan maqsad va vazifalarni belgilashdan boshlanadi. Maqsad va vazifalar tabiiy ravishda pedagogik jarayonning boshqa barcha elementlarini – o‘qituvchilar va talabalar faoliyatining mazmunini, shakllarini va usullarini aniqlaydi. Istalgan yakuniy natijaga erishishga faqat shu holatda ishonish mumkin. Agar pedagogik jarayonning vazifalari, mazmuni, shakllari va usullari yaxlit mantiqiy zanjirni tashkil qilsa, o‘qituvchi ushbu tarkibiy qismlar orasidagi bog‘liqlikni loyihalaydi, ularning eng oqilona variantlarini tanlaydi, pedagogik jarayonlarni boshqarishda to‘g‘ri qaror qabul qiladi.

Oliy ta’lim muassasasidagi yaxlit pedagogik jarayonning ko‘rsatilgan namunalari o‘qituvchi tomonidan har tomonlama hisobga olinishi kerak. O‘qituvchi o‘z ishida faqat doimiy aloqalarga tayanib, boshqalarni e’tiborsiz qoldirsa, muvaffaqiyatga ishonish qiyin. Faqatgina integral pedagogik jarayonning barcha qonuniyatlarini tizimli ravishda amalga oshirish uning maqbul boshqarilishini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim sifatiga oid muammolarga e’tiborni oshirish so‘nggi yillarda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida yuzaga keldi, natijada rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida va mehnatga xos munosabatda fuqarolarning ehtiyojlarini, inobatga olish zarurati vujudga keldi. Oliy ta’limning eng muhim maqsadlaridan biri – talabalarning kreativ, intellektual rivojlanishi, bilim qobiliyatlarini shakllantirish va olingan bilimlarni hayotda amaliy qo‘llashdir. Ta’lim natijasi aslida bilim, shaxsiy rivojlanish, yuqori darajadagi ta’limni davom ettirish qobiliyati bo‘lishi kerak. Ta’lim sifatini baholashning asosiy obyektlaridan biri nafaqat talabalarning bilim

darajasi, balki ularning kreativ qobiliyatlarining shakllanganlik darajasini ham belgilaydi.

Pedagogik, psixologik va ilmiy-uslubiy adabiyotlarda talabalar bilimining sifatini tadqiq qilish masalalari doimo tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lgan. Oliy ta’lim sifatining muammolari G.A. Bordovskiy, L.N. Davidov, V.A.Kalney, I.I.Trubina, M.N. Skatkina, O.E. Shishova va boshqalar ishlarida ko‘rib chiqilgan. Ta’lim sifati mezonlarining muayyan tavsiflari A.B. Barannikova, S.I. Zinovev, A.I. Subetto, X.F. Talizina va boshqalar ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Adabiyotlar tahlilidan ma’lum bo‘lishicha, pedagogik jarayonlarni boshqarishda o‘ziga xos bir qator qarama-qarshiliklar ham mavjud:

– zamonaviy oliy ta’lim shaxs, jamiyat, davlat va ta’lim oluvchi ehtiyojlari hamda imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar;

– ta’lim mazmunini, ta’limning cheklangan vaqtini va o‘quv jarayonining subyektlari qobiliyatini belgilovchi ma’lumotlarning ko‘payishi.

Oliy ta’lim muassasasini boshqarishda bitta emas, balki ko‘plab boshqaruv turkumlari amalga oshiriladi. Bu turkumlar ierarxik tuzilmaga ega – xususiy turkumlar nisbatan umumiylari tarkibiga kiradi. Masalan, xalq ta’limini boshqarishning umumiy turkumida alohida ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarish xususiy turkumni tashkil etadi.

Jumladan, ta’lim sifatini boshqarish ta’lim jarayonini boshqarishning umumiy tuzilmasi takribiga kiradi. Bunda sifatni boshqarish umumiy boshqaruvning o‘z samaradorligini namoyish qilgan chiziqli tuzilmasini buzmaydi, aksincha, sifatni boshqarishning joriy etilishi rahbar bilan xodimlar va jamoatchilik vakillari o‘rtasidagi aloqalarni tartibga solish orqali ta’limning umumiy boshqaruvi samaradorligi keskin oshishini ta’minlashi mumkin. Alohida usullar va faoliyatlar, vositalar va jarayonlar amalga oshirilishi ketmaketligining batafsil bayoni qayd etilgan tartib(reglament)lar ta’lim sifatini ta’minlashga asos bo‘lishi bilan birga qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini ham yuqori darajada kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov I.I., Nishonaliyev U.N. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 2007.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: 2003.
3. Sariboyev H., Niyozov G. Pedagogika. – T., Fan, 2006.
4. G‘ulomov S.S. Menejment asoslari. – T., Sharq, 2002.
5. Petrovskiy A.V. va boshqalar. Umumiy psixologiya. – T.,1994.

Gulchiroy ABDURAIMOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasi o‘qituvchisi pedagogika fanlar bo‘yicha falsafa doktori

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI “STEAM – TA’LIM” YONDASHUVI ASOSIDA O‘QITISHNING MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada texnologiya fanini “STEAM – ta’lim” yondashuvi asosida o‘qitishning mohiyati, komponentlari, pedagogik tamoyillari, shartlari va mezonlari nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar. “STEAM – ta’lim”, kommunikativlik, kooperatsiya, kritika (tanqidiy fikrlash), kreativlik, “4K” ko‘nikmalar.

В статье теоретически обоснованы сущность, компоненты, педагогические принципы, условия и критерии технологии обучения на основе подхода “STEAM – образование”.

Ключевые слова. “STEAM – образование”, коммуникативность, кооперативность, критическое мышление, креативность, навыки “4K”.

The article theoretically substantiates the essence, components, pedagogical principles, conditions and criteria of teaching technology based on the “STEAM – education” approach.

Key words. “STEAM – education”, communication, cooperativeness, critical thinking, creativity, 4K skills.

Respublikamizda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda texnologiya fanini o‘qitish metodikasini ta’lim jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish orqali takomillashtirish, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy metodik tayyorgarligi samaradorligini oshirishning me’yoriy asoslari yaratildi hamda moddiy texnika bazasi shakllantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida “STEAM” fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berish, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi. Natijada, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini texnologiya fanini o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish, shuningdek, ta’limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlashning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

“STEAM” abbreviaturasi (qisqartmasi) birinchi marta 1990-yillarda amerikalik olimlar tomonidan taklif qilingan, biroq faqat 2000-yillardan faol qo‘llana boshlagan. STEAM asosida mazkur tushunchaning yangi variantlari shakllandi, ulardan tobora

keng tarqalganlari STEAM (Science **–** tabiiy fanlar, Technology **–** texnologiyalar, Engineering **–** texnik ijodkorlik, Art **–** san’at, Mathematics **–** matematika) hamda STREM (fan, texnologiyalar, robot texnikasi, injeneriya va matematika) hisoblanadi.

“STEAM **–** ta’lim” komponentlari quyidagilardan iborat: fanlararo integrativ yondashuv; ilmiy-texnik bilimlardan real hayotda foydalanish; tanqidiy fikrlash; o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni tarbiyalash; faol kommunikatsiya va jamoaviy ish; texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish; loyihalarga kreativ va innovatsion yondashish; texnik ijodkorlikda motivatsiyani rivojlantirish; kasbga erta yo‘naltirish; ta’lim oluvchilarni texnologik innovatsiyalarga tayyorlash.

Kelgusida texnologiyalarning jadal rivojlanish faoliyati yuqori texnologiyalar bilan “IT” mutaxassislar, “big data” mutaxassislari, dasturchilar kasblariga talab katta bo‘ladi. Bu kabi ijtimoiy buyurtmaga ta’lim tizimi robototexnika, dasturlash, modellashtirish (STEAM) to‘garaklari sonining ortishi bilan javob qilmoqda. Biroq ilmiy-texnik bilimlar yetarli emasligi haqida fikr tobora ko‘p takrorlanmoqda. Kelgusida “4K” deb nom olgan XXI asr ko‘nikmalariga talab ortadi.

Kelajak ko‘nikmalari (4K) **–** XXI asr ko‘nikmalari – hozirgi kunda turli darajalarda faol muhokama qilinayotgan alohida yo‘nalish. Konsepsiyaning mohiyati quyidagicha: sanoat (industrial) davrida savodxonlikni belgilaydigan ko‘nikmalar o‘qish, yozish va arifmetika bo‘lgan. XXI asrda esa tanqidiy fikrlash malakalari, o‘zaro hamkorlik va kommunikatsiya qobiliyati, ishga ijodiy yondashish diqqat markazda bo‘lmoqda. Shunday qilib, kelajakning asosiy ko‘nikmalari “4K” shakllantirildi:

– kommunikatsiya;
– kooperatsiya;
– kritik (tanqidiy fikrlash);
– kreativlik.

Bu ko‘nikmalarni faqat laboratoriyalarda yoki ma’lum matematik algoritmlarni bilish orqali egallab bo‘lmaydi. Aynan shuning uchun ham mutaxassislar STEAM-fanlarni ko‘proq va tez-tez o‘qishlariga to‘g‘ri kelmoqda. “STEAM **–** ta’lim”ning asosiy komponentlarini joriy qilish har bir umumta’lim maktabida alohida iqtidorli bolalarni aniqlash uchun eng yaxshi muhitni yaratishga ko‘mak beradi. “STEAM **–** ta’lim” XXI asr innovatsion texnologiyalariga asoslangan. Maqsadi – bolalarda yangi tipdagi fikrlashni rivojlantiruvchi ta’lim tizimidir. Bu **–** an’anaviy o‘qitish metodikasidan farq qiladigan ijodiy hamda tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga asoslangan tamomila yangicha yondashuvdir.

Avval bolalar qisqa hujjatli filmni ko‘radi, mavzuga oid ta’limiy o‘yinlarni o‘ynaydi, o‘qituvchi bilan birga maxsus topshiriqlarni bajaradi. Ularda turli tirik mavjudotlar va tabiiy zonalar haqida tasavvur hosil bo‘ladi, ular shu mavzuga rasmlar chizadi yoki turli narsalar yasaydi, shu tariqa tajriba yo‘li bilan bilim oladi. Keyin ular har bir mavzuni alohida o‘rganadi: audioyozuvlarni tinglaydi, internetdan kerakli saytlarni ko‘radi, bu mustaqil tayyorgarlik vaqti hisoblanadi. So‘ngra bolalar mavzuni qanchalik tushunganini aniqlash uchun test o‘tkaziladi. Ana shundan keyin o‘quvchilar o‘zi audio yoki videomateriallar tayyorlaydi yoki o‘zining sahifasida atrof **–** olam mavzusida insho, bayon yozadi. Bu bosqich mazmun yaratish deb yuritiladi. So‘nggi qadam – butun sinf birgalikda atrof-muhitdagi o‘zgarishlar: aynan havoga zararli gazlar chiqarishni kamaytirish haqida 10 daqiqalik videoni suratga oladi. Bu bosqichda bolalar o‘zining mavzuga oid bilimlarini (hamma o‘rganganlarini) namoyish qiladi.

Albatta, “STEAM **–** ta’lim” yondashuvi an’anaviysidan anchagina farq qilishini

ko‘rib turibmiz: bolalar mustaqil tayyorgarlikka ko‘p vaqt ajratadi, muammolarni topish va ularni o‘zi hal qilishga o‘rganadi.

Bolalar muvaffaqiyatli yo muvaffaqiyatsiz o‘quv tajribasi bilan o‘rtoqlashadi, loyihalar va ma’lum muammolarni hal qilish ustida birgalikda ishlaydi.

Sinfdoshlar bir-biriga yordam ko‘rsatadi, qo‘llab-quvvatlaydi, yangi ko‘nikma va malakalari yordamida o‘quv vazifalarini hal qiladi.

“STEAM – ta’lim” yondashuvda o‘qituvchi tomonidan berilgan materialni yod olishga emas avvalo, o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Uning asosini yangi g‘oyalar yaratish qobiliyati, mustaqil tayyorgarlik ko‘nikmalari, hamkorlikdagi ish, doimiy ravishda xatolar ustida ishlash va o‘quv masalalarini hal qilishni tashkil etadi.

“STEAM – ta’lim” yondashuvning asosiy g‘oyasi – amaliyot xuddi nazariy bilim kabi muhim, ya’ni o‘qiyotib nafaqat miya, balki qo‘llarni ham ishlatish lozim. Faqat sinf ichida o‘qitish jadal o‘zgarayotgan olamning ortidan quvib yetolmaydi. “STEAM – ta’lim” yondashuvning asosiy farqi ko‘plab predmetlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun bolalar nafaqat miyasi, balki qo‘llaridan ham foydalanadi. Olinayotgan bilimlarni ular mustaqil kashf etadi.

“STEAM – ta’lim” yondashuv nafaqat ta’lim metodi, balki tafakkur tarzi ham. Ushbu ta’lim muhitida bolalar bilim oladi va shu vaqtning o‘zida undan foydalanishga o‘rganadi. Shu sababli ular katta bo‘lgach, real dunyoda hayotiy muammo bilan to‘qnash kelib, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarishi bo‘lsin, bu kabi murakkab muammolarni faqat turli sohalarga oid bilimlar yordamida va birgalikda ishlab hal qilish mumkinligini tushunib yetadi. Bu o‘rinda birgina fandan olingan bilimlarga tayanish yetarli bo‘lmaydi.

“STEAM – ta’lim” yondashuv ta’lim va o‘qitishga bo‘lgan qarashlarni o‘zgartiradi. Amaliy qobiliyatlarga urg‘u berib, o‘quvchilar o‘z iroda kuchi, ijodiy salohiyati, egiluvchanligini rivojlantiradi, boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi. Bu ko‘nikma va bilimlar asosiy o‘quv vazifalari, ya’ni butun ta’lim tizimi qaysi tomonga intilishini anglatadi.

Bu texnologiya bo‘yicha ishlashning muhim xususiyati – aynan “STEAM” – loyiha ustida jamoaviy ishlash miyaning ijod, hissiyotlar uchun javob beradigan o‘ng yarim sharini ishga solish imkonini beradi. Bu texnologiya bo‘yicha muvaffaqiyatli loyiha ishlariga ko‘plab misollar keltirish mumkin.

O‘qitishning an’anaviy metodlari qanchalik muvaffaqiyatli bo‘lmasin, zamonaviy reallik ta’lim (o‘qitish)ning tobora yangi va samarali shakllarini izlashni talab etadi.

Butun hayoti mobaynida mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini singdirish, turli darajadagi hamkorlikka o‘rgatish, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – bu va boshqa ko‘plab prinsiplar zamonaviy ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tashkil qiladi.

O‘quvchilarini hayotga tayyorlar ekanmiz, ularga keyinchalik baribir kundalik hayotning bir qismiga aylanadigan qurollarni qo‘llashga ruxsat berishimiz kerak.

“STEAM – ta’lim” dan foydalanib ishni tashkil qilishda quyidagi asosiy pedagogik tamoyillarni hisobga olish zarur:

– *integrativlik* (ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl va metodlarini belgilaydigan o‘qitish jarayoni komponentlarining o‘zaro aloqadorligi nazarda tutiladi);

– *onglilik va faollik* (ma’lum va noma’lum o‘rtasida muayyan mantiqiy aloqalarni belgilash, predmet va hodisalar o‘rtasida sabab-oqibat aloqadorliklarni tushunishni ta’minlaydigan ta’lim oluvchining individual xususiyatlarini hisobga oladigan bilimlar

bilan ishlashni nazarda tutadi);

– *ko‘rgazmalilik* (qat’iy qayd qilingan ilmiy qonuniyatlarni o‘z ichiga olgan axborotni ko‘rgazmali namoyish etishadi);

– *tizimlilik* (ta’lim oluvchilarning yoshiga bog‘liq tarzda tarbiya mazmuni va shakllari o‘rtasida o‘zaro aloqadorlikni ta’minlaydi);

– *tushunarlilik va izchillik* (ta’lim va tarbiyaning birligini ta’minlaydi);

– *tabiatga muvofiqlilik* (bolani uning jismoniy va ma’naviy rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi);

– *hamkorlik* (oila, ta’lim muassasasi, jamoatchilikning ta’lim va tarbiya sohasida o‘zaro hamkorligi). Loyiha ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik qiladi, baholashning turli vosita (qurol)laridan foydalanadi, ya’ni universal o‘quv harakatlarini egallaydi. Bunda o‘quvchilar nimani bilishi va uddalashi qanday ishlashni namoyish qiladi.

Maktab o‘qituvchilari loyihalash faoliyatiga katta e’tibor qaratadi, chunki u o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga qaratilgan. Pedagog bu faoliyatni yo‘naltiradi xolos, natijada, ta’lim faoliyati sifati oshadi va tizimli fikrlash rivojlanadi.

Har bitta mashg‘ulotni loyihalashtirib o‘qitish asosiga qurish imkonsiz. Chunki bunday darslarni 40-45 daqiqalik standart vaqtga sig‘dirish qiyin. Ba’zi maktablarda u yoki bu loyihani amalga oshirish uchun kerakli jihozlar mavjud emas. Shu sababli ta’limning sifati va to‘laqonligini ta’minlanishi uchun maktab va qo‘shimcha ta’lim o‘qituvchisining hamkorlik qilishi zarur. Bunda qo‘shimcha ta’lim dasturlarining mazmuni ular bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lgan o‘quv fanlari mazmuni bilan muvofiqligi muhim. Shunday qilib, o‘quv materialini kengaytirish uchun dars doirasidan chiqish imkoni paydo bo‘ladi. Umumiy va qo‘shimcha ta’limning afzalliklari aniq. Qo‘shimcha ta’lim umumiy ta’limning variativligini kuchaytirishni ta’minlaydi va o‘quvchilarning maktab darslarida olingan bilimlarini amalda qo‘llashlariga ko‘maklashadi. Bundan tashqari, qo‘shimcha ta’limning asosiy mazmuni, odatda, amaliy yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ya’ni bola amaliy vazifalarni hal qilish yo‘llari va yechimlarini mustaqil izlaydi. Obyektlar, tabiat hodisalari ustida kuzatish ishlari va tadqiqotlar bilimlarni o‘zlashtiradi. Bunday ta’lim, faqat ijodiy, bolaga o‘zi uchun qiziqarli bo‘lganlarga muvofiq rivojlanishning o‘z yo‘lini izlash sharoitlarini yaratadigan bo‘lishi mumkin.

Fanlarning real hayot bilan aloqalaridan tashqari bu yondashuv o‘quvchilarning ijodkorligi uchun ham yo‘l ochadi. Bunday yondashuvda kichik yoshdagi o‘quvchilarning loyihalash faoliyati hal qilinishi kerak bo‘lgan qator vazifalarni belgilaydi. Yagona to‘g‘ri yechim mavjud emas. O‘quvchiga to‘liq ijod erkinligi beriladi. Bunday topshiriqlar yordamida bola nafaqat g‘oyalarni generatsiyalaydi, ularni hayotga tatbiq qiladi. Shunday qilib, u qo‘yilgan vazifadan kelib chiqib o‘z faoliyatini rejalashtirishga o‘rganadi, bu unga real hayotda albatta kerak bo‘ladi.

Ko‘plab mamlakatlarda “STEAM **–** ta’lim” quyidagi sabablarga ko‘ra ustuvorlik kasb etmoqda:

– eng yaqin vaqtda dunyo bo‘ylab IT-mutaxassislar, dasturchilar, muhandislar, yuqori texnologik ishlab chiqarish mutaxassislarining keskin yetishmovchiligi seziladi;

– kelajakda hozir tasavvur qilish ham qiyin bo‘lgan mutaxassisliklar paydo bo‘ladi. Ularning hammasi texnologiya va yuqori texnologik ishlab chiqarish bilan tabiiy fanlar kesishuviga bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, bio va nanotexnologiya mutaxassislariga ehtiyoj ortadi;

– kelajak mutaxassislari uchun har tomonlama tayyorgarlik va turli ta’lim sohalari,

ya'ni tabiiy fanlar, muhandislik va texnologiyaga oid bilimlar zarur bo'ladi.

"STEAM – ta'lim" yondashuvchi asosida o'qiyotganlar fizika va matematikadan tashqari o'z robotlarini konstruksiyalab va dasturlashtirib, robot texnikasini, dasturlashtirishni o'rganadi. Mashg'ulotlarda 3D-printer, vizuallashtirish vositalari kabi texnologik laboratoriya va o'quv jihozlaridan foydalaniladi. Aytish mumkinki, "STEAM – ta'lim" falsafasi bolalarni mehnat (texnologiya) darslarida kasbga o'rgatishga eski yondashuvlarga asoslanadi, faqat qurol (instrument) va o'qitish usullari o'zgaradi.

Predmetli yo'naltirilgan ta'lim loyihalarini joriy etishga biznes kompaniyalari faol jalb qilinmoqda. Bu ta'limda mazkur strategiyaning to'g'ri ekanligiga shubha yo'q.

"STEAM – ta'lim" – dunyo ta'limida asosiy trendlardan biri. Kichik yoshdagi bolalarda tabiiy va ijtimoiy fanlar sohasida qiziqish uyg'otib, umumiy o'rta va oliy ta'limda "STEAM – ta'lim" muvaffaqiyati uchun imkon yaratamiz. Fanlararo amaliy yondashuvni amalga oshirib loyihalash va o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish IT texnologiyalar sohasidagi muhim fanlarni o'zlashtirish uchun eng yaxshi asosni yaratish imkonini beradi.

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda "STEAM – ta'lim" muhitini shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj boshqa mamlakatlardagi kabi dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirda investorlar, biznes-homiylar, yirik biznes vakillarining ilmiy-innovatsion loyihalarga qiziqishi ortib boryapti. Ilg'or ishlanmalarning paydo bo'lishi uchun STEAM – markazlar yaratilishi, robot texnikasi kabi fanlar kiritilishi, dasturlashtirish asoslarini informatika faniga integratsiyalash, mavjud tajribadan pedagoglarni mavzuviy hamjamiyatlarga birlashtirish yo'li bilan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni.

2. Теплова Психолого-педагогические условия реализации программы "STEAM образования для дошкольников и младших школьников". IX Международной научно-практической конференции "Исследовательская деятельность учащихся в современном образовательном пространстве" Том 1, Москва, 2018. – С. 160-165.

3. Abduraimova G.O. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Texnologiya" fanini o'qitishga tayyorlash yo'llari va vositalari. // Pedagogika. – T, 2019. – №1. – B. 20 – 28.

4 Волосовец Т.В., Маркова В.А., Аверин С.А. "STEAM образование для детей дошкольного и младшего школьного возраста" парциальная модульная программа развития интеллектуальных способностей в процессе познавательной деятельности и вовлечения в научно-техническое творчество. – М.: 2017.– С. 112.

5. Sanaqulov H.R., Meliboyeva S.S., Abduraimova G.O. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. Darslik. –T., 2019. – 210 b.

Abdurahim IBRAGIMOV,
Bahodir PARDAYEV,
Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchilari

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘LLASH TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH VA O‘QUV-TARBIYA JARAYONIGA TATBIQ ETISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash va o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yo‘llari ko‘rsatilgan bo‘lib, unda darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning bevosita kasb tarbiyasini, kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirishda keng imkoniyatlar yaratilishi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kasb-hunar, texnologiya, ekskursiya, obyekt, kuzatish, suhbat, axborot, o‘quv dasturi, kasb-hunarlar klassifikatsiyasi, mahalliy-hududiy kasblar tasnifi, tizimlashtirish.

В статье показаны способы направления студентов к профессии во внеучебной деятельности и их применение в учебном процессе показано.

Ключевые слова. Профессия, технология, экскурсия, объект, наблюдение, интервью, информация, учебный план, классификация профессий, классификация локально-региональных профессий, систематизация.

This article shows the ways to direct students to the profession in extracurricular activities and their application in the educational process, which includes the direct vocational training of students in extracurricular activities, not to the profession. The possibilities of creating a wide range of opportunities for the implementation of the work are shown.

Key words. Occupation, technology, excursion, object, observation, interview, information, curriculum, occupation classification, local-regional occupation classification, systematization.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 1-oktabr O‘qituvchi va murabbiylar kuni arafasida o‘qituvchilarni nufuzini ularning qadr-qimmatini ko‘tarish sharafli va mashaqqatli kasblardan biri ekanligini qayta-qayta ta’kidlab o‘tdilar. Bu qanday takliflar edi, ilgari surilgan fikr va g‘oyalar quyidagi mezonlarda o‘z aksini topgan. O‘qituvchilarga ustamalar to‘lash mezonlari to‘liq qayta ko‘rib chiqilishi zarur. O‘qituvchilar faoliyatiga noqonuniy aralashuv, boshqa ishlarga jalb qilish javobgarlikka sabab bo‘lishini (qonunda) qat’iy belgilash lozim.

Professional ta’lim tizmini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni e’lon qilindi. Hozirgi kunda respublikamizda yengil sanoatda 46 ming, qurilishda 104 ming, metalga ishlov berish bo‘yicha 71 ming, xizmat ko‘rsatish sohasida 67 ming nafar mutaxassis yetishmaydi. Bu ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida uyg‘unlik yo‘qligi oqibatidir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, maktab o‘quvchilarining tashkil qilingan darsdan tashqari mashg‘ulotlarga qatnashish davri uning umumiy o‘rta ta’lim muassasasidagi butun ta’lim davrini qamrab oladi.

Bu davr mobaynida o‘quvchilar bilan tadqiqot tajriba-sinov maydonlarida tashkil etilgan “Naqqoshlik”, “Tikuvchilik”, “Elektrotexnika”, “Duradgorlik” to‘garaklarining

maxsus ishlab chiqilgan ish rejalari va namunaviy dasturlar asosida mashg‘ulotlar olib borildi. Tashkil qilingan har bir to‘garak mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilar umumiy o‘rta ta’lim o‘quv dasturi bilan uzviy bog‘liq ravishda kasbiy bilimlar asoslarini uzluksiz egallab bordilar. To‘garaklar uchun ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshirish murakkab pedagogik-psixologik hamda tashkiliy jarayonlarni o‘z ichiga olganligi sababli, o‘quvchilar qabul qilishi lozim bo‘lgan barcha axborotlar oqimini guruhlar bo‘yicha tizimlashtirish maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirdik:

– o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash ishlarini axborot bilan ta’minlash tuzilmasi tahlil qilindi;

– o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta’lim o‘quv dasturi asosida dars jarayonida tanishishi mumkin bo‘lgan kasb-hunarlar klassifikatsiyasi belgilab olindi;

– maktablarda dars jarayonida bevosita qarab chiqilmagan, mahalliy-hududiy sharoitlarga ko‘ra talab qilinadigan kasblar tasnifi va ularning har biri to‘g‘risidagi axborotlar jamlandi va tizimlashtirildi;

– darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kasb-hunarga yo‘llash ishlarini tashkil qilishda ishlab chiqilgan klassifikatsiyalar asos vazifasini o‘tadi, o‘quvchilarni mahalliy talablar asosida kasb-hunarga yo‘llash ishlarining samaradorligini ta’minladi.

Bu jarayonda, shuningdek, o‘quvchi shaxsini kasb tanlashga yo‘llashda yo‘nalishni ixtiyoriy tanlash uchun sharoit yaratishda uni erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning yechimini kasb tanlashga yo‘llash ishlari bilan bog‘liq holatda hal etish uchun biz ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, milliy, mintaqaning demografik holati kabi omillarni hisobga olib borildi.


Kasb tanlash uchun o‘quvchi o‘z imkoniyatlarini baholay olish ko‘nikmasiga, ya’ni qiziqishlariga monand, har xil kasblar bo‘yicha bilimga kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborotga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Shaxsda kasbga yo‘naltirish maxsus amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi, o‘quvchining inson sifatida shakllanish bosqichlarida shaxs va jamiyat yagona bir tizim sifatida qaraladi, o‘tish davrida bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablari inobatga olinadi. Shaxs har tomonlama kamol topishi uchun aqliy, jismoniy, ma’naviy, ruhiy jihatdan tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan shaxsning shakllanishiga bir necha omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchi shaxsini shakllantirishga ta’sir etuvchi quyidagi manbalar aniqlandi;

1. Ma’naviy fazilatlar.
2. Kasbiy fazilatlar.
3. Pedagogik bilimlar.
4. Psixologik bilimlar.

Bugungi kasb tanlashga yo‘llash ishlarida shaxs sifatlarini chuqurroq o‘rganish asosida mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning individual imkoniyatlari asosida ta’lim berish o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. Individual yondashuv asosidagi ta’lim o‘quvchining qiziqishi, ehtiyoji, xohishiga ko‘ra, muayyan kasb-hunar yuzasidan chuqur ma’lumotlar olishi va kelajakda tanlagan kasbi bo‘yicha kasb-hunar kollejlariga o‘qishga borishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Biz tadqiqot tajriba-sinov maydonchalarimizda o‘qitishning noan’anaviy shakllari doirasida amaliy-tajriba mashg‘ulotlari bilan bog‘lab o‘rganish usullarini sinab ko‘rdik. Amaliy-tajriba mashg‘ulotlari maxsus jihozlangan xonalarda va alohida ajratilgan tajriba maydonida olib borildi (1-jadval).



1-jadval. Amaliy tajriba mashg‘ulotlarini tashkil qilish tuzilmasi


Bunday ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil qilishda asosan darsdan tashqari ishlarning amaliy-tajriba mashg‘ulotlari va ekskursiyalar shakllaridan foydalanildi (2-jadval).

Darsdan tashqari mashg‘ulotlar shakllaridan biri hisoblangan ekskursiyalarni tashkil qilishda biz ularning sinf-dars tizimi, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlardan tubdan farq qiluvchi quyidagi jihatlariga e’tibor qaratdik:

a) o‘tkaziladigan ekskursiyalarning hammasiga o‘qituvchi rahbarlik qilsa-da, u ekskursiya obyektlarining barchasi bilan yaxshi tanish bo‘lmasligi mumkin, bunday hollarda ekskursiya uyushtirilayotgan korxona, muassasa yoki xo‘jalikning mas’ul vakili mashg‘ulot olib boradi;

b) ekskursiya muddati turlicha bo‘lib, ularni tashkil qilishda mintaqaviy, mavsumiy va ekskursiya uyushtiriladigan obyekt xususiyatlaridan kelib chiqiladi. Jumladan, qishloq xo‘jalik korxonasiga hosilni yig‘ishtirib olish davrida, avtokorxonalarga texnik qarovlarni o‘tkazish paytida ekskursiya uyushtirilishi eng yuqori unumdorlikka erishish imkonini beradi;

v) o‘qituvchi yoki ekskursiya uyushtirilgan obyekt vakili bo‘lgan ekskursovodning rahbarlik usuli va o‘quvchilarning faoliyati turlicha bo‘lishi mumkin.



2-jadval. Ekskursiyalarning yo‘nalishlari va tarkibiy tuzilishi

Ekskursiya davomida bir o‘rindan ikkinchi o‘ringa ko‘chib yuriladi. Shu bois, o‘quvchilardan intizomga qat’iy rioya qilish talab etiladi. O‘qituvchilar obyektni kuzatish jarayonida vaqti-vaqti bilan savollar beradilar, zarur ma’lumotlarni yozib boradilar. Ekskursiya yakunida o‘qituvchi bugungi kuzatganlarini avval o‘zlashtirilgan materiallarga bog‘lab suhbat o‘tkazadi. Ekskursiya materiallari asosida bayon yoki insho yozdirish mumkin.

Ta’limning noan’anaviy shakli sifatida tashkil etiladigan bahs-munozara, davra suhbati, amaliy konferensiya, seminar va boshqalar muayyan predmetning muhim mavzulari yuzasidan tashkil etilib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini ilgari surish, uni asoslash hamda himoya qilish qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu kabi darslarning tashkil etilishida maqsadning aniqligi, shuningdek, o‘qituvchilarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo‘linadi. O‘quv bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonini o‘zi uzatish, qabul qilish, anglash, o‘quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olishni nazarda tutishini hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga so‘z orqali uzatish va axborotni eshitish orqali qabul qilish metodlari (og‘zaki metodlar, tushuntirish, hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqalar); ikkinchi guruhiga o‘quv axborotini ko‘rgazmali uzatish va ko‘rish orqali qabul qilish metodlari (ko‘rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar); uchinchi guruhiga o‘quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar: mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar va yo‘nalishlar asosida mashg‘ulotlarni samarali o‘tkazish texnologiyasini ishlab chiqish vazifasini amalga oshirish uchun:

– o‘quvchilarning darsdan tashqari mashg‘ulotlari va ularni kasbga yo‘naltirish jarayonlarining samaradorligi va unumdorligini oshiruvchi metod hamda nazariyalarni tahlil qilib, ular orasidan shaxsni kelajakda yetuk va raqobatbardosh kasb egasi sifatida shakllantirish imkonini beruvchi pedagogik texnologiya bosqichlari ishlab chiqish va tizimlashtirish;

– o‘quvchilarda kasbga oid tushunchalar hosil qildirish;

– kasbga oid nazariy bilimlar berish;

– olingan bilimlarni amalga tatbiq etish va kasb-hunar haqida o‘quvchilarda ko‘nikma va malakalar hosil qildirish asosida ularni kasbga yo‘llash;

– mashg‘ulotlarni tashkil etishning mavjud bo‘lganlariga nisbatan afzalroq bo‘lgan muqobil metodlar va shakllarini ishlab chiqish imkonini beradigan istiqbolli yo‘nalishlar belgilab olindi;

– o‘quvchilarning darsdan tashqari mashg‘ulotlarini tashkil qilishda guruh shaklidan foydalanganligimiz sababli, jamoani shakllantirish va boshqarish metodlarini, ya’ni jamoa oldidagi umumiy muammoni hal qilish uchun har bir o‘quvchining individual fazilat va sifatlarini to‘laroq e’tiborga olish imkonini beruvchi mezonlar ishlab chiqish hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlar uchun ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshirish murakkab pedagogik-psixologik hamda tashkiliy jarayonlarni amalga oshirishda o‘quvchilar qabul qilishi lozim bo‘lgan barcha axborotlar oqimini guruhlar bo‘yicha tizimlashtirish, bu vazifalarni amalga oshirishda shaxsni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar aniqlash hamda amaliy tajriba va ekskursiya mashg‘ulotlarini tashkil qilish yo‘nalishlari hamda metodlarini ishlab chiqish o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llashni muhim omillari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Movlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Xolmatov Q., Shirinov M.K. “Umumiy pedagogika” Darslik Navro‘z nashriyoti. – T., 2016.

2. Kuchukvayev F.M., Akbarov B.A., Turg‘unov A.A. “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar ” metodik qo‘llanma. –T., 2016.

Kimyoxon MAMATQULOVA,
A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

UMUMTA'LIM MAKTAB DIREKTORLARI MALAKASINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya

Maqolada xalq ta'limi tizimi rahbar xodimlari malakasini oshirishning shakl va mazmunini maktab direktorlarining "boshqaruv ehtiyoj"lari ustuvorligini ta'minlash asosida takomillashtirish yo'llari, maktab direktorlarining malakasini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda xorij tajribasining ilg'or usul va uslublarini tahlil etish va ularni malaka oshirish jarayoniga tatbiq etish haqidagi mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, maktab direktorlarining ehtiyojlariga asoslangan malaka oshirish jarayonlarini baholash tizimi malaka oshirish jarayoniga kredit texnologiyalari hamda kompetentlik darajasidan kelib chiquvchi tabaqalashtirilgan sertifikatlash tizimini joriy etish asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Ehtiyoj, ta'limiy ehtiyoj, an'anaviy va masofaviy malaka oshirish, talab-taklif tamoyili, menejer, rahbarlik sifatlari, variativlik, tabaqalashtirish.

В статье рассматриваются пути совершенствования формы и содержания повышения квалификации руководителей народного образования с учетом приоритетности "управленческих потребностей" директоров школ, анализ передовых методов и приемов совершенствования механизмов повышения квалификации директоров школ и их применение в учебном процессе. Также обсуждаются вопросы совершенствования системы оценки повышения квалификации директоров школ на основе внедрения кредитной технологии в процесс повышения квалификации и дифференцированной системы аттестации по уровню компетентности.

Ключевые слова. Потребность, образовательная потребность, традиционное и дистанционное обучение, принцип спроса-предложения, менежер, лидерские качества, вариативность.

The article discusses ways to improve the form and content of advanced training for leaders of public education, taking into account the priority of the "management needs" of school principals, analysis of advanced methods and techniques for improving the mechanisms of advanced training for school principals and their application in the educational process. The issues of improving the system of assessing advanced training of principals are also discussed. schools on the basis of the introduction of credit technology in the process of professional development and a differentiated certification system for the level of competence.

Key words. Need, educational need, traditional and distance learning, the principle of supply and demand, manager, leadership qualities, variability.

Dunyo miqyosida ta’lim rivojlanishning muhim omili sifatida e’tirof etilib, UNESCO tomonidan 2015-yil 19-22-may kunlari Janubiy Koreya Respublikasining Inchon shahrida 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish”[1] dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Hayot davomida sifatli ta’limni ta’minlash masalasi kadrlar malakasini oshirish samaradorligi bilan ham belgilanadi. Bu esa, bugungi davr talablarini hisobga olgan holda, malaka oshirish ta’limiga ehtiyojga asoslanganlik, talab va taklif tamoyillarini joriy etishni, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirishning variativ dasturlarini shakllantirishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, umumta’lim maktab direktorlari (matn davomida maktab direktorlari)ning malakasini oshirish jarayonining ehtiyojlarga asoslanganlik tamoyillari asosida takomillashtirish hozirda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon mamlakatlarida maktab direktorlarining malakasini oshirish ta’limiga ehtiyojga asoslanganlik tamoyili asosida “souching” va “shadowing” metodlari joriy qilingan. Jumladan, hozirda Avstriya Boshqaruv Akademiyasida ta’lim tizimi rahbar xodimlarini sifatli tayyorlash va malakasini oshirish, AQSh pedagogik ta’limni akkreditatsiyalash Milliy Kengashi (National Council for the Accreditation of Teacher Education) tomonidan rahbar va pedagog kadrlarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish mezonlari, Ta’lim Milliy instituti (National Institute of Education)da esa rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xorij tajribasini o‘rganish mamlakatimizda maktab direktorlarining malakasini oshirish masalasiga tanqidiy va ijodiy yondashgan holda quyidagi:

– malaka oshirish jarayonida rejalashtirishga tayanib qolmaslik;

– talab va taklif tamoyili asosida maktab direktorlarining ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

– malaka oshirish ta’limiga xususiy sektorni jalb etish;

– malaka oshirish sarflanadigan byudjet mablag‘larini (malaka oshirish muassasasi hisobiga emas) bevosita umumta’lim maktabining maxsus shu yo‘nalish uchun ochilgan hisob raqamiga tushirish;

– malaka oshirish natijasini hisoblash mexanizimi va sertifikatsiyalash tartibini qayta ishlab chiqish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatdi.

Mamlakatimiz xalq ta’limi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda maktab direktorlarida menejerlik ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalq ta’limi sohasida rahbar va mutaxassis xodimlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, mehnat bozorining bugungi davr ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali rahbar kadrlar bilan ta’minlash, malaka oshirishning samarali mexanizmini yaratish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprel PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi Farmonida “malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o‘qitish shakllari, mazmuni va metodlarni yangilash, baholash tizimini qayta ko‘rib chiqish”[2] vazifalari belgilangan. Shu nuqtayi

[1] Inchon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22-may 2015, Incheon, Republic of Korea).

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprel PF-5712-son “O‘zbekiston

nazardan, maktab direktorlarining malaka oshirish mexanizmlarini boshqaruv ehtiyojlari asosida takomillashtirish masalasi hozirda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot ishi doirasida maktab direktorlarining malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlashga ta’sir etuvchi omillar (ish tajribasi, kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivlar, boshqaruv sohasidagi qiyinchiliklar va kompetensiyaviy bo‘shliqlar) va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari (boshqaruv ehtiyojlariga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni, refleksiv texnologiyalar, uzluksiz monitoring) aniqlandi.

Maktab direktorlarining malaka oshirishga bo‘lgan boshqaruv ehtiyojlarini aniqlashda malaka oshirish jarayonining amaldagi holati o‘rganilib, malaka oshirishga bo‘lgan boshqaruv ehtiyojlarini aniqlashning shakl, usullari va ustivor tamoyillari aniqlashga e’tibor qaratildi. Bizning fikrimizcha, maktab direktorlarining malaka oshirishga bo‘lgan boshqaruv ehtiyojlarini aniqlashda quyidagi ustivor tamoyillarga asoslanish samaradorlikka erishishni kafolatlaydi.

Statistik tahlil natijasida maktab direktorlarining malaka oshirishga bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni o‘zlashtirishga nisbatan boshqaruv ehtiyojlari aniqlandi. (1-jadval)

Maktab direktorlarining malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlari ikki xil: obyektiv va subyektiv yo‘llar bilan aniqlandi. Izlanishlar natijasida ehtiyojni aniq ko‘rsatkichlar asosida aniqlashda obyektiv va subyektiv aniqlash usuli birdek muhim ekanligi, umumiy xulosani mazkur ikki usulning natijalarini umumlashtirish asosida chiqarish zarurligini ko‘rsatdi.

Tajriba – sinov natijalariga tayangan xolda maktab direktorlarining malaka oshirish mexanizmlarini boshqaruv ehtiyojlar asosida takomillashtirish modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan muammolarni hal etishga qaratilgan yondashuvlar kelgusida tizimni yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatdi:

– maktab direktorlarining ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish jarayonlarini tashkil etishda yosh-tajriba, faoliyat ko‘rsatkichlari hamda hududiy omillardan kelib chiqqan holda differensial yondashuvni joriy etish;


– maktab direktorlarining boshqaruv va kasbiy ehtiyojlarini uzluksiz diagnostik tizimi (elektron portfolio, KPI ko‘rsatkichlari, assesment markazlari)ni amalga oshirish va monitoringini olib borishga xizmat qiluvchi innovatsion dasturiy ta’minotni amaliyotga joriy etish;


– boshqaruv faoliyatidagi qiyinchiliklar, kompetentlik darajasidagi bo‘shliqlar, shaxsiy va kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlar trayektoriyasini belgilash asosida maktab direktorlarining malakasini oshirish ta’limi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni takomillashtirib borish va unga mos variativ o‘quv dasturlarini ishlab chiqib, amaliyotga keng joriy etish;

– umumta’lim maktabi direktorlarining uzluksiz malaka oshirish natijalarini rag‘batlantirishning amaliy mexanizmi sifatida tabaqalashtirilgan sertifikatlash tartibini joriy etish.

Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son.

Innovatsion ta’lim sharoitida maktab direktorining funksional faoliyat yo‘nalishlari va kompetentligiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

2. Маслова В.В Основы андрагогики. Терминологический словарь / Сост..: – Мариуполь, 2004. – С. 3.

3. Молчанов И.Н. Социально-экономические основы формирования потенциала сферы высшего профессионального образования: автореферат Дис. ... док. экон. наук. – Москва: 2008. – С. 47.

4. Toshev S. “Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi islohotlarining muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy konferensiya to‘plami. –T., 2004-yil 28-29-may. 25-b.

5. Asqarov A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish. Pedagogika fan. Fal. dok. ... Dis. – T., 2017.

Isajon MIRZAQULOV,
Toshkent davlat transport universiteti katta o'qituvchisi

KURASH TEXNIK HARAKATLARINI O'RGATISH USLUBINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada kurash texnik harakatlarini o'rgatish uslubining nazariy asoslari keltirilgan. Unda boshlang'ich kurash tayyorgarliklari usullarni qo'llash, usulga qarshi usullar, usullarni bajarishning texnik-taktik bajarish jihatlari yoritilgan. Shuningdek, mahoratli pedagog trenerlarning ko'rsatmalaridan qanday foydalanish usullari aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Kurash, usul, texnik, taktik, mahorat, tayyorgarlik, malaka, ko'nikma, sport, jarayon, o'rganish, faoliyat, komponent, raqib, munosabat.

В данной статье представлены теоретические основы методики обучения боевым техническим движениям. В ней начальная боевая подготовка охватывала применение приемов, приемов против приемов, аспекты технико-тактического исполнения приемов. Описаны методы использования инструкций такого компетентного педагогического тренеров.

Ключевые слова. Борьба, метод, технический, тактический, навык, подготовка, квалификация, спорт, процесс, учеба, деятельность, компонент, противник, отношение.

This article presents the theoretical foundations of training methods for combat technical movements. In it, initial combat training covered the use of techniques, techniques against techniques, aspects of technical and tactical execution of techniques. Methods of using instructions of such competent pedagogical trainers are described.

Key words. Fighting, method, technical, tactical, skill, training, qualification, sport, process, study, activity, component, opponent, attitude.

Harakatlanish ko'nikmalarini o'rganish bo'yicha optimal shakllar va uslublarni qidirish hozirgi vaqtda ham pedagogika, psixologiya va fiziologiya fanlaridagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Sport kurashida tayyorgarlik bo'yicha muhim bo'limlardan biri sportchilarda bilim va ko'nikmani shakllantirishga yo'naltirilgan o'rgatish jarayoni sanaladi. Bunda sportchining har tomonlama jismoniy rivojlantirish vazifasi nazarda tutilishi kerak. Sport-pedagogika vazifalarini amalga oshirishga butun o'quv jarayoni, hamda o'quv materialining butun mazmuni yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Ta'lim – har qanday pedagogik jarayonning, shu jumladan jismoniy tarbiya sohasining tarkibiy qismi sanaladi. Ta'limda pedagog va o'quvchining o'zaro munosabatida amalga oshiriladi.

Sport nazariyasi va amaliyotida sportni ko'p yillik takomillashtirish jarayonida dastlabki tayyorgarlikka katta e'tibor qaratilgan, chunki bu vaqtda texnikaning bazaviy aso-

si shakllanadi. Usullarni bajarish bo‘yicha noto‘g‘ri shakllantirilgan asosini o‘rganish keyinchalik ko‘proq vaqt va kuch talab etadi.

Har qanday faoliyat shakli insonning ijtimoiy atrof-muhitga moslashish reaksiyasi kabi o‘rgatish fazasi orqali o‘tadigan o‘rganish bilan uzviy bog‘liq.

Insonning o‘ziga xos o‘rganish faoliyati uch komponentni o‘z ichiga oladi:

1) bilimlar hajmini to‘plash;

2) ko‘nikmalarni shakllantirish, ya’ni faoliyati asosida yotadigan usullar va operatsiyalarni o‘zlashtirish;

3) ko‘nikmalarni shakllantirish.

Yakka kurashlarda ikki qarama-qarshi tomon ham sportchilar bo‘ladi. Shuning uchun ularning o‘zaro munosabatlari va harakatlari raqibni navbatdagi kurashdan “chiqarish”ga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Raqiblar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar nafaqat musobaqa natijasiga erishish uchun, balki texnik harakatlar sonining ko‘pligi bilan ham tavsiflanadi.

O‘zining xususiy uslublari va vositalari bilan o‘rganishning ma’lum bosqichiga texnik harakatarlarni bilish va ko‘nikmalarni egallash darajasi mos keladi.

Sportchi hujumchining holdan toyganida, uning ruhiy holati o‘zgarganda, ketmaket murakkablashib boradigan raqibning himoyalanish shartlarida usulni bajarishni bilishi kerak. Agar bu tavsiflar boshlang‘ichlariga nisbatan 28-31 foiz pasayib ketgan bo‘lsa, unda tizim mazkur parametrlar pasayib ketgan qiymatlarining o‘rnini bosishga qodir bo‘lmaydi va sportchi yangi usulni bajarishga o‘tishi lozim. Shundan so‘ng samaradorlikning yo‘qolib borishini yiqituvchi omil modeli bilan taqqoslash, o‘zgarish qanday darajada sodir bo‘lganligini aniqlab olish kerak.

Sportchining amaliy faoliyatida yuzaga keladigan turli masalalarni hal qilish uchun unga kerak bo‘ladigan harakatlanish ko‘nikmalari shunchalik xilma-xil va murakkabki, bunda hatto ularning sonini ham belgilash ham juda qiyin. Biroq bajarilayotgan texnik harakatlarning turiga qarab, ularni sensorli, intellektual va harakatlantiruvchi turlarga ajratish mumkin.

Sensorli ko‘nikmalar narsa shakllarining, rang-tuslarining, obyekt harakatlanish yo‘nalishining va nozik farqlarini ta’minlab beradi. Turli xil abstrakt vazifalarni yuqoriroq va pastroq o‘zlashtirilgan fikrlar ularning mantiqiy, fizikaviy, kimyoviy, konstruktorlik, grammatik va boshqa komponentlar bilan muvaffaqiyatli hal qilish intellektual ko‘nikmalar hisobiga amalga oshiriladi.

Yaxlit murakkab koordinatsion motorli harakatlarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat harakatlanish ko‘nikmalari asosida faollashtiriladi.

Har qanday yaxlit faoliyatni bironta ko‘nikma turiga tayanmasdan bajarish mumkin emas. Yakuniy natijada u ko‘nikmalarning o‘zaro munosabatlari, o‘zaro kompensatsiyalash hisobiga amalga oshiriladi.

Faoliyat va psixika o‘rtasida murakkab munosabatlar o‘rnatiladi. Bir tomondan ruhiy jarayonlash bevosita faoliyatda namoyon bo‘ladi, boshqa tomondan esa – xuddi o‘sha ruhiy jarayonlar bevosita faoliyatning o‘zini boshqaradi.

Yuqori takomillashgan ko‘nikmalarga asoslangan sport faoliyati, doimo murakkab, yaxlit, tugallangan harakatlar bilan bog‘liq bo‘ladi, boshidan oxirigacha o‘tadi. Sportchining texnik turkumi qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘z harakatlarining tabiati haqidagi tushuncha ham shunchalik boy va to‘liq bo‘ladi. Ko‘nikmalarni hosil qilish jarayoni, ulardan faoliyat davomida, boshidan oxirigacha foydalanish – ongli faoliyatdir, ko‘nikmalar esa, mexanizmi qanchalik chuqur bo‘lmasin, doimo insonning ongli harakatlari bo‘lib

qolaveradi. Harakatlanish detallari ikki sababga ko‘ra tan olinadi. Birinchidan, bu harakatni to‘g‘ri bajarish usullarini qidirib topish bilan; ikkinchidan esa – berilgan harakatning to‘g‘ri bajarilishini ta’minlaydigan teri-mushak sezgilariga asoslangan harakatlanish payti va detallarini tushunib olish bilan bog‘liq.

Chuqurlashtirilgan o‘rganish bosqichida harakatlantiruvchi harakatlar texnikasini dastlabki o‘rganish nisbatan yakuniy darajaga yetkazadi.

Mustahkamlash va keyingi takomillashtirish bosqichida harakatlantirish harakatlarini to‘liq o‘rganishga erishiladi, sport texnikasining alohida elementlariga “pardoz” beriladi.

V.L. Dementev yakka kurashga o‘rgatishni besh bosqichga ajratgan.

Birinchi bosqichda – nafaqat ma’lum vaziyatlarda harakatlanish usullarini mo‘ljalga olish asosida, balki boshlang‘ich holatlardan kelib chiqqan holda harakatlar tahliliga ham e’tibor beriladi, shuningdek dasturlarning mazkur bo‘limidagi asosiy tushunchalari ham ko‘rib chiqiladi. Birinchi bosqich – harakatlantiruvchi harakatlar haqidagi umumiy tushunchani yaratish. O‘rganilayotgan mashq haqida so‘zlab berish va uni ko‘rsatish orqali murabbiy, shakl, amplituda, alohida holatlar va uni bajarish usuli haqida tushunchalarni yaratadi.

P.Y.Galperin qayd etib o‘tganidek, har qanday yangi harakatni o‘rgatishdagi birinchi bosqichi ushbu harakatning boshlang‘ich moddiy yoki moddiylashtirish shaklini topishdan va uning haqiqiy mazmunini aniq belgilashdan iborat.

Ikkinchi bosqichda – murabbiy moddiy shakldagi texnik harakatlarni ko‘rsatadi. Bunda umumiy miqdordan harakatlar dasturi, ya’ni harakatlarning mo‘ljalga olish asosida tuziladigan harakatlarning asosiy tayanch nuqtalari ajratib olinadi.

Dasturlashtirilgan o‘qitish elementlari bilan aynan turli uslublardan foydalanish texnik harakatlarni o‘rganish jarayonini yaxshilash imkonini beradi. Bunda nazorat ko‘nikmalarining mo‘ljalga olish asosini, shuningdek, texnik harakatlarni bevosita bajarishda texnik ko‘nikmalarni shakllantirish sodir bo‘ladi.

Harakatlarning mo‘ljalga olish asosidan foydalanishga asoslangan texnik harakatlarni o‘rgatish, tushuntirish instruktiv o‘qitish uslubidan farqli ravishda o‘rgatish jarayonini individuallashtirish va o‘quvchilarning jismoniy va morfologik xususiyatlaridan yanada kengroq miqyosida foydalanish imkonini beradi.

Uchinchi bosqichda – o‘quvchilarda yakka kurashlarda juda muhim sanalgan jonli fikrlash shakllanadi, obraz yaratiladi. Yaxlit hodisa va narsalarni tushunish uchun pedagogika va sport jarayonida perspektiv obrazlar yaratiladi. Aynan shu bosqichda sportchining texnik harakatlari predmetli tavsifga ega bo‘lgan empirik fikrlash darajasida baholanadi.

Mazkur bosqichning yakuniy – sportchilarda jonli fikrlashni shakllantirish sanalib, buning natijasida “vaziyat” aniqlanilmaydi, balki darhol tushuniladi, ijro operatsiyalari esa ishga tushiriladi va avtomatik tarzda bajariladi, nazorat esa dinamik qolip oqimni kuzatib boruvchi “hissiyot” bo‘yicha amalga oshiriladi. Shunday qilib, shug‘ullanayotgan sportchi qanday qilishni, nima qilishni va qachon qilishni biladi.

To‘rtinchi bosqichda – nutq shaklidagi harakatlarni shakllantirish sodir bo‘lib, bu sportchini texnik jihatdan tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu analizatordagi miya ichida yuzaga keladigan asab jarayonlari nafaqat tilshunoslik ma’lumoti olinganda anglaniladi va har qanday ichki va tashqi bezovtalangan paytda tushuniladi. Shuning uchun amaliyotda texnik harakatlarni nutq va harakatlantiruvchi harakatlarni anglagan holda bajarish, avvalambor, avvalgi bosqichlarda shakllangan bilim va ko‘nikmalardan,

shuningdek, texnik harakatlarni o‘tkazish xususiyatlarga bog‘liq.

Beshinchi bosqichda shug‘ullanuvchi, ongida texnik harakatlarni ishlatishni boshlaydi, bu esa sportchi nutq shaklining harakatlari ularni tan olinishining aqliy rejasiga o‘tadi. Ikkinchi bosqichda ongda murakkab texnik harakatlarni tuzish boshlanadi.

Harakatlantirish bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, asosan, mashqlarni bajarganda harakatlanish, ko‘rish, eshitish, teri, vestibulyar retseptorlardan uzluksiz keladigan qo‘zg‘atuvchan signallar hisobiga amalga oshiriladi. Ushbu tuyg‘ular o‘zaro bog‘liq analizatorlar majmuasidan hosil kelsada, asosiy omil sifatida harakatlarni muvofiqlashtirishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlanish analizatori chiqadi. Sport mashqlarini bajarish va umuman texnik tayyorgarlik ko‘rish chog‘ida harakatlantirish analizatorini takomillashtirish negizida tuyg‘ularning ushbu toifasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun sportning har qanday turida mashqlar texnikasini o‘rgatishning birinchi bosqichida mashqlar harakatining tuzilishi, o‘rganilayotgan mashqlarning ketma-ketligi haqidagi to‘g‘ri tushuncha yaratish vazifasi turadi.

Yakka kurashlardagi texnik harakatlarni o‘rganish ketma-ketligi quyidagicha bo‘lishi mumkin.

Tanishish. Bir necha shakli mavjud: adabiyot, ko‘rgazmali qurollar, musobaqalarni kuzatish, murabbiy tomonidan texnik harakatlarni namoyish qilinishi. Bu yerdan usullarning tasniflanishida texnik harakatning o‘rni, bajarish xususiyatlari (masalan, raqib oyog‘ini qo‘yadi yoki boshining biror qismini ochadi), jismoniy fazilatlarga bo‘lgan talablar (masalan, ko‘proq oyoq va qo‘l mushaklari ishlaydi) haqida tushuncha olish zarur.

Usulni umumiy o‘rganish. Tuzilishi bo‘yicha oddiy bo‘lgan texnik harakatlarni o‘rganganda, odatda, murabbiy ko‘rsatgandan so‘ng usulni shug‘ullanuvchilar tomonidan bajarilish boshlanadigan yaxlitlik uslubini qo‘llash umumiy qabul qilingan sanaladi. Bunda:

1. Mashg‘ulotning tayyorgarlik qismida, tuzilishi bo‘yicha texnik harakatlarga o‘xshash bo‘lgan, asta-sekin murakkablashtirilib boriladigan va turli-tuman tayyorgarlik va imitatsion mashqlar majmuasini qo‘llash;

2. E’tiborni usulning muhim fazasiga jamlash;

3. Birinchi usullarni bajarganda yengillashtirilgan shartlarni yaratish (raqib bir oyoqda turadi, harakat ma’lum yo‘nalishda harakatlanadi yoki hujum qilish joyini ochadi);

4. Ehtimoliy xatolarga olib keluvchi harakatlarni ko‘rsatib, usulni dastlabki bajarganda bevosita yordam ko‘rsatish.

Usulni qismlarga bo‘lib o‘rganish. Murakkab texnik harakatlarda, ayniqsa, o‘rgatishning dastlabki yillarida qo‘llaniladi. Har biri alohida bajariladigan texnik harakatlarning asosiy fazalari ajratiladi. Masalan, qo‘llarni tortish, qaytarish, raqibni irg‘itish. Har bir faza uchun bir necha aldovchi mashqlar bajariladi. Bellashuvlarni topshiriq bo‘yicha, dozalangan qarshilik bilan bir tomonlama qarshilik ko‘rsatish orqali o‘tkazish o‘zaro qarshilik sharoitlarida qarshi kurash olib borilishini takomillashtirish.

Ovoz chiqarib (baland tovush bilan va tovushsiz) imitatsiya qilish, oyna oldida irg‘itishlarni imitatsiya qilish, yopiq ko‘zlar bilan irg‘itishlarni imitatsiya qilish. Qiya platformaning ko‘tariluvchi va pasayib boruvchi maydoniga irg‘itishlarni bajarish, bunda qiyalik burchagi 15 – 30^0 bo‘lishi kerak.

Masalan, boksda, yangi o‘rganayotgan sportchi qanday texnika maydonini o‘tgan, u qanchalik jismoniy tarzda tayyorlangan, o‘z uslubini qanchalik va jang olib borish yo‘sinini qanchalik tez topadi, sportchidan qanday tarbiya olganligi – uning keyingi

sport faoliyatiga bog‘liq.

Yakka kurashlardagi o‘rgatish xususiyatlari sportning boshqa turlaridan: og‘ir atletikadan, gimnastikadan bir muncha farq qiladi. Shu munosabat bilan, sportchilar boshqa harakatlar bilan birgalikda o‘z muvaffaqiyatiga har tomonlama yordam bera olishi uchun ularning alohida harakatlari qanchalik darajada ko‘nikma shaklini olishi kerak, degan savol tug‘iladi? Vaqtning ko‘p qismi nafaqat bir harakatda, balki harakatlanish fazasida avtomatizmga erishish uchun o‘rganish sxemasini qanday tuzish kerak.

O‘smirlik davrida burib tashlashni o‘rganish maqsadga muvofiq emas, chunki ulardan foydalanish cheklangan siqishtirish harakatlari hisobiga amalga oshiriladi. Ko‘prikni mustahkamlash mashqlariga alohida e’tibor qaratish kerak. Ushbu mashqlarni qat’iy ketma-ketlikda va katta yoshlilar bilan ishlagandagiga qaraganda ko‘proq va ancha uzoq vaqt qo‘llanilishi kerak. 12 – 13 yoshli kurashchilar bilan ishlaganda kurash ko‘prigidagi statik holatlarga ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak.

Adabiyotlarda harakatlanish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish jarayonida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ta’limot turlari mavjud.

Istiqbolli rivojlanish o‘zlashtirish jarayonini tavsiflovchi ruhiy fazilatlarning rivojlanishi bilan bog‘liq, ayniqsa, sensomotor ta’sirlanish tezligini rivojlantirish uchun muhim sanaladi.

Sensomotor ko‘nikma – mavjud bo‘lgan harakatlantirish ko‘nikmasining yangi ta’sirlanish shartlariga moslashishidan (sensor va motor reaksiyalar o‘rtasidagi yangi aloqalarning o‘rnatilishi yoki eski aloqalarning aniqlashtirilishi va barqarorlashtirilishidan) iborat.

Motor ko‘nikma – mohiyati bo‘yicha sensomotor o‘rganishning turidir, chunki mazkur holat kinestetik yoki proprioreseptiv (ichki hissiyotlarga asoslangan) komponent sanaladi.

O‘rganish natijasida, istalganda video va deomotor harakatlarda ham, harakatning o‘zida ham tiklash mumkin bo‘lgan harakatlantiruvchi harakatning “mushakli obrazi” paydo bo‘ladi.

Og‘zaki o‘rgatish ikkinchi signal tizimining nutq bo‘limi bilan bog‘liq. Harakatlantiruvchi ko‘nikmalarini o‘rgatishga muvofiq og‘zaki o‘rgatish o‘ziga xos so‘z boylgini o‘zlashtirishni bildiradi (sportning harakatlantiruvchi harakatining har bir elementi obyektni yoki buyumni bildiruvchi, natijada uning timsoli bo‘lib qoladigan, u bilan assotsiativ aloqasi orqali bog‘lanadigan o‘z nomiga va so‘ziga ega bo‘ladi).

Ideomotor harakatda mushaklarning tashqi kuzatuvchi sezilmas bo‘lgan mikroharakatlar uchun ta’sirchanligi inson tomonidan o‘ylab topilgan va bu beixtiyoriy amalga oshiriladigan harakatni topish imkonini beradi.

Endigina shug‘ullanishni boshlagan sportchilar tomonidan mashg‘ulotlarda ko‘p hollarda sport texnikasini o‘rganish bo‘yicha umumiy qabul qilingan uslublar: so‘z orqali ifodalash uslubi, ko‘rgazmalilik, amaliy mashqlar (yaxlit mashqlar uslubi va parchalash-konstruktorlik mashqlar uslubi), ideomotor uslub, texnik o‘qitish vositalaridan foydalanish, harakatlar parametrlari haqidagi shoshilinch texnik ma’lumotlar, musobaqalashish uslubi qo‘llaniladi.

Sport texnikasini o‘rgatish va uni takomillatirish bo‘yicha qayd etib o‘tilgan uslublarning har biri ijobiy tomonlarga ega, biroq alohida-alohida tez va samarali o‘rgatishni to‘liq ta’minlay olmaydi, shuning uchun sport texnikasini o‘zlashtirish jarayonida barcha uslublar bir birini to‘ldiradigan qilib qo‘llaniladi. Ko‘pincha ulardan bir vaqtning o‘zida

foydalaniladi (masalan, mashqni tushuntirish va ko‘rsatish).

Bolalar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlardagi mashq qilish uslubi har tomonlama yaxshilab o‘ylab ko‘rilgan bo‘lishi kerak, deb qayd etadi G.M. Gruznix. Tayyorgarlik vositalari sifatida harakatlantiruvchi o‘yinlarni qo‘llash kerak. Ularning uslubiy jihatdan to‘g‘ri tuzilgan va tanlanganlari:

1) jismoniy tayyorgarlikni oshirishga;

2) shaxsiy xususiyatlarni o‘rganishga;

3) qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun kurashchiga zarur bo‘lgan ma’naviy iroda fazilatlarini tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratadi.

Amaliy uslublardan tashqari, mashq qilish jarayonida nazariy tayyorgarlikka ham katta e’tibor qaratish kerak, sportchi uchun xizmat ko‘rsatuvchi vazifani bajarishi kerak. Bilimlar doimiy tarzda narsadan vositalari va uslublariga sirqib oqib, go‘yoki harakatlarda “erib ketgandek” tuyuladi. Bilimlarning narsadan vositaga doimiy o‘tish jarayoni sanaladi va harakatlantirish tajribasini o‘rgatish, shakllantirishning asosiy mexanizmini belgilab beradi. Bunda sportchini serharakat ongga ega bo‘lgan subyekt sifatida ko‘rib chiqishni amalga oshirish muhim sanaladi.

Mazkur (pedagog uchun o‘ta muhim sanalgan) masala, sportchini faoliyat ongining bilim orttirish, baholash va qurish (konstruktiv) vazifalari birlashadigan harakatlarini didaktik modellashtirish uslublari va vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Texnik harakatlarni o‘rgatish uchun yakka kurashlarda turli o‘yinlar qo‘llaniladi. Murabbiyning vazifalaridan biri – ko‘p hollarda yakka kurash olib borish saboqlarini o‘zlashtirishga ham, zaruriy jismoniy fazilatlarni egallashga ham amaliy yordam ko‘rsata oladigan o‘yinlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanuvchilarga alohida usullar texnikasini o‘rgatish uchun “Tegib ketish”, “Qo‘lga olish”, “Siqishtirish”, “Ilk chiqishlar” kabi o‘yinlardan foydalanish mumkin.

Yakka kurashning oddiy shakllarini o‘zlashtirish bilan birgalikda o‘smirlar tanlangan holatlarda gilam bo‘ylab bemalol ko‘chib yurishni, raqibning harakatlarini ko‘rishni, e’tiborni jamlashni, tez siljish, harakatlantiruvchi vazifalarni mustaqil va ijodiy yondashgan holda hal qilishni o‘rganadilar.

O‘yin-vazifalarning asl mohiyati boshqa odamda reaksiya chaqirib, raqiblardan birining tanasida yuzaga keladigan nuqtalarga tegishdan iborat. Mazkur holat muallif tomonidan tegish o‘yin-vazifalarining asosini tashkil etadi.

Klassik kurash misolida ishlab chiqilgan o‘yin-vazifalar g‘oyasi kurashning biror elementini o‘rganishda zarur bo‘ladigan vazifani tanlash imkonini beradi. Tananing har qanday qismi yoki qo‘llarga tegish paytida himoyalanish harakatlari (himoyalanish reaksiyalari) yakka kurashlar chog‘ida yuzaga keladigan texnik-taktik harakatlar: hujum va himoyalanish, alohida operatsiyalarni shakllantirishga yordam beradigan ma’lum tana holatini yuzaga keltirib chiqaradi.

Taklif etilgan o‘yinlar birinchi va ikkinchi tartib o‘yinlariga ajratiladi. Birinchi tartib o‘yin-vazifalari ikkala raqibga ham bir xil vazifa berishni nazarda tutadi. Mazkur epizodda g‘alabaga raqibning o‘ng qo‘lini tashqi tomondan qo‘lga olish, so‘ngra belga chap qo‘l bilan tegish orqali erishish mumkin, biroq bunda xuddi shu harakatni raqib ham qilishi mumkin. Yakka kurash natijasi chaqqon, ildam va kuchli raqibning foydasiga hal bo‘ladi.

Ikkinchi tartib o‘yinlarida raqiblarning har biriga turli vazifalar berilishini nazarda tutiladi. Bu yerda yakka kurash ko‘nikmalari ancha murakkab vaziyatlarda takomillashadi.

O‘yinlar variantlarining turli-tumanli bo‘lishi uchun ularning bajarilishi borasidagi bir qator shartlar taklif etiladi;

– raqibning qat’iy ma’lum nuqtalari, zonalari yoki tana qismlariga tegish;

– bir yoki ikkala qo‘l bilan tegishni bajarish (aynan qaysi qo‘l bilan, bir vaqtda yoki ketma-ket, qaysi tomondan va h.k.);

– aylana va kvadrat bilan chegaralangan, berilgan maydon doirasida gilam bo‘ylab ko‘chish;

– ikkala raqib ham bir xil (yoki turlicha) vazifalarni bajaradi;

– chekinish mumkin (mumkin emas);

– qo‘llarni ushlash mumkin (mumkin emas).

Turli shartlarga ega bo‘lgan birinchi va ikkinchi tartib o‘yin-vazifalari variantlarini qo‘llash vazifalar sonini ancha oshiradi.

Harakatlantiruvchi o‘yin-vazifalarni qo‘llash shug‘ullanuvchilar hujum qilish va himoyalanish texnikasi, taktikasini shakllantirish ko‘nikmalarini, kerakli bilimlarni, mashg‘ulotlar mashqlarining his-tuyg‘u bilan to‘yinganligini ishlab chiqish imkonini beradi. Yakka kurash jarayonida maxsus jismoniy fazilatlar rivojlanadi, hamda tez, o‘z vaqtida va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Usullarni o‘rganishda oqilona ketma-ketlikni belgilash – o‘rgatish jarayonidagi kurashning turlarida o‘quv jarayonini har tomonlama rejalashtirishga majburlovchi muhim muammo sanaladi. Maxsus adabiyotda kurash usullarini ketma-ket o‘rganish muammosi ko‘rib chiqilmagan. Usullarni tegishli majmualarga birlashtirish va ular bo‘yicha o‘rganishni tashkil etish haqida jismoniy tarbiya institutlari uchun mo‘ljallangan darslikda gap yuritiladi.

Har bir o‘rganish jarayon uchun qotib turish va parterda bitta-ikkitadan komplekslarni o‘rgatishni rejalashtirib qo‘yish tavsiya etiladi. Usullarning birinchi kompleksiga ma’lum tasniflangan guruh va kichik guruhlarning birinchi usullari, ikkinchisiga esa – ikkinchi kichik guruh tasnifidagi kompleks kiritiladi. Dastlab harakatlarning koordinatsiyasi bo‘yicha sodda usullar, keyinchalik esa biroz jismoniy kuch talab etadigan, biroq koordinatsiyasi bo‘yicha murakkabroq usullar kiritiladi. Mazkur tamoyilga “qiyin” usullarni o‘rganganda rioya qilish kerak. O‘smirlarga sambo kurashini o‘rgatganda texnikani o‘zlashtirishga materialni umumiy joylashtirish hisobiga erishish kerak. Komplekslarni o‘rganilayotgan materiallarning qiyinchiliklari va murakkabliklarini sekin-asta o‘stirib borgan holda tuzish kerak. Komplekslardagi texnika hajmini turli guruhlardan sekin-asta yangi usullarni kiritib borgan holda oshirish kerak. Birinchi komplekslarga “oddiy-oson” guruh usullarini, keyingilariga esa – “murakkab-qiyin”, “oddiy-qiyin” usullarni kiritish lozim.

Katta yoshli kurashchilarni o‘qitganda texnikani o‘rgatish hajmi va ketma-ketligini usullarning texnik jihatdan murakkabliligini, bir yoki bir necha usullarning bir xil murakkabliligidagi qiyinchiliklarni e’tiborga olgan holda tuzish tavsiya etiladi, deb hisoblanadi. Tajribaviy ma’lumotlar asosida, 14-15 yoshdagi o‘smirlarga kurash texnikasini o‘rgatish ketma-ketligini usulning qiyinchiliklaridan, bir yoki bir necha usullarning bir xil murakkabliklarini hisobga olgan holda tuzish maqsadga muvofiq.

Boshlang‘ich kompleks o‘z tuzilishining asosini o‘ziga xos tarzda aks ettiruvchi, har bir guruhning sterjenli usullaridan tuziladi. So‘ngra yangi kompleks tuzilib, sterjenli usullar variantlari o‘rganiladi.

Kurash usullari texnikasini o‘rgatish ketma-ketligi haqida so‘z yuritilganda, o‘rganilayotgan usullarni (ko‘nikmalarni) keyingi usullar bilan o‘zaro bog‘liqligiga va

ularning izchilligiga urg‘u beradi. O‘rganish jarayoni ikki yo‘l bilan ilgari suriladi.

Usullar shunday guruhlanadiki, bunda birinchi usulni o‘rganish mazkur guruhdagi usullarning tuzilishiga o‘xshashligi bilan keyingi usullarni o‘rganishni yengillashtiradi. Shu bilan birga, turli guruhlardan usullarni o‘rganish ketma-ketligi shunday tuzilishi kerakki, bunda ular orasida taktik jihatdan o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha izchilligi o‘rnatilgan bo‘lishi kerak.

O‘rganilayotgan usullarni shunday guruhlash kerakki, bunda birinchi usuldan himoyalanashi hujumning keyingi usuliga o‘tish uchun barcha sharoitlarni yaratib berishi kerak. Kurashchilarni o‘rgatish jarayonini usullarni o‘rganish bo‘yicha kompleksli variantlar bo‘yicha tuzish kerak. Bu o‘rganish uchun ajratilgan vaqtni qisqartiradi, yosh kurashchining tezkorlik-taktik fikrlashini rivojlantirish va takomillashtirishga shart-sharoitlar yaratadi, bellashuvlardagi ekstremal vaziyatlarda tez mo‘ljalga olish qobiliyatini rivojlantirishga amaliy yordam ko‘rsatadi.

Undan keyin esa yelka orqali irg‘itishlar, orqadan chalishlar, tutib turishlar, oyoqlarni qo‘lga olib irg‘itishlar, ilgaklar bilan irg‘itishlar, ilib olib irg‘itishlar, o‘tirgan holatda bukilib irg‘itishlar, oldindan chalishlar, qo‘llarga og‘riq beruvchi, siltashlar, muvozanatdan chiqarish, bo‘g‘uvchi, bosh orqali irg‘itishlar ketma-ketligi keltirilgan. Shunday qilib, birinchi mashg‘ulotlarda raqibni tutib turgan holda bog‘lab olib orqadan chalishni, yelka orqali irg‘itishlarni nihoyat so‘ngida – bo‘g‘uvchi va bosh orqali irg‘itishlarni o‘rganish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гальперин П.Я. Основные результаты исследований по проблеме “Формирование умственных действий и понятий”. – М., 1965.

2. Грузных Г.М. – Классическая борьба. Формирование основ ведения единоборства: Учеб.пособ. Омск: ОГИФК. 1987.– С.69.

3. Дементьев В.Л., Малков О.Б. – Структуризация конфликта поединка в спортивных единоборствах // Теория и практика физической культуры. 1986. С. 37-39.

4. Еганов А.В. – Управление тренировным процессом высококвалифицированных дюзоистов. Монография. Челябинск. УралГАФК. 1998. – С.146.

5. Зубайраев С.Л. – Исследование объема и целесообразной последовательности обучения технике борьбы самбо. Автореф.дис….канд. пед.наук. – М.: 1967. – С.18.

6. Матвеев Л.П. – Теория и методика физической культуры. – М.: Физическая культура и спорт. 1991. – С.543.

7. Нелюбин В.В. – Методические указания к основам обучения и воспитания в процессе спортивной подготовки борцов. – Л.: ГДОИФК. 1980. – С.44.

8. Преображенский С.А. – Борьба – занятие мужское//Спортивная борьба. Ежегодник. – М.: 1983. – С. 280.

Komil MUXAMMADIYEV,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti

SPORT MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA TALABALARNING JISMONIY SIFATLARI, FUNKSIONAL TAYYORGARLIGI, ORGANIZM FIZIOLOGIK HOLATINING O‘SISH VA TIKLANISH DINAMIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tajriba va nazorat guruhiga mansub bo‘lgan talabalarning sport mashg‘ulotlari jarayonida jismoniy sifatlari, funksional tayyorgarligi, organizm fiziologik holatining o‘sishi va tiklanishi dinamikasi ikki yillik sikldagi farqlar, dastlabki ko‘rsatkichlar va ularning yil davomida o‘zgarish-o‘sish dinamikasi, genchi va shtange sinovlari muddatni oshrishga qaratilgan nafas mashqlari gipoksik rejimda chidamlilik mashqlari bilan qo‘shib qo‘llanib borilsa, organizmning aerob-anaerob tartibda ishlash imkoniyati ortadi va markaziy hamda periferik organlar, to‘qimalar va hujayralarda kislorodni sarflash qobiliyati yaxshi rivojlanashi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Jismoniy tarbiya, sport, mashg‘ulot, mashq, organizm, fizologik holat, dinamika, genchi, shtange, aerob-anaerob, periferik organ, to‘qima, hujayra, kislorod, ko‘rsatgich, funksiya.

В данной статье рассмотрены физические качества студентов, относящихся к опытной и контрольной группе, в процессе спортивной подготовки, функциональной подготовки, динамика роста и восстановления физиологического состояния организма, различия в двухлетнем цикле, исходные показатели и динамика их изменения-роста в течение года, тесты генчи и штанге, направленные на увеличение продолжительности обучения.

Ключевые слова. Физическое воспитание, спорт, тренировка, физические упражнения, организм, физиологическое состояние, динамика, генчи, штанге, аэробно-анаэробный, периферический орган, ткань, хрящ, кислород, указатель, функция.

This article examines the physical qualities of students belonging to the experimental and control groups in the process of sports training, functional training, growth dynamics and recovery of the physiological state of the body, differences in the two-year cycle, initial indicators and dynamics of their changes-growth during the year, genchi and barbell tests aimed at increasing the duration of training.

Key words. Physical education, sport, training, physical exercises, body, physiological state, dynamics, genchi, barbell, aerobic-anaerobic, peripheral organ, tissue, cartilage, oxygen, pointer, function.

Respublikamizda ta’lim, jismoniy tarbiya va sport, inson salomatligi sohasida bir qancha qonun, qaror va farmonlar qabul qilingan. Jumladan, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi (2015-yil 4-sentabrdagi O‘RQ-394-sonli) qonuni, “O‘zbekistonda 2017–2021-yillar uchun jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-sonli, 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli farmonlari, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning ikkinchisi yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilganligi hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar bu borada belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Davlat ta’lim standartlari esa ta’lim xizmatlarining iste’molchisi sifatida shaxsning sifatli ta’lim olishi va kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishini kafolatlaydi. Ta’lim olish jarayonida shaxs tomonidan davlat ta’lim standartlarida ifoda etilgan talablarning bajarilishi shart.

Jamiyatimizda sog‘lom hayot tarzini shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, jismonan sog‘lom, ma’naviy jihatdan yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, fuqarolarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga keng jalb etishga yo‘naltirilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish maqsadida mamlakatimizda turli yillar “Sihat-salomatlik yili”, “Sog‘lom avlod yili”, “Barkamol avlod yili” va “Sog‘lom bola yili”, “Keksalarni e’zozlash yili”, “Sog‘lom ona va bola yili”, **“**Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”, **“**Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”, “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb nomlandi. 2020-yilni esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifi bilan “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb nom berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Ma’lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

5 ta muhim tashabbusning ikkinchida yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Yuqoridagilarga asoslanib jismoniy tarbiya va sport faoliyatini takomillashtirish, talabalarning jismoniy sifatlarini aniqlash ularning sportga bo‘lgan qiziqishlarini tadqiq qilish zarur.

Maqsad jismoniy tarbiya ta’limi jarayoni samaradorligini oshirish va takomillashtirish, talabalarni sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun bajariladigan vazifalar: talabalarda jismoniy tarbiya ta’limi jarayoni samaradorligini oshirish va takomillashtirish texnologiyalarini qo‘llashga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish, olingan natijalarni tahlil etish, umumlashtirish, tavsiyalar yaratish, sport faoliyatiga nisbatan motivatsion yo‘nalishlari

va qiziqishlarini o‘rganish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning jismoniy va sport bo‘yicha amaldagi yillik tayyorgarlik jarayoni davomida jismoniy va funksional tayyorgarlik ko‘rsatkichlari sust sur’atlarda shakllangan. Xususan, jismoniy tarbiyaning auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlari jarayonida talabalar jismoniy tayyorgarligining yillik o‘sish dinamikasi mashg‘ulotlardan oldin o‘rganilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha juda kam miqdorda qisqarib borgan, ammo yillik o‘sish farqi milisoniyalarda va millimetrlarda qayd etilgan.

Jumladan, jismoniy tarbiyaning auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida talabalar jismoniy tayyorgarligi, rivojlanishi ko‘rsatgichlarining o‘sish dinamikasi 100 m.ga yugurish bo‘yicha dastlabki ko‘rsatkich – 13,09±0,88; mashg‘ulot jarayonidan oldingi ko‘rsatkichlar 1-yili – 12,98±0,49; 2-yili – 12,82±0,42; 1000 m.ga yugurish bo‘yicha mos ravishda: 3.39,4±1.24,8; 3.18,2±0.95,4; 2.87,1±0.52,6 bilan ifodalandi. Bu borada 2000 va 3000 m.ga yugurish bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlar ham qayd etilgan yo‘nalishga xos o‘sish dinamikasini ifoda etadi (1-jadval).

Uzunlikka sakrash bo‘yicha natijalar esa quyidagicha: joyidan turib sakrash ko‘rsatkichi 231,62±4,08; 234,56±5,12; 239,68±4,44, joyidan turib 3 hatlab, sakrash ko‘rsatkichi 723,84±6,12; 730,67±5,66; 738,72±5,74 o‘sib borgan (ishtirok etgan barcha talabalarning o‘rtacha statistik ko‘rsatkichi (X)).

1-jadval
Sport mashg‘ulotlari jarayonida talabalar jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (X± δ)

Testlar	n	DK	Mashg‘ulot jarayonidan oldingi ko‘rsatkichlar	
			1-yil	2-yil
Yugurish va yurish mashqlari (soniyada)				
100 м, с	25	13,09±0,88	12,98±0,49	12,82±0,42
1000 м, с	25	3.39,4±1.24,8	3.18,2±0.95,4	2.87,1±0.52,6
2000 м, с	25	8.15,2±2.21,2	7.47,4±2.10,3	7.25,6±2.19,4
3000 м, с	25	13.05,2±4.19,4	12.56,2±3.39,2	11.18,4±3.19,7
Uzunlikka sakrash mashqlari (sm)				
Joyida turib sakrash	25	231,62±4,08	234,56±5,12	239,68±4,44
Joyida turib, uch hatlab sakrash	25	723,84±6,12	730,67±5,66	738,72±5,74

Tadqiqotlarda ishtirok etgan talabalarning o‘rganilgan fiziologik ko‘rsatkichlari o‘ziga xos xususiyatlar bilan qayd etildi.

Olingan dastlabki ko‘rsatkichlar va ularning yil davomida o‘zgarish-o‘sish dinamikasi bu jarayonda ishtirok etgan talabalarning yurak-tomir va nafas olish tizimlari sust rivojlanganligidan dalolat beradi (2-jadval).

2-jadval Sport mashg‘ulotlari jarayonida funksional tayyorgarlikning rivojlanish dinamikasi (X±δ)

Testlar		n	DK	Kuzgi	Qishki	Bahorgi	Yozgi
AQB (mm/s.)	SB	25	122,2±4,6	126,4±5,8	124,7±4,8	121,6±4,6	128,2±6,1
	DB	25	63,4±3,8	66,2±4,8	68,4±3,6	71,2±3,9	73,4±3,4
YQCh (marta/daq)		25	74,3±3,8	71,4±4,0	70,1±3,7	74,9±4,5	77,3±3,9
Gench sinovi (sek)		25	17,6±1,9	22,2±1,4	23,8±2,1	27,6±3,2	38,4±3,6
Shtange sinovi (sek)		25	30,7±1,0	33,7±1,4	36,6±2,5	37,9±2,9	18,6±3,4
NOCh (marta/daq)		25	39,4±2,2	15,6±1,7	14,8±0,8	16,8±1,5	15,4±2,2
O‘TS(ml)		25	4834,6±126,2	4883,4±134,9	5016,2±148,6	5177,8±411,4	5312,5±152,6

Izoh: AQB – arterial qon bosimi, SB – sistolik bosim, 1-eshitilgan zarba; DB – diastolik bosim – sust zarba; YQCh – yurak qisqarish chastotasi; Genchi sinovi(sek)– chuqur nafas chiqarib, nafasni saqlab turish;shtange sinovi (sek) – chuqur nafas olib, nafasni saqlab turish; NOCh – nafas olish chastotasi; O‘TS – o‘pkaning tiriklik sig‘imi; DK – dastlabki ko‘rsatkich.

Masalan, AQB mm/s.u. SB bo‘yicha dastlabki ko‘rsatkich 121,2±4,4, kuzgi 127,4±5,8, qishki 122,7±4,4, bahorgi 119,6±4,2, yozgi 129,2±5,6 ga teng bo‘ldi. DB ga muvofiq ravishda 63,4±3,8; 66,2±4,8; 68,4±3,6; 71,2±3,9; 73,4±3,4 mm/s.u.ga teng miqdorda ifodalandi. YuQCh: 74,3±3,8; 71,4±4,0; 70,1±3,7; 74,9±4,5; 77,3±3,9, marta/daqiqani tashkil etdi. Genchi sinovi – 17,6±1,9; 22,2±1,4; 23,8±2,1; 27,6±3,2; 38,4±3,6. Shtange sinovi – 30,7±1,0; 33,7±1,4; 36,6±2,5; 17,6±1,9; 17,6±1,9. NOCh – 39,4±2,2; 15,6±1,7; 14,8±0,8; 16,8±1,5; 15,4±2,2. O‘TS – 4834,6±126,2; 4883,4±134,9; 5016,2±148,6; 5177,8±411,4; 5312,5±152,6 testlarining natijalari ham yuqorida qayd etilgan ko‘rsatkichlar o‘sish dinamikasiga o‘xshab ifodalangan.

Genchi sinov qobiliyati organizmning gipoksik imkoniyatini aks ettiruvchi mezon bo‘lib, chidamlilik sifatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar turli turg‘un (statik) holatlarda genchi va shtange sinovlari (sek)muddatni oshirishga qaratilgan nafas mashqlari gipoksik rejimda chidamlilik mashqlari bilan qo‘shib qo‘llanib borilsa, organizmning aerob-anaerob (aerob-organizmdagi kislorodli holat, anaerob-organizmdagi kislorodsiz holat) tartibda ishlash imkoniyati ortadi va markaziy hamda periferik organlar, to‘qimalar va hujayralarda kislorodni sarflash qobiliyati yaxshi rivojlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba boshlanishidan avval olingan natija nazorat guruhida ham, tajriba guruhida ham bir-biridan deyarli farqlanmaydi. Jumladan, 100 m. NG – 13,12±0,32 s; TG – 13,03±0,3 s;1000 m.NG – 161,75±5,64 s; TG – 159,42±6,68 s; 2000 m. NG – 56,61±1,04 s; TG – 56,44±1,96 s; 3000 m. NG – 93,42±6,11 s; TG – 89,42±4,83 s; natijalarida qayd etildi (3-jadval).

Jismoniy tarbiyaning auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida talabalar bilan yugurish va sakrovchanlik qobiliyatlari (ayniqsa, uzunlikka sakrash yoki oyoqdan oyoqqa sakrash) yaxshi rivojlangan bo‘lsa, bu holat yugurish natijasiga ham ijobiy

ta’sir ko‘rsatishi muqarrar.

Yugurish testlari natijalarini e’tiborga olgan holda jismoniy tarbiyaning auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlari jarayonida talabalar bilan nazorat va tajriba guruhlarida sakrash testlari qabul qilindi. Bu jarayonda olingan natijalardan ma’lum bo‘ldiki, tajribadan avval qayd etilgan sakrash ko‘rsatkichlari ikki guruhda ham bir-biridan keskin farq qilmaydi.

3-jadval

Sport mashg‘ulotlari jarayonida nazorat va tajriba guruhlarida o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov davomida talabalarda chidamlilik sifatlarining o‘sish dinamikasi

Yugurish testlari	Guruhlar	Tajribadan avval (X±δ)	Tajriba o‘rtasida (X±δ)	Tajriba yakunida(X±δ)	P
100 м: (c)	NG	13,12±0,32	12,72±0,24	12,87±0,29	P>0,05
	TG	13,03±0,3	12,69±0,35	12,45±0,31	P<0,01
1000 м: (c)	NG	161,75±5,64	159,33±5,04	158,25±4,67	P>0,05
	TG	159,42±6,68	157,58±6,47	154,58±3,42	P<0,05
2000 м: (c)	NG	56,61±1,04	56,27±1,11	55,83±1,25	P>0,01
	TG	56,44±1,96	55,77±2,02	55,17±239	P>0,01
3000 м: (c)	NG	93,42±6,11	91,67±5,05	90,92±4,85	P<0,05
	TG	89,42±4,83	88,18±4,57	87,30±4,89	P<0,05
Uzunlikka sakrash testlari					
Joydan turib uzunkikka sakrash (sm.)	NG	251,0±7,87	251,08±4,21	254,67±5,60	P<0,05
	TG	249,75±13,73	253,83±19,62	264,0±16,86	P<0,05
Joydan turib uzunlikka uch hatlab sakrash (sm.)	NG	738,25±10,22	745,25±13,42	746,33±17,60	P<0,05
	TG	739,00±19,14	748,17±20,93	769,67±20,84	P<0,05

Izoh: NG – nazorat guruhi; TG – tajriba guruhi.

Masalan, joydan uzunlikka sakrash NGda 251,0±7,87 sm, TGda 49,75±13,73 sm; uch hatlab sakrash NGda 738,25±10,22 sm; TGda 739,00±19,14 sm.ni tashkil etdi. Bu ushbu guruhlar jismoniy jihatdan bir xil tayyorgarlikka ega ekanligidan dalolat beradi.

Pedagogik tajriba davomida sakrash ko‘rsatkichlari ikkala guruhda ham “pastdan yuqoriga” yo‘nalishda o‘sish bilan ifodalanadi. Bu ko‘rsatkichlarning o‘sish dinamikasi TGda yanada jadal kechdi. Jumladan, NGda tajriba boshlanishida joydan uzunlikka sakrash testi bo‘yicha qayd etilgan ko‘rsatkich (251,0 sm.) tajriba o‘rtasiga kelib, 0,08 sm.ga o‘sdi, xolos. Tajriba boshidagi va yakunidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha sakrovchanlikning o‘sish farqi esa 3,67 sm.ga teng bo‘ldi. Tajriba guruhidagi ko‘rsatkichlar esa, aksincha, ancha ijobiy gemodinamik (gemodinamik — qon aylanish tizimining turli qismlarida farq gidrostatik bosimning (past yuqori bosimi tufayli qon tomirlari orqali qon harakati) aks ta’siri (reaksiya) bilan ifodalanadi.

Fiziologik tadqiqotlardan tajriba boshlanishida o‘tkazilgan mashg‘ulotdan oldin olingan funksional ko‘rsatkichlar ikkala guruhda ham bir-biridan farq qilmasligi ma’lum

bo‘ldi (4-jadval). Lekin mashg‘ulot yakunida va mashg‘ulot tugagach, 10 daqiqadan so‘ng qayd etilgan ko‘rsatkichlar turli darajada o‘sish dinamikasi bilan ifodalanganligi kuzatildi.

Chunonchi, NOChni aniqlash testi bo‘yicha olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba boshida o‘tkazilgan mashg‘ulotdan avval bu boradagi ko‘rsatkichlar nazorat guruhida 16,6±1,6 marta/daq, mashg‘ulotdan keyin 44,6±3,4 va mashg‘ulot tugaganidan 10 daq. o‘tgach, 21,4±2,2 marta/daq. ni tashkil etdi.

Tajriba yakunida o‘tkazilgan mashg‘ulotdan oldin NOCh ushbu guruhda 17,8±2,4 marta/daq, mashg‘ulot tugagan zahoti – 46,6±5,8 va mashg‘ulot tugagandan so‘ng 10 daq. o‘tgach, 26,9±5,2 marta/daq bilan ifodalandi. Qayd etilgan ko‘rsatkichlarning o‘sish dinamikasida keskin farq kuzatildi. Ammo tajriba boshida va yakunida olingan ko‘rsatkichlar taqqoslanganida, yillik tayyorgarlik jarayoni so‘ngida o‘tkazilgan mashg‘ulot yuklamasi NOChning ancha ortishi va tiklanish jarayoni ancha susayishiga olib kelganligi ma’lum bo‘ldi.

4-jadval. Pedagogik tajriba davomidagi sport mashg‘ulotlarda organizm fiziologik holati va tiklanishining o‘sish dinamikasi

Funksional testlar	Guruh-lar	Tajriba boshida			Tajriba yakunida		
		mashg‘u-lotdan oldin	mashg‘u-lotdan keyin	10^d tiklanish-dan so‘ng	mashg‘u-lotdan oldin	mashg‘u-lotdan keyin	10^d tiklanish-dan so‘ng
YQCh marta/daq	NG	66,2±2,0	179,8±7,6	112,2±5,6	68,4±4,4	189,6±6,6	138,2±5,2
	TG	64,7±2,6	186,4±6,6	106,4±4,0	60,8±2,4	181,4±4,2	124,6±3,8
NOCh marta/daq	NG	16,4±1,6	44,6±3,4	21,4±2,2	17,8±2,4	46,6±5,8	26,9±5,2
	TG	14,8±1,0	42,8±3,2	17,6±1**2**	13,2±1,1	40,4±3,6	16,2±2,2
Shtange sinovi	NG	33,7±1,4	28,4±3,8	36 ,6 ±22	38,2±4,2	32,6±3,4	34,7±4,8
	TG	36,8±1,8	25,2±2,8	42,2±3,4	62,4±3,4	39,8±3,6	56,4±4,4
Genchi sinovi	NG	14,2±0,6	14,4±1,6	16,8±2,8	16y4±2,2	15,0±3,4	17,4±3,2
	TG	13,4±0,4	12,8± 22	17,2±3,4	26,2±2,6	19,6±2,8	38,2±3,6

Izoh: YuQCh – yurak qisqarish chastotasi; NST – nafasni saqlab turish; NOCh – nafas olish chastotasi; NG – nazorat guruh; TG – tajriba guruhi; Shtange sinovi – chuqur nafas olib, nafas saqlab turish; Genchi sinovi – chuqur nafas chiqarib, nafasni saqlab turish.

Demak, bu yil bo‘yi tajriba davomidagi mashg‘ulotlar yuklamalari muvofiq organlarda (to‘qima, hujayra va mushak tolalari) toliqish asoratlarini kuchaytiradi.

Tajriba guruhida NOCh o‘sish dinamikasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar nisbatan o‘suvchan (progressiv) yo‘nalishda kuzatildi. Chunonchi, NOCh ushbu guruhda tajriba boshida o‘tkazilgan mashg‘ulotdan avval 14,8±1,0 marta/daq., mashg‘ulot tugagan zahoti 42,8±3,2, mashg‘ulot tugagach, 10 daq.dan so‘ng esa 17,6±1,2 marta/daq-ga teng bo‘ldi.

Ko‘rinib turibdiki, NOChning tiklanish dinamikasi TGda NGdagiga nisbatan jadal kechgan yoki bu boradagi ko‘rsatkich mashg‘ulotdan avval olingan dastlabki ko‘rsatkichga ancha yaqinlashgan (14,8 marta/daq. – dastlabki ko‘rsatkich, 17,6 marta/daq – tiklanish ko‘rsatkichi).

Shtange sinovi ko‘rsatgichi NGda tajriba boshida o‘tkazilgan mashg‘ulotdan oldin 33,7±1,4 s., mashg‘ulot tugagan zahoti 28,4±3,8 s, mashg‘ulotdan 10 daqiqa o‘tgach,

36,6±2,2 s.ni tashkil etdi. Tajriba yakunida o‘tkazilgan mashg‘ulot oldidan esa ushbu ko‘rsatkich 38,2±4,2, mashg‘ulotdan keyin 32,6±3,4 s, mashg‘ulot tugagandan 10 daq. o‘tgach, 34,7±4,8 s.ni tashkil qildi.

Tajriba guruhida chuqur nafas olib, nafasni saqlab turish tajriba boshidagi mashg‘ulot davomida 36,8±1,8; 25,2±2,8; 40,2±3,4 s., tajriba yakunidagi mashg‘ulot davomida 62,4±3,4; 39,8 ± 3,6; 56,4±4,4 s. bilan ifodalandi. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘sish sur’atidan ma’lum bo‘ldiki, tajriba guruhida tajriba boshida o‘tkazilgan mashg‘ulotdan 10 daq. o‘tgach, NST 40,2 s. yoki nazorat guruhidagi ko‘rsatkichdan 6,2 s. ga ortiq bo‘ldi. Ayniqsa, bu ko‘rsatkich tajriba yakunida o‘tkazilgan mashg‘ulotdan 10 daq. o‘tganidan keyin 56,4 s. gacha ortdi. Bunday progressiv o‘sish dinamikasi bilan ifodalangan ko‘rsatkichlar tajriba davomida o‘tkazilgan har bir mashg‘ulot yakunida qo‘llangan oyoq mushaklari faoliyatini tiklovchi mashqlar nafaqat mushaklar faoliyatiga ijobiy ta’sir etganligidan darak beradi, balki tajriba guruhidagi talabalarda gipoksik imkoniyatlar ancha kuchayganligini ham tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tajriba guruhiga mansub yuguruvchilar mashg‘ulotlari davomida estafeta-o‘yin tartibida qo‘llangan sakrash mashqlari va har bir mashg‘ulot yakunida bajarilgan oyoq mushaklari, ish qobiliyatini tiklovchi relaksatsion mashqlar mashg‘ulotdan-mashg‘ulotga natijani oshirish qiymatiga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni videoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus.

2. Muxammadiyev K.B. Jismoniy tarbiya ta’limi jarayonida talabalarning atrof-muhitga bo‘lgan ehtiyotkorona munosabatlarini rivojlantirish. Dis... ped.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD). – Chirchiq: 2018. – 137-b.

3. Наскалов В.М. Профессионально-прикладная физическая подготовка студентов по специальности “Химическое производство”: дис. ... канд.пед. наук. – М.: БелГИФК, 1991. – С.170.

4. Olimov M.S. O‘rta masofaga yuguruvchi sportchi-talabalarni musobaqalarga tayyorlash uslubiyati. Ped.fan.nom. diss. ... avtoref – T.: O‘zGIFK, 2011. – 29-b.

Ozodbek DAVULOV,
Navoiy davlat pedagogika institutining “Jismoniy madaniyat”
kafedrasi o‘qituvchisi

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING JISMONIY SIFATLARINI DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini differensial yondashuv asosida rivojlantirish masalalari o‘z ifodasini topgan bo‘lib, muallif mazkur masala yuzasidan olib borgan tadqiqot ishlaridan namunalar keltirgan.

Kalit so‘zlar. Talaba, jismoniy sifatlar, differensial yondashuv, rivojlantirish, texnika oliy ta’lim muassasalari.

В статье рассматривается развитие физических качеств студентов технических вузов на основе дифференцированного подхода к обучению; автор приводит примеры исследований по данной проблеме.

Ключевые слова. Студент, физические качества, дифференцированный подход к обучению, развитие, технические вузы.

The article examines the development of physical qualities of students of technical universities on the basis of a differentiated approach to learning; the author gives examples of research on this problem.

Key words. Student, physical qualities, differentiated approach to learning, development, technical universities.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar kishilik jamiyatining oliy maqsadi bo‘lib kelgan – jismonan va axloqan barkamol, aqlan yetuk, ma’naviy boy insonni tarbiyalash muammosining yechimini topishga qaratilgan.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda differensial yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil qilish alohida dolzarblik kasb etadi.

Differensiatsiya (lot.: “differentia” “tafovutli”, “har xil”)– shaxsning individual sifatlari va qobiliyatlarini inobatga olish, tabaqalashtirish degan ma’nolarni anglatadi.

Zamonaviy sharoitda jismoniy tarbiya va sport tizimini modernizatsiya qilishning asosiy vazifalaridan biri talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni kiritishdir. So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasa talabalarining sog‘lig‘i va jismoniy tayyorgarligi darajasining pasayishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Shuning uchun bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportda vositalar va usullarni tabaqalashtirilgan holda qo‘llash muammosi, ayniqsa, dolzarbdir.

“O‘rtacha” jismoniy chiniqqan talaba uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishda surunkali qiyinchilik holatlari kuzatiladi. Natijada, jismoniy sifatlar darajasi yetuk bo‘lmagan yoshlar ularni yanada takomillashtirishga intilishmaydi va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga qiziqishlari so‘nadi.

So‘nggi yillarda ta’limga differensial yondashuv muammosi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, sport murabbiylari va mutaxassislarining e’tiborini tortmoqda. E.E. Xurramov “jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida turli vositalar va usullardan differensial foydalanishni tashkil etish” muhimligini qayd etib, maxsus metodika yaratishga kirishdi.

Pedagogika va psixologiyada differensial yondashuv ta’lim va tarbiya jarayonlarini optimallashtirish uchun ta’lim subyektlari o‘rtasidagi individual va guruhiy farqlarni o‘rganish usuli sifatida qaraladi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda mashg‘ulot maqsadiga muvofiq talabalar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish usullari, vositalarini tanlash (texnologik operatsiyalar), o‘quv faoliyatini boshqarish usullari (o‘qituvchi faoliyati)ni asoslash, subyektning o‘ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berish muhim ahamiyat kasb etadi.

N.S.Niyozova va I.I. Sulaymonovlarning fikrlariga ko‘ra, jismoniy tarbiya jarayonida differensial yondashuv o‘quv jarayonida talabalarning guruh xususiyatlarini hisobga oladi. Shu bilan birga, talabalarning ayrim guruhlariga xos bo‘lgan eng muhim omillarni hisobga olish muhimdir. Bir vaqtning o‘zida ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari yoshi, tayyorgarlik darajasi va malakasi bo‘yicha nisbatan bir hil guruhni tashkil etuvchi tahsil oluvchilar uchun mo‘ljallangan.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ta’lim jarayoni, uning aniq sharoitlari, talabalarning bilishga bo‘lgan ehtiyojlari, ularni to‘ldirish imkoniyatlari, shaxsiy sifat va qobiliyatlari, faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlari inobatga olinadi.

Ta’lim jarayonning samarali bo‘lishi, ko‘p jihatdan ta’lim tamoyillariga asoslangan holda o‘qitish jarayonlarini tashkil qilishga bog‘liq. Ushbu jarayonda ta’limni ijtimoiylashtirish, talabalar tomonidan ijtimoiy tajribani individual qonuniyatlar asosida o‘zlashtirilishi bilan izohlanadi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini differinsial metodikalar asosida rivojlantirish ta’lim jarayonini tashkil qilishda o‘qituvchi ijodkor va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo‘lini tanlaydi. Talabalarda o‘quv faoliyatiga yo‘naltiruvchi usullar, mustaqil ta’lim shakli, o‘zini-o‘zi rivojlantirish va jismoniy sifatlar bilan birga intellektual rivojlanish imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish jarayoni quyidagi bosqichlarda kechadi: 1) shaxsning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga doir o‘quv materiallarini yig‘ish; 2) o‘tkaziladigan ta’lim shakllarining maqsadi va vazifalarini belgilash; 3) texnologiyaning mazmunini ishlab chiqish; 4) ta’lim shakli, metodlari va vositalarini tanlash; 5) texnologiyani tashkil etish va o‘tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash; 6) texnologiya algoritmini ishlab chiqish; 7) talabalar faoliyatini nazorat qilish, ularning faollik darajalarini baholash; 8) texnologiyani amaliy faoliyatda qo‘llash; 9) talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda texnologiyaning o‘tkazilish holati (samarali, samarasiz, muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz kechganligi)ni muhokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish.

Ta’limda individual yondashuvning barcha shakl va usullarida o‘quv jarayonida qatnashuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladi. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi bo‘yicha taniqli mutaxassis L.P.Matveev individual ta’lim usullarini o‘rganish va pedagogik sharoitlarni optimallashtirish maqsadida jalb qilin-

ganlarga nisbatan individual yondashuv asosida ta'limni o'quv jarayonini qurish usuli sifatida ko'rib chiqadi.

Sportchilarni tayyorlashni individualizatsiya qilish psixologik-pedagogik printsip bo'lib, unga muvofiq mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Murabbiylarning amaliy ishlarida sportchilar tayyorgarligini individualizatsiya qilish, asosan, sportchilarning anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini, jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etib, o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llaniladi va avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalarni tanlashga xizmat qiladi.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda xizmat ko'rsatish bozorida mazkur faoliyat o'quv jarayonga kreativ komponentlar bilan uzluksiz bog'liq holda qaralishi mumkin.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda pedagog faoliyati quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur: 1) talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish; 2) talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda jismoniy madaniyat mashg'ulotlarini ijodiy loyihalash.

Tadqiqot doirasida olib borilgan so'rovlar natijasida texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish talablariga muvofiq doimiy yangilab borishga ehtiyoj sezishi aniqlandi.

Tajriba-sinov bosqichida bir necha metodlardan foydalanildi. Ularga: "SWOT-tahlil", "Xulosalash" (Rezyume, Veen) metodlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

"SWOT-tahlil" metodi

Metodning maqsadi: Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib, mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tajriba mashg'ulotlarida talabalarga jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining nazariy modullarini o'qitishda 1-semestrda quyidagi matn taqdim etildi:


O'zbekistonlik matonatli sportchi ayol O'zbekistonliklar Lina Cheryazovaning nomini yaxshi bilishadi.

Lina Anatolevna Cheryazova 1968-yil 1-noyabrda Toshkent shahrida tug'ildi. O'zbekistonlik ayol 1989-yilda SSSR terma jamoasi tarkibida erkin usulda Jahon kubogida debyut qildi.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin u xalqaro musobaqalarda O'zbekiston shonini himoya qildi. U 1994-yilda Norvegiyaning Lillehammer shahrida bo'lib o'tgan Olimpiada g'olibi. Bundan tashqari, u akrobatika bo'yicha erkin Olimpiya o'yinlarining birinchi chempionidir.

1992-1994-yillarda sportchi Jahon chempionatining 18 bosqichidan 13 tasida g'olib bo'lgan.

1994-yilda 25 yoshlik sportchi Olimpiada g'olibligidan so'ng, Amerikaning Leyk-



Plesid qishlog‘ida mashg‘ulot paytida boshidan qattiq jarohat oldi. Biroq, sportchi ayol matonati, uning nafaqat sog‘lig‘ini tiklashga, balki yana yangi sport marralarini egallashga undadi. U 1998-yilda Nagano Qishki Olimpiada o‘yinlariga yo‘llanma oldi va u yerda 13-o‘rinni egalladi.

Ushbu musobaqadan so‘ng, Lina Cheryazova o‘zining sport kar’erasini yakunladi. Shundan so‘ng, u 2019-yilga qadar Rossiya Federatsiyasining Novosibirsk shahrida yashadi va shu yerda vafot etdi.

1994-yilda Cheryazova “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sportchi” unvoniga, 1998-yilda “O‘zbekiston iftixori” unvoniga, 2006-yilda Rossiyada xizmat ko‘rsatgan sport ustasi unvoniga sazovor bo‘lgan.

Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalari “SWOT-tahlil” metodi asosida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Ularga taqdim qilingan matn asosida quyidagi savollarga javob berishdi: 1) Nega L.Cheryazova umrining oxirgi kunlarini qashshoqlikda o‘tkazdi? 2) Nega insonlarni tirikligida qadrlay olmaymiz? 3)Kuchli sportchi bo‘lish uchun irodani safarbar qilish kerakmi? Mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishda mazkur metod samarasi sezilarli bo‘ldi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida jismoniy madaniyat bo‘yicha DTS va dasturlarida ko‘rsatilishicha, ayrim ta’lim vazifalarini hal etish uchun nisbatan uzoq vaqt yoki qator ketma-ket mashg‘ulotlar zarur, ayrimlarini hal etish uchun esa bir mashg‘ulotning o‘zi kifoya qiladi. Ta’lim vazifalari, shuningdek, talabalarning jismoniy tarbiya va sport, sog‘liqni saqlash, chiniqish, jismoniy mashqlarni to‘g‘ri bajarish haqida bilim olishlarini ham hal qiladi.

Dasturlarning tahlilidan ko‘rinib turibdiki, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida individual yondashuv bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim masalalardan biri, uni qanday tuzish masalasidir. Mashg‘ulotning tuzilishi deganda alohida mashg‘ulotni tuzishda foydalaniladigan taxminiy reja tushuniladi. Mashg‘ulotning innovatsion tuzilishi o‘qituvchi mashqlarni oqilona tanlashga, materialni to‘g‘ri joylashtirish va mashg‘ulotdagi yuklamani aniqlashga yordam beradi hamda kafolatlangan natijani qo‘lga kiritishga zamin yaratadi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyadan mashg‘ulot tuzilishi dastur materialini izchil o‘rganish asosida belgilangan vazifalarga bog‘liq.

Qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun tegishli material tanlanadi, uni bajarish izchilligi va ta’limga differensial yondashuv usullari belgilanadi.

Differensial yondashuv asosida tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg‘uloti quyidagi talablarga javob berishi kerak:

a) o‘zida yangilikni kashf etishga mo‘ljallangan muayyan xususiy vazifalarga ega bo‘lishi lozim;

b) mashg‘ulot yangi didaktik muqobillar asosida metodik jihatdan va tabiiy jihatdan to‘g‘ri tashkil qilinishi kerak;

v) oldingi mashg‘ulotlarni izchil davom ettirishi va ayni paytda yaxlit va tugallangan bo‘lishi kerak, shu bilan birga u muayyan darajada bo‘lg‘usi mashg‘ulotning vazifa va mazmunini ko‘zda tutishi zarur;

g) talabalarning tarkibi, ularning yoshi, jinsi, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi hisobga olingan bo‘lishi lozim;

d) har tomonlama jismoniy rivojlanishga, sog‘liqni mustahkamlashga, qaddi-qomatni shakllantirishga yordam beruvchi mashqlar va o‘yinlar bo‘lishi darkor;

e) mashg‘ulot talabalar uchun motivatsiyali, qiziqarli bo‘lib, ularni faoliyatiga da’vat etish lozim;

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotida har qanday pedagogik vazifani hal etish ko‘pincha shug‘ullanuvchilar organizmining zo‘riqishini talab qiladi. Shuning uchun bu ishga organizm tegishli darajada tayyorlangan bo‘lishi kerak.

Har bir mashg‘ulot o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalaridan qat’i nazar boshdan oxir yaxlit bo‘lishi lozim. Mashg‘ulotning barcha vazifalari va mazmuni o‘zaro chambarchas bog‘lab amalga oshiriladi.

1-jadval

Texnika oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyada mashg‘ulot bosqichlari

Bosqich	**Faoliyat mazmuni**	**Tashkil qilish shakllari**
1-bosqich	Faoliyat tushunchalari, mohiyatini anglash, nazariy bilimlarni egallash	Mashg‘ulot
2-bosqich	Bilim, ko‘nikma va malakalarni, yangilikni ta’lim jarayoniga kiritish bilan bog‘liq shart-sharoitni yaratish	Trenirovka mashg‘ulotlari
3-bosqich	Jismoniy sifatlarni rivojlantirish	Individual mashg‘ulot

Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda shaxs faoliyatini ijodiy-motivatsiyaga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu – jismoniy tarbiyaga oid mashqlarni bajarishda qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o‘z kamolotiga intilish va boshqalar.

Ilmiy-uslubiy nashrlarni tahlil qilish, sport va pedagogik faoliyatning shaxsiy tajribasi shuni aytib o‘tishga imkon beradi: ta’lim va tarbiya jarayoni vositalari va usullaridan tabaqalashtirilgan foydalanish yosh sportchilarni tayyorlash samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Jismoniy tayyorgarligi past bo‘lgan bolalar uchun kuch va tezlikni oshirish mashqlari, ayniqsa, qiyin, natijada, ular o‘quv materialini ancha tayyor tengdoshlariga nisbatan unchalik samarali o‘zlashtirmaydi.

Biz tadqiqot ishlarimizda texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun didaktik-nazoratli topshiriqlar majmuidan foydalandik.

Tadqiqot-tajribaning mazmuni, shakl va yo‘llarini optimal holda loyihalash uchun yoxud belgilangan vazifalar ichida ta’limiy-tarbiyaviy maqsadga erishish, texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning samaradorlik darajasini aniqlash uchun 2018-2019 va 2019-2020 o‘quv yillarida Toshkent davlat texnika universiteti, Navoiy davlat konchilik institutida mazkur texnologiyalarni sinovdan o‘tkazdik (2-jadval).

2-jadval.
Tajriba-tadqiqotda qatnashgan texnika oliy ta’lim muassasalari talabalari

№	**Tajriba-tadqiqotda qatnashgan oliy ta’lim muassasa nomi**	**Respondentlar soni**		**Jami**
		Nazorat	**Tajriba**	
1.	Toshkent davlat texnika universiteti	156	157	313
2.	Navoiy davlat konchilik instituti	158	156	314
	Jami			627

Tajriba mobaynida texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda didaktik topshiriqlar tizimidan foydalanildi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish ularning kelgusidagi faoliyatlarida zarur bo‘ladigan mustahkam iroda, sog‘lom aql, sanogen tafakkur va insoniylik fazilatlarini tarkib toptirishga zamin yaratadi. Bu natijalarning samaradorligini aniqlash uchun mezonlarni qo‘llashda ahamiyatlilik darajasi olingan tanlanmalar obyektlarining xossalari bir-birlaridan qanchalik farq qilishiga qarab tanlandi. Bu farqlar talabalarda jismoniy sifatlar, harakat malakasi, sport texnikasi, insoniy fazilatlarning shakllanganlik darajasining turlichaligi va bir qator omillar (OTM sharoitlari, moddiy-texnika bazasi, professor-o‘qituvchilarning kompetentligi, psixologik xususiyatlari, jinsi va boshqalar)ga bog‘liqligi bilan belgilanadi. Shuning uchun tanlanmalarni tashkil qilganimizda bu omillar jiddiy e’tiborga olindi.

Tajriba tadqiqot davomida ahamiyatlilik darajasi qanchalik kichik olingan bo‘lsa, haqqoniylik darajasi shunchalik katta bo‘ldi. Lekin bu imkoniyat amalda erishish mumkin bo‘lgan natijalar bilan chegaralanganligi ayon bo‘ladi. Masalan, NavDKIdagi talabalar tajriba-sinov boshida jismoniy sifatlar (chaqqonlik, egiluvchanlik, tezkorlik)ga tayyorlik darajasi 69 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, tajriba-sinov oxirida bu ko‘rsatkich 92,4 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar mos ravishda TashDTUda 71,4 va 93,9 foizni tashkil etdi. Demak, nazorat guruhida yuqori darajada ko‘rsatkich tajriba-sinov yakunida 61 foizni, tajriba-guruhida esa 93,9 foizni tashkil etdi. Ya’ni texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarining o‘sish darajasi o‘rtasidagi tafovut 13 foizni tashkil etdi.

Tadqiqot davomida reja asosida, tizimli va maqsadli olib borilgan tajriba ishlari evaziga texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlari tajriba guruhlarida yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rsatdi.

Maqsaddan kelib chiqib, texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda differensial yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil qilish ko‘p jihatdan quyidagilarga bog‘liq ekanligi aniqlandi:

1. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini individual topshiriqlar majmuiga ustuvorlik berish asosida tashkil etishning hozirgi holatini aniqlash va tahlil etish;

2. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida texnika OTMlari talabalarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan metodlar, usullar va vositalarni qo‘llash imkoniyatlarini kuzatish va o‘rganish;

3. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda ta’limga differensial yondashuvni aniqlash. Anketa so‘rovnomalarini o‘tkazish;

4. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida texnika OTMlari talabalarining jismoniy sifatlarining rivojlanganligini test topshiriqlari asosida tekshirish va tahlil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh.A. Use of Pedagogical Diagnostic Methods in Secondary Education/ International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 09,2020 ISSN:1475-7192.

2. Abdullayeva Sh.A. Technology Of Perfection Of Knowledge Transfer And Acquisition On The Basis Of Computer Simulation Models. Journal of Computer Sciences and Applications, 2020,Vol. 8, No. 1, 1-4 Available online at http://pubs.sciepub.com/jcsa/8/1/1 Published by Science and Education Publishing DOI:10.12691/jcsa-8-1-1.

3. Abdullayeva Sh.A. Use of Pedagogical Diagnostic Methods in Secondary Education/ International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 09,2020 ISSN:1475-7192.

4. *Niyozova N.S., Sulaymonov I.I. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida differensial ta’limning ahamiyati// “Uzluksiz ta’lim”. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. – T., 2014. 2-son (ISSN 2091-5594).*

5. Xurramov E.E. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash yo‘llari // O‘ZMU xabarlari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 2015. 4-son.-B.151-152.(ISSN 2181-7324).

5. Xurramov E.E., Abdullayeva Sh.A. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash. // “Zamonaviy ta’lim” Respublika ilmiy-amaliy va metodik jurnali. -Toshkent, 2016. 5-son. – B. 15-22. (ISSN 2181-6514).

6. Xurramov E.E. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash mexanizmlari // “Uzluksiz ta’lim”. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. – T., 2016. 4-son (ISSN 2091-5594).

Ra'no XAYDAROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi, o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA YAPONIYA TAJRIBASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada Yaponiyadagi maktabgacha ta'lim sohasidagi bir qancha muammolar sanab o'tilgan. Yaponiyada maktabgacha ta'lim sohasining o'ziga xos jihatlari, Yaponiya tarixi haqida so'z borgan. Yaponiya va O'zbekistonning maktabgacha ta'lim tizimi bir-biri bilan taqqoslab o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim tizimi, ''Ikuji'' tamoyili, giperaktivlik, energiya komponenti, ixtisoslashgan maktablar, Yaponiya madaniyati, O'zbekiston Respublikasi ''Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida''gi qonun.

В статье перечислен ряд проблем в сфере дошкольного образования в Японии, об особенностях области дошкольного образования в Японии, истории Японии. Проведено сравнение систем дошкольного образования Японии и Узбекистана.

Ключевые слова. Система дошкольного образования, принцип ''Икудзи'', гиперактивность, энергетическая составляющая, специализированные школы, японская культура, Закон Республики Узбекистан ''О дошкольном образовании''.

The article lists a number of problems in the field of preschool education in Japan. There was a talk about the peculiarities of the field of preschool education in Japan, the history of Japan. The pre-school education systems of Japan and Uzbekistan have been compared.

Key words. The system of preschool education, the ''Ikuji'' principle, hyperactivity, energy component, specialized schools, Japanese culture, the Law of the Republic of Uzbekistan ''On preschool education''.

O'tgan yillarda O'zbekiston va Yaponiya o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishda salmoqli yutuqlarga erishdi. Mamlakatimiz Yaponiya bilan samimiy do'stlik aloqalarini, strategik sheriklik va hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Yaponiya O'zbekistonni Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim hamkori sifatida e'tirof etadi. O'zbek va yapon xalqlarining o'xshash jihatlari ko'p. Milliy va axloqiy qadriyatlar, birdamlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlar ikki xalq uchun birdek xosdir. Bu mamlakatlarimizning do'stligi va o'zaro hamkorlik munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Yaponiya xalqiga xos bo'lgan ota-onaga, kattalarga ehtiromli munosabat yapon madaniyati an'analarida alohida o'rin tutadi. Bu, albatta, yapon milliy ongining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uning tuzilishida tarbiya muhim o'rin tutadi.

Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan amaldagi davlat siyosati namuna darajasida deb aytish mumkin. Yaponiya hukumatining madaniyat, tarbiya va ta'limga

juda katta mablag‘ ajratishi hamda faol ravishda investitsiya kiritishi, oxir-oqibatda davlatning o‘zi uchun foydalidir. Iqtisodiy jihatdan esa o‘zini to‘liq oqlaydi.

Vaholanki, hozirgi Yaponiyani, 1945-yilda ikkita atom bombasi portlashidan keyin vayron bo‘lgan Yaponiyadan yarim asrdan ko‘proq vaqt ajratib turadi. Ikkinchi Jahon urushida so‘zsiz taslim bo‘lish aktiga imzo chekkan mamlakat butun hududning 44 foizini va milliy resurslarning 36 foizini yo‘qotdi. Bunday qisqa vaqt ichida qanday qilib Yaponiya misli ko‘rilmagan yutuqqa erisha oldi? Ushbu savolga javob berishda, yaponlarning o‘zlari, boshqa dalillar qatorida, yapon xalqining yuqori darajadagi ta’lim va tarbiyasini sabab qilib ko‘rsatadi. Darhaqiqat, Yaponiya bugungi kunda dunyoda yagona, ta’lim-tarbiya darajasi yuqori va barcha talablarga javob beradigan ‘‘ma’rifiy jamiyat’’ darajasiga erishgan yagona mamlakatdir.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimi, ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimi, jamiyat oldiga qo‘ygan yangi vazifalar asosida islohotlar bosqichidadir. Uzluksiz ta’lim tizimini jiddiy ravishda o‘zgartirish yo‘llarini topishga harakat qilinmoqda. Shu bilan birga, ta’limni tashkil etishning jahon tajribasi ta’lim muammolarini hal qilishning turli xil variantlarini taklif qiladi, ularning elementlari mamlakatimizda ishlatilishi mumkin.

Yaponiya ta’limidagi o‘zgarishlarni o‘rganish yapon maktabi o‘tgan yo‘lni xolis baholashga yordam beradi. Uning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini aniqlashga imkon yaratadi. Nafaqat Yaponiyada, balki boshqa mamlakatlarda ham uzluksiz ta’limni yanada rivojlantirish yo‘llarini izlash, turli milliy ta’lim tizimidagi barcha islohotlar jarayonlarini chuqur va har tomonlama o‘rganishni, ijobiy va salbiy tendensiyalarni va ushbu islohotlar natijalarini mamlakatning milliy madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda tahlil qilishni talab etadi. Turli mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlarni taqqoslashga, ularning kamchiliklarini aniqlashga va bartaraf etishga, muayyan mamlakatda maktabgacha ta’lim tizimi islohoti tajribasini boyitishga va zamonaviy dunyoda uzluksiz ta’limni rivojlantirishning yanada ishonchli, maqbul yo‘lini topishga yordam beradi.

Yaponiyada ham, xuddi O‘zbekiston Respublikasining shu kunlarda olib borayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlari kabi, maktabgacha ta’limga katta e’tibor qaratiladi, chunki psixologlarning fikriga ko‘ra, kishi hayotida qabul qiladigan axborotning 70 foizini yetti yoshgacha, 30 foizini esa yetti yoshdan so‘ng oladi. Bolalik davrida bolaning boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati shakllanadi va bu jamoaning qadriyatlariga qaratilgan yapon jamiyatida juda muhim sanaladi. Yaponlar birinchilardan bo‘lib erta rivojlanish zaruriyati haqida gapira boshlashdi. Yarim asr oldin mamlakatda yapon pedagogikasida inqilobni amalga oshirgan ‘‘Uchdan keyin juda kech’’ kitobi nashr etildi. Uning muallifi Misaru Ibuka – ‘‘Talent education’’ tashkilotining direktori va dunyoga mashhur Sony kompaniyasining asoschisi.

Ikuji tamoyili (bola ‘‘oldin xudo, keyin xizmatkor’’ bo‘lganida), 5 yoshgacha bola uchun hamma narsa mumkin. Ko‘pchilik chet elliklarning fikri o‘laroq, bu bolani taltaytirish yoki unga xushomad qilish emas. Bu bolada ‘‘sevimli va yaxshi ‘‘Men’’ini shakllantirishdir. 5 yoshgacha, ular bolaga imperator sifatida munosabatda bo‘lishadi, uni hech qachon jazolamaydilar. Hattoki, ovozini baland qilmaydilar, 5 yoshdan 15 yoshgacha – qul bo‘lib, qat’iy intizomni qo‘llaydilar va 15 yoshdan keyin – do‘st sifatida qaraydilar.

O‘zbek xalqida ushbu yapon tamoyilining aynan takrorlovchi maqol mavjud, ‘‘2 yoshgacha bola xudo, 15 yoshgacha qul va undan keyin do‘st’’. Yapon xalqining bola tarbiyasidagi asosiy tamoyili va o‘zbek xalqining yuqorida keltirilgan maqoli bu ikki xalqning ko‘p masalalarda g‘oyalarning mushtarakligini ko‘rsatmoqda.

Yapon oilalarida va jamiyatda qat’iy subordinatsiya mavjud. Erkak – bu oilaning so‘zsiz rahbari, onasi bolalarni tarbiyalaydi va uyni saranjom-sarishtaligi uchun javobgar shaxs. Yaponiyada keksalarni hurmat qilishadi. Yaponiyadagi ta’limning xususiyatlari – bu an’analarga va ko‘p asrlik urf-odatlarga qat’iy rioya qilishdir. Sanab o‘tilgan tarbiyadagi o‘ziga xosliklar, aksariyat o‘zbek oilalariga ham tegishlidir.

Yaponiyadagi birinchi bolalar bog‘chasi 1876-yilda ochilgan. Unga faqat badavlat ota-onalarning farzandlari borishi mumkin edi. Maktabgacha ta’lim Ikkinchi Jahon urushidan keyin ta’limni isloh qilish dasturiga kiritilgan. 1947-yilda ta’lim to‘g‘risida qonun qabul qilindi va ushbu qonunda bolalar bog‘chalari (birinchi navbatda bolalarni o‘qitish uchun mo‘ljallangan) faoliyati ham belgilab berildi. Bolalar farovonligi to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi.

Yaponiyadagi bolalar bog‘chalari majburiy emas. O‘zbekiston Respublikasidan farqli o‘laroq deyarli barcha maktabgacha ta’lim muassasalari xususiydir. Yaponiyada davlat bolalar bog‘chalari juda kam. U yerga borish uchun ota-onalar ma’muriyatga asosli hujjatlar bilan murojaat qilishi lozim. O‘zbekistonda xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari u qadar ko‘p emas va davlat bolalar bog‘chalariga joylashish bir muncha osonligi bilan e’tiborni tortadi. Bundan tashqari, ma’lum Vazirlik va tashkilotlarga tegishli maktabgacha ta’lim muassasalarining mavjudligi ushbu Vazirlik va tashkilotlarda ishlaydigan ota-onalarning bolalarini qabul qiladi.

Xususiy bog‘chalar orasida nufuzli universitetlarning qaramog‘ida bo‘lgan elita alohida o‘rin egallaydi. Agar bola bunday bolalar bog‘chasiga qatnasa, unda uning kelajagi haqida qayg‘urmasa ham bo‘ladi: undan keyin u universitet maktabiga o‘qishga kiradi va undan universitetga imtihonsiz kiradi. Universitet diplomi nufuzli va yaxshi maoshli ishning kafolati hisoblanadi. Shuning uchun elita bolalar bog‘chasiga kirish juda qiyin. Farzandini bunday muassasaga qabul qilish ota-onalardan katta pul talab qiladi va bolaning o‘zi juda murakkab sinovlardan o‘tishi lozim.

Yaponiyada bo‘lajak maktabgacha ta’lim tizimi mutaxassislarini rasm chizish, teatr, mehnat, origami, jismoniy tarbiya, musiqa va boshqa yo‘nalishlarda bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan. O‘quv jarayonida bolalar psixologiyasi, bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligi, ovqatlanish va ijtimoiy munosabatlar bo‘yicha ham darslar va mashg‘ulotlar olib boriladi. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari bo‘lajak mutaxassislarida ham aynan shu kabi fanlar o‘qitilishini ko‘rish mumkin.

‘‘Yaponiyalik bolalar bilan uchrashganda ularning tayyorgarligi, mustaqilligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi yaqqol ko‘zga tashlanadi’’, degan edi J. Uitbern. 1995-1996 yillarda uning rahbarligi ostida 6-7 yoshdagi yapon va ingliz bolalarining matematikada erishgan yutuqlarini baholashga qaratilgan qiyosiy tadqiqot o‘tkazilgan. Angliyada olti yoshga kelib, barcha bolalar bir yil davomida maktabga tayyorgarlik mashg‘ulotlarida qatnashdilar va shuning uchun ingliz bolalari yaponiyalik o‘quvchilarga qaraganda yaxshiroq natijalarni namoyish etdilar. Ammo bir yil o‘tgach, yaponiyalik bolalar matematikani bilish bo‘yicha o‘zlarining ingliz tengdoshlaridan ancha yuqori ekanliklari ma’lum bo‘ldi. Shubhasiz, bunday natijalar maktabgacha ta’limning maxsus amaliyotiga asoslanadi. Yaponiyadagi maktabgacha ta’limda asosiy e’tibor nafaqat bolalarga ma’lum fanlarni o‘qitishga, balki guruh a’zosi sifatida mustaqil harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Masalan, sinfda har bir o‘quvchi yetakchi rolni o‘ynaydi (‘‘Tobana’’). Tobana o‘qituvchiga darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan materiallarni tarqatishda yordam beradi, sinfdagi intizomni kuzatib boradi, turli mavzularni muhokama qilishga rahbarlik qiladi, xonaning tozaligi, o‘quvchilarni

dars oldidan yig‘ish va h.k. Har bir bola o‘zini ushbu rolda sinab ko‘rganligi sabab, bolalarga nafaqat o‘z tengdoshlarini boshqarish (bu, albatta, keyinchalik o‘zini-o‘zi boshqarishning rivojlanishiga hissa qo‘shadi), balki jamoa tomonidan qabul qilingan qarorlarning oqibatlarini his qilish imkoniyati beriladi. Afsuski, bu tajriba O‘zbekistonning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida deyarli kuzatilmaydi, faqatgina o‘ta kreativ va tajribali pedagoglar tomonidangina qo‘llanilishi mumkin. Aksar hollarda mashg‘ulotlar bolalar faolligini passiv darajasida o‘tkazilishi achinarli hol.

Yapon xalqining bola tarbiyasidagi an’analari maktabgacha ta’lim tizimi tamoyillarida ham o‘z aksini topgan, bolalar o‘zlari xohlagan narsani qilishadi – chizish, modellar yaratish, rol o‘ynash, o‘yinlarida qatnashish va h.k. Bu tengdoshlar bilan yaqinroq aloqa o‘rnatish, nizolarga duch kelish va ularni mustaqil hal qilish imkonini beradi. Yaponiyada bolalar o‘yinlari kattalar aralashuvidan xoli ekanligini alohida qayd etish kerak. Yaponiyadagi bolalar bog‘chasi tarbiyalanuvchisi mojaroni hal qilish uchun mustaqil ravishda yo‘l topadi. Bu yerda asosiy rol guruhga va uning huquqbuzarga bo‘lgan bosimiga beriladi. Shu bilan birga, yapon pedagoglari tajovuzkor xatti-harakatlar qasddan emas, balki tushunmovchilik natijasida yuzaga kelganligini qat’iy ta’kidlashadi. Bundan tashqari, nizoni hal qilish har doim o‘qituvchi vaziyatdan chiqish yo‘lini topgan bolani maqtashi uchun imkoniyatdir.

O‘qituvchi tomonidan tashkillashtirilgan har qanday faoliyat aniq maqsadga ega: harakat muvofiqlashtirishni rivojlantirishga qaratilgan; musiqa – ritm, eshitish xotirasi va hisoblash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun; hikoya – so‘z boyligini boyitish va tilni rivojlantirish. Shu bilan birga, o‘qituvchi tomonidan tashkillashtirilgan faoliyat har doim boladan kelib chiqadigan xohish, istak bilan bog‘liq.

Ammo, eng muhimi, pedagogning bolaga bo‘lgan umumiy munosabati hayratlanarli. L.Pikning: ‘‘yapon o‘qituvchilarining professionalligi ular o‘zaro ta’sir qilishning ijtimoiy mexanizmlaridan mohirona foydalanishlari, bolaga sabr-toqat bilan murojaat qilishlari, kuch namoyon qilmasliklari, qo‘pol so‘zlardan yoki jismoniy jazolarni umuman ishlatmasliklarida’’, deb ta’kidlaydi.

Yapon etiketining zaruriy elementi ta’zim qilish hisoblanadi. Yaponlar har bir minnatdorchilikni ta’zim qilish bilan kifoyalanadi. Ovqatlanishdan oldin, ovqatdan keyin va yig‘ilishlarda ta’zim qiladilar. Mehmonlarni qarshilab minnatdorchilik bildiradilar, hatto parlamentda ham ta’zim qilishadi.

Direktorning so‘zlariga javoban ta’zim qilish talabi hyech qanday qonunlarda yozilmagan. Bu yapon urf-odat bo‘yicha talab qilinadi: yoshlar kattalarga bo‘ysunishlari va ularga hurmat ko‘rsatishlari kerak. Ular buni bolalar bog‘chasida o‘rgana boshlaydilar.

Yaponiyalik pedagoglar bolani jamoada tarbiyalashga e’tibor berishadi. Ularning fikriga ko‘ra, bu demokratik ta’limning asosiy shartlaridan biridir. Chunki bolalar jamoasi – bu jamiyat modelidir. Yaponiyada bolalarni bir-biri bilan taqqoslamaydilar. Pedagog hech qachon eng yaxshisini alohida ajratmaydi va yomonni tanqid qilmaydi, ota-onalarga farzandining yomon rasm chizishi yoki hammadan yaxshi kuylashini aytmaydi. Bolalarni ajratish umuman mumkin emas.

Maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalar bog‘chalari, kunduzgi parvarish markazlari va rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun muassasalar kiradi.

Shuningdek, maktablarda ular bog‘langan universitetlarga kirishga tayyorgarlik ko‘rayotgan xususiy bolalar bog‘chalari mavjud.

Maktabgacha tarbiya muassasasi quyidagi vazifalarni hal qilishi kerak: bolaga kattalar va bolalar bilan yaxshi munosabatlarni o‘rnatishga yordam berish, ulardagi

tabiatga hurmatni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, uch yoshdan katta bolalarning 90-95 foizi turli xil maktabgacha tarbiya muassasalariga qatnaydi.

Hozirgi kunda Yaponiyada ham maktabgacha ta’lim muammolari va qarama-qarshiliklarsiz emas.

Birinchi muammo sifatida, aksariyat ota-onalar va o‘qituvchilarning maktabgacha ta’limda xususiy sektorning kuchayishi bilan kelishmovchiligini ta’kidlash mumkin, chunki bu ta’lim dasturlari sifatining pasayishiga olib keladi.

Ikkinchi muammo – bu bolalarning akademik yutuqlarining o‘sib borayotgan roli (maktabgacha ta’limning e’lon qilingan ijtimoiy yo‘nalishiga qaramay) – bir qator nufuzli bolalar bog‘chalari tanlov asosida beshta uch yoshli bolalardan bittasini qabul qiladi. Natijada, Yaponiyada ikki yoshli bolalarni bolalar bog‘chasiga tayyorlashga ixtisoslashgan muassasalar paydo bo‘ladi.

Avvalo, ular pedagoglarning maktabgacha yoshdagi bolalarning sho‘xligiga munosabati bilan bog‘liq. Ota-onalar bilan ishlaydigan pedagoglarning tajribasi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Maktabgacha ta’limning bolada tashkilotchilikni rivojlantirishga, uning tashabbusini qo‘llab-quvvatlashga, barqaror muhitni tashkil etishga yo‘naltirilganligi maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarining asosiy diqqat markazidagiligini ham o‘rganishga asos bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Детский сад в Японии: Опыт развития детей в группе / Общ. ред. В. Т. Нанивской. (Детский сад в Японии: Опыт развития детей в группе / омм. ред. В. Т. Нанивской.) – М., 1987.

2. За знаниями – по миру. Дошкольное образование в Японии // Дошкольное образование. (For kmowledge - around the world. Preschool education in Japan // Preschool education.) – 2010. – №1. – С. 13-18.

3. Мисару Ибука. После трех уже поздно // Дошкольное воспитание. (After three it is too late // Preschool education.)– 1995. – №3.

4. Парамонова Л. А., Протасова Э. Ю. Дошкольное и начальное образование за рубежом. История и современность – М., Академия, 2008. – С.240.

5. Система образования стран запада: Справочник. Ч. ИИ. – М.: РУДН, 2009. – С.192.

Nigora KENJABOYEVA,
Surxondaryo viloyat XTXQT va
UMO hududiy markazi dotsenti v.v.b.
pedagogika bo‘yicha falsafa doktori (Phd)

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR BILAN GEOMETRIYANI O‘RGANISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bilan geometriyani o‘rganish metodikasi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif maktabgacha ta’lim tizimi elementar matematik malakalarni shakllantiruvchi va mustahkamlovchi muhim bo‘g‘inlarini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Matematikani o‘rganish, geometriya, muvaffaqiyat, elementar, amaliy mashg‘ulot, munozara.

В статье рассматривается методика обучения геометрии с детьми в дошкольном образовании. Автор также упоминает важные звенья в системе дошкольного образования, которые формируют и укрепляют элементарные математические навыки.

Ключевые слова. Изучите математику, геометрия, успех, элементарные, практические занятия, обсуждение.

The article discusses the methodology of teaching geometry with children in preschool education. The author also mentions important links in the preschool education system that form and strengthen elementary mathematical skills.

Key words. Learn math, geometry, success, elementary, hands-on, discussion.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida matemetik malakalarni qaror toptirish, bolalarning matematik tasavvurlarini mustahkamlash, ularda matematik savodxonlikni keng targ‘ib qilishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Natijada, maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning elementar matematik malakalarini shakllantirish mazmunini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini bu jarayonga nazariy va metodik jihatdan tayyorlash imkoniyatlari kengaydi.

Bolalarga matematikadan ta’lim berish va maktabgacha ta’limdagi o‘quv tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri – bu bolalarda matemetik tushunchalarni rivojlantirishdir. Matematik tasavvurlarni shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishning asosiy formasi – mashg‘ulotdir.

Bir oz tajriba o‘tkazgandan so‘ng, kichkina qizaloq kvadrat blokni kvadrat teshikka qo‘ydi. Bu mos keladi! U yana urinadi. Muvaffaqiyat - bu ajoyib tuyg‘u! Ushbu o‘ychan kashfiyotni tomosha qilib, o‘zimizga savol berishimiz mumkin: bu bola shakllar haqida nimalarni biladi? U nimani o‘rganyapti? Maktabgacha tarbiya muassasasida u yana nimalarni o‘rganadi? Imkoniyat berilsa, u nimani o‘rganishi mumkin?

Yosh bolalar matematikani o‘z o‘yinlarida, hayotlarida “bajarishadi”. Biz barchamiz maktabgacha yoshdagi bolalarning shakl va naqshlarni o‘rganishini, geometrik dizaynni chizish va yaratishni, ko‘rgan shakllarini tanib olish va nomlashdan xursand bo‘lishlarini ko‘rdik.

Geometriya – bu bolalarning rivojlanishi uchun matematikaning eng tabiiy va qiziqarli sohalaridan biri!

Maktabgacha yoshdagi bolalarning geometriya bo‘yicha intuitiv bilimlari ularning raqamli ko‘nikmalaridan ustundir. Mavjud kuchli qiziqishlarga tayanib, biz matematikaga bo‘lgan doimiy ishtiyoqni kuchaytirib, sonli g‘oyalarni ishlab chiqish uchun mantiqiy kontekstni ta’minlay olamiz. Bolalar o‘zlarining ongida olib yurishlari mumkin bo‘lgan aqliy tasvir-rasmlarni yaratishni o‘rganadilar. Bolalarning geometrik tasavvurlarini shakllantirish fazoviy munosabatlarni o‘rganish matematikani boshdan kechirishning muhim qismidir. Shunday qilib, keling, bolalarga shakllar, rasmlar, navigatsiya va xaritalar bilan ishlash orqali qanday qilib yordam bera olishimizni ko‘rib chiqaylik.

Yodda tutingki, olti yoshga kelib, bolalar ko‘pincha shakllar to‘g‘risida qat’iy, ammo cheklovchi fikrlarga ega bo‘lishadi. Masalan, to‘rt yoshli bolakay tarbiyachisiga: “Bu maydon emas. Bu juda katta. Kvadrat mana shunga o‘xshaydi”, yana biri: “Uchburchaklar shunday bo‘lishi kerak. Bu uchburchak emas” deyishi mumkin. Siz turli xil misollarni - ko‘p o‘lchamdagi yoki ko‘p yo‘nalishlarda burchaklari bo‘lgan uchburchaklar bilan bo‘lishish va tanib olish orqali bolalar tushunchasini kengaytirishingiz mumkin. Bundan tashqari, siz nafaqat amaliy mashg‘ulotlar va munozaralar orqali, balki rasmli kitoblar orqali shakllar haqida chuqurroq fikrlashni rag‘batlantirishingiz mumkin. Masalan, “Tez suratga olish” harakatlarini sinab ko‘ring. Bir qog‘ozga oddiy shakllar to‘plamini chizib oling. Keyin bolalarga qisqacha tushuncha bering va tasvirni zaxira nusxa bilan yoping. Masalan, ikkita kichik kvadratlarga va to‘rtburchaklarga bo‘lingan kvadratni chizishingiz mumkin. Bolalar tezda ko‘zdan kechirgandan so‘ng, ko‘rganlarini aytib berishlarini so‘rang. Shakllarni tasvirlashdan tortib, bolalarga eslatadigan narsalar bilan taqqoslashga qadar, masalan, katakchalar yoki bloklar kabi turli xil javoblarni eshitasiz. Haqiqatan ham noto‘g‘ri javoblar yo‘q, mashg‘ulotlar va muhokamalar bolalarni shakllar va ular ko‘rgan narsalar haqida o‘ylashga ko‘proq jalb qiladi. (Katta yoshdagi bolalardan tez yurish paytida ko‘rgan narsalarini aks ettirish uchun turli xil yurish, rasm chizish va hokazolardan foydalanishni so‘rang).

Yosh bolalar uchun bloklar o‘yini geometriya bo‘limini ochib beradi. Ular bolalarga obyektlar oldindan aytib bo‘ladigan o‘xshashliklar va munosabatlar mavjud bo‘lgan dunyoni kashf qilishlariga imkon beradi va bolalarni matematik munosabatlarga asoslangan shakllar va tuzilmalarni yaratishga ilhomlantiradi. Masalan, bolalar ikkita qisqa blokni bir-biriga almashtirishda, ularni qurish uchun poydevor yaratishda ishlatiladigan bloklarni topish uchun uzunlik munosabatlari kabi tushunchalar bilan kurashishlari kerak. Shuningdek, bolalar muhim intuitiv g‘oyalarni qurishda va o‘rganishda balandlik, maydon va hajmni hisobga olishadi. Qanday qilib ushbu o‘sishni tezlashtirishga oid ba’zi maslahatlar:

Bolalarni fikrlarini muhokama qilishga undang va ularga o‘z harakatlariga so‘zlarni

aytishga yordam bering. Masalan, tarbiyachi uchta minoralar qurishni va kimning minorasi eng katta ekanligi to‘g‘risida bahslashishni aytadi. Imo-ishoralar va so‘zlardan foydalangan holda, o‘qituvchisi ulardan kimning minorasi “eng baland” yoki “eng keng” ekanligini yoki binosi eng ko‘p foydalanadigan binoni anglatishini so‘radi. Eshitish va fikrlarini tinglash uchun kichik bir olomon to‘plandi va hamma eng baland minorada eng ko‘p blok yo‘qligiga hayron bo‘ldi. Boshqacha qilib aytganda, siz bolalarning qurilish tajribasidan foydalanib, ularga balandlik, maydon va hajm kabi turli xil miqdorlarni ajrata boshlaysiz.

Bolalarni ular ishlatadigan bloklar va tuzilmalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar haqida o‘ylashga undovchi munozaralarga jalb qiling.

Blok o‘yinida bolalar turli muammolarni sinab ko‘rishlarini taklif qilish uchun imkoniyatlarni qidiring, masalan: kvadrat va to‘rtburchaklar bloklarni uzunligi bo‘yicha tartiblash; devorni eng uzun blokcha qilish uchun “qisqaroq” bloklardan foydalanish; iloji boricha ko‘proq turli xil shakldagi (to‘rtburchaklar) qavatlarni tayyorlash; va to‘rt blokdan kvadrat qutini yasash.

Yodda tuting: ushbu mashg‘ulotlar va shunga o‘xshash boshqa narsalar bolalarning matematikaga yaroqliligini aniqlash yoki ularning qancha to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarini ko‘rib chiqish uchun mo‘ljallanmagan. Buning o‘rniga, ular matematikaning xususiyatlarini o‘rganish va bolalarni mantiqiy, ijodiy va tanqidiy fikrlashga jalb qilish uchun imkoniyatlardir. Matematikani o‘rganish davomiyligida hamma har xil joyda bo‘ladi, shuning uchun bizning vazifamiz har kim o‘zini qobiliyatli va hech kim o‘zini qobiliyatsiz yoki tashlab ketmasligini his qilishiga ishonch hosil qilishdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, tarbiyachi har bir yosh guruhining dasturi qanday tuzilganini, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda boshlang‘ich matematik tasavvurlarni o‘stirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar har bir mashg‘ulotning qanday muhim rol o‘ynashi va o‘rin egallashini bilishi lozim.

Vaholanki, maktabgacha ta’lim tizimi elementar matematik malakalarni shakllantiruvchi va mustahkamlovchi muhim bo‘ginlardan sanaladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining bilim va harakatlari aynan shu maqsad uchun yo‘naltirilishi, eng avvalo, ularning o‘zi ana shu sohada zaruriy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollangan bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. –T., 2019-yil, 8-may, PQ-4312-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. http:www.mdo.uz

3. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. –T., 2018.

4. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 1993. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. –T., 2018.

Gulnoza TOSHTEMIROVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy zaruratini asoslashga qaratilgan bo'lib, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tahliliy izlanishlarni ko'rib chiqish, ehtiyojlarni o'rganish, muammoning mavjud holatini o'rganish yo'llarini izlab topish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Kitobxonlik madaniyati, mutolaa odobi, mustaqil o'qish, muloqot, matn bilan ishlash, fanlar sohasi.

Данная статья направлена на обоснование социальной необходимости формирования культуры чтения младших школьников и охватывает такие вопросы, как обзор псевдонимных исследований, направленных на развитие культуры чтения, изучение экстерьеров, поиск путей исследования современного состояния проблемы.

Ключевые слова. Культура чтения, привычка к чтению, самостоятельное чтение, общение, работа с текстом, область естественных наук.

This article is aimed at substantiating the social necessity of forming a reading culture in primary school children and covers such issues as the review of pseudonymous research aimed at developing a reading culture, the study of exteriors, and the search for ways to study the current state of the problem.

Key words. Culture of reading, reading habits, independent reading, communication, working with text, the field of natural sciences.

Kitobga muhabbat va mustaqil o'qishga qiziqishning mohiyati to'g'risidagi ziddiyatli fikrlarni qiyoslashni erta va eng so'nggi tadqiqotlarga murojaat etib davom ettirish ham mumkin, ammo ular kitobni inson hayotiga kiritish muammosi o'rganilayotganida barchasi qanchalik "oson" va barchasi qanchalik "murakkab" ekanligi to'g'risidagi xulosa uchun mavjud asosga hech nima qo'shimcha qilmaydi.

Shu bilan birga, avval ta'kidlanganidek, osonlik illyuziyalidir, bo'lmasa, muammo mavjud bo'lmas edi. Murakkablik esa, bizning nuqtayi nazarimizdan, zamonaviy fan "insonni o'rganishning barcha mumkin bo'lgan jihatlarini qamrab oluvchi..., ammo shubhasiz uni yaratish yo'lida bo'lgan" hali yagona va umumiy nazariyaga ega emasligi bilan tushuntiriladi.

Albatta, pedagogika insonni (jumladan, bolani) umuman tarbiya predmeti sifatida o'rganadi, ammo uning asosiy maqsadini amalga oshirishning imkoniyatlari hali yetarli kuzatilmagan: har bir ma'lum vaziyatda – faoliyati nafaqat o'rganilishi, baholanishi,

qayta o‘zgartirilishi kerak bo‘lgan obyektlarga, balki o‘ziga ham va o‘zi kabilar bilan optimal muloqotga yo‘naltirilgan shaxsni, individuallikni shakllantirish.

Ijtimoiy subyekt sifatida inson xulqini tartibga soluvchi, bolaning faoliyatini boshqarishga imkon beruvchi tuzilma, mexanizm va omillarni belgilovchi qonuniyatlar, ko‘pincha, hamon pedagogikadan tashqarida – psixologiya va fiziologiya, biofizika, biokimyo va xulq-atvor genetikasi kabi fanlar sohasida qolmoqda hamda bu qator hollarda pedagoglarni ilmiy dalillar va isbotlarga emas, balki bolalar ta’limi va tarbiyasini empirik darajada, intuitiv taxminlarga tayanib qurishga majbur etadi. Bundan “bola-kitob-jamiyat” muammosini o‘rganishdagi qo‘shimcha qiyinchiliklarni tug‘diradi.

O‘quvchilarda mustaqil kitobxonlikni shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqotda kitob bizni “ijtimoiy inson”ni tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalash vositasi sifatida qiziqtiradi, chunki u ma’lumotga ega kitobxonga so‘z san’ati orqali psixikasi va insonlar xulqining nozik nyuanslarini ochadi hamda shu tariqa boshqa insonlar hamda o‘z-o‘zining haqiqiy qadriyatini anglaydi.

Ammo mazkur qurolni egallash uchun, o‘quvchi pedagogning rahbarligida uning mazkur sifatida o‘rganishi, uni kitobxonga aynan o‘zi singari kitobxon bilan tanlangan muloqot qilish cheksiz to‘siqsiz imkoniyatini ochuvchi alohida faoliyat obyekti sifatida o‘zlashtirishi kerak. Demak, yetti yoshdagi bola – bu individual shaxs bo‘lganligi sababli, kitoblarni muloqot vositasi sifatida o‘rganish, insoniyat tomonidan tarixiy taraqqiyot jarayonida to‘plangan tajribaga ega bo‘lish imkoniyati sifatida kitobxonlik faoliyatini o‘zlashtirish, mazkur faoliyatni intellektual qobiliyatga aylantirish va muloqotning tanlovga asoslanganligi maqsadida kitobga ehtiyojni shakllantirish – bularning barchasi ta’lim bilan belgilangan va bizni qiziqtiruvchi mustaqil kitobxonlik sifatini shakllantiruvchi kitobxonlik tayyorgarligining pog‘onalaridir.

Mazkur savollarga javob berish uchun, biz ma’lumotli yoki malakali katta kitobxonni tavsiflovchi va biz tadqiqotning maqsad hamda vazifalaridan kelib chiqib andoza sifatida qabul qilishimiz va to‘g‘ri deb hisoblashimiz mumkin bo‘lgan kitobxonlik faoliyati jarayonini modellashtirish metodiga murojaat etdik.

To‘g‘ri, kitobxonlik faoliyati modelini tasavvur qilish va tahlil qilishdan avval, biz modellashtirish metodi 60-yillar boshlang‘ich ta’limi pedagogik muammolarini o‘rganish uchun biroz odatiy bo‘lmaganligi holatida murakkab jarayonlar va hodisalarni tadqiq etish uchun fanda (jumladan, tabiatshunoslikda) ko‘p yillardan beri qo‘llanilishini ta’kidlab o‘tamiz, shuning uchun ham zamonaviy tadqiqotchi turli modellar majmuiga va modellashtirishning nazariy-bilishga oid hamda metodologik funksiyalarini tushuntirishlariga ega bo‘ladi.

Shaxsni o‘rganish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganish uchun, ayniqsa, “tashqi va ichki faoliyat bir xil umumiy tuzilmaga ega bo‘lganligi” va zamonaviy psixologiya fanining muhim kashfiyotlaridan biri, shundan iboratligi sababli ko‘proq fikrlash modellari mos bo‘lib, ularni yaratishning asosi sifatida hissiy-ifodali namunalar xizmat qilishi bilan model “obrazli model” deb nomlanishi mumkin.

Mutaxassislarning fikrlariga ko‘ra, “obrazli yoki xayoliy model”ni nafaqat bilishning maxsus vositasi sifatida, balki ilmiy-tadqiqot evristik fikrlashning o‘ziga xos shakli sifatida ham qarash mumkin bo‘lib, bizning tadqiqotimiz maqsadlari uchun bu juda muhim edi, chunki bizga o‘rganilayotgan muammoni yangi holatda ko‘rish zarur edi.

Mustaqil ta’lim masalalari bo‘yicha ishlarni, shuningdek, o‘z ta’kidlashlariga ko‘ra, hayotlarida kitob muhim ahamiyat kasb etgan va hozirda ham muhim rol o‘ynaydigan insonlar biografiyalarini tahlil qilib, olingan ma’lumotlarni turli yoshdagi kitobxonlarning

(kichik o‘quvchilar, o‘smirlar, talabalar) xulqlarini bevosita kuzatishlar ma’lumotlar va o‘z-o‘zini kuzatish ma’lumotlari bilan qiyoslab, bizni qiziqtiruvchi muammoning 3 ta komponent mavjudligini ko‘rsatdi: kitobga murojaat etishning shaxsiy mazmuni, maqsadga ustanovka bilan kitoblarni ko‘rib chiqish odati va qobiliyati va o‘qilganligining mazmunini to‘laqonli o‘zlashtirish ahamiyatli rol o‘ynashi to‘g‘risidagi xulosaga keldik.

Mazkur komponentlardan har biri maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarning murakkab tizim ostini ifodalashini tushunamiz, ammo tadqiqotning birinchi bosqichida bizni tizim ostilardan ko‘ra ko‘proq, ularning kitobxon faoliyati tizimidagi roli va o‘zaro aloqadorligi qiziqtirdi. Mazkur o‘zaro aloqadorlikni aniqlash ularning o‘zaro hamkorligini va tizimning ichki va tashqi ishlashining haqqoniyligini tasdiqlashi mumkin.

O‘z ichiga sanab o‘tilgan 3 ta komponentni kirituvchi, malakali katta kitobxon faoliyatining umumlashgan hissiy-ko‘rgazmali obrazi sifatidagi tizim modeli, uni konstruksiyalashdan so‘ng o‘ziga xos ideal tuzilmani ifodaladi. Biz uchun uning farqli xususiyati kitobxonlik faoliyati uchun mazkur tuzilmaning ixtiyoriy komponentlaridan biri boshlang‘ich hisoblanishi mumkinligi bo‘ldi, ammo komponentlar o‘rtasidagi aloqalar va bog‘liqliklar faqat qat’iy belgilangan izchillikda yuzaga keldi.

Hozirda ham jonli so‘z va kitob doimo maorifning asosiy quroli bo‘lganligi va bo‘lib qolishi hamda o‘qituvchi ularni mukammal egallashi kerakligi to‘g‘risidagi fikrni tushunish bilan birga biz uni amalga oshirish uchun barcha ishlarni amalga oshirmaymiz. Jumladan, hozirgacha pedagogik OTMlarning dasturlarida bo‘lajak o‘qituvchilarda ular uchun kitobga va kitoblar olamiga malakali yo‘naltirish uchun zarur bo‘lgan bilimni aytish mumkin. Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish ko‘zda tutilmagan. Bu esa o‘qituvchini kasbiy tayyorlash jarayoniga katta zarar keltiradi.

Biz o‘quvchilarning mustaqil o‘qilgan matnga ishlov berishlariga e’tibor boshlang‘ich ta’limining barcha rivojlanish bosqichlarida (3-4 bosqichlarda talablar, hatto, 8-11 yoki 7-10 yoshdagi bolalarning imkoniyatlaridan ancha yuqori) yetarlicha yorqin ifodalanganligi, ammo, afsuski, qator bosqichlarda (2 va 7) bu yo‘nalish umumta’lim kitobxonlik dasturida yagona bo‘lib qolgan.

Kichik maktab o‘quvchisiga mustaqil o‘qishning ahamiyatini anglashga yordam beruvchi, u bilan shug‘ullanish, unda takomillashish ehtiyojini tug‘diruvchi kitob bilan ijtimoiy foydali faoliyat 20-yillarga nisbatan 30-yillar o‘rtalaridanoq mazmunini yo‘qotadi. Urushdan keyingi yillarda mazkur faoliyat avvalgi shakllarida umuman kerak emas edi, uning yangi shakllari to‘g‘risidagi masala esa, afsuski, qo‘yilmaydi.

O‘qish kitobidan asarlarda emas, balki kitobxon tomonidan ko‘rsatilgan bolalar kitobidagi asarda yangi materialda ko‘nikmalarni rivojlantirish ko‘pincha maqsadga erishishga olib kelmaydi, chunki o‘quvchilarda mustaqil o‘qishga qiziqishni uyg‘otmaydi.

Ko‘nikmalarni yangi materialda – o‘qish kitobidagi asarlarda emas, balki o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan bolalar kitobidagi berilgan asarda rivojlantirish ko‘pincha maqsadga erishishga olib kelmaydi, chunki o‘quvchilarda mustaqil o‘qishga qiziqishni uyg‘otmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: Tib-kitob, 2009 – 184 b.

2. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Tafakkur, 2011.

Anvar JONZOQOV,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

GEOGRAFIYA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola ta'lim menejeri faoliyatidagi ma'lumotlarning xususiyatlari va rolini tahlil qilishga bag'ishlangan, ma'lumotlarni to'plash, ishlov berish, saqlash usullari va vositalari tavsiflangan va umuman olganda, ta'limni boshqarish tizimini axborot bilan ta'minlash tizimini yaratishga turli yondashuvlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Doimiy rivojlanish, axborot bilan ta'minlash, o'quv jarayonini rivojlantirish, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, menejer-innovator faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, axborotni tizimli tahlil qilish, pedagogik innovatsiyalar.

Данная статья посвящена анализу особенностей и роли информации в деятельности менежера образования, охарактеризованы методы и средства сбора, обработки, хранения данных, а также представлены различные подходы к созданию системы информационного обеспечения образовательного менежмента в целом.

Ключевые слова. Непрерывное развитие, педагогические инновации, информационное обеспечение, развитие образовательного процесса, модернизации образовательного процесса, специфика деятельности менежера-инноватора, систематической анализ информации.

This article is devoted to the analysis of the features and role of information in the activities of an education manager, the methods and means of collecting, processing, storing data are characterized, and various approaches to creating a system of information support for educational management in general are presented.

Key words. Continuous development, information support, development of the educational process, modernization of the educational process, the specifics of the activities of the manager-innovator, systematic analysis of information, pedagogical innovations.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga navbatdagi Murojaatnomasida: "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz" – deydi.

Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur.

Shuning uchun ham, bog'chadan boshlab, oliy o'quv yurtigacha, ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik.

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak.

Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi.

“Sharq donishmandlari aytganidek,

“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm,

Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya,

Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”

Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur.

Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining geografiya ta’limi jarayoniga axborot texnologiyalarini keng miqyosda tatbiq etilishi bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda geografiya darslarini olib borish, kompyuter texnogiyalari bilan ishlashni hamda o‘quvchilar turli jug‘rofiy muammolarni yechishga va darslarni qiziqarli tartibda olib borishni ta’minlaydi.

Geografiyafani yer yuzining tuzilishi, uning quyosh atrofida aylanishi, yer osti suvlar, atmosferaning tuzilishi, dunyo okeani va uning qismlari, boyliklari, ekvatorlar, savannalar, o‘rmonlar, sovuq va issiq mintaqalari, davlatlarning tuzilishi, jahon aholisining soni, o‘sishi, joylashishi, o‘simlik va hayvonot dunyosini o‘rganadi.


Obyekt sifatida geografiyaning o‘ziga xos xususiyati uning yuqori miqdordagi materialni o‘z ichiga olganligidadir. Albatta, bularning barchasini bir yoki bir nechta darslik va o‘quv qo‘llanmalarda tasvirlab berish imkoniyati mavjud emas. Ensiklopediya qanchalik to‘liq bo‘lmasin, unda geografiya haqidagi barcha bilimlar mavjud emas. Shu bois, uzluksiz ta’lim tizimida, jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida geografiyani o‘qitishning yangi usullarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ulardan biri geografiyani o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining geografiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning yagona tasnifi yo‘qligi sababli, o‘quv jarayonida o‘qitish samaradorligini oshirish modelini ishlab chiqish zarurati tug‘ildi. Shu bois quyida 1-rasmda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining geografiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish modelining tuzilmasi keltirilgan.

*Kompyuter taqdimotlaridan foydalanish***.** Geografiya darslari uchun kompyuter taqdimotlarini yaratishda MS Power Point, Prezi, Macromedia Flash, 3D Max kabi dasturiy vositalaridan foydalanish qulay va samarali hisoblanadi. Bu o‘quvchilar ongida uzoq vaqt esda saqlash va tasavvurlarini hosil qilish uchun asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

M.H.Lutfillayevning fikriga ko‘ra, Macromedia Flash-texnologiyasining eng asosiy yutuqlaridan biri, uning yordamida sifatli dizayn hamda kompyuter xotirasida kam joy egallaydigan dinamik animatsiyalar yaratish imkoniyatiga egaligidir. Bu o‘z navbatida taqdim etiladigan ma’lumotlarni qisqartira oladigan vektorli grafikadan foydalanishni yaratadi.

Geografiya fani o‘qtishda, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini kengaytirishda, 3D tizimli ta’lim vositalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega bo‘lib, u fazoviy obrazlarni tasavvur qila olish imkoniyatini beradi. Bu geografiyaga oid hodisa va jarayonlarni

vizual tartibda taqdim etish orqali o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishga, muammolarning mustaqil yechimini topishga, ijodiy salohiyatini rivojlantirishga undaydi.



1-rasm. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida geografiyani o‘qitish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish modelining tuzilmasi

Kompyuterning taqdimotli dasturlari maktab geografiya darsligi mavzularini qiziqarli tashkil etish uchun muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Bunda geografiyaga oid o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni simulyatsiya qilish intizomini kengaytiradi, bu esa o‘qituvchiga axborot darsi bilan an’anaviy geografiya darslarini integratsiyasini ta’minlaydi.

Kompyuter taqdimotlaridan darsning alohida bosqichida (ta’riflar, tipik va amaliy ish rejalari, statistik materiallar aks ettirilgan) hamda dars davomida foydalanish mumkin. Shuningdek, dars uchun zarur bo‘lgan materialni aniq tanlashga va ushbu materialni kerakli ketma-ketlikda tizimlashtirish imkonini beradi. Shu bois, ushbu texnologiya dars vaqtni sezilarli darajada tejaydi, intizomni saqlaydi, o‘quvchilarni o‘quv faoliyatini faollashtiradi, mavzuga qiziqish uyg‘otadi, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Elektron darslikdan foydalanish. Elektron darslik yordamida fanga oid didaktik, uslubiy ma’lumotlarni au-

dioli, videoli, animatsion va matnli shaklda namoyish etish, o‘zini-o‘zi baholash imkoniyatlarini yaratadi.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta’lim metodlaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘qitish vositasi bo‘lib, undan mustaqil ta’lim olishda va o‘quv ma’lumotlarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslik qog‘ozli darslik bilan solishtirganda, o‘zining funksionalligi tufayli quyidagi afzalliklarga ega: matnni tezda qidirish; ma’lumotlarni audio, video va animatsion shaklda taqdim etish; gipermatn shaklida o‘quv ma’lumotlarini tashkil etish. Gipermatn – bu ma’lumotni saqlash va boshqarish usuli, bunda ma’lumotlar o‘zaro bog‘langan tugunlar tarmog‘i sifatida saqlanadi. Gipermatn ma’lumotlarni mantiqiy zanjirlarda giper havolalar bilan bog‘lab, uni ko‘p sonli bo‘laklarga bo‘lish imkonini beradi.

Geografiya darslarida axborot texnologiyalari yordamida ta’lim samaradorligini oshirishda interaktiv doskadan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, interaktiv doska oddiy kompyuter kabi imkoniyatlarga ega. Bunda matnni yozish va saqlash, taqdimot va ta’limiy filmlarni ko‘rsatish, Internetda kerakli ma’lumotlarni qidirish, fayllarni ochish hamda rangli elektron markerlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Shuningdek, amaliy ish uchun jadvallar, rasmlar, diagrammalarni oldindan tayyorlash va interfaol rejimdan foydalanish, ularni dars davomida to‘ldirish imkoniyati mavjud: berilgan savollarga javob berish; sinfdan foydalangan holda noto‘g‘ri javoblarni tuzatish; savollarni qo‘shish; xaritalarning kichik elementlarini ta’kidlash uchun kattalashtiruvchi kameradan foydalanish.

N.I.Taylaqovning fikriga ko‘ra, interaktiv doska – bu darsda turli xil resurslardan foydalanish qulayligi va an’anaviy darsda ishlatiladigan resurslarga nisbatan o‘quvchilar uchun qiziqarli tashkil etadigan o‘quv vositasidir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida vizual-samarali, vizual-majoziy fikrlash ustunlik qiladi, shuning uchun o‘quvchilar interfaol doskadagi rasm bilan barcha ishlarni intuitiv[1] darajada qabul qiladi – “jonli rasmlar” va “elektron marker” bilan ishlash, o‘quvchilarning ta’lim olishi uchun qulaylik tug‘diradi.

Interfaol xaritadan foydalanish. Interfaol xaritalar mavzuni bilish jarayonining jozibadorligini ochib beradi. Interfaol rejimda ishlash mavzuga hissiy munosabatni rag‘batlantiradi, motivatsiyani oshiradi, o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi, muvaffaqiyatga erishish uchun sharoit yaratadi. Interfaol xarita turli xil boshqaruv turlarini tashkil etishga yordam beradi: boshlang‘ich, joriy va yakuniy. Interfaol xaritaning harakatchanligi keng tarqalgan boshqaruv turlaridan birini – darhol tekshiriladigan geografik diktatsiyani ta’minlaydi, chunki o‘zini-o‘zi sinab ko‘rish o‘quvchilarning munosib o‘zini-o‘zi anglashini shakllantirish vositasidir. Interfaol xarita o‘ziga xos qatlamli to‘rdir. Ushbu xarita geografik axborot qatlamlari to‘plami sifatida berilgan. Har bir qatlam ma’lum bir mavzuga bag‘ishlangan, ma’lum bir obyekt guruhini o‘z ichiga oladi, shuning uchun bunday qatlamlar ko‘pincha tematik qatlamlar deb ataladi. Mazkur vositalardan geografiya darslarida foydalanish materik yoki kichik maydon bo‘lishidan qat’iy nazar, bitta hudud uchun har xil tarkibdagi tematik xaritalarni taqqoslashda samarali bo‘lishi mumkin.

Interfaol xaritalar – bu interfaol geografik o‘quv vositasining yangi turi sifatida tan olingan. Interfaol xaritalar bilan ishlashda o‘qituvchi har qanday bosqichi uchun zarur bo‘lgan nostandart vizual tasvirlarni yaratish imkoniyatiga ega. Interfaol xaritalar

[1] **Intuitiv bilim – bu ongsiz ravishda olingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bilim.**

maxsus tilda odatiy belgilar yordamida yer yuzasi tasvirlarini kichraytirilgan, boshqa tomondan, ular geografik axborot tizimlariga yaqinlashtiradigan yangi xususiyatga ega (xarita tarkibini o‘zgartirish imkoniyati). Ushbu turdagi xaritalar bilimlarni interfaol usulda, yangi materialni o‘rganish jarayonida sinab ko‘rish, tasdiqlovchi xulosalarni tuzish, taqqoslash va ma’lumotni taqdim etishning bir vaqtni o‘zida foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, modellashtirish va dizayn bo‘yicha ijodiy loyihalar yaratish uchun keng imkoniyatlarga ega.

Internet tarmog‘ining paydo bo‘lishi bilan ta’limga oid veb-saytlar, ta’lim platformalari va portallarning yaratish, ularni o‘quv jarayonida qo‘llanishi, mamlakatimiz ta’lim tizimi va madaniyatiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatib, innovatsion o‘qitish metodlarining takomillashuvi hamda rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Internetdan foydalangan holda amalga oshiriladigan ta’lim imkoniyatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarmoqda mavjud ta’limga oid o‘quv axborotlarining sifati bilan belgilanadi. Ta’limga oid veb-sayt axborot ta’lim muhitini rivojlantirishga hamda ta’lim olishning sifatiga, shuningdek, o‘quvchilarni ijtimoiy ongini shakllanishiga keng ko‘lamda ta’sir qilish omiliga aylanib bormoqda.

O‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, o‘qituvchilarining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Ta’limga oid veb-portallarga va ta’lim platformalariga joylashtirilgan elektron ta’lim resurslari, o‘quvchilar tomonidan o‘quv axborotini qidirish, saralash, tahlil qilish va tartibga solishga qaratilgan. Unda taqdimotlar, animatsiyalar, rasmlar, ovozli effektlari, kreativ fikrlashga oid topshiriqlar, elektron ko‘rgazmali qurollar, video darslar, audio resurslar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ta’limiy veb-portallar va platformalar bitta tarkibda birlashgan axborotni taqdim qilishning har xil pedagogik vositalarini uyg‘unligini o‘zida aks ettiradi. Ta’limiy veb-portallar va platformalarda joylashtirilgan elektron ta’lim resurslar axborotini maksimal aniq va o‘zlashtirish qulay tartibda taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

T.T.Shoymardonovning fikriga ko‘ra, bugungi kunda o‘quv jarayoniga mo‘ljallangan hamda integrallashgan axborot-ta’lim resurslariga ega ta’lim portalni yaratishga katta ehtiyoj mavjud. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining geografiya fanidan Internet tarmog‘ida integrallashgan ta’lim portallari va platformalarining yaratilishi, taqdim etiladigan axborotlarni mantiqiy tartibga solish va tizimlashtirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun Internet texnologiyalari, unga joylashtirilgan elektron ta’lim resurslaridan foydalanishni, ular ustida ishlashni yengillashtiradi.

Internet texnologiyasida ta’lim–tarbiya jarayonidan samarali foydalanishning asosiy maqsadi, barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish bo‘lib, quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi: zamonaviy o‘qitish vositalari asosida o‘quvchi-yoshlarga ta’lim va tarbiya berish; ta’limga oid axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish usullarini o‘rgatish; ta’lim oluvchini mustaqil o‘quv faoliyatini takomillashtirish; onlayn monitoring o‘tkazish va tahlil qilish.

Ushbu axborot ta’lim platformasi geografiya ta’lim va tarbiya jarayoni uchun quyidagi afzalliklarga ega: masofadan turib o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi yaqin aloqani ta’minlashga yordam beradi; o‘quvchining qiziqishini uyg‘otishga oid qo‘shimcha imkoniyatlarini masofadan turib amalga oshiradi; geografiya ta’limiga oid turli vaziyatlarda foydalanish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish uchun maxsus axborot muhiti sifatida xiz-

mat qiladi; o‘quvchilarning geografiya fanidan o‘zini-o‘zi rivojlantirish va nazorat qilish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi; o‘quvchilar uchun geografiya fanidan o‘quv-ma’lumotlar bilan ta’minlashni oshiradi (o‘quv-ma’lumotlarni tizimli tashkil etishga, kompyuter dasturlari yordamida mashg‘ulotlar o‘tkazish imkoniyati); o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi (mavzuni mustaqil o‘rganish va o‘tilgan mavzularni takrorlash).

Xulosa qilib aytganda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining geografiya ta’limi jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish.

O‘qituvchi o‘qitish vositalarni tanlashda yana foydalanganda o‘qitish jarayonini tashkil qilish turlarini, an’anaviy va noa’nanaviy darslarning xususiyatlarini, qo‘llaniladigan pedagogik axborot texnologiyalar bilan o‘qitish metodlarini hisobga olish lozim.

Yangi axborot texnologiya vositalarini qo‘llash o‘quvchilarni dunyoqarashini shakllantirishga shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qitishning texnik vositalari o‘qituvchi yordamida qo‘yilgan maqsadga erishishga, o‘tkazilayotgan mashg‘ulotlarni samaradorligini keskin oshirishga imkon beradi. Axborot texnologiya vositalar orqali murakkab o‘quv materialini oson tushuntirish mumkin. Masalan, havo massalarini vujudga kelishi, imkoni va antisiklonlarni shakllantirish, tornado, sunami va boshqa tabiiy geografik jarayonlarni hosil bo‘lishi va ularning oqibatlari o‘quvchilar qabul qilishi murakkab bo‘lgan geografik obyektlarni axborot texnologiya vositalar orqali osongina bajarish mumkin.

O‘qitishning axborot texnologiya vositalarini qo‘llashda quyidagi qoidalarga amal qilinishi lozim:

– texnik vositalardan ko‘rsatiladigan geografik voqea va hodisalar dars mavzusiga mos bo‘lishi lozim;

– texnik vositalarning qo‘llash oldidan uning ishlash tamoyili, mazkur darsda nima ko‘rsatilishi haqida o‘qituvchi axborot bermog‘i lozim;

– o‘qitishni texnik vositalari avvaldan ishga tayyorlab qo‘yilishi lozim;

– texnik vositalar orqali ma’lum bir mavzuni o‘rganishda uni alohida qismlarga bo‘lish lozimligini ko‘rib chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga navbatdagi Murojaatnomasi.

2. Nikadambayeva H.B. “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi (oliy ta’lim misolida) // Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2012. – 223 b.

3. Lutfillayev M.H. Oliy ta’lim o‘quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalash nazariyasi va amaliyoti (Informatika va tabiiy fanlar misolida) // Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T., 2007 – 246 b.

4. Taylakov N.I., Isroilova L. Interaktiv elektron doska bilan ishlash usullari//Fizika, matematika va informatika. –T., 2019.–№ 1–B. 95-104.

5. Shoymardonov T.T. Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. –T., 2017. –148-b.

Umidjon TURDIYEV,
Navoiy davlat pedagogika instituti
“Jismoniy madaniyat” kafedrasi katta o‘qituvchisi

PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT JARAYONLARINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish xususida fikr bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli texnologiya, jismoniy tarbiya, sport, jarayon, tashkil etish, rivojlanish.

В статье освещены вопросы организации процесса физической культуры и спорта в педагогических вузах на основе цифровых технологий.

Ключевые слова. Цифровые технологии, физическое воспитание, спорт, процесс, организация, развитие.

The article highlights the issues of organizing the process of physical culture and sports in pedagogical universities on the basis of digital technologies.

Key words. Digital technologies, physical education, sports, process, organization, development.

Jahonning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida insonlar hayoti, turmush asoslari o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan sun’iy aql va kognitiv intellektual tizimlar jadal taraqqiy topmoqda. Globallashuv jarayonida barcha texnologiya, kompyuterlar internet orqali bir-biri bilan bog‘langanligini kuzatish mumkin. Bu esa, kelgusida mexanik hamda jismoniy mehnat o‘rnini robototexnika egallashi uchun zamin hozirlanayotganidan dalolat bermoqda. Shu sababli, ta’lim jarayoni subyektlarida raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini ommaviy shakllantirishni ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Dunyo ta’lim tizimida oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchilari yangi kasblar, turli texnologiyalardan foydalanish, kompyuterlar, internet, katta miqdordagi raqamli ma’lumotlarga ishlov berishga tayyor bo‘lishini ta’minlash ehtiyoji mavjud, chunki muayyan jarayonlar avtomatlashtirilar ekan, yoshlarni boshqa, yanada dolzarb intellektual kasblarga yo‘naltirish zarurati vujudga kelmoqda. Axborot innovatsion g‘oya va texnologiyalarni jadal rivojlantirish ehtiyoji nostandart va kreativ fikrlashga qodir, kelgusi faoliyatida raqamli texnologiyalar bilan ishlashga tayyor bo‘lgan yetuk kadrlarni, shu jumladan, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini bozor munosabatlari zamirida tayyorlashning maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishni taqozo etmoqda. Bu maqsadlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan pedagogik mexanizmlarni

rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar dunyoning rivojlangan mamlakatlar – AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’lim jarayoniga tyutorlik, mentorlik tizimi joriy etilib, “bending” (banding – tasmalarga ajratish), “striming” (streaming – potoklarga ajratish), “setting” (setting – soha, guruhlarga ajratish) kabi o‘qitish shakllarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimining fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari bilan integratsiyalashuvini ta’minlash jarayonlarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga keng imkoniyat yaratilmoqda. Ta’lim oluvchilarning kelgusi kasbiy layoqatini oshirish, jismonan va ma’nan yetukligini ta’minlash asosida ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalari yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish, yetuk kasbiy salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassislarda sog‘lom tafakkur va yuksak ma’naviy sifatlarni rivojlantirish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Respublikamizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta’minlash, ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etishga o‘tilmoqda. Shuningdek, ushbu sohadagi vaziyat pedagogika oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish shart-sharoitlarini aniqlash, modul o‘qitilishini takomillashtirishga mo‘ljallangan modelni ishlab chiqish, talabalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish malakalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2019-yil 6-sentabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish ko‘p jihatdan bugungi kunda oliy ta’lim tizimini bardavom isloh qilish bilan bog‘liq.

Kelgusidagi istiqbolda mexanik hamda jismoniy mehnat o‘rnini robototexnika egallashi muqarrar ekan, bo‘lajak mutaxassislarda raqamli texnologiyalardan foydalanish va shu asosda ishlashga o‘rgatish strategiyasini ishlab chiqish, raqamli ko‘nikmalarni ommaviy shakllantirishni ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar – ta’lim, ishlab chiqarish sanoat obyektlarida axborot-kommunikatsiya xizmatlaridir. “Raqamli” atamasi mazkur sohalarning barchasi axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli texnologiyalarda, bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma’lumotlarni bildiradi.

Dunyo ta’limida raqamli texnologiyalarning rivojlanish tendensiyasi shuni ko‘rsatyaptiki, barcha rivojlangan davlatlarning oliy ta’lim muassasalari uni shakllantirishga allaqachon kirishgan. O‘zbekiston Respublikasida ham mazkur jarayon jadallashib bormoqda. Binobarin, globallashuv jarayoni dunyo hamjamiyatining barcha jabhalarini qamrab olar ekan, madaniy-ma’rifiy, iqtisodiy integratsiya bu borada o‘zgargan (transformatsiya qilingan, yangilangan) iqtisodiyot ravnaqi uchun muhim.

Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning real sektori korxonalariga avtomatlashtiril-

gan tizimlarni joriy etishga xizmat qilar ekan, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish, ta'lim sifatini oshirish, faoliyat shaffofligini ta'minlash imkonini beradi. Ayni paytda sun'iy aql va kognitiv intellektual tizimlar jadal taraqqiy topayotganligi natijasida yaqin kelajakda ayrim kasblar o'z dolzarbligini yo'qotishi, "IOT" avtomatlashtirilgan tizimi allaqachon sinovdan o'tkazilayotganligi pirovardida robotlar avtomobil haydovchilari, uchuvchilar, va hatto, huquqshunoslarning ham o'rnini egallashi mumkin. Shu jihatdan olganda, bugungi kun yoshlari yangi kasblar, turli texnologiyalardan foydalanish, kompyuterlar, internet, katta miqdordagi raqamli ma'lumotlarga ishlov berishga tayyor turishi kerak. Muayyan jarayonlar avtomatlashtirilar ekan, tahsil oluvchilarni boshqa, yanada dolzarb intellektual kasblarga yo'naltirish lozim. Agar bu ish qilinmasa, "raqamli uzilish" deya nomlanuvchi holat yuzaga keladi va u AKTning jadal rivojlanishi bilan o'tkirlashib boraveradi. Demak, bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ikkita muhim vazifasi dolzarb bo'lib hisoblanadi, ya'ni amaldagi jarayonni izchil avtomatlashtirib borish hamda tahsil oluvchilarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash. Binobarin, bu jarayonda ko'plab ma'lumotlar raqamli formatga o'tkazilsa, elektron ko'rinishda saqlansa, axborot va kiberxavfsizlik masalasi ham dolzarblik kasb etadi. Shu sababli, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish, pedagogik jarayonda bo'lajak mutaxassislarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etayotganligi muqarrar bo'lib bormoqda.

Bo'lajak mutaxassislarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadqiqotlar dunyoning yetakchi ta'lim maskanlarida, jumladan, Oslo Metropolitan University (Norvegiya), University of Limerick (Irlandiya), University of Valencia (Ispaniya), University of Malta (Malta), De la Rioja International Universityda (Ispaniya) olib borilmoqda. Ta'lim akademiyasi (Rossiya), Toshkent davlat axborot texnologiyalari universiteti (O'zbekiston) kabi oliy ta'lim muassasalarida ham aynan shu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ilmiy izlanishlar, manbalar va adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'lishicha, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish masalalari zamonaviy sharoitda to'laqonli o'rganilmagan.

Jismoniy tarbiya – insonning ontogenezi davrida uzluksiz davom etadigan, organizmni har tomonlama takomillashtiradigan, hayot uchun muhim bo'lgan harakat ko'nikma va malakalarini yosh davrlariga mos holda o'zgartirib boradigan pedagogik jarayondir.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etishda jismoniy tarbiya ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan hodisa toifasiga kiradi. U insonning sihat-salomatligini barqarorlashtiradi, har taraflama rivojlanishini amalga oshiradi. Bu esa, ta'lim sifati bilan bog'liqlikda tahlil talab etiladigan masalalar sirasidandir.

Ta'lim xizmatlari sifatini boshqarish, uni uzluksiz oshirib borish hamda fuqarolar va davlatning ta'limdagi manfaatlarini himoya qilish ta'lim xizmatlarini standartlashtirishni talab qiladi. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldidagi asosiy muammolar, u yoki bu darajada, ta'lim sifati bilan bog'liq.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etishda ta'lim mazmunini takomillashtirish bilan bir qatorda, uning sifatini ilmiy holda axborot-kommunikatsiya vositalari asosida oshirishni

ham taqozo etmoqda.

Xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan AKT imkoniyatlaridan foydalanish sohasida katta tajriba to‘plangan. Bu ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish zaruratining nechog‘li muhimligini ko‘rsatuvchi dalildir. Bu tajribalar va boshqa ishlarda o‘z ifodasini topgan. Ushbu tadqiqotlar mazmunida oliy ta’lim sifatini faqat kompyuter savodxonligini oshirish evaziga yuksaltirib bo‘lmasligi, balki yangi informatsion texnologiyalar, xususan, ta’lim jarayonida didaktik tamoyillarga asoslangan raqamli texnologiyalardan foydalanish tizimini joriy etish orqali erishish mumkinligi uqtiriladi.

Suropov Bahodir Maydonovichning “Elektron ta’lim muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fanini o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish” mavzusidagi falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun bajargan dissertatsiyasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida elektron ta’lim muhitini yaratish, uni tashkil qilish masalalari o‘z ifodasini topgan bo‘lib, muallif Movavi Video Editor Plus, Bandicam, Macromedia Flesh 8 kabi dasturlar asosida ta’lim jarayoni uchun axborot resurslarini yaratish holatini tahlil qiladi.

M.H.Lutfillayevning “Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish bosqichlari” mavzusidagi monografiyasida dunyoda sodir bo‘layotgan texnologik jarayonlarning kuchayishi davrida ta’lim sifatini oshirish va uni axborot xizmati kontekstida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishi, shu jihatdan olganda, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimida axborotlashtirish katta rol o‘ynashi alohida qayd etilgan. “Bugungi kunda Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Avstraliya kabi rivojlangan davlatlarning ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda avtomatlashgan elektron ta’lim muhiti yaratilgan. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, ta’lim sifatini baholashning elektron tizimini yaratish, xalqaro baholash dasturlarini keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda,– deydi olim. Muallif fikricha, oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda axborot ayirboshlashning yangi shakllari va imkoniyatlari orqali yagona ta’limiy axborot tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etishga qo‘yilgan umumiy talablar aniqlanganda, har qanday konkret holatda u yoki bu metodni maqsadga muvofiq holda qo‘llash qator talablarga rioya qilishni taqozo etadi:

1. Jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etishning ilmiy asoslanganligi;

2. Rejalashtirilgan pedagogik vazifalarga o‘qitishning muvofiqligi. Masalan, jismoniy tarbiya mashg‘ulotida brusyalarda mashqlarni bajarishga o‘rgatish (o‘qitish) vazifasi qo‘yilgan bo‘lsa, metod tanlanganda (jismoniy harakat texnikasini bo‘laklarga ajratib, bajarish bilan o‘qitish metodlariga tayanish mumkin);

3. Ta’limning tarbiyaviy tavsifga ega ekanligi. Har bir tanlangan metod aynan shu harakat faoliyatini o‘qitishning faqat samarali jarayonini ta’minlash nuqtayi nazaridangina baholanmay, tarbiya vazifalari pozitsiyasi talabiga ko‘ra ham baholanishi zarur.

4. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etishda ta’lim tizimidagi tamoyillarga tayanish orqali o‘quv maqsadlariga erishish. Masalan, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ko‘rgazmalilik metodidan foydalanayotgan o‘qituvchi ko‘rgazmalilik prinsipidan tashqari yana boshqa tamoyillarga ham tayanadi.

5. O‘quv materiali va sport anjomlarining muvofiqligi. O‘qitish metodlari ma’lum

darajada bo‘lsada, bajariladigan jismoniy mashqlarning turlariga bog‘liqdir, ayrim hollarda faqat so‘z bilan ifodalash metodining o‘zi kifoya qilsa, nisbatan qiyin vazifalarda esa, ko‘rsatish metodini ham qo‘llashga to‘g‘ri keladi. O‘ynaladigan, gimnastika, sport va turizm tarzidagi mashqlarni o‘qitish o‘zining xususiy metodlariga ega emas. Metodlar jismoniy mashqlarning barcha turlari uchun bir xildir.

6. O‘qituvchining sog‘lomlashtiruvchi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. Har bir jismoniy tarbiya o‘qituvchisi ta’limning barcha metodlarini to‘la hajmda egallagan bo‘lishi lozim. Shuningdek, sog‘lomlashtiruvchi texnologiyalarning xususiyatlarini jismoniy tarbiya jarayonida hisobga olishi zarur.

8. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari uchun pedagogik shart-sharoitlar yetarli bo‘lishi. Bunda pedagog salohiyati, o‘quv dasturlari, rejalarda o‘rganilayotgan mavzular to‘liq aks ettirilgan bo‘lishi, sport maydonchalari, suv havzalari, sport anjomlarining yetarli bo‘lishi kabilar inobatga olinadi. Malumki, mashqlarning natijasi, uni qaysi sharoitda, nima uchun bajarilayotganligiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, oldinga egilish mashqi to‘g‘ri yelka bilan sekin bajarilganda, yelka muskullari rivojlantiriladi va h.k.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etishga qo‘yilayotgan talablar mazkur jarayonni texnologiyalashni, ya’ni butun ta’lim jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, o‘qituvchining maqsadi va talabalarning vazifalarini oydinlashtirish, ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash, kutiladigan natijalarni oldindan belgilashni shart qilib qo‘ymoqda. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun dastlab quyidagilarni bajarish lozim:

1. O‘qituvchi-talabalar hamkorligining shakllari va amalga oshirish metodlarini takomillashtirish;

2. O‘qituvchining kasbiy-pedagogik bilimdonligi va jismoniy madaniyatini rivojlantirish;

3. Hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayonida o‘qituvchi o‘zining ijodiy nuqtayi nazarini tatbiq qilishi uchun qulay didaktik vaziyatni vujudga keltirish;

4. Hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayonida o‘qituvchining mahsuldor faoliyat ko‘rsatish mayllarini rivojlantirish;

5. O‘qituvchida hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayonini boshqarish madaniyatini tarkib toptirish.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish uchun mazkur jarayon nazariy yondashuvlar, didaktik tamoyillar va tushunchalarga asoslanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish, birinchidan, talabalarning axborot-kommunikatsion texnologiyalarga oid bilimlarni o‘zlashtirishlariga; ikkinchidan, o‘zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalana olishlariga; uchinchidan, mazkur egallangan bilim va ko‘nikmalar yordamida jismoniy sifatlarini oshirish, jismoniy madaniyatini yuksaltirish, ularning ahamiyatini tushunib yetish, o‘zi uchun keraklilarini ajratib olish – yaxlitlikda mustaqil fikrlashini shakllantirish imkoniyatini hosil qiladi.

2019-2020-o‘quv yilida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun belgilangan pedagogika oliy ta’lim muassasalarining “Jismoniy tarbiya” fakultetlarida pilot tajribalari va jarayonlari tashkil etilib, tadqiqot doirasida pedagogik kuzatuv olib borildi. Kuzatish jarayonida jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va talabalar bilan individual suhbatlar tash-

kil etildi. Suhbatlar davomida o‘qituvchilarning mashg‘ulot jarayonining tashkil etishda qaysi jihatlarga ko‘proq e’tibor berishlari va qaysi tamoyillar asosida ularni tashkil etishlari, faoliyat samaradorligi, talabalarning AKT bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirishga munosabati o‘rganildi. Natijada quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari mashg‘ulotlarni tashkil etishda talabalarni faollashtirishga e’tibor qaratishadi;

2. Ko‘p hollarda mashg‘ulotlarda, garchi sog‘lomlashtiruvchi texnologiyalardan foydalanilsada, ular muayyan tizim asosida olib borilmaydi;

3. O‘qituvchilar faoliyat samaradorligini talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan miqdor ko‘rsatkichlari asosida baholashadi. Aslida, miqdor va sifat ko‘rsatkichlari hisobga olinishi lozim;

4. Jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirish jarayoni to‘liq modellashtirilmagan, ya’ni munosabatli, faoliyatli, qadriyatli yondashuvning uyg‘unligi ta’minlanmagan. O‘qituvchi va talabalar munosabatlarida demokratik tamoyillarga qaraganda, avtoritar boshqaruv uslubi ustunlik qiladi.

Tajriba-sinov ishlarini boshlashdan avval raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etishga yo‘naltirilgan individual tarzda suhbatlar o‘tkazilib, ularni qiziqtirgan savollarga aniqlik kiritildi hamda tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishga doir ilmiy-amaliy maslahatlar berildi.

Bugungi kunda axborotlashgan ta’lim muhitining alohida komponentlari bo‘lgan axborot tizimlari, ma’lumotlar banklari, muassasa, tashkilot, pedagog va o‘quvchilarning veb-saytlari, axborot resurs markazlari, elektron axborot-ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar, media va videodarslar, elektron hujjatlar almashinuv tizimi, videokonferensiya aloqalari, internet tarmog‘idagi onlayn tanlovlar tizimidagi barcha ishtirokchilarni faol foydalanuvchilarga aylanishiga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga keng joriy etilishiga xizmat qilmoqda.

Axborotlashgan ta’lim muhitini shakllantirish borasidagi tizimda amalga oshirilgan ishlarning orasida axborot-ta’lim portalining salmoqli o‘rni bor. Mazkur portalning “Axborot muhiti” bo‘limida portal haqidagi, ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar, ta’limi tizimining asosiy ko‘rsatkichlari, tasdiqlangan darslik va qo‘llanmalari haqidagi ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan bo‘lib, unda vazirlikning yagona axborot-ta’lim muhitiga:

– talabalarning ta’lim vositalari hamda masofaviy ta’lim shaklini ta’minlash;

– talabalar uchun o‘quv-metodik materiallardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

– axborot resurslaridan qulay foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratish;

– boshqa vazirliklar, tashkilot, idora va ta’lim muassasalari saytlari bilan integrativ aloqani yo‘lga qo‘yish talablari belgilangan. Shu bilan birga, “Ta’lim muhiti” bo‘limida Davlat ta’lim standartlari, o‘quv-reja va dasturlar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, elektron darslik va qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, xorijiy tillarni o‘rganish, AKTlardan foydalanish va elektron interfaol doskalardan foydalanish bo‘yicha axborotlar ham o‘rin olgan.

Tadqiqotimiz doirasi Jismoniy tarbiya bo‘yicha hozirgi kungacha yaratilgan va foydalanishga topshirilgan elektron materiallarni tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqardi. 2020-yilgacha tayyorlangan elektron axborot resurslari haqidagi ma’lumotlarga ko‘ra pedagogika oliy ta’lim muassasalarining “Jismoniy tarbiya” mutaxassisligi uchun jami 1213 ta elektron resurslari tayyorlangan.

Tahlillar ko‘rsatishicha, “Jismoniy tarbiya” mutaxassisligi uchun elektron-multimedia resurslari, ETRni yaratish zarurati mavjud.

Respublika Multimedia markazi tomonidan yaratilgan elektron o‘quv ta’limiy materiallari, asosan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, pedagogika oliy ta’lim muassasalarining “Jismoniy tarbiya” mutaxassisligi uchun yangi elektron ta’limiy vositalarni yaratishni taqozo etadi. Shunday qilib, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish vazifalarini amalga oshirilishiga muhim hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5466-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarori.

4. Abdullayev F. A. “Oliy ta’lim muassasasini boshqarishda axborot xizmati tizimini takomillashtirish (pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida)” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T., 2019.-156b.

5. Abdullayeva Sh.A. Use of Pedagogical Diagnostic Methods in Secondary Education/ International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 09,2020 ISSN:1475-7192.

6. Абдуллаева Ш.А. Совершенствование качества образования в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. -Белгород: Ж .: Практическая психология и педагогика, 2019.-№4. С.17-20.

7. Abdullayeva Sh.A. Use of Pedagogical Diagnostic Methods in Secondary Education/ International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 09,2020 ISSN:1475-7192.

8. Suropov B. M. “Elektron ta’lim muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fanini o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish” Diss.. falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan,-T.:2019.-134-b.

9. Lutfillayev M.H. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish bosqichlari. Monografiya.-T.: Moliya, 2020. 180-b.

Manzura DJUMABAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
psixologiya o‘quv-ilmiy markazi yetakchi ilmiy xodimi

O‘QUVCHI-YOSHLAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM MUASSASALARI VA OAV INTEGRATSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘quvchi-yoshlarga ommaviy axborot vositalari orqali ta’sir etishning ijobiy va salbiy ko‘rinishlari hamda axborot texnologiya vositalaridan foydalanish madaniyati, axborot sohasida axborot xuruji masalalari va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida ma’lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar. Yoshlar, axborot, ommaviy axborot, ijobiy va salbiy axborot, axborot xuruji, ommaviy madaniyat.

В данной статье представлена информация о положительных и отрицательных проявлениях воздействия средств массовой информации на молодежь и культуре использования средств информационных технологий, проблемах информационного воздействия в сфере информации и путях их устранения.

Ключевые слова. Молодежь, информация, СМИ, позитивная и негативная информация, информационная атака, массовая культура.

This article presents information about the positive and negative effects of mass media on young people and the culture of using information technologies, the problems of information impact in the field of information and ways to eliminate them.

Key words. Youth, information, mass media, positive and negative information, information attack, mass culture.


Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining matematikadan o‘qishga tayyorligini ko‘rsatuvchi bir qator psixologik omillar mavjud. O‘quvchining shaxs sifatida rivojlanishi biologik, fiziologik, ijtimoiy-pedagogik, iqtisodiy omillarga bog‘liq. Bola shaxsining rivojlanishidagi omillardan biri – psixologik omildir.

Boshlang‘ich ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalari asosida matematika fanini o‘qitishda eng muhim vazifalardan biri sog‘lom avlodni shakllantirish va ularni o‘zining jismoniy hamda psixologik salomatliklarini asrab-avaylashga o‘rgatishdan iborat. Chunki bolaning ta’lim muassasasida qanchalik muvaffaqiyatli moslashuvi, xilma-xil faoliyat turlarini samarali amalga oshira olishi uning sog‘lomlik darajasi, fiziologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. AKT vositasida o‘qitish muhitida ham o‘quvchi nerv tizimining reflektor faoliyati hamda oliy nerv faoliyatining yoshga bog‘liq xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda mahsuldor pedagogik sabablarni turlicha asoslanishi ko‘zga tashlanadi: “ta’sir”, “harakat”, “sabab”, “omil”, “o‘zgaruvchanlik”, “parametr”, “funksional birlik”, ko‘rsatkich va boshqalar.[1]

Xalqaro didaktikadagi “o‘zgaruvchan didaktik jarayon” tushunchasiga o‘xshash tarzda hamkorlikda ishlash jarayoniga ta’sir etuvchi mahsuldor sabablar tadrijiy tavsifga ega ekanligi va mahsuldor sabablarning yirik birlashmalarini hosil qilishini isbotlashga muvaffaq bo‘ldik. Natijada, umumiy kompleks (yaxlit), asosiy (bosh), maxsus omillarni yuzaga keltiruvchi hamkorlikda ishlash jarayoniga ta’sir etuvchi mahsuldor sabablar aniqlandi.

Demak, ta’lim jarayoniga ta’sir etuvchi omillar – bu bir guruhga mansub ikki yoki undan ortiq muhim ahamiyatga ega mahsuldor sabablardir. Bir nechta didaktik omillardan tashkil topgan va yetarli miqdordagi mahsuldor sabablarni o‘zida aks ettirgan omillar umumiy omillar deb ataladi. Umumiy omillar va ulardan tashqari omillarning birlashmasidan kompleks (yaxlit) omillar hosil bo‘ladi.



1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik omillari.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonini belgilovchi psixologik omillar pedagogik faoliyatni tashxislash ham muayyan natijalarni qo‘lga kiritishga yordam beradi. Boshlang‘ich

[1] Конаржевский Ю.А. Педагогический анализ учебно-воспитательного процесса и управления школой. – М., 1997.

sinf o‘quvchilarida AKT vositasida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik omillari o‘rganilganda, ularda senzitiv, perseptiv, kinestetik, divergent jarayonlar jadallashganligining guvohi bo‘ldik (1-rasm). Tadqiqotda olib borilgan tashxislashdan maqsad – o‘qituvchilarning o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish faoliyatiga tayyorlik darajasini aniqlash hamda matematik kompetensiyalarni shakllantirishda AKTning ahamiyatini izohlash bo‘ldi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining matematikadan kompetensiyalarini ko‘rsatuvchi psixologik omillardan biri uning intellektual rivojlanishidir. Bu o‘rinda o‘qituvchining ijodkorligi katta ahamiyat kasb etadi.

Ijodkor, mustaqil fikrlovchi o‘qituvchilar hamkorlikka asoslangan o‘qitish muhitini tashkil etish uchun pedagogik faoliyatlarini izchil tarzda takomillashtirishga intiladi. Ular ta’lim-tarbiyaga oid yangiliklar, innovatsion texnologiyalar, ularning rivojlanish jarayonlari haqida o‘z qarashlarini bayon qiladi. Ijodkor o‘qituvchilar hamkorlikka asoslangan pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan barqaror munosabatlar bilan ajralib turadi.[2] Darhaqiqat, o‘z kasbiga nisbatan yuksak darajada muhabbat bilan yondashadigan o‘qituvchilar shaxsiy-kasbiy rivojlanishga kuchli ehtiyoj sezadilar. Bunday o‘qituvchilar pedagogik hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga astoydil harakat qiladilar.[3]

AKT vositalaridan foydalanishga asoslangan o‘quv-biluv jarayonini amalga oshirishga qodir bo‘lgan o‘qituvchi shaxsida quyidagilar mujassam bo‘lishi kerak: mazkur o‘qituvchilar O‘zbekiston Respublikasida ta’limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, AKT vositalaridan foydalanish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yondashuvlar va ularning asosiy parametrlarini yaxshi bilishlari; ta’limning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonining xususiy maqsadlari va hamkorlikda bajarishga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlarini tanlay olishlari; AKT vositalaridan foydalanish orqali o‘quv jarayonini o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va dialogga chorlash nuqtayi nazaridan yondashgan holda loyihalashtirishlari; AKT vositalaridan foydalanishga asoslangan o‘quv-biluv jarayonini samarali tashkil etish va boshqara olishlari; ta’lim jarayonini tashkil etishga oid zamonaviy pedagogik-psixologik bilimlar, axborot texnologiyalari bilan qurollangan bo‘lishlari lozim.

AKT vositalaridan foydalanishga asoslangan o‘qitish muhitida o‘quvchi shaxsiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi motivlar, ulardagi ijobiy va salbiy omillarni hisobga olishni muhim, deb hisoblaymiz.

AKT vositalaridan foydalanish asosida boshlang‘ich ta’limni tashkil etish prinsiplari o‘ziga xos jihatlarga ega. Bunday o‘ziga xosliklar sirasiga:

1. O‘quvchilarni faollashtiruvchi, rivojlantiruvchi elektron ta’limiy resurslarga ega bo‘lish. O‘quv materiallari AKT vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning ehtiyojlari, izlanishlari, xohishlariga mos kelishi, ularga har bir darsda yangi bilimlarga ega bo‘lish imkoniyatini berishi, axborot materiali yordamida o‘quvchilarning dunyoqarashi va tasavvur kengayishi, o‘quv materiallari tarkibiga elektron ta’limiy o‘yinlarning singdirilishi, o‘quv materiallari o‘quvchilar ma’naviyatini yuksaltirishi, ularni mustaqil va tanqidiy fikr yuritishga o‘rgatishi lozim.

2. O‘quvchilar shaxsiga nisbatan insoniy yondashuvni ta’minlash. O‘quvchilar

[2] Зеер Э.Ф. Профессионально-образовательное пространство личности: синергетический подход // Образование и наука: Изв. Урал. отд. РАО, 2003. - №5. - С.79-90.

[3] Назирова Л. Особенности эмоциональной сферы дисиффицильных детей 7-9 лет: Дисс… канд.психол.наук. Т., – 2001. – С.180..

bilan demokratik munosabatlarni o‘rnatish, shaxslararo do‘stona munosabatlarni o‘rnatishning muhim tamoyili bo‘lib, bunday munosabat o‘quv-biluv jarayoni samaradorligini ta’minlaydi. Bunday munosabat zamirida har bir o‘quvchini mustaqil shaxs sifatida tan olish, ularning huquqlarini hurmat qilish, his-tuyg‘ularini tushunish, ularning qarorlarini e’tirof etish va unga ishonish, o‘quvchilarning erkinliklari ta’minlanishi, a’lochilar bilan past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning huquqlarini tenglashtirish, ularning bir-birlariga ko‘makdosh bo‘lishlarini ta’minlash imkoniyati vujudga kelishi lozim.

3. AKT vositalaridan foydalanish asosida insonparvarlikka asoslangan hamjihatlik muhitini qaror toptirish. AKT vositalaridan foydalanish asosida insonparvar, demokratik, jamoaviy hamkorlik jarayonida o‘quvchilarda mustahkam bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ularga nisbatan muruvvat va mehr-muhabbat, sadoqat bilan munosabatda bo‘lish, ularni ezgu ishlarga ruhlantirish, hamkorlik, o‘zaro muomala va muloqotda pedagogik mahorat ko‘rsatish, o‘quvchilar orasida ijobiy muhitni qaror toptirish, ularning kamchiliklariga nisbatan bag‘rikenglik bilan bardoshli munosabatda bo‘lish lozim.

Pedagogik shart-sharoitlarga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematikaviy kompetensiyalarni AKT vositasida shakllantirish shart-sharoitlar quyidagilardan iborat: qulay psixologik muhitni, individuallashtirilgan muloqotlar yordamida o‘ta muhim munosabatlarni yaratish; ta’lim mazmunining axborotlashtirilgan muhitini boyitish; jamoaviy ijodkorlikka tayanish; o‘quvchiga individual yondashish asosida shaxsning rivojlanishini faollashtirish; ta’limni texnologiyalashtirish: ijodiy metod va masalalardan foydalanish asosida rivojlantiruvchi va innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish; iqtidorni rivojlantirish, shaxsning ijodiy rivojlanishini boshqarish masalalarida pedagoglar kompetentligi; iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitishda tadqiqotchilik, muammoli va evristik metodlarning ustuvorligi; o‘quvchilarni maxsus metodlardan foydalanish asosida ijodiy faoliyatga jalb etish; ijodiy qobiliyatning rivojlanishini tashxislash va korreksiyalash.

Rivojlantiruvchi ta’limning didaktik sharoitlariga quyidagilarni kiritish mumkin: matematikani empirik va nazariy idrok etish darajasining dialektik birligini ta’minlash; o‘quv materialini bayon etishning yuqori ilmiy-nazariy darajasi; ta’lim mazmuniga mos aqliy amallar asosida o‘qitish; alohida faktlarni o‘zlashtirishdagi o‘qitishning markaziy bo‘g‘inini umumiy bilimlarni o‘zlashtirishga o‘tkazish; mumkin bo‘lgan o‘rinlarda tezkor o‘qitish usullarini qo‘llash; yirik bloklar asosida o‘qitish; o‘qitishni yuqori maromda tashkil etish; o‘quv faoliyatning izlanuvchanlik xarakteri; o‘quvchi va o‘qituvchining hamkorlikda taqsimlangan faoliyati asosidagi muloqoti.

Bugungi kunda maktabda matematikani o‘qitishda rivojlantiruvchi ta’limni amaliy qo‘llash g‘oyasi o‘ta muhim hisoblanadi. Rivojlantiruvchi ta’limning matematikaga nisbatan qo‘llanilishining didaktik asoslari X.J.Ganeevning[4] “Matematikada rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish yo‘llari” nomli ilmiy izlanishlarida asoslab berilgan.

Tahlillardan kelib chiqib, biz keyingi tadqiqotlarimizga T.U.O‘tapov[5] tomonidan taklif etilgan o‘quvchilar matematik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi komponentlar strukturasini tahlil etdik. T.U.O‘tapov o‘quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish

[4] Ганеев Х.Ж. Теоретические основы развивающего обучения математике / Ганеев Х. Ж.; Урал. гос. пед. ун-т. - Екатеринбург: УрГПУ, 1997. – С.158.

[5] O‘tapov T.U. Matematika ta'limi jarayonida o‘quvchilarning matematik iqtidorini aniqlash va rivojlantirish metodikasi (umumiy o‘rta ta'lim maktablari va akademik litseylar misolida) // Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat.– Toshkent, 2008. –28 b.

muammolarini yechish ijtimoiy, psixologik-pedagogik va metodik jihatlarni hisobga olish bilan bog‘liq. Muammoning ijtimoiy jihati qobiliyatli va iqtidorli bolalarni o‘qitishga e’tiborni kuchaytirib, matematik qobiliyatlarini maksimal rivojlantirishga urg‘u berishdadir.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlaridan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, muammoning psixologik-pedagogik tomoni bizga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematikaviy kompetensiyalarni AKT vositasida shakllantirishning ichki mexanizmlarini ko‘rib chiqish, ularning tuzilishi, diagnostik xususiyatlari, shuningdek, matematik qobiliyatlarni rivojlantirish yo‘llarini va ularni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash imkonini beradi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematikaviy kompetensiyalarni AKT vositasida shakllantirishga qaratilgan, matematikani o‘qitishning muayyan usullarini yaratishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Конаржевский Ю.А. Педагогический анализ учебно-воспитательного процесса и управления школой. – М., 1997.

2. Зеер Э.Ф. Профессионально-образовательное пространство личности: синергетический подход // Образование и наука: Изв. Урал.отд.РАО, 2003. - №5. – С.79-90.

3. Назирова Л. Особенности эмоциональной сферы дисифффицильных детей 7-9 лет: Дисс…канд.психол.наук. Т., – 2001. – 180 б.

4. Ганеев Х.Ж. Теоретические основы развивающего обучения математике / Ганеев Х. Ж.; Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург: УрГПУ, 1997. — С.158.

5. O‘tapov T.U. Matematika ta’limi jarayonida o‘quvchilarning matematik iqtidorini aniqlash va rivojlantirish metodikasi (umumiy o‘rta ta’lim maktablari va akademik litseylar misolida) // Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. – T., 2008. –28 b.

Ozoda YADGAROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINI PROFESSIONAL-KOMMUNIKATIV FAOLIYATGA TAYYORLASH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini professional faoliyatga tayyorlashning pedagogik va psixologik tomonlari, Butunjahon Iqtisodiy forumida e’lon qilingan, 2020-yildan keyin mutaxassislardan talab qilinadigan 10 ta kasbiy sifat nomlari, professional (mutaxassis) shaxsining o‘ziga xos tomonlari va pedagog faoliyatining boshqa faoliyat turlaridan farqli jihatlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Professional (mutaxassis), professionalizatsiya (kasbiy shakllanish), professionalizm, kompetentlik, malaka, kasbiy yetuklik.

В статье описаны педагогические и психологические оссобенности подготовки будущих учителей английского языка к профессиональной деятельности, названы десять профессиональных навыков, необходимых специалистам после 2020 года, раскрыты особенности личности профессионала и отличия педагогической деятельности от других видов деятельности.

Ключевые слова. Профессионал, профессионализация (профессиональное становление), профессионализм, компетентность, квалификация, профессиональная зрелость.

The article describes the pedagogical and psychological features of preparing future English teachers for professional activities, identifies ten professional skills required for specialists after 2020, reveals the personality traits of a professional and the differences between pedagogical activity and other types of activity.

Key words. Professional, professionalization (professional development), professionalism, competence, qualifications, professional maturity.

Ma’lumki, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash murakkab va uzluksiz jarayon bo‘lib, uzluksiz ta’lim tizimi ularda kasbiy zarur bo‘lgan sifatlarni shakllantirmog‘i va professional faoliyatga tayyorlashi lozim. Bugungi taraqqiyot zamonida biror ishda muvaffaqiyat qozonish uchun oldingi asrdagi kabi bir sohada iqtidorli bo‘lishning o‘zi kifoya emas. Hattoki, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari ham faqatgina til ko‘nikmalarini (o‘qish ko‘nikmasi, yozish ko‘nikmasi, gapirish ko‘nikmasi, eshitish ko‘nikmasi) egallashlari yetarli emas. O‘z kasbining yetuk ustasi – professional bo‘lish uchun boshqa ko‘pgina malakalar ham egallanishi darkor. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 24-may kuni O‘zbekiston Milliy

universitetida oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuvi chog‘ida “...bizga miqdor emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa xorij tajribasini yaxshilab o‘rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratsa, o‘sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish eng muhim vazifamizdir. Iste’dodli yoshlarni izlab topish va ularni maqsadli tarbiyalash borasidagi ishlarni kuchaytirish kerak. Ilmni, tarbiyani to‘g‘ri qilsak, hamma sohalarni malakali mutaxassislar o‘zlari rivojlantiradi”, deb ta’kidlagan edi.[1] Demak, malakali kadrlar masalasi bugungi kunning dolzarb masalasidir, deb aytishimiz mumkin.

2016-yilning yanvar oyida Shvetsariyaning Daos shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon Iqtisodiy forumida 2020-yildan keyin mutaxassislardan talab qilinadigan 10 ta kasbiy sifat nomlari e’lon qilingan edi. Ular quyidagilar[1]:

1. Murakkab muammolarni ko‘p yechimli darajada hal etish (complex problem solving).
2. Tanqidiy fikrlash (Critical thinking).
3. Keng qamrovda ijodiy fikrlash (Creativity).
4. Odamlarni boshqarish (People management).
5. Odamlar bilan o‘zaro munosabat o‘rnatish (Coordinating with others).
6. Hissiy intellekt (Emotional intellest).
7. Qarorlar qabul qilish va xulosa yasash (Judgment and decision-making).
8. Xizmat ko‘rsatiluvchi auditoriya talablariga moslashish (Service orientation).
9. Muzokaralar olib borish (Negotiation).
10. Kognitiv moslashuvchanlik(Cognitive flexibility).

Ro‘yxatdan ko‘rinib turibdiki, 2020-yil va undan keyingi yillarda qaysi soha bo‘lishidan qat’i nazar bo‘lajak mutaxassislardan, asosan, kommunikativ malakalarni egallash talab etiladi. Chunki XXI asr axborot asri. Bu asrni ma’lumotlarni olish, uzatish, saqlash, qayta ishlash operatsiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Pedagogik va psixologik adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining professional-kommunikativ sifatlari murakkab integrativ fenomen sifatida o‘qituvchining ta’lim jarayoni boshqa qatnashchilari bilan aloqa o‘rnatishi, uni davomiy saqlab turishi va rivojlantirishini ta’minlovchi professional malakalari sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman, insoniyat evolyutsion taraqqiyoti davomida bir qancha bosqichlarni bosib o‘tgan: “homo habilis” (tik yuruvchi odam), “homo potentis” (uddaburon odam), “homo sapiens” (aql-zakovatli odam). Bizning davrimizni esa ko‘p tadqiqotchilar “homo loguens”, ya’ni so‘zlashuvchi odam deb nomlashni taklif qilishgan[2]. Chunki, har bir inson ma’lumot uzatish yoki uni qabul qilish jarayonidan chetda emas, bu esa o‘z navbatida professional-kommunikativ faoliyat ahamiyatini yanada oshiradi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari o‘qish faoliyati, mehnat faoliyati va muloqot jarayonida rivojlanadi. Mutaxassis shaxsi va faoliyatining o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’siri jarayoni dinamik xarakterga ega bo‘lib, bu jarayon fanda mutaxassis shaxsini shakllanishi muammosi doirasida o‘rganilgan. Bu muammoni o‘rganishning muhim nuqtasi “professional (mutaxassis)”, “professionalizatsiya (kasbiy shakllanish)”, “professionalizm”, “kompetentlik”, “malaka” va “kasbiy yetuklik” tushunchalari hisoblanadi.

[1] https://www.eduget.com/news/10_klyuchevyx_navykov_do_2020-go-909.

[2] Соловьева Эльвира Баязитовна. Формирование профессиональной коммуникативной компетентности будущего учителя иностранного языка: Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.08 : Магнитогорск, 2001 – С.156.

Bilimdon, madaniyatli, ma’naviy yuksak mutaxassis kadrlarni tayyorlash, inson salohiyatini yuzaga chiqarish har jihatdan ustozlarga, ularning bilimdonlik bilan o‘qitish jarayonini tashkil etishi va dars berishiga bog‘liq. Ustozlik qilish sharafli, lekin nihoyatda mashaqqatli ish. Ma’lumki, pedagog mehnati boshqa mehnat turlaridan o‘zining qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar, ayniqsa, pedagogning kommunikativ sifatlari va qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi. Jumladan, pedagog faoliyatdir:

1. Tabiatning eng buyuk mo‘jizasi bo‘lgan insonni o‘qitish va tarbiyalashga qaratilgan.

2. U o‘zida mutaxassis, pedagog, boshqaruvchi va tadqiqotchi shaxsini bir butun holda mujassamlashtiradi.

3. O‘qituvchi gapirib turib, o‘ylashni bilishi kerak. O‘qituvchilik kasbi, mehnati, mahoratining o‘ziga xosligi ham shunda. Dars berishda fikrlash, o‘ylash va gapirish jarayoni qo‘shilib ketadi. Avval o‘ylab olib, keyin so‘zlashga fursat bo‘lmaydi.

4. O‘qituvchining boshqaruvchilik faoliyati boshqa sohalardagi menejerlarnikidan katta farq qiladi. O‘qituvchining boshqaruvchi sifatida o‘ziga xos tomoni shundaki:

a) u har qanday muammoli vaziyatda yagona qaror qabul qiluvchidir. Demak, uning qanday qaror qabul qilishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Boshqarishning o‘zi turli-tuman chora-tadbirlarni ma’lum bir miqdor va nisbatda, zarur vaqt va ketma-ketlikda qo‘llash, yuzaga kelgan muammoning turli-tuman yechimlari orasidan nisbatan eng to‘g‘risini topib, qaror qabul qilish san’atidir;

b) o‘qituvchidan o‘z hissiy holatlarini boshqara bilish talab etiladi. Pedagogning o‘quvchi-talabalar bilan bo‘ladigan muloqoti rasmiy xarakterga ega bo‘lganligi sababli, u doimo ta’lim oluvchilarnigina emas, ota-onalar va jamoatchilik nazorati ostida ham bo‘ladi. Bularning hammasi bo‘ladigan mashg‘ulotga o‘zini psixo-fiziologik nuqtayi nazardan moslash, muloqot paytida o‘zining hissiy holatlarini boshqara olishini talab qiladi;

v) o‘quv jarayoni, ayniqsa, dars o‘tishda o‘quvchi-talabalarni boshqarishda, ularga axborotni yetkazishda, o‘rganilayotgan mavzuning mazmunini anglab yetishlarida mimika, pantomimika, ovoz ohangini o‘zgartirish, ko‘z qarashlari bilan ta’sir ko‘rsatish alohida o‘rin tutadi. Uning nigohi doimo ta’lim oluvchilarda bo‘lib, ularni diqqat markazida ushlab turishga intilishi, shu bilan birga turli darajadagi bilim, xohish va irodaga hamda tarbiyaga ega bo‘lgan o‘quvchi-talabalarni mohirlik bilan o‘ziga ergashtira olishi zarur.

5. O‘qituvchi loyihachi (rejalashtiruvchi), uni amalga oshiruvchi va baholovchini ham o‘zida gavdalantirishi bilan ajralib turadi. Loyihalash malakasi – ilmiy izlanish yoki o‘quv-tarbiya jarayonini modellashtirishning intellektual jihatidir. U o‘quv jarayonini samarali tashkil etishi uchun doimo darsni rejalashtirish, uni qanday amalga oshirish va baholashga diqqat qaratishi zarur. Buni “Methods for teaching” (O‘qitish metodlari) kitobi mualliflari alohida ta’kidlashadi[4]. O‘qituvchi loyihachi sifatida dars o‘tish loyihasini (rejasini), ya’ni texnologik xaritasini ishlab chiqadi. Uni dars jarayonida amalga oshiradi hamda baholaydi. Baholash bir tomondan ta’lim oluvchilarni baholash bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘z-o‘zini baholash, ya’ni o‘tilgan darsning ijobiy jihatlari va kamchiliklarini baholash tarzida kechadi. Tegishli ravishda qaror qabul qiladi va bu jarayon uzluksiz davom etadi.

6. O‘qituvchining butun pedagogik faoliyati nazariya bilan tajriba, fan bilan turmushning birligiga asoslanadi. Ta’lim-tarbiya qarama-qarshiliklarni qamrab olgan murakkab jarayondir. U bilmaslikdan bilishga, qisman bilishdan to‘liq bilishga, predmet,

obyektiv dunyoni bilishdan uning mohiyati, bog‘lanish qonuniyatlarini o‘rganishga qaratilgan jarayondir. Pedagogik jarayonning maqsadi nafaqat o‘quvchi-talabani tarbiyalash, o‘qitishni tashkil qilishdan, balki uning o‘qitish uslublari va ulardagi barcha munosabatlar tizimini aniqlashdan iborat. Bunday murakkab, mashaqqatli mehnat pedagogik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, o‘qituvchidan birinchi navbatda quyidagilarni talab qiladi:

- aqliy va jismoniy salomatlik;
- yuksak axloqiy va insoniy fazilatlar;
- kuchli va keng qamrovli bilim;
- metodik mukammallik va sayqallangan kasbiy mahorat;
- nutq madaniyati, notiqlik san’ati va imlo savodxonligi;
- muttasil o‘z ustida ishlash, malakasini oshirish va boshqalar.

Demak, uzluksiz ta’lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko‘ngildagidek o‘qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini hayot ko‘rsatib turibdi.

Qadimgi mashhur yunon faylasufi Aflotunning “Agar kosib yomon usta bo‘lsa, bundan davlat juda katta narsa yo‘qotmaydi – faqat xalq yomonroq kiyinadi, xolos. Lekin yoshlar tarbiyachisi agarda o‘z vazifalarini yomon bajarsa, u holda mamlakatda nodon, johil, bilimsiz va ahmoqlar toifasi vujudga keladi”, degan[3] fikrlari hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Соловьева Эльвира Баязитовна. Формирование профессиональной коммуникативной компетентности будущего учителя иностранного языка: Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.08 : Магнитогорск, 2001 – С.156.

2. www.dates.gnpbu.ru/2-7/ Platon/platon.html; http:// www.sno.pro1.ru/lib/jager/21.htm; http:// www.filosense.ru/ vzglyadi_platona_na_vospitanie-433.htm. – Из фундаментального сочинения Платона "Государство".

[3] www.dates.gnpbu.ru/2-7/ Platon/platon.html; http:// www.sno.pro1.ru/lib/jager/21.htm; http:// www.filosense.ru/ vzglyadi_platona_na_vospitanie-433.htm. – Из фундаментального сочинения Платона "Государство".

Bahriddin UMURZOQOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi kafedrasi
katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

FAXRUDDIN ALIY SAFIYNING "RASHAHOT" ASARIDAN TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH KONSEPSIYASI

(She'riy janrlar, tarbiyaviy va irfoniy asarlar misolida)

Annotatsiya

Maqolada XVI asrda yashab, o'zidan boy ilmiy meros qoldirgan yetuk manoqibnavis va tazkiranavis olim Faxruddin Aliy Safiy ibn Husayn Voiz Koshifiy Hiraviyning (1463–1533) ilmiy-adabiy merosining ilmiy va badiiy ahamiyati, xususan, uning Xoja Ubaydulloh Ahrorga bag'ishlab yozgan "Rashahot ayn ul-hayot" (Hayot bulog'i tomchilari) asari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. "Rashahot ayn ul-hayot", manoqib, she'riy janrlar, she'riy va badiiy san'atlar, husn-i ta'lil, adabiy ilmlar, bayon ilmi, tashbih, kinoyali tashbeh, muhoraza ilmi.

Это статья посвящена научному и литературному наследию ученого Фахр ад-Дина Али Сафи бин Хусейна Ваиз Кашифи Хирави (1463–1533), жившего в XVI веке и оставившего богатое научное наследие. В статье детально изучен авторский мастерства Фахр ад-Дина Али Сафи, как применения литературных наук на примере произведения "Рашахат айн ал-хайат".

Ключевые слова. "Рашахат айн ал-хайат", манакиб, илм-и адабий (поэтические жанры), поэтическое и художественное искусство, хусн-и таълил, литературные науки, илм-и байон (повествовательная наука), ташбих, ташбих-и кинойа (сатирический ташбих), илм-и мухараза.

The article is devoted to the scientific and literary heritage of the 16th century scientist Fakhruddin Ali Safi ibn Hussein Vaz Kashifi Hiravi (1463-1533), who lived in the 16th century and left a rich scientific heritage. "Drops of the Fountain of Life" is devoted to the study of the author's skill in the use of literary sciences on the example of a work.

Key words. "Rashakhot ainu-hayot", manokib, poetic genres, poetic and artistic art, khusn-i ta"lil, adabiy ilmlar (literary sciences), ilm-i bayon (narrative science), tashbih, kinoya-i tashbih (satirical tashbih), ilm-i muharaz.

XV asrning ikkinchi yarmi - XVI asrning boshi Hirotda ilmiy-adabiy maktablar gullab-yashnagan bir davrdir. Ba'zi tarixchi olimlar, tadqiqotchilar Hirot ilmiy-adabiy maktabining gullab-yashnashi hodisasini "Mirzo Ulug'bekning fojiali o'limidan keyin Samarqanddagi ilmiy muhit Boyqaro taxtga chiqqach, Hirotga ko'chdi", deya Husayn Boyqaroning saltanatga kelishi bilan, ya'ni Husayn Boyqaro shaxsiyati bilan bog'laydilar. Bu jarayon, ya'ni o'sha davrda temuriy podshoh Husayn Boyqaro boshqargan davlatning dor-as-saltanati

(saltanat poytaxti) bo‘lgan Hirotda ilm va ijodning gullab-yashnashi hodisasi bevosita Amir Nizomiddin Alisher Navoiyning mumtoz shaxsiyati, bir umrlik shaxsiy sa'y-harakatlari, oliy himmati, ilm-u ijod va san’at ahliga bo‘lgan yuksak e’tibori samarasi bo‘lgan edi. Xuddi shunday xayrli holat bugun yurtimizda ilmga, ilm ahllariga nisbatan o‘zgargan ijobiy e’tiborda o‘z aksini topmoqda. O‘sha davrda, haqiqatan, Hirotda adabiyot va san’atning barcha sohalarida ulkan yuksalishlar yuz berdi, madaniy-ma’naviy sohalarda ajoyib yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Haqiqatan, Nuruddin Abdurahmon Jomiy (vaf.897/1492) zakosi va Nizomiddin Alisher Navoiy (vaf. 906/1501) dahosi zamondoshlaridan ko‘pchilikning ulug‘vor ijodiy ishlariga sabab bo‘lgan. Alisher Navoiyning moddiy homiyligi, Abdurahmon Jomiyning ma’naviy rahnamoligi natijasida barakali ijod qilganlardan biri asli sabzavorlik bo‘lgan Mavlono Husayn Voiz Koshifiy (vaf. 910/1504) va uning o‘g‘li Faxruddin Aliy Safiy (vaf. 939/1532)dir.

Yetuk manoqibnavis, “Xojagon tariqati naqshbandiyya-ahroriyya suluki tazkirachisi”, deya ta’riflangan Mavlono Faxruddin Aliy Safiy, haqiqatan, o‘z davrining yetuk allomalaridan, mumtoz adabiyot vakillaridan biri hisoblanadi.

Uning ijodi dunyoviy va diniy ilmlarning turli sohalarini qamrab olganligi bilan ahamiyatli. Faxruddin Aliy Safiy asarlari, xususan, uning “Rashahot aynu-l-hayot” (“Hayot bulog‘i tomchilari”) asarida yuksak fazilatlarga ega bo‘lgan insonni tarbiyalash, yoshlarni sog‘lom e’tiqod va ma’rifat orqali keng fikr-mulohaza va tafakkurga, pok axloqqa targ‘ib qilish g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. “Rashahot” asari allomaning yirik hajmli mumtoz asaridir. Faxruddin Aliy Safiy Hiraviyga olamshumul mashhurlik olib kelgan asar ham aynan uning mana shu asaridir.

Shu nuqtayi nazardan, shoir va olimning o‘z ijodida tasavvufiy-irfoniy mavzuni qanday, qaysi manbalar asosida yoritgani, e’tiqodining asosini, ichki dunyosini nima tashkil etganini uning badiiy va diniy asarlari, xususan, “Rashahot” asari asosida ochib berish muhimdir. Alloma ijodkorning mazkur asarida adabiy ilmlar, badiiy va she’riy san’atlarni mohirona qo‘llaganini ko‘ramiz. Asarni adabiyotshunoslik yo‘nalishida chuqur tadqiq etgan holda mumtoz adabiyot darslarida ijodkor mahoratining mana shu jihatlari haqida so‘z yuritish katta ahamiyatga molikdir.

“Rashahot” asarida badiiy ifoda va talqin. “Rashahot” asari *manoqib* janrida yozilgan bo‘lib, hijr. 909 (mil. 1503-1504 yy.) yilda yozilgan. Asar – garchi Xoja Ubaydulloh Ahror Valiyga (1404-1490) bag‘ishlab yozilgan bo‘lsa-da, ammo unda Xojagon tariqatiga mansub uch yuzdan ortiq mashoyixning hayoti, faoliyati va so‘zlari tafsilotli keltirilganini ko‘ramiz. “Rashahot” xojagoniylar tariqati usul-odobi, qonun-qoidalari mukammal bayon qilingani bilan, haqiqatan, o‘ziga xos va betakror asardir. Xojagon tariqati asoslarini o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganlarga mazkur asar asrlar osha bir qo‘llanma vazifasini bajarib kelmoqda. Asar muqaddimasida bayon qilinishiga qaraganda, *qasovat-i qalb* (tosh qotgan ko‘ngil egalari, toshbag‘ir kimsalar)ni g‘aflat uyqusidan uyg‘otish yoki yuksak insoniy fazilatlardan mahrum bo‘lgani bois o‘lgan qalblarga ma’nan jon baxsh aylash maqsadida Aliy Safiy o‘z asari nomini “Rashahoti aynu-l-hayot*” - “Hayot bulog‘i tomchilari”* deb atagan. Asar oxiridagi “Omad “Rashahot”i mo kasiyr ul-barakot, Chun ob-i Xizr munfajir az ob-i hayot...”*(Barakalarga to‘la bo‘lgan bizning “Rashahot” asarimiz, Hayot bulog‘idan otilib chiqqan Xizr suvi edi...)* deb boshlangan ruboiy ham ana shu xususidan ochiq dalolat beradi.

Aliy Safiy ana shu maqsadda oliy tariqat, ya’ni Xojagon yo‘li haqidagi muhim ma’lumotlarni jamlagan va xojagoniy zotlar haqida mustaqil, yaxlit, betakror qomusiy

mazmundagi asar yozishga muvaffaq bo‘lgan.

“Rashahot”ga qadar ham tariqat shayxlari hayoti va faoliyatiga oid Aliy Safiyning zamondoshlari va hamshaharlari Mavlono Abdurahmon Jomiy (vaf. 898/1492) *“*Nafohat ul-uns min hadarot-il quds*”* (Qudsiy maqomlardan unsiyat epkinlari) asarini forsiyda, Alisher Navoiy (vaf. 907/1501) esa “Nasoyim ul-mahabba min shamoiy il-futuvva” (Ulug‘lik xushbo‘yliklarini taratuvchi muhabbat shabadalari) asarini turkiy tilda yozishgan. *“*Nafohat-ul uns*”* asari arab va ajam mashoyixi tazkirasi, “Nasoyim-ul mahabba” asarida esa, asosan, turkiy mashoyix tazkirasi hisoblanadi. “Rashahot” esa Xojagon mashoyixi manoqibi bo‘shlig‘ini to‘ldirgan yagona asar sifatida mustaqil ijod namunasi hisoblanadi. To‘g‘ri, “Rashahot”dan oldin ham manoqib janrida, masalan, “Manoqib-i Xoja Yusuf Hamadoniy”, “Manoqibi Xoja Abdulxoliq”, “Manoqibi Xoja Bahouddin” kabi ko‘plab asarlar yozilgan, ammo ularning barchasi bitta shaxs, ya’ni asosan, bitta shayx hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangani bilan xarakterlanadi.

Aliy Safiy asari muqaddimasi va undagi uch katta bob orqali uch yuzdan ortiq tarixiy shaxs – xojagoniy solih zotlar haqida g‘oyat qimmatli ma’lumotlarni tafsilotli bayon qilgan. Mana shu jihatdan ham “Rashahot” asari qomusiy ahamiyatga ega ilmiy-adabiy manba, she’riy janrlar o‘ziga xos tarzda qo‘llanilgan nasriy asar, manoqib janrining yetuk namunalaridan biri hisoblanadi.

“Rashahot”da she’riy janrlar. “Rashahot” asari mumtoz adabiyotimiz badiiy nasrining yetuk namunasi sifatida e’tirofga loyiq. Ammo undagi she’riy janrlar va san’atlar alohida tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganilmagan. Aliy Safiy iste’dodli shoir sifatida o‘z asarining shaklini va mazmunini boyitishda she’riy janrlar va san’atlardan unumli foydalangan.

“Muqaddima” qismida masnaviy janriga oid 6 baytdan iborat she’r o‘rin olgan. “Maqola” qismi turli janrlardagi 106 ta she’rdan tashkil topgan bo‘lib, ular jami 212 baytni tashkil qiladi.

“Muqaddima”da muallif qalamiga mansub 3 bayt (6 misra) mavjud bo‘lib, u masnaviy janrida yozilgan. “Maqola” qismida esa jami 107 ta she’r keltirilgan, bulardan 4 tasi g‘azal, 3 tasi qasida, qolganlari qit’a va ruboiy janrlarida yozilgan she’rlardan iborat. “Maqsad-i avval” deb nomlangan birinchi fasl (ya’ni, birinchi bob)da keltirilgan she’rlar soni 7 ta, baytlar soni 13 ta bo‘lib, ular jami 26 misrani tashkil etgan. Bu qismda o‘ndan ortiq shaxs vafotiga bag‘ishlab yozilgan ruboiy-she’rlarni ko‘ramiz. Ular “ta’rix” deb nomlangan. Bu “ta’rix” she’rlarining oxirgi misrasining oxirgi jumlasi yoki iborasi va yoki oxirgi so‘zi abjad hisobiga aylantirilsa (ya’ni, arabiy harf uning muqobili bo‘lgan, uni ifodalaydigan xos sanoq songa aylantirilsa), hosil bo‘lgan sanoq son o‘sha shaxsning vafot etgan sanasini ifodalaydi.

Aliy Safiy “Rashahot”da keltirgan “tarixlar” bu janrga tegishli ajoyib, g‘oyat chiroyli tarix namunalaridir. Masalan, Abdurahmon Jomiyning vafot sanasiga Qur’on-i karim oyati bilan “tarix” chiqarilganini ko‘ramiz: “...Va man daxalahu kona ominan!” (Oyati karimaning ma’nosi: Kimki uning ichiga, ya’ni Ka’ba-i muazzama – Masjid-i Haromning ichiga kirdi, demak, u har qanday xavf-xatardan omonda (bo‘ldi). Ushbu arabiy ibora abjad hisobi bilan hisoblansa, 1492 bo‘ladi. Bu Abdurahmon Jomiyning vafot sanasidir.

“Maqsad-i duvvum” deb nomlangan ikkinchi bobda mavjud she’rlar jami 47 ta bo‘lib, ular 94 baytdan iborat. Bu she’rlardan 6 tasi fard (bir misradan iborat she’r) janriga oid, qolganlar she’rlar qit’a va ruboiy janrlarida yozilgan she’rlardir. Bir misra she’r bilan bir katta qasida ma’no-mazmunni ifodalash mumkin. Xoja Ubaydulloh Ahror ko‘pincha fard aytish bilan biron shaxs haqida va yoki u yoki bu voqeaga o‘z nuqtayi

nazarini, fikrini bildirar ekan, buni fard aytib bayon qilish bilan kifoyalanganini ko‘ramiz. Bundan maqsad esa bir og‘iz so‘z bilan o‘z shaxsiy munosabatini, fikr-mulohazasini atrofidagi insonlarga bildirib qo‘yishdir. Masalan, “*Na’ra kamtar zan, ki nazdik ast Yor*” (Mazmuni: Kamroq na’ra tort, chunki Yor yaqiningdadir, ya’ni Alloh taolo sendan uzoqda emas. U senga ma’nan juda ham yaqindir. Hatto U sening shoh tomiringdan – jon tomiringdan ham senga yaqinroqdir!).

Va nihoyat “Rashahot”ning “Xotima” qismida she’rlar jami 2 tani tashkil qilgan. Ulardan birinchisi bu Mavlono Abdurahmon Jomiyning Xoja Ubaydulloh Ahror Valiyning vafotiga bag‘ishlab yozgan katta qasida-*marsiya* (ta’ziyanoma)sidir. Ikkinchi she’r Aliy Safiy qalamiga mansub “ta’rix” (ruboiy) bo‘lib, unda “Rashahot”ning tamomlanishi abjad bilan ifodalangan.

Aliy Safiy manoqibnavis va shoir sifatida “Rashahot” asarining matnida mazmun bilan bir qatorda badiiyatga, xususan, poetik mukammallikka ham alohida e’tibor bergan. Asarning uzoq muddatda yozilgani, ya’ni o‘n yetti yillik bir muddatda tamomlangani ham bunday muvaffaqiyatni ta’minlashga xizmat qilgan bo‘lsa, ajab emas. U nasrda balog‘at, fasohat usullarini o‘z o‘rnida va me’yorida qo‘llay olgan bo‘lsa, nazmda esa she’rning vazn, qofiya, radif kabi unsurlarini mohirona qo‘llash barobarida go‘zal badiiy shakl va san’atlardan ham unumli foydalangan.

Uning shoirona iste’dodi bilan birga abjad (arabiy harflar bilan son-sanoqni ifodalash ilmi) orqali tarix yozishda o‘ziga xos qobiliyat sohibi bo‘lganidan darak berib turadi. Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, birinchidan, Aliy Safiy o‘zining otasi Husayn Voiz Koshifiy kabi deyarli barcha asarlariga abjad hisobida maqtov va e’tirof etishga arziydigan “ta’rix”lar yozgan. Ikkinchidan, balog‘at va fasohat ilmlarini chuqur egallagan bu ijodkor “ta’rix” janrida she’r yozishlikda zamondoshlari va o‘zidan keyingi ijod ahli orasida ancha peshqadam bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu xususda biz yuqorida “Rashahot” asaridan misollar keltirdik. Binobarin, bu “Rashahot” asarida muallif uslubiga xos badiiy tasvir usullarini ikki guruhga (quyidagi guruhlarga) ajratish mumkin:

1. Aliy Safiy ijodi uchun xarakterli bo‘lgan ham ma’naviy, ham lafziy she’riy san’atlar “*Rashahot*” asarida ham o‘zining to‘liq ifodasini topganligi;

2. Bevosita “*Rashahot*” asarining ilmiy mazmunini yorqinroq ifodalashga qaratilgan badiiy san’atlarning o‘rinli qo‘llanganligi (husn-it ta’lil, jam’ va taqsim, laff-u nashr, nido, iqtibos, v.b.lar)dir.

Asarda qo‘llanilgan badiiy san’atlar. “Rashahot” asari muqaddimasida Aliy Safiy badiiy san’atlardan eng avvalo “Baroat-i istihlol”) san’atini mohirona qo‘llagan. Ya’ni, ijodkor o‘z asarini mohirlik, so‘zga chechanlik bilan boshlagan. Bunda uning muxotab (suhbatdosh, kitobxon)ning ilk boshdanoq diqqatini tortadigan, kalom (so‘z, gap)ga va umuman, asarga qiziqish uyg‘otadigan balog‘atli jumlalar tuzgani katta ahamiyat kasb etgan. Zero, *ibtido* (boshlanish)ning eng yaxshisi “*baroat-i istihlol”*ga ega bo‘lgan *kalom* (jumla)dir.

“Husni ta’lil”ning nima ekanligini anglashimiz uchun quyidagi ma’lumotga diqqat qilishimiz lozim bo‘ladi. Atoulloh Husayniy o‘z asari “Badoyi’u-s-sanoyi’”da quyidagi hikoyatni keltirgan: “Abu Muqotil Zarir quyoshning Mezonga o‘tar kuni bo‘lgan *Mehrjon* (ya’ni, Navro‘zga o‘xshagan kun, hosil bayrami)ning birinchi kunida o‘sha zamon hokimi bo‘lgan Do’iy Alaviy huzuriga kirib keldi va unga ushbu baytni o‘qidi:

Dema “Bir xushxabar!”, balki ikki xushxabardur:

Do’iyning aziz bo‘lgan kuni va mehrjon kuni(ning kirib kelishi).

Do’iy shoirning so‘zlaridan yomon fol oldi va “Ey, ko‘r (so‘qir)! Mehrjon kunini

shunday so‘zlar bilan boshlaydimi?” dedi. Ba’zilarning aytishicha, u shoirni tashqariga olib chiqib tashlashni va unga ellik tayoq urishni buyurdi va dedi: “Adab (uning aqlini kiritib qo‘yish, ya’ni jazolash) uni mukofotlashdan ko‘ra yaxshiroqdir”.

Ma’lumki, kalom (gap-so‘z) aytishdan biron maqsad bo‘ladi. Agar so‘zlovchi so‘zining avvalini shu maqsadga mos ravishda boshlasa, “*baroat-i istihlol”* san’atini qo‘llagan hisoblanadi. Arab balog‘atida bu san’atning bir turida maqsad to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmay, nozik ishoralar vositasida ifodalanishi ta’kidlanadi. “Baroat-i istihlol”ning bu turini ajam olimlari “husn-i ta’lil” yoki “husn-i ibtido san’ati” deb alohida nom bilan ataganlar.

Aslini olganda bu badiiy san’at, ya’ni “husni ta’lil” Qur’on-i karim uslubidir. Chunki Qur’on-i karim avvalida uning jamiyki maqsadiga ishora qilish bor. Masalan, barchamizga ma’lumki, Kalomulloh “Fotiha” surasi bilan boshlangan va ushbu muborak surada eng avvalo Islomga, ya’ni *tavhid* (Yaratuvchining yakka-yu yagonaligi) ga, so‘ngra Qur’on mavzulari (payg‘ambarlarning qissalari va hukm oyatlariga da’vat (chaqiriq) borligini ko‘ramiz. Qur’oni karimdagi barcha yuzlab tavhid oyatlari, ahkom va qissalarga nozik ishora “Fotiha” surasida mavjuddir.

Shunga ko‘ra, so‘zini “Fotiha” surasi bilan boshlagan kishi so‘zini Qur’oni karim bilan boshlagan bo‘lur. Chunki “Fotiha” surasi “Qur’onning onasi, asosi” haqida hadislar *vorid bo‘lgan* (rivoyat qilingan)dir. “Fotiha” deb nomlanishiga sabab ulug‘ sura bo‘lgani uchun, shuningdek, bu muborak sura Qur’onning avvali, ya’ni ochuvchisidir.

“Rashahot” asarining basmala va hamd, ya’ni “Bismilloh...” va “alhamdulilloh...” bilan boshlangani “*baroat-i istihlol”* san’atidan, boshqacha qilib aytganda *“husn-i ta’lil”* badiiy san’atidandir:

ar-Rahmon ar-Rahim Alloh taolo nomi bilan. Hamd, ya’ni maqtovlar bo‘lsin O‘zining muqaddas va qadim fayzi ila orif bandalarining qalblariga hikmatlar va haqiqatlarning tomchilarini yog‘dirgan Zot - Allohgakim,...

Aliy Safiy nafaqat “Rashahot”da, boshqa barcha asarlari avvalida ham badiiy san’atlardan ko‘proq “husn-i ta’lil”ni mohirona qo‘llaganini ko‘rish mumkin. Ammo “Rashahot” asarining avvalidagi “husn-i ta’lil” xuddi Abdurahmon Jomiy asarlari avvalida qo‘llanilgan *husn-i ta’lillar* kabi betakrordir. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkin: Aliy Safiy Hirot ilmiy-adabiy maktabining yetuk ustozlari - zabardast so‘z ustalari Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqa ijodkorlar bilan ijodiy musobaqaga kirishgan va natijada yaxshigina muvaffaqiyatlarga erisha olgan.

“Rashahot”da bayon ilmi. Nazm va nasrga o‘zgacha jozibadorlik bag‘ishlaydigan, asar muallifining ijodkorligini, adibligini belgilaydigan, qalam sohibining o‘ziga xos qobiliyat va uslub egasi ekanligiga dalolat beradigan narsalardan yana biri *bayon ilmi* hisoblanadi. Ijodkor bayon ilmining turlaridan unumli foydalana olsa, ana shunday muvaffaqiyatga erishadi.

“Rashahot” asarida ijodkor *tashbih, majoz, istiora, kinoya* kabi bayon ilmining turlaridan g‘oyat o‘rinli foydalanganini ko‘rish mumkin.

Tashbih. Bayon ilmining ilk turi hisoblangan tashbihning ilmdagi eng qisqa ta’rifi bu *bir narsani boshqasiga o‘xshatish*dir.

Aliy Safiy tashbih san’atini “Rashahot”ning muqaddimasida g‘oyat chiroyli o‘ziga xos uslubda qo‘llaganini ko‘ramiz. Masalan, u *“Hazrat Xoja Ubaydullohdan eshitishga musharraf bo‘lganim ma’noli gap-so‘zlardan baxtiyor bo‘lar edim va ularni quvva-i hofizada* (xotirada) *“Ka-amsoli-l-lu’lii-l-maknun”* (Sura-i Voqea, 22-oyat) *saqlar hamda*

parvarish qilur (ya’ni, unutib qo‘ymaslik uchun vaqt-vaqti bilan yod etib turar) *edim*”, deb yozgan. Ma’lumki, oyati karimada Jannat hurlari durga o‘xshatilgan, ya’ni Jannat hurlari xuddi quyosh nuri tegmagan, hatto begona ko‘zlar nazari tushmagan dur-marjonlar misolidir. Aliy Safiy esa Xoja Ubaydulloh Ahrorning so‘zlarini dur-marjonga o‘xshatmoqda. Bu o‘xshatish bag‘oyat balog‘atli va fasohatli uslubdadir. Ya’ni tashbihda yangicha uslub qo‘llash, demak.

Kinoyali tashbih. Balog‘at ustozlaridan Atoulloh Husayniyga ko‘ra, mazkur tashbihning ta’rifi bunday: “So‘zlaguvchi o‘z ko‘nglida bir nimani bir nimaga *tashbih* (o‘xshatish) qilur va kalomda *tashbih odotini* (ya’ni, o‘sha o‘xshatgan narsasini) keltirmas va mushabbahni (o‘xshatgan narsasini) mushabbah bih (o‘xshatilgani narsa) lafzi bila ta’bir etar”.

Kinoyali tashbihning eng qisqa ta’rifi mana bunday: mazkur tashbihda o‘xshatish va o‘xshovchi zikr qilinmaydi.

“Rashahot”da 130-baytda tashbihning kinoyali rukni qo‘llanilganini ko‘ramiz:

Bayt. *Bar oston-i irodat, ki sar nanihod kas-ye,*

Ki lutf-i do‘st ba ro‘yash darichash nakushud.

(*Mazmuni*: Kishi *irodat* (xohish, istak) ostonasiga qadam qo‘ymasa,

Do‘st lutfi uning yuziga darcha ochmaydi.)

“Rashahot”da adabiy ilmlar. “Rashahot” muallifi o‘z asarida adabiy ilmlarning o‘n ikki turi bo‘lgan lug‘at (so‘zning tildagi mutlaq jihati) ilmi, sarf (so‘zning o‘zgarishi) ilmi, ishtiqoq (so‘z yasalishi) ilmi, nahv (so‘zlarning gaplardagi tarkib qoidalari) ilmi, ma’oniy (balog‘at va fasohat) ilmi, bayon (tashbih, majoz, istiora, kinoya kabi uslublar*)* ilmi, aruz (nazm vaznlari) ilmi, qofiya (misralarning hamohang qilib tugatish qoidalari) ilmi, insho (turli maktub, risola, hujjatlar yozish qoidalari) ilmi, she’r farzi (she’rga baho berish ilmi, tanqid, baholash ilmi), muhoraza (tarixiy voqea va rivoyatlardan, salaflarning so‘z va adabiy asarlaridan o‘z o‘rnida oqilona foydalana bilish ilmi) va rasmu-l-xat (yozuv san’ati, harf shakllari va imlo bilimi)dan unumli foydalanilganini ko‘ramiz.

Asarda muhoraza ilmi (tarixiy voqea va rivoyatlardan, salaflarning so‘z va adabiy asarlaridan o‘z o‘rnida oqilona foydalana bilish ilmi)ga dalolat qiladigan yuzlab o‘rinlar mavjud. Bularning eng mukammali, shubhasiz, “Vasiyatnoma-i Xoja Abdulxoliq” risolasidir.

Toshkent, Tehron va Turkiya qo‘lyozma fondlarida “Vasiyatnoma-i Xoja Abdulxoliq”ning risola shaklida o‘nlab qo‘lyozma nusxalari mavjud.

“Vasiyatnomai Xoja Abdulxoliq” risolasi zamonaviy turk tiliga “Abdülhalık-ı Gücdüvanı Hazretlerının Nasıhatlerı” nomi bilan tarjima qilinib, nashr etilgan. Mazkur nashr nafaqat Istanbul qo‘lyozma fondlaridagi nusxalar asosida, balki “Rashahot” matni tarkibidagi “Vasiyatnoma-i Xoja Abdulxoliq dar Odob-i tariqat” asosida tarjima qilingani ma’lum bo‘ldi. Asarni ilohiyot fanlari doktori, prof. M.A.Jo‘shan zamonaviy turk tiliga tarjima qilgan bo‘lib, ushbu tarjimani doktor N.Yilmaz Turkiyada 2009-yilda qayta nashr ettirgan. Ushbu tarjima matnida vasiyatlar soni 36 tani tashkil qilgan.

Agar “Rashahot”dagi “Vasiyatnoma-i Xoja Abdulxoliq dar Odob-i tariyqat” asarning Eron qo‘lyozmasi matni, Turkiya nashri matni bilan qiyoslansa, asarning boshlanishi va tugashida, so‘z va iboralarida anchagina farqlar ko‘zga tashlanadi. Ammo bu uch vasiyatnoma ma’no-mazmun va mohiyat jihatidan bir xildir.

“Rashahot” matni tarkibidagi “Vasiyatnoma-i Xoja Abdulxoliq dar Odob-i tariyqat” esa quyidagicha boshlangan:

“*Hazrat (Xoja Abdulxoliq) tariqat odoblariga doir “Vasiyatnoma”ni o‘z ma’naviy*

farzandlari (suyukli shogirdi) Xoja Avliyo-i Kabirga – Alloh mozorini ziyoda nurlantirsin! – atab yozgandirlar, bu vasiyatlarda bisyor foydalar jamlangan bo‘lib, undan barcha solik va muridlarga ko‘pdan-ko‘p manfaatlar bor. Biz ham ajr-u savobga noil bo‘lmoq va muboraklanmoq umidi ila ularning bir qismini bu o‘rinda keltirmoqdamiz.

Rashha. Aytdilarki: Ey, o‘g‘ilcham! Senga ilmni, odobni va barcha holatda taqvo(dor bo‘lmoq)ni vasiyat qilurman. Doimo, sunnati mutoharaga ergashgaysan, sunnat va jamoat mulozimi bo‘lgaysan.

Ey, o‘g‘ilcham! Senga ilmni, odobni va barcha holatda taqvo(dor bo‘lmoq)ni vasiyat qilurman. Doimo, sunnati mutoharaga ergashgaysan, sunnat va jamoat mulozimi bo‘lgaysan. Fiqh va hadis o‘rgangaysan, johil sufiylarga aslo yaqin bormagaysan, ulardan uzoq bo‘lgaysan. Namozni har doim jamoat bilan ado qilgaysan. Shu shart bilanki, imom va muazzin bo‘lmagaysan...”.

Bu ikki matn bir-biriga qiyoslab ko‘rilganda, Turkiya nashridagi “Vasiyatnoma-i Xoja Abdulxoliq” risolasi “Rashahot” tarkibidagi risoladan tarjima qilinmagani ma’lum bo‘ldi. “Vasiyatnoma”ning turkcha tarjimasidagi vasiyatlar tartibi Eron nusxasi va Ramziy Kobuliy “Vasiyatnoma”sidagi vasiyatlarning ketma-ketligini eslatadi va ularning erkin tarjimasiga o‘xshaydi. “Vasiyatnoma”ning turkcha tarjimasi “Rashahot” tarkibidagi risoladan farq qiladi.

Risola nusxalarining tekstologik-matniy qiyos natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, “Rashahot” tarkibidagi “Vasiyatnoma-i Xoja Abdulxoliq dar Odob-i tariqat” risolasi Eron nusxasi, Ramziy Kobuliy “Vasiyatnoma” nusxalari qo‘lyozmalari va Turkiya nashridan hajman va lafzan va hatto, ma’no-mazmunan ham farq qiladi. Nazarimizda, Aliy Safiy “Vasiyatnoma”ni o‘ziga xos tarzda ixchamlashtirib, uni yangi bir badiiy ijod mahsuli shakliga keltirishga o‘z imkoniyati doirasida harakat qilgan va bunga erisha olgan.

Umuman olganda, mazkur “Vasiyatnoma-i Xoja Abdulxoliq” “Rashahot”da xuddi hikoyat ichida hikoyat tarzida keltirilgan bo‘lib, “Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy zikri bayoni” bobida qoliplovchi mazmun-mohiyat ifoda etganini ko‘ramiz. Aliy Safiy mana shu uslub bilan Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyning Xojagon tariqati odoblarini g‘oyat qisqa, ammo aniqroq, yorqinroq tarzda bayon qilishga muvaffaq bo‘lganki, “Vasiyatnoma-i Xoja Abdulxoliq” tilga olinganda, asrlar mobaynida mazkur “Vasiyatnoma”ning “Rashahot” tarkibidagi varianti keng istifoda qilib kelinganini, iqtiboslar aynan Aliy Safiy variantidan olingani ma’lum bo‘ladi. Bu holatlarning barchasi Aliy Safiyning tahriri ostida qayta tuzilganini, tartibga solingan “Vasiyatnoma” yangi bir ijod mahsuli bo‘lib dunyoga kelganini bildiradi.

Shunday qilib, Aliy Safiy “Rashahot” asari tarkibiga “Vasiyatnoma-i Xoja Abdulxoliq”ni kiritgan va uni “Vasiyatnoma-i Xoja Abdulxoliq dar Odob-i tariqat” deb nomlagan. Mazkur “Vasiyatnoma” mazmunini yanada yorqinroq ochib berishga diqqat qaratgan va o‘ziga xos badiiy uslubda uni bayon qilishga muvaffaq bo‘lgan.

“Rashahot” asarining tili arab, fors-tojik adabiy tillarining yuksak namunasi ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Bundan “Rashahot” muallifining o‘z asaridagi eng kichik xususgacha, masalan, har bir lafzga, ya’ni so‘zning tovush jihati, talaffuziga e’tiborli bo‘lganini anglash mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish o‘rinliki, Aliy Safiy bu ijod namunasini an’anaviy manoqib janrida o‘zining ijodiylik va yangilik yaratish qobiliyati bilan ro‘yobga chiqargan. Uning asarni yozishdan asosiy maqsadi Xojagon tariqati, xossatan, Xoja Ubaydulloh Ahror hayoti va faoliyati haqida mukammal asar yozish bo‘lsa-da, ammo bu tariqatga ixlos qo‘yganlar uchun Naqshbandiyya silsilasi tasavvufiy masalalarini o‘zida to‘la jamlagan

benazir qo‘llanma, agar ta’bir joiz bo‘lsa, qomusiy asar yozishga muvaffaq bo‘lgan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, uch katta bobdan iborat bo‘lgan bu asar bayonining bosh qahramoni muallifning o‘zi Uning tili puxta ishlangan. Ijodkor mavzu mazmunini to‘la-to‘kis ochib berish uchun ijod imkoniyatlaridan samarali foydalanganini ko‘rish mumkin. Bu o‘z navbatida ijodkorning asarda oldiga qo‘ygan vazifasini bajargani, uning tasavvufiy-ma’rifiy, badiiy-estetik maqsadini ushalganidan dalolat beradi. Asarda Xojagon mashoyixining, xossatan, Xoja Ubaydulloh Ahrorning hayoti va faoliyati haqidagi ishonchli ma’lumotlar bayoni Qur’oni karimdan keltirilgan oyatlar, hadisi shariflar, ruboiylar, qit’alar, misralardan keltirilgan holda bir-biri bilan chambarchas bog‘langan holda berilgan. Natijada, kitobxon rashhalar orqali mufassal ifodalangan Xojagon shayxlari hikmatlaridan ma’naviy oziq oladi. “Rashahot” asarining o‘z ichki ohangi, alohida o‘ziga xos ritmi borki, ular fikr va tuyg‘ular sil-silasini aks ettirishga yo‘g‘rilgan iste’dod, ijodkor ijodining o‘ziga xosligini ko‘rsatib turadi. Rashhalar tom ma’nodagi tasavvufiy-axloqiy va ma’rifiy ruhdagi asarning yuzaga kelishiga xizmat qilgan. Bu esa Aliy Safiyning asarda ko‘zlagan maqsadini belgilashda eng muhim, asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida yozilgan sufiyona yo‘nalishdagi asarlar – tasavvuf tazkiralari va manoqiblari orasida Aliy Safiyning “Rashahot” asari o‘zining yaxlit mavzusi, ilmiy tematikasining aniqligi bilan ajralib turadi, shu bilan bir qatorda Xojagon tariqatining naqshbandiya va yassaviya suluklariga bag‘ishlangan yaxlit tasavvufiy-ma’rifiy, ta’limiy xarakterdagi bu kabi boshqa biografik yirik hajmli asari ma’lum emas.

Aliy Safiyning mazkur asaridagi manoqib janriga xos bayon uslubi uning g‘oyaviy yetukligiga, maqsad nuqtayi nazaridan “Rashahot”da keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘ri va xolis yoritilishiga zamin yaratgan. Asardagi ma’rifiy, axloqiy-ta’limiy qarashlar birinchi galda komil inson bo‘lishga intilish, qalb pokligi, samimiyat, bag‘rikenglik, insonparvarlik va ezgulik tamoyili asosida bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘rta asr sharq allomalari ensiklopediyasi. – Samarqand, 2016. – 353-betlar.

2. Atoulloh Husayniy. Badoyi’u-s-sanoyi’. Forschadan Rustamov A. tarjimasi. –T.,1981. –253-254-betlar.

3. Юсупова Д. Ю. Жизнь и труды Хондамира. Ташкент, изд. ФАН АН РУз, 2006. – С.3.

4. Alisher Navoiy. O‘n besh tomlik asarlar. Xazoinul-ma’oniy G‘aroyibus-sig‘ar.1-tom, Nashrga tayyorlovchi H. Sulaymon. T.,1963. – 6-bet.

5. Rustamiy Aliybeg. Hazrat-i Navoiyning ma’naviy olami. – T., 2014.– 43-bet.

6. Rustamiy Salima. O‘rta asrlar balog‘at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. –T., 2019. – 94-bet.

7. Ziyouddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida poetika (Aruz, qofiya, badiiyat ilmi istilohlari tarixiga oid). –T., 2001. – 47-bet.

8. “Rashahot” , R.№ 33/2. 122 a sahifa. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi; Rashahotu aynil-hayot. Uchlanchi fasl. Xos so‘zlar bayoni. 32-rashha. –T., 2004. – 350-bet.

Gulzoda SOATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va
adabiyoti universitetining Adabiyotshunoslik
(Turkologiya) fakulteti, 2-kurs magistranti

O‘ZBEKISTONDA O‘RXUN-ENASOY YODGORLIKLARI TADQIQI (QOSIMJON SODIQOV VA NASIMXON RAHMONOV ASARLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada “Kul tigin”, “Bilga xoqon”, “To‘nyuquq”, “Irq bitik” asarlari umumturkiy, ayni paytda, o‘zbek adabiyotining tayanch manbalaridan biri ekanligi asoslanadi; O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini O‘zbekistonda tadqiq etgan turkologlar ishlari tematik tasniflanadi. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini O‘zbekistonda tadqiqi yuzaga kelishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj va ularning manbalari o‘rganiladi, bu tadqiqotlarning bugungi turkologiyadagi o‘rniga baho beriladi; o‘zbek turkologlarining ilmiy tadqiqotlari o‘zaro qiyoslangan holda tahlilga tortiladi, ularning turkologiyadagi tadqiqot tamoyillaridagi o‘xshash va farqli jihatlar ko‘rsatib beriladi; O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini O‘zbekistonda tadqiqi natijalarining hozirgi kundagi ahamiyatiga baho beriladi; Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqovlarning faoliyatlari asosida o‘zbek turkologiyasining shakllanishi va rivojlanishidagi xizmatlari ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar. O‘rxun-Enasoy, o‘zbek turkologiyasi, “To‘nyuquq”, “Kul tigin”, “Bilga xoqon” bitiglari va “Irq bitigi”, Turk xoqonligi.

“Кул тигин”, “Билга хакан”, “Тонюкук”, “Ирк битик” являются общетюркскими и в тоже время одним из основных источников узбекской литературы; Работы тюркологов, изучавших орхон-энасайских памятников в Узбекистане, тематически классифицированые; социальные потребности и источники, необходимые для изучения орхон-энасайских памятников в Узбекистане, будут подробно изучены, и роль этого исследования в современной тюркологии будет оценена; исследования узбекских тюркологов анализируются сравнительно, показывая сходства и различия в принсипах исследования в тюркологии; будет оценено текущее значение результатов изучения изучавших орхон-энасайских памятников в Узбекистане; основываясь на работах Насимхон Рахмонова и Касимжан Садикова, их вклад в становление и развитие узбекской тюркологии представлен на научной основе.

Ключевые слова. Орхон-Энасай, “Русская школа тюркологов”, узбекская тюркология, “Тонюкук”, “Кул тигин” надписи, “Билга хакан” и “Ирк битик”, Турецкое ханство.

“Kul tegin”, “Bilga khoqan”, “Tonyukuk”, “Irq bitik” are all-Turkic and at the same time one of the main sources of Uzbek literature; The works of Turkologists who have studied the Orkhon-Enasay monuments in Uzbekistan are thematically classified; The social needs and sources necessary for the study of the Orkhon-Enasay monuments in Uzbekistan will be studied in depth, and the place of this research in modern Turkology will be assessed; The researches of Uzbek turkologists are analyzed in a comparative manner, showing similarities and differences in the principles of research in Turkology; The current significance of the results of the study of the Orkhon-Enasay monuments in Uzbekistan will be assessed; Based on the

works of Nasimkhon Rakhmonov and Kasimjon Sodikov, their contribution to the formation and development of Uzbek Turkology is presented on a scientific basis.

Key words. Orkhon-Enasay, Uzbek Turkology, “Tonyukuk”, “Kul tegin”, “Bilga khogan” inscriptions and “Irq bitigi”, Turkish dynasty.

Dunyo turkologiyasida qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, ularni har tomonlama tadqiq etish, yangiliklarni ilmiy jamoatchilikka ma’lum qilish hozirda turkologiyaga katta hissa qo‘shgan olimlar ishlarini o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Natijada, turkologiyada yangi nazariy konsepsiyalar, qiyoslash orqali ilmiy xulosaga chiqarilib, ilmiy aloqalar va ilmiy yangiliklardan boxabar bo‘lishga erishilmoqda. Qadimda yaratilgan turkiy xalqlarga oid manbalarning ko‘pchiligi, umumiy, O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklari deb nomlanadi. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida xalq donoligi va tafakkuri namunalari – miflar, afsonalar, dostonlar, ertaklar, maqollar ming yillardan beri og‘izdan-og‘izga ko‘chib, yozma shakllarda bizgacha yetib kelgan. Ulardagi dunyo tuzilishiga oid tasavvurlar, olam, tabiat va sirli kuchlarga bo‘lgan munosabat doimo xalqimiz falsafiy qarashlari, badiiy tafakkuri, dunyoqarashini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Shuning uchun ham ushbu manbalar barcha turkiy xalqlar adabiyoti va san’ati, olam va odam munosabatlari ibtidosini o‘rganishda birlamchi manba hisoblanadi.

Sobiq sovet hukumati davri va mustaqillik yillarida, ayniqsa, O‘zbekistonda ham turkologiya sohasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Bu esa, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha tarixiy, madaniy, adabiy va san’at asarlari, jumladan, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish, tadqiq etish, ulardagi umumbashariy g‘oyalarni chuqur va atroflicha tahlil qilish yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda yuz berayotgan har qanday islohot, avvalo, badiiy adabiyot va madaniyatda o‘z ifodasini topadi. “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor”, – so‘zlari zamirida adabiyot va madaniyatning jamiyat hayotida muhim rol o‘ynashi to‘la namoyon bo‘ladi.[1]

Eramizning VI asrida O‘rta Osiyoda eftalitlar davlati hukm surayotgan bir davrda Oltoyda ko‘chmanchilarning bir davlati vujudga keladi. Bu davlat tarixda Turk xoqonligi nomi bilan mashhurdir. Turk xoqonligiga Bulg‘oriya, Hazar, Xorazm, Kidan va boshqa davlatlar qaragan.[2] Turk xoqonligi Sharqiy Turkiston, Yettisuv, So‘g‘diyona, Tibet, Togon kabi joylarni o‘ziga bo‘ysundiradi. Shuningdek, Shimoliy Xitoydagi obod o‘lkalar turk xoqonligining shiddatli hujumlari natijasida taslim bo‘ladi. Turk xoqonligi keyinchalik G‘arbiy va Sharqiy xoqonlikka bo‘linadi. Bu joylarda uyg‘ur, qarluq, basmil, so‘g‘d, turgesh, bolgar, hazar hamda ularga yaqin qirg‘iz, quriqan va boshqa shu kabi urug‘, qabilalar yashagan.[3]

O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi, madaniyati, san’ati, adabiyoti tarixida Birinchi va Ikkinchi turk xoqonliklari davri (VI-VIII asrlar) alohida o‘rin tutadi. Turkiylar o‘tmishining bu qadim davri hozirgi zamon tarix kitoblarida “ko‘k turk davri”, ulusning ijtimoiy-siyosiy uyushmasini esa “ko‘k turk xoqonliklari” deb ham yuritilmoqda. Bunga, odatda, “O‘rxun-Yenisey bitiklari” deb atab kelingan qadimgi turkiy yozma yodgorliklarimizda

[1] Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so‘zi. 2017-yil 4-avgust.

[2] Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – М.: Наука. 1967. С. 27.

[3] Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – М.: Наука. 1967. С. 27.

qo‘llangan “ko‘k turk” atamasi asos bo‘ladi.[4] O‘rxun - Enasoy yodgorliklarining topilishi va o‘rganilishi XVIII asrdan boshlandi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqda dastlabki xabarni beradi. Shved zobiti Logann Strallnberg, olim Missershmidt yodgorliklarni Yevropa ilm ahliga ilk marta taqdim qilgan edilar.[5]

Qadimgi turkiy til - turk xoqonligining shakllanishidan Qoraxoniylargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bular ichida eng mashhuri turk xonlari Kul tigin, Bilga xoqon va To‘nyuquq sha’niga qo‘yilgan qabr toshlariga yozilgan yodgorlikdir. Bu toshlar O‘rxun (Mo‘g‘iliston) va Yenisey daryolari bo‘ylaridan topilganligi sababli fanda “O‘rxun Yenisey yozuvlari” deb nomlanadi. Yodgorliklar topilgandan so‘ng ularni o‘qish, o‘rganish muammosi ko‘ndalang bo‘ldi. Ammo bu ish deyarli bir yarim asr mobaynida hech kimning qo‘lidan kelmadi. Nihoyat, 1893-yildagina ularni o‘qish uchun dastlabki qadam qo‘yildi. Shu yili Daniyalik olim Vilgelm Tomsen va rus olimi Radlovlar yodgorlikdagi barcha harflarni o‘qidilar. 1894-yil 19-yanvarda V.Radlov “Kultegin” sharafiga qo‘yilgan yodgorlikning tarjimasini e’lon qildi. Xuddi shu yodgorlikning tarjimasini 1899-yilda R.Millioranskiy ham berdi. Tosh bitiklarning katta qismi 545-yilda Yevropa va Sharqiy Osiyoni bog‘lab turuvchi “Buyuk ipak yo‘li”ning ustida Turk xoqonligining o‘ziga xos badiiy solnomasidir.[6]

Tosh va yozma badiiy bitiklarning topilishi turkiy adabiyot tarixida yangi davrni boshlab berdi. Jumladan, O‘zbekiston uchun ham. Markaziy Osiyoga arablarning kelishiga qadar yaratilgan yozma adabiyotni o‘rganishda O‘rxun va Enasoy daryolari yoqasidan topilgan toshbitiklar alohida ahamiyatga ega. Yodgorliklarni o‘rganish, albatta, o‘zbek olimlarining ham ustuvor vazifalaridan biri edi. Bu yodgorlikning topilish tarixi H.Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi”, B.To‘xliyevning “O‘zbek adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”(besh tomlik, 1-tom), A.Qayumovning “Qadimiyat obidalari” kabi asarlarda yoritilgan. O‘rxun va Enasoy bitiklari jahon turkiyshunoslari e’tibori qaratilgan nodir yodgorliklardandir. Qadimgi turkiy yozuvlarni B.Tompson, R.Radlov, S.E.Malov, R.Millioranskiy, S.G.Klyashtorniy, I.B.Stebleva, H.Orkun, T.Tekin, Najib Osim, G.Aydarov, o‘zbek olimlaridan A.Fitrat, O.Sharafiddinov, A.Rustamov, G‘.Abduraxmonov, E.Umarov, T.Salimov, N.Rahmonov, Q.Sodiqovlar tatqiq etishgan. H.Zarif, M.Saidov, B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov, A.Musaqulov, G‘.Akromov, J.Eshonqulov kabi ustoz olimlarimiz O‘rxun-Enasoy yodgorliklari tadqiqi haqida ko‘plab ishlarni amalga oshirganlar.

O‘zbekistonda turkolog olimlardan Qosimjon Sodiqov yodgorliklarning til xususiyatlarini va tarixiy, falsafiy tomonlarini o‘z asarlarida yoritgan bo‘lsa, nazariy va badiiy tomonlama esa Nasimxon Raxmonov asarlarida yoritib berdi. Umumturkiy ma’naviy me’rosimizni o‘rganishda ularning xizmatlari beqiyos.

Professor Qosimjon Sodiqov yodgorliklarning tilini, tarixini va falsafiy qarashlarini o‘rganib, ilmiy asarlar yaratish bilan bir qatorda O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini o‘zbekchaga tabdil qildi. O‘zbekistondan topilgan bitiklarga asoslanib, O‘zbekiston ko‘hna turkiy run yozuvlarining makoni bo‘lgan degan xulosaga keldi. Lo‘mbitepa va Surxondaryo, Farg‘onadan topilgan bitiklar haqidagi ma’lumotlarni o‘qiganimizda buning guvohi bo‘lamiz. Yodgorliklar tili, uslubiyati, dialektikasi, fonetikasi va morfologiyasini

[4] Sodiqov Q. Ko‘k turk bitiklari: matn va uning tarixiy talqini. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. 2004-yil. 3-bet.

[5] Кляшторный С.Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. – СПб.: Наука. 2006.

[6] Rahmonov N. Bitiglar olamida. – T.: Fan, 1990. 42-b.

o‘rgandi. Talabalar uchun muhim ahamiyatga ega asarlar va darslik kitoblar yaratib, O‘zbekistonda yangi turkologiyaning rivojiga katta hissa qo‘shdi. Falsafiy asarlarida esa yodgorliklarda aks ettirilgan bo‘ri va bolali arxar tasvirlari ma’nosiga keng tavsif berdi.[7] O‘tmishdagi ba’zi ko‘z qarashlarning ba’zi unsurlari bizda ham saqlanib qolganligini misollar bilan dalilladi.

“Ko‘kturk bitiklari: matn va uning tarixiy talqini” asari 2004-yilda yozilgan bo‘lib, asarda O‘rta Osiyo – ko‘k turk yozuvining beshigi ekanligi, O‘rxun obidalarining matni va tarixiy talqini, matniy-qiyosiy tahlili, ko‘kturklarning mashhur xoqon va sarkardalari keng va to‘liq yoritilgan. Ushbu kitobda ko‘k turk obidalari nomi bilan yuritilayotgan bitiglar tarixiy-matniy jihatdan tahlil etiladi. Bitiglar asosida ko‘k turk davri tarixnavisligining o‘ziga xos jihatlari, matn tuzish prinsiplari haqida bahs yuritiladi. “Tarixan ko‘k turk so‘zidagi ko‘k so‘zining “rang”dan tashqari “erkin, ozod; ildiz, tomir, asl” ma’nolari ham bor. Bitiglarda kechgan “ko‘k turk” nomida turklar o‘zagini tashkil etuvchi “asl turk”degan ma’no mujassamdir”[8] degan fikrlar asarda keltirilgan.

“Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi” 2006-yilda nashr etilgan bo‘lib, ushbu kitobda turkiy yozma yodgorliklarning materiali asosida o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va uning takomil bosqichlari, adabiy til tarixining eng eski – ilk va o‘rta asrlardagi holati haqida fikr yuritiladi. Eng ko‘hna hamda o‘rta asrlarda yaratilgan turkiy yodgorliklar asosida o‘zbek adabiy tilining shakllanishi, klassik adabiy tilning yuzaga kelishi, uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, asarda kiamnkch; ya’ni ikki odam umrini yashagin, u dunyoying ham obod bo‘lsin! deb yozilgan, qabrdan topilgan bir yoqlama tutqichli ko‘za haqidagi ma’lumot shu asarda uchraydi.[9] Shu o‘rinda, Qosimjon Sodiqovning O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining tadqiqiga bag‘ishlab yozgan asarlarini quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rgansak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining tilini o‘rganishga bag‘ishlangan asarlari: “Eski uyg‘ur yozuvi”, “Qadimgi turkiy yozuvlar” va “Qadimgi turkiy til” fanlaridan dars matnlari, “Ilk va o‘rta asrlar turkiy matnlari nomlarining izohli lug‘ati”, “Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi”, “Ko‘k turk bitiklari va ularning tarixiy talqini” nomli kitoblari, “Yozma yodgorliklarda ayrim undoshlarning taraqqiyot masalasi”, “Kul tigin, Bilga xoqon bitiklaridan o‘rin olgan “xoqon” so‘zining boshlamalari va yodnomalarning matn tuzilishi haqida”, “Kul tigin va Bilga xoqon bitiglarining matniy-qiyosiy tahlili”, “O‘zbekistonda topilgan ko‘k turk harfli matnlar”, “Turk-moniy diniy jamoalarida yaratilgan yozma manbalar”, “Tilshunoslikning dolzarb masalalari” nomli maqolalari O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining tilini o‘rganishga bag‘ishlangan.

2. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining tarixini o‘rganishga doir asarlari: “O‘zbek adabiy tili tarixidan”, “Uyg‘ur yozuvi tarixi”, “Turkiy matnnavislik tarixidan”, “Ko‘k turk bitiklari: matn va uning tarixiy talqini”, “Yozuv tarixi va kitobot san’ati”, “O‘zbek tili tarixi”, “Turkiy til tarixi”, “O‘zbek tilining yozma uslublari tarixidan” nomli kitoblari va “Kul tigin va Bilga xoqon bitiklari: tarixiy manbaning matn tuzilishi” nomli maqolalari O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining tarixiy tomonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

3. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini tadqiqiga bag‘ishlangan falsafiy asarlari:

[7] Eski turk falsafasi. Qosimjon Sodiqov. – T.: Sharqshunoslik instituti nashriyoti. 2008.

[8] Sodiqov Q.Ko‘k turk bitiklari: matn va uning tarixiy talqini. – T.: Sharqshunoslik instituti nashriyoti. 2004-yil.3-18-betlar.

[9] Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. – T.: Sharqshunoslik instituti nashriyoti. 2006. 3-4-betlar.

“Qadimgi turkiy xalqlarning diniy-falsafiy qarashlari”, “Sharq falsafasi” (“Qadimgi turkiy xalqlarning diniy-falsafiy qarashlari”) “Eski turk falsafasi” nomli kitoblari va “Qadimgi turklarning olam va uning tuzilishi to‘g‘risidagi ko‘zqarashlari” nomli maqolasi yozma yodgorliklarni falsafiy tomonlama o‘rganadi.

Professor Nasimxon Raxmonov ham O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining o‘rganilishi va O‘zbekistonda turkiy madaniyatni rivojlantirishda tinimsiz mehnat qildi. Yodgorliklarning turkiy eposlardan o‘sib chiqqan asar ekanligini isbotladi va yodgorliklarni o‘rganish asnosida o‘zbek xalqi o‘z tarixini o‘rganishni uzoq asrlardan boshlash kerakligi ta’kidladi. Turk xoqonligi madaniyatini o‘rgandi. Undagi shahzodalar Kul tigin, Bilga xoqon va maslahatchi To‘nyuquqning qahramonliklari, vatanparvarligi, xalq taqdirini o‘zinikidan ustun qo‘yish xislatlarini bizga uzoq o‘tmishdan qolgan meros dedi. Turkiy –run yozuvida bitilgan bitiklar O‘zbekiston hududidan ham anchagina topilganini, ularning ma’nolarini asarlarida ko‘rsatib berdi. Bugungi kunda O‘zbekistonning turli hududlarida istifoda etilgan barcha yozuvlarni yig‘ib, jamlab atlas nashr ettirishni ixtiyor etdi.[10]

“Toshga bitilgan kitoblar” nomli kitobida Kul tigin, Bilga xoqon va To‘nyuquq bitiktoshlarining yozilishi, yaratilish tarixi, joylashish o‘rni va o‘rganilishi haqida fikr-mulohazalar keltirilgan bo‘lsa, **“Bitiglar olamida”** kitobida esa yodnomalarning qahramonlari Bilga xoqon, Kul tigin va To‘nyuquqning qahramonliklari, shijoatli janglari tasvirlanadi. Tarixiy voqealar bilan birga badiiy ko‘rinishlar ko‘rsatib beriladi. Nasimxon Rahmonovning (Boqijon To‘xliyev bilan hammualliflikda**)** “O‘zbekistonning ko‘hna turkiy-run yozuvlari” 2006-yilda yozilgan bo‘lib, O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining mantiqiy davomi sifatida O‘zbekistondan topilgan turkiy-run yozuvidagi topilmalar haqida ma’lumot beradi.” Zotan, qadimiy yozuv madaniyati – shu xalqning kelib chiqishini va dunyo madaniyati tarixida tutgan o‘rnini belgilovchi asosiy omillardan biridir” deydi muallif ushbu kitobida.[11]

1991-yili “O‘rxun Yenisey yozma yodgorliklari va turkiy eposlar munosabati” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. “O‘rxun-Enasoy yodnomalari eposlardan o‘sib chiqqan asar”[12] (Raxmonov N. 1991: 44-48). Ushbu doktorlik ishda mana shu fikr har tomonlama targ‘ib qilinadi. “Qadimgi turkiy adabiyotdagi, ya’ni yodgorliklardagi folklorni, belgilashda keyingi davr adabiyotidagi folklor an’analarini o‘rganish metodikasini tatbiq qilib bo‘lmaydi. Qadimgi turkiy adabiyotda folklor an’analari degan tushuncha nisbiydir. Ko‘proq nisbiy adabiyot va folklor munosabatlari haqida gapirish o‘rinlidir. Ikkalasi boshqa-boshqa tushunchalardir. Chunki mualliflar bevosita turkiy eposlarga tayangan holda yozma adabiyot yaratadilar”[13], degan fikrlar tadqiqot ishida ilgari suriladi.

Nasimxon Rahmonovning O‘rxun-Enasoy yodgorliklari tadqiqiga bag‘ishlab yozilgan asarlarini quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rgansak, maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

1. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining badiiyligini, ya’ni adabiyotini o‘rganish uchun yozilgan asarlar: “Toshga bitilgan kitoblar”, “Inson ruhining sadosi”, “Bitiklar olamida”,

[10] Jupar Tanauova. “Turkologiya” jurnali. Turkiston 2018-yil.1-son. 7-bet.

[11] N. Rahmonov, B. Matboboyev. “O‘zbekistonning ko‘hna turkiy-run yozuvlari”. – T.: Fan nashriyoti, 2006.3-6 betlar.

[12] Raxmonov N. O‘rxun Yenisey yozma yodgorliklari va turkiy eposlar munosabati. – T., 1991-yil. 44-48b.

[13] Raxmonov N. “O‘rxun Yenisey yozma yodgorliklari va turkiy eposlar munosabati”. – T., 1991-yil.3-18b.

“Ko‘hna bitiktoshlar”, “O‘zbekistonning ko‘hna turkiy-run yozuvlari”, “O‘zbek mumtoz adabiyotining namunalari”, “O‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari” kabi kitoblarida yodgorliklarning ma’nosi, mazmuni, adabiy tomonlari o‘rganilgan. O‘z o‘rnida bu guruhning o‘zi ham ikkiga bo‘linadi:

a) O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining folkloristikasi: “Turkiy yozma adabiyot va og‘zaki epik an’analar munosabatiga doir” maqolasi, “O‘rxun Yenisey yozma yodgorliklari va turkiy eposlar munosabati” doktorlik ishi, Turkiy xalqlar sehrli ertaklarida evrilish (metamorfoza) va uning mifoligik syujetlar bilan munosabati “O‘zbek folklorshunosligining dolzarb masalalari” to‘plamida, “Folklorizm va mifologizatsiya – qadimgi turkiy adabiyot asosi” kabi ilmiy asarlari yodgorliklardagi folklor namunalarini o‘rganadi.

b) O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining nazariyasi: “Kultigin yodnomasi poetikasi” (“O‘lmas obidalar” tarkibida),” “Qadimiy hikmatlar”, “Kul tigin yodnomasida alliteratsiya”, “Kul tigin yodnomasida adabiy etiket” “Kultigin yodnomasida badiiy san’atlar” kabi ilmiy asarlari yodgorliklardagi nasriy va she’riy san’at turlari namunalarini o‘rganadi.

O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini o‘rganishda Qosimjon Sodiqov va Nasimxon Raxmonov asarlarini solishtirib o‘rganilsa, yanada qiziqarli ma’ lumotlarning guvohi bo‘lamiz. Buni quyidagi misol orqali ko‘ramiz. Ikkinchi turk xoqonligi davrida bitilgan “Irq bitigi” folnomasini har ikki turkolog o‘rganib, o‘zbekchada transkripsiyasini amalga oshirgan. Ammo, ikkala tabdilda ba’zi farqli jihatlarini sezamiz. Masalan “Irq bitigi” folnomasining 23-foliga e’tibor qaratamiz.

23-fol
Nasimxon Rahmonov tabdilida:
Yigit kakku qushining patini topib keldi,
Ko‘p qutlug‘ bo‘lsin der,
Shunday bilinglar yaxshidir bu[14]
Qosimjon Sodiqov tabdilida:
O‘g‘lon yigit kakku patini topib keldi,
Buni taqqan kelin qutli bo‘lsin der,
Bilinglarki – yaxshidir.[15]

Ko‘rinib turibdiki, ikki tabdilning umumiy jihatlari yigitning kakku qushining patini topib kelishi, u yaxshi alomat ekanligi bo‘lsa, farqli jihati patning topilishi qutlug‘mi yoki uni kelin taqishi qutlug‘mi? Qosimjon Sodiqov tadbilida kelin obrazi orttirilgan. Buni aniqlash uchun folning asl matniga e’tibor qaratamiz.

oqla n: ke kük: te z e kin: bultı: çuk: e tinq: kutluq: bolzun: tir: a nça: bilinqler: e dgü: ol:[16] Matn shunday ma’no anglatadi:

O‘g‘lon kakku patini topdi. Ko‘p xayrli va qutlug‘ bo‘lsin der. Buni bilinglarki – yaxshidir. Matnda kelin haqida gapirilmagan.

Turk-Ozarbayjon tadqiqotchilari Qo‘ybay Uluch, Aygun Husaynli, Dilbar Mahdya, O‘zjan Qir, Irona Ibraximova Jayron Sarxonboyevalar tomonidan 2013-yilda tabdil

14 Nasimxon Raxmonov.”Turk xoqonligi” kitobi. 1993-yil.Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti.

15 ”O‘zbekiston tarixi” xrestomatiya. 2-jild 1-kitobi.(O‘rxun Enasoy bitiklari Qosimjon Sodiqov tabdilida berilgan).

16 Turk va Ozarbayjon tadqiqotchilari Qo‘ybay Uluch, Aygun Husaynli, Dilbar Mahdiya, O‘zjan Qir, Irona Ibraximova, Jayron Sarxonboyevalarning “Irq bitigi” asari tabdili. 2003-yil. 47-bet.

qilingan, “Irq bitigi”ga yuzlansak, u yerda quyidagicha berilgan.

“Oğlan şahin təzəyi tapdı. Torağa, ətin mübarək olsun deyir. Belə bilinki, yaxşıdır”.[17]

Ya’ni: O‘g‘lon kakku patini topdi. Xayrli va qutlug‘ bo‘lsin der. Buni bilinglarki – yaxshidir. Matnda kelin haqida gapirilmagan.

Matnning asl matnida ham, turkcha-ozarbayjoncha “Irq bitigi”da berilgan folda ham kelin obrazi keltirilmagan. “O‘g‘lon kakku qushining patini topib keldi. Bu sizlarga muborak bo‘lsin. Buni bilingki yaxshidir” degan ma’no kelib chiqmoqda. Bunday farqli jihatlar folnomaning boshqa follarida ham uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari turkiy xalqlarlarning umummilliy badiiy merosi bo‘lib, o‘zida sodda, shu bilan birgalikda jo‘shqin, ozodlik, tinchlik va osoyishtalik uchun kurashuvchan hayotni aks ettiradi. Uzoq o‘tmishda yashab o‘tgan ajdodlarimizning yurtparvarligi, ozodlik uchun mardonavor kurashi, haqiqatparastligi hamda xalq farovonligi uchun jonini berishi bugungi davrda ham ardoqlanadigan fazilatlardir. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari tariximizning asosiy bir bo‘lagidir. Biz ko‘p yillar davomida bu tarixni bilmay keldik. Turkiy xalqlarning tarixini birinchi bo‘lib, nemis, rus, fin va boshqa davlat turkologlari o‘rgandi. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini topib, ular ustida tadqiqot olib bordi va fanga ma’lum qildi. O‘zbek turkologoyasi fidoiylarining tinimsiz mehnati va tafakkur ziyosi sabab uzoq o‘tmishimizdan boxabar bo‘ldik. Zeroki, tarixsiz kelajak yo‘qdir. Albatta, bu borada kelajakda hali ko‘p tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so‘zi. 2017-yil 4-avgust.

2. Radlov V., Melioranskiy P. “Amanat” jurnali. “Международный клуб Абая” Семей 2001. “Деревнетюркские памятники в кошо-цайдаме”.

3. Eski turk falsafasi. Qosimjon Sodiqov. – T.: Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2008.

4. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – М.: Наука. 1967.

5. Jupar Tanauova. “Turkologiya” jurnali. Turkiston 2018-yil.1-son.7-bet.

6. Кляшторный С.Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. – СПб.: Наука. 2006.

7. Qarjaubay Sartqoja o‘g‘li . Orxon muralari, 2003.

8. Raxmonov N. O‘rxun Yenisey yozma yodgorliklari va turkiy eposlar munosabati. –T., 1991-yil. 44-48 b.

9. Nasimxon Raxmonov. “Turk xoqonligi” kitobi. 1993-yil. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti.

[17] Turk va Ozarbayjon tadqiqotchilari Qo‘ybay Uluch, Aygun Husaynli, Dilbar Mahdiya, O‘zjan Qir, Irona Ibraximova, Jayron Sarxonboyevalarning “Irq bitigi” asari tabdili. 2003-yil. 47-bet.

Отажон СИРОЖОВ,
преподаватель Навойиского государственного педагогического университета

РАЗВИТИЕ ВАЛЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗКУЛЬТУРЫ

Аннотация

Maqolada kelajakdagi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish orqali valeologik kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar. Valeologiya, kompetensiya, axborot texnologiyalari, o'quv jarayoni, rivojlanish, kelajakdagi mutaxassis, sog'liq, diagnostika.

В статье освещается развитие валеологической компетентности будущих учителей физической культуры за счет внедрения информационных технологий в учебный процесс.

Ключевые слова. Валеология, компетентность, информационные технологии, образовательный процесс, развитие, будущий специалист, здоровье, диагностика.

The article highlights the development of the valueological competence of future physical education teachers through the introduction of information technology in the educational process.

Key words. Valeology, competence, information technology, educational process, development, future specialist, health, diagnosis.

Процесс приобретения валеологических навыков и компетенций у будущих учителей физкультуры объединяет объем знаний, необходимый для специальных видов деятельности будущего педагога. Валеология – изучение формирования, развития и сохранения физического и нравственного здоровья человека в течение всей его жизни. Поэтому, процесс активизации будущих учителей физической культуры на любом этапе обучения, зависит от таких компонентов, как учебная программа, выбор здоровьесберегающих технологий, методов, средств и содержание обучения. В то же время, на наш взгляд, данный подход в обучении несколько устарел, и процесс активизиции студентов должен начинаться не с разработки планов, а с проектирования информационного пространства, которое объединяет валеологическое знание личностного развития обучающихся.

В этом процессе проектирование учебного модуля является последовательным, полным, целеустремленным, профессионально ориентированным; систематизированным, где ведущая роль отводится для общеобразовательных результатов обучения.

Как известно, здоровье – динамическое равновесие организма человека и его функций с окружающей средой. Поэтому, так важно при использовании электронных образовательных ресурсов в учебный процесс, учитывать практические исследования в сфере валеологии.

Информационные образовательные технологии, направленные на развитие валеологической компетентности будущих учителей физкультуры имеет важное значение в профессиональном росте будущих педагогов. Как известно, информационные системы, банки данных, учреждения, организации, сайты преподавателей и студентов, центры информационных ресурсов, электронные информационно-образовательные ресурсы, виртуальные лаборатории, медиа и видео уроки, система электронного обмена документами, видеоконференции, которые являются отдельными компонентами современной информационной образовательной среды, онлайн-конкурсы в интранете делают всех участников системы активными пользователями.

Валеологическая компетентность будущих учителей физической культуры это результат не только физического развития, но и усвоения валеологических знаний, умений, проявляющихся в осознании важности здоровья, здорового образа жизни для всей жизнедеятельности на протяжении жизни, а также, способность и готовность личности контролировать своё самочувствие и состояние физического, психического развития будущих специалистов.

Валеологические компетенции будущих педагогов физической культуры – это *"*готовность к проектированию эколого-ориентированных здоровьесберегающих технологий для дальнейшего физического развития, поддержания функционального состояния систем организма на оптимальном уровне и совершенствования основных физических качеств; готовность работать с информацией о здоровье в научно-популярных изданиях и СМИ; готовность к практическому анализу различного рода рассуждений об эффективности традиционных, новых и инновационных оздоровительных технологий; сформированными навыками публичной речи, аргументации, ведения дискуссии и полемики по вопросам здоровьесбережения; готовность к подготовке и редактированию текстов лекций, статей СМИ для традиционных и виртуальных источников информации; готовность к организационно-управленческой работе при проведении спортивных мероприятий по различным видам спорта и для различных социально-демографических групп населения*"*. Следовательно, внедрение информационных технологий в современную систему образования требует решения ряда вопросов, а так же ставит перед обществом ряд задач, в том числе этику внедрения цифровых технологий, средства их защиты, правовые аспекты и другие требования.

Анализ показывает, что на сегодняшний день в ряде вузов республики существует необходимость создания электронно-мультимедийных ресурсов электронных образовательных ресурсов (ЭОР) для бакалавров по специальности "Физическая культура".

Принимая во внимание, что процесс приобретения навыков и компетенций валеологической компетентности у будущих учителей физкультуры сочетает в

себе объем знаний, необходимый для специальных видов деятельности, мы разработали образовательные электронные ресурсы (ОЭР), такие как “Что такое валеология?”, “Валеологический образ жизни будущего педагога”. Это создаёт возможность проведению и организации аудиторных и внеаудиторных занятий с помощью визуализации различных педагогических система.

Благодаря ресурсам электронного обучения студенты понимают, что духовное и психическое здоровье являются неотъемлемой частью развития каждого человека и тесно взаимосвязаны между собой. “Здоровье человека - это его здоровый дух, его отношения к людям, его адекватное отношение к событиям в окружающей среде”.

В рамках исследования мы сочли необходимым добавить в модель развития валеологической компетентности учителей физической культуры следующие компоненты:

1) применять контент-анализ, разбивая задачи на темы;

2) использование результатов визуализации для оптимального анализа;

3) определить способы решения проблемы при постановке задач.

В рамках исследования выявилось, что использование традиционных методов: словесных, демонстрационных и практических больше ориентированы для усвоения теоретических зананий, тогда как применение инновационных методов обучения значительно повышает уровень развития валеологической компетентности будущих учителей физической культуры. На экспериментальных занятиях нами были использованы технологии, благоприятно влияющие будущим учителmьям физкультуры развивать валеологическую компетентность. Это:

1. Каркасная технология (Marvin Lee Minsky);

2. Постепенное формирование психических движений (Гальперин);

3. Технологии перевернутой модели обучения (технологии Blended Learning: J.Graney, J.Bergmann, A.Sams, Overmyer Marshall).

Информационные технологии в образовании – это способ организации современной образовательной среды, основанный на цифровых технологиях.

Цифровые технологии развиваются с огромной скоростью. Использование цифровых технологий во всех областях жизни – одно из основных требований времени, продиктованных логикой мировых изменений в рамках 4-й промышленной революции.

Как известно, мир меняется, меняются способы работы, меняются цели и практики получения образования в нём.

Методы и результаты. Автоматизация, цифровизация, рост сложности общества, образование сетецентрических сообществ – вот далеко не полный перечень трендов развития современного общества. Как усовершенствовать процесс обучения и добиться более высокой успеваемости обучающихся? На сегодняшний день на помощь придут современные цифровые технологии. Одна из них – скринкаст (screencast) — цифровая видео- и аудиозапись, производимая непосредственно с экрана компьютера, также известная как video screen capture (досл. видеозахват экрана). При ее использовании студенты могут спокойно изучать видеоурок дома в свободное время и в комфортном для себя темпе. Если студент пропустил какое-либо занятие, то с помощью видеоуроков он с легкостью сможет нагнать пропущенные темы. На сегодняшний день существуют алгоритмы создания скринкаста (от записи до его сохранения) в программе Free

Screen Video Recorder, Windows Movie Maker (Виндовс Муви Мейкер) – популярной бесплатной программы, предназначенной для создания, редактирования и конвертации видео, и Microsoft Photo Story 3 для Windows, которая позволяет создавать видеозанятия с изображениями, звуком и музыкой.

Внедрение информационных технологий для развития валеологической компетентности будущих учителей физической культуры требует создания интеллектуальной системы с учетом основных особенностей, требований и показателей этой ссылки. Интеллектуальная система обычно определяется как программное обеспечение, которое способно формировать базу знаний на основе конкретной базы данных и развивать их взаимосвязи и, как следствие, необходимые рекомендации. Интуокулярные системы – это прежде всего экспертные системы, основанные на знаниях и базах данных.

Таким образом, внедрение информационных технологий для развития валеологической компетентности будущих учителей физической культуры создадут возможность получать помощь через консультации преподавателей с использованием различных средств телекоммуникаций: консультации в прямом эфире (YouTube, Skype); применению в учебном процессе кейсовой и интернет-технологий, электронных ресурсов, блогов, хранилищ и др. А так же, создают возможность иметь доступ к дистанционным образовательным технологиям: учебники с мультимедийными сопровождениями; электронные учебно-методические комплексы, компьютерные практикумы, контрольно-тестирующие комплекты, учебные видеофильмы, электронные тренажёры и др.

Внедрение информационных технологий для развития валеологической компетентности будущих учителей физической культуры раскрывают широкие возможности медиаграмотности студентов, т.е. грамотности в области восприятия, понимания, интерпретации текстов, умение как понимать и анализировать медиатексты, так и создавать их.

Использаванная литература:

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15 августа 2014 года,№ 234 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы переподготовки и повышения квалификации работников народного образования”. 09.10.2015.

2. Абдуллаева Ш.А. Вопросы разработки и внедрения программного обеспечения педагогической диагностики (на примере высших учебных заведений).Ж.: Образовательные ресурсы и технологии. – М.,2019;№3,(28).

3. Андрющенко Л.Б., Филатова Е.В. Валеологическая компетентность студентов/ международный журнал прикладных и фундаментальных исследований

Деменок В. В. Моделирование бизнес-инкубирования малых инновационных предприятий // Инновации. – 2008. - №3(113). – С. 65-67.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b:
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas’ul kotib:

Suyarova Lutfiya Muxitdinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay’ati:
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO‘RAYEV,
Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV, G‘ayrat SHOUMAROV,
Hikmatilla RASHIDOV, Shavkat SHARIPOV, Maqsudjon YULDASHEV,
Oynisa MUSURMONOVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Nargiza RAXMANKULOVA, Shaxnoza XALILOVA,
Muhammadjon QURONOV, Islom ZOKIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Qarshiboyeva Hilola Murtazayevna
© “Xalq ta’limi” jurnali, 2020.